7. Mosavi miangah, T. (2000). Lexical borrowing likely to be found in any language. From the standpoint of Persian. In proceeding of international conference on world culture through dialogue among religions and civilizations, 3-5 October 2000, Omsk, Russia.
8. Mosavi miangah, T. (2004). The role of translation in dialogue among civilizations. In proceeding of 1st International Conference on the Role of Language in the Dialogue among Civilizations, April 24th and 25th 2004, University of Isfahan, Iran.

9. Okamoto, M., Isbister, K., Nakanishi, H. and Ishida, T. (2002). Supporting cross-cultural communication with a large-screen system. *New Generation Computing*, 20 (2), Ohmsha, Ltd, and Springer-Verlag.
10. Sapir, Edward (1949). *Selected writings of Edward Sapir in language, culture and personality*. Ed. by David G. Mandelbaum. Berkeley.
11. Tehranian, Majid (2002). *Dialogue of civilizations for global citizenship*. University of Hawaii at Monoa. U.S.A.
12. Tokitsu Budo, K. (1998). *Beyond cultural barriers*. Conference given at the first "Paris Taikai". <http://www.TOKITSU.com/eng/nl.htm>.
13. Whorf, Benjamin Lee (1956). *Language, thought and reality: selected writings of Benjamin Lee Whorf*. Ed. by John B. Carroll. Cambridge, MA.
14. Wiersema, N. (2004). *Globalization and translation. A discussion of the effect of globalization on today's translation*. *Translation Journal*, Vol. 8, No. 1.

TILNI O‘QITISHDA TARIXIY METODLAR TAVSIFI

Shamsiyeva Marjona A‘lam qizi

(shmarjona306@gmail.com)

Uzbekistan State World Languages University

Translation Faculty

Department of English translation theory.

Master student on simultaneous interpretation

***Annotatsiya:** Ushbu tezisda chet tilini o‘qitishda foydalanilgan turli tarixiy metodlar va ularning foydalanish usullari, shuningdek kelib chiqishi, ahamiyati haqida so‘z boradi. Zamonaviy o‘qitish tizimida ularning o‘rni va samaradorligi tahlil va tanqid qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** Metod, metodologiya, tabiiy metod, grammatika-tarjima metodi, matn-tarjima metodi, tarjimasiz metod.*

Kirish

Metod atamasi uch tomonlama talqin etilishi mumkin, xususan, “yo‘nalish” — tarjima, to‘g‘ri, qiyosiy va aralash metodlar misolida, “o‘quvchi yoki muallim faoliyati usuli” va “o‘qitish sistemasi” ma‘nolarida foydalaniladi.. Chet tilini o‘qitish metodikasida “metod” terminining uchinchi ma‘nosi ushbu tezisning mazmunini tashkil etadi. Metodlardan foydalanish va til o‘rganish samaradorligini oshirishdagi ularning vazifasi uzoq o‘tmishga borib taqaladi, shuningdek ular ushbu kichik ilmiy tahlilda yoritib beriladi.

Tillarni o‘rganish bo‘yicha tarixga nazar

Tillarni o‘rganishga bolgan talab tarixi o‘tmishga borib taqaladi, ya‘ni turli qo‘shnichilik va savdo munosabatlari rivojlanishi turli xalqlarning tili, an‘analari va odatlarini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning yanada oshishiga zamin yaratgan. Madaniy va tijorat aloqalari jonlanishi bilan amaliy va ta‘limiy maqsadlar asosida chet tillari o‘rganila boshlandi. Sharq mamlakatlari misolida oladigan bo‘lsak arab, for, turkiyzabon xalqlar ushbu tillarning ikki yoki uchtasidan xabardor bo‘lishgan. Darhaqiqat, ko‘ptillilik yoppasiga an‘anaga aylanmagan bo‘lsada ziyolilar orasiga poliglossiya hodisasi keng tarqalgan. Jahon tarixida ma‘lum va mashhur bo‘lgan bobokalonlarimizdan bir necha o‘nlab tillarni bilgan Abu Nasr Farobiy, “algoritm” ilmiy terminining asoschisi Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy, qadimiy hind tili - sanskritdan arabchaga ilmiy kitoblarni erkin tajjima qilgan Abu Rayhon Beruniy,

zullisonayn shoir hazrat Alisher Navoiy, va ulardan keyin ham yashab, ijod qilgan ko'plab buyuk yurtdoshlarimiz chet tillarni bilish xosiyatini targ'ib va tashviq qilishgan. Xorijiy tillarni o'rganish masalalari metodika tarixida Osiyo va Yevropa qit'alarida ko'rib o'ganib chiqilgan. So'nggi ikki asr davomida g'arbiy Yevropa tillarini o'rganish metodikasi atroflicha ilmiy manbalarda tadqiq qilingan bo'lsada, sharq tillarini o'rganish tarixiga oid nufuzli ilmiy-metodik tadqiqot yaratilgan emas. Ammo dunyo bo'lab Osiyo-Yevropagacha bo'lgan hududlarda yashovchi xalqlarning chet til o'rganish tarixi bir necha o'n jildlik metodik asarlar yaratish uchun yetgulik va arzigulik ilmiy manbadir.

Chet tillarini o'qitishda qo'llanilgan tarixiy metodlar tasnifi

Chet tilini o'qitish tarixidagi to'rt nom bilan ma'lum va mashhur (*tarjima, to'g'ri, aralash va qiyosiy*) metodlarni ko'rishimiz mumkin. Ushbu metodlarga o'z ilmiy asarlari va o'quv qo'llanmalarida ta'rif-tavsif bergan metodistlar ularni o'sha davr chet til o'qitish tajribasiga ko'ra ma'lum darslik asosida ro'yobga chiqarishgan va turli ilmiy qarashlarida nazariy asoslab berishgan. Ushbu to'rtala metod bilan til o'rgatilganda ko'zlangan o'qitish maqsadlari, mazmuni va prinsiplari haqida so'z yuritib qisqacha ta'rif berib o'tiladi.

Tarjima metodi asosan ikki ko'rinishda: grammatika-tarjima va matn-tarjima metodlari nomi bilan ma'lum. *Grammatika-tarjima metodi* o'rganuvchining mantiqiy tafakkurini o'stirish va umumta'limiy maqsadida o'rganilgan, xususan turli grammatik mashqlar, grammatik bilimlarni bayon etish keng tus olgan. Ushbu metod bo'yicha sistemali grammatik nazariya asosiy o'rinni egallab tarjima matnlari grammatikani o'rganish uchun mo'ljallangan. Metodning asosiy prinsiplari sifatida: yozma nutqqa asoslangan til o'rganish jarayonini o'rganish predmeti qilib olish va mashqlar bajarishning asosiy ish usuli hisoblangan grammatika, avvalo grammatik qoidani yod olib so'ng qoidalar asosida gaplar tuzish, so'zma-so'z tarjima va quruq yodlash yo'li bilan til materialini o'zlashtirish, so'zlarni kontekstdan tashqarida, yakka-yakka yodlash bilan chegaralanishlarni ko'rsatish mumkin. Yaqqol ko'rinib turibdiki, mazmun e'tibordan chetda qolgan, til rasmiy jihatdangina o'rganilgan va shuning uchun bu metod sintetik metod deb ham yuritilgan. *Matn-tarjima metodi* tarafdorlari yaratgan o'quv qo'llanmalarida tarkiban tilga mos bo'lsada mazmunan o'zaro qovushmaydigan gaplar, ya'ni „sun'iy“ tilga duch kelinadi. Ushbu metodning maqsadi ham umumiy ta'lim berishga qaratilgan bo'lsada e'tibor grammatika-tarjima metodidagidek mantiqiy tafakkurni emas, balki til o'rganuvchining umuman aqliy rivojiga qaratilgan. Matn-tarjima metodining prinsiplariga: yozma nutq asosida chet til o'qitish, ko'p hollarda asl nusxadagi matndan foydalanish, matnni o'rganishdagi analiz qilishga ko'p kuch va vaqt sarflash, so'z va grammatik shakl ma'nosini ochishda tarjimaga tayanish, til materialini tarjima va yod olish orqali o'rganishni ko'rsatish

mumkin. Ushbu metodni ayrim adabiyotlarda leksika-tarjima metodi termini sifatida uchratish mumkin. Grammatika-tarjima metodiga nisbatan matn (leksika) tarjima metodi birmuncha ilg'or metodik sistema hisoblanadi. Chunki tilni aks ettiruvchi matnlarni o'rganishdek hayotiy zaruriyat paydo bo'lib grammatikani quruq yodlashdan voz kechildi. Hozirgi chet tili o'qitish amaliyotida ham tarjima metodlarining ba'zi usullaridan samarali foydalaniladi, til hodisalarini tahlil qilishda va ular ma'nosini ochishda tarjima va kontekstdan foydalanishsamaradorligi yanada o'stirilmoqda.

Tarjimasiz metod. Mazkur metodning turli ko'rinishlari tarixdan ma'lum bo'lib, ikki yirik guruhga: tabiiy va to'g'ri metodlarga ajratish mumkin. Metodning asosiy maqsadi chet tilda gapirishni o'rgatish, chunki kundalik hayotiy mavzularda gapirish orqali o'qish va yozishni o'rganib olishga keng yo'l ochiladi degan g'oya asl maqsad sifatida shakllangan. Tabiiy metod tarkibidagi shartlarning eng muhimi - til muhitini yaratish hisoblanadi. Metod namoyandalarining faoliyatida bu yaqqol namoyon bo'ladi, xususan M. Berlits metodi (M. Delphinus Berlitz) - Amerika Qo'shma Shtatlarida 1878- yilda¹ chet til o'qitish kurslarida tashkil etilgan va darsliklar chet til o'qitish metodikasi tarixida ushbu atoqli metodist olim Yevropa tillari va ayrim sharq tillari darsliklarini yaratgan. Uning xususiyatlariga til materiali tarjimasiz tushunish, so'z bilan narsa (hodisa, harakat)ning bevosita bog'lanishi, grammatik tushunchalarni kontekstda ong ishtirokisiz ona tili bilan qiyoslamasdan idrok etish, muallimga taqlid qilish orqali tilni mustahkamlash, ona tilining chet til o'rganishda ishtirok etmasligi, til hodisalari (leksik va grammatik birliklar)ning ma'nosini narsa, tasvir, xatti-harakat, sharhlash yordamida izohlash, berilgan materialni avvalo og'zaki taqdim etish kabilarni kiritishimiz mumkin.

F. Guen *tabiiy metod* vakillaridan hisoblanib, chet tilni ona tili singari amaliyotda egallash tarafdori bo'lgan va metodikada ilk bor leksikaning mavzular (uydagi hayot, maktab, jamiyat, tabiat) bo'yicha tasnifini yaratgan. Chet til o'rgatishda turli farqli metodik qonun-qoidalarni taklif qilgan. Ularga insonning o'z ehtiyojidan kelib chiqib til o'rganishi, so'z emas, balki gapni o'rgatish birligi qilib tanlash, og'zaki nutqni asos hisoblash kabilarni kiritish mumkin. F. Guen o'z sistemasida chet til lug'at boyligini uchta asosiy toifaga bo'lib chiqadi: obyektiv, subyektiv va ifodali tushunchalarni bildiruvchi so'zlar. Birinchi guruhga obyektiv dunyoga oid tushunchalar, xususan, hayot, jamiyat, tabiatga tegishli so'zlar; ikkinchisida inson ruhiga taalluqli so'zlarni ko'rsatib o'tadi.

XULOSA

Turli jamiyatlarda til o'rganish muhim soha hisoblanadi va muloqot vositasi hisoblanmish til tabiiy oila, jamoatchilik muhitida yoki uyushgan holda dars

¹ Adrian Dorff. Teach English. A training course for teachers.

jarayonida amaliy egallanishi mumkin. Til hodisalariga taalluqli bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganib chiqilib uni yanada tez, ravon o'rganish maqsadida olim va mutaxassilar tomonidan turli metodlar ishlab chiqish tarixga borib taqaladi. Ushbu metod;ar o'z davrida eng ilg'or hisoblansada vaqtlar o'tib jamiyat ehtiyojining o'zgarishi sabali eskrihi yoki o'z samaradorligini yo'qotishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jalolov J. Ingliz tili o'qitish metodikasi. Toshkent "O'qituvchi"
2. Xoshimov O.X. Ingliz tili o'qitish metodikasi.
3. Adrian Dorff. Teach English. A training course for teachers. Cambridge. University Press 1988
4. Рогова Г.В. Методика обучения английскому языку. «Просвещение» 1997 год

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA TO‘GARAKLARNI TASHKIL ETISH

Ne‘matova Munajat
JDPU magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etishning samarali usullari hamda afzalliklari yoritilgan. Ona tili darslarida tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar turi keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, o‘qituvchi, o‘quvchi, to‘garaklar, o‘yin, uslub.

Abstract: This article describes effective methods and advantages of organizing extracurricular activities in initial language lessons. Mention is made of the type of extracurricular activities organized during native language classes.

Key words: extracurricular activities, teacher, student, clubs, game, style.

Аннотация: В данной статье описаны эффективные методы и преимущества организации внеклассной деятельности на начальных уроках языка. Упоминается вид внеклассной деятельности, организуемой на занятиях по родному языку.

Ключевые слова: внеклассная деятельность, учитель, ученик, кружки, игра, стиль.

Sinfdan tashqari ishlarning ona tili darslari uchun maqsadi-o‘quvchilarning ona tili fanidan olgan bilimlarini yoki past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning bilimini yanada mustahkamlab olishdan iborat. O‘quvchilarga nafaqat ona tili va o‘qish savodxonligi fanidan emas, balki tarbiyaviy jihatdan ham bilim berib borishdan iborat. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida, aynan, ona tili darslarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning tashkil etilishi erkin va mustaqil fikrlash qobiliyati, atrof olamdagi jamiyatning qonunlarini o‘rganib borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quv dasturi bilan bog‘liq holda bo‘lib, uning vazifasi va maqsadini amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish jarayonida o‘qituvchining o‘quvchilar bilan hamohanglikda tushiniladi darsdan tashqari vaqtda tashkil etilgan jarayonda o‘quv-reja asosida rejalashtirilgan mashg‘ulotlar.

Bugungi kunda maktablarning boshlang'ich sinflarida o'qituvchilar tomonidan amalga oshirilayotgansinfdan tashqari mashg'ulotlar dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar ham tarbiyaviy, ham ta'limiy bilim berish bilan birgalikda o'quvchilarning hozirgi davr talabiga mos keladigan holda tayyorlash, ayniqsa, bolaning psixologiyasi va yoshiga mos holda tashkil etish kerak.

Ona tili darslarida sinfdan tashqari mashg'ulotlar bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirish, o'quvchilarning ma'naviy bilimni oshirishga qaratilgan.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning bo'sh qolmasliklari, ona tili faniga bilan qiziqishlarini nazarda tutgan holda tashkil etish o'quvchilarning tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari mashg'ulotlarni quyidagicha turlarga ajratishimiz mumkin:

- to'garaklar tashkillashtirish;
- yozuvchi va shoirlar bilan uchrashuvlar;
- fanlardan olimpiadalar o'tkazish;
- ko'rik tanlovlari tashkillashtirish;
- adabiy kechalar o'tkazish;
- ekskursiyalar uyushtirish;
- tadbir va bayramlar rejalashtirish;

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ko'proq to'garaklari ona tili darslari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar dars jarayonida o'zlashtirilmagan mavzularini qaytadan mustahkamlab olishadi va dars jarayonidagi egallagan bilimlarni kengaytiradi. Sinfdan tashqari ishlarni amalga oshirish doirasida sinf rahbarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Mashg'ulot paytida o'qituvchi har bir o'quvchi bilan shug'ullanishi, uning fikrlashi, o'z nutqini bayon eta olishi, ichki dunyosi kechinmalari barcha xislatlarini o'rganishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda Ona tili fanidan sinfdan tashqari ishlar bosqichlari:

1. Tayyorlov bosqichi. Bu 1-sinfning savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Unga darsning bir qismi 17-20 daqiqasi ajratiladi.
2. Boshlang'ich bosqich. Bu 1-sinfning 2-yarim yilligiga to'g'ri keladi. Bu bosqichda haftada 1 marta 45 daqiqalik dars uyushtiriladi.
3. Asosiy bosqich. Bu bosqich 2-4-sinflarga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilarning o'qish malakalari mustahkamlanadi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar sinf rahbarining yillik ish rejasi tarkibiga kiritiladi. Ushbu reja asosida ikki haftada bir marta to'garaklar tashkil qilinadi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida, aynan, pedagogik jarayon kabi ta'lim berish va tarbiyalash

faoliyatida har biri o'zining ahamiyatiga ega sanaladi. Ta'lim olish jarayonida o'quvchining egallagan bilimlar ba'zasi, o'qish ko'nikmasi rivojlantiriladi. To'garak mashg'ularda o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorlikda bir-biriga munosabatlarining shakllanganligi muhim omil sanaladi.

ADABIYOTLAR:

1. K.Qosimova, S.Matchonov. "Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent 2009.
2. M.Nurmatova. Ifodali o'qish to'garagi. "Til va adabiyot ta'limi" 2018-yil. 1-son.
3. Ne'matova M. Sinfdan tashqari ishlarda Grammatik o'yinlar "Ta'limda filologiyani rivojlantirishning global masalalari" Jizzax 2022.
4. Natlib.uz
5. Arxiv.uz

IQTIDORLI BOLALARNING KOMMUNIKATIV VA TASHKILOTCHILIK XUSUSIYATLARI PSIXOKORREKSIYASI

Abdullayeva Zuhro Ismoilovna

Termiz davlat universiteti Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada iqtidorli o'quvchilarda tadqiqot ishi olib borildi. Ko'pchilik olimlar uchun, masalan, rus olimlari uchun qobiliyatni o'lchashning ishonchli mezonlari - bu shaxs yutuqlarini va uning qobiliyatidagi o'zgarishlarni bevosita faoliyat jarayonida qayd etishdir. Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu-zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq.

Kalit so'zlar: *Psixologiya, aql va idrok, muloqot, iqtidor, shaxs, tadqiqot, ijtimoiy-psixologik, qobiliyat, shaxs.*

Kirish. Odamlarning o'quv, mehnat va ijodiy faoliyatidagi o'ziga xoslikni tushuntirish uchun psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va iqtidor masalasiga murojaat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o'sha insonning o'zi ham qilgan har bir harakatidan o'zi uchun naf ko'radi.

Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu-zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib yetishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi. Olimlar qobiliyatlarning rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga, ishonchli metodikalar yaratib, har bir kishining aqli sifatiga aloqador bo'lgan ko'rsatgichni o'lchashga uringanlar. Ko'pchilik olimlar odam intellektida uning verbal (ya'ni so'zlarda ifodalanadigan), miqdoriy (sonlarda ifodalanadigan), fazoviy ko'rsatgichlarni aniqlab, ularga yana mantiq, xotira va hayol jarayonlari bilan bog'liq jihatlarni ham qo'shganlar.

Ch. Spirmen faktorial analiz metodi yordamida yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatgichlar o'rtasida bog'liqlik borligini isbot qilib, aqlning haqiqatan ham murakkab tuzilmaga ega bo'lgan psixik xususiyat ekanligini ko'rsatdi. Boshqa bir olim Dj. Gilford esa aqlni bir qator aqliy operatsiyalar (analiz, sintez, taqqoslash, mavxumlashtirish, umumlashtirish, sistemaga solish, klassifikatsiya qilish) natijasida

namoyon bo'ladigan xususiyat sifatida o'rganishni taklif etgan. Bu olimlar aql so'zidan ko'ra intellekt so'zini ko'proq ishlatib, bu so'zning o'ziga xos talqini borligiga e'tiborni qaratganlar. Chunki ularning fikricha, intellektual potensialga ega bo'lgan shaxsnigina qobiliyatli, deb atash mumkin. Shu o'rinda «intellekt» so'zining lug'aviy ma'nosini tushunib olaylik. Intellekt - lotincha so'z - intellectus - tushunish, bilish va intellectum - aql so'zlari negizidan paydo bo'lgan tushuncha bo'lib, u aql-idrokning shunday bo'lagiki, uni o'lchab, o'zgartirib, rivojlantirib bo'ladi. Bu - intellekt va u bilan bog'liq qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega ekanligidan darak beradi. Rus olimi Ye.A. Klimov yoshlar iqtidorining yo'nalishini aniqlash maqsadida faoliyat va kasb - hunar sohalarini asos qilib olib, metodika yaratdi va uning «Professional - diagnostik so'rovnomasi» deb atadi. Shunday qilib, u barcha kasblarni ularning yo'naltirilgan sohasiga ko'ra 5 toifaga bo'ldi:

P(T) - tabiat (usimlik, hayvonlar, mikroorganizmlar);

T - texnika (mashina, materiallar, energiyaning turlari) ;

Ch(O)- odam (odamlar guruhi, jamoalar);

Z (B)- belgilar (turli ma'lumotlar, belgisi simvollar);

X (I)- badiiy, ijodiy obrazlar (tasviriy san'at, musiqa).


Tadqiqot ishimizda iqtidorli bolalarning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini o'rganish bo'yicha "Iqtidorli bolalarning kommunikativ qobiliyatlarini aniqlash testi", "Iqtidorli bolalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash testi", metodikalari asosida tadqiqotlar olib bordik. Dastlab, diagnostik bosqichda kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasi past bo'lgan o'quvchilarni aniqlab oldik. Har bir qo'llanilgan psixodiagnostik metodika iqtidorli bolalarda kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyati qay darajada rivojlanganligi bo'yicha iqtidorligini aniqlash maqsadida olib borildi. Natija quyidagidek bo'ldi.¹

“Kommunikativ qobiliyatni aniqlash metodikasi” ko'rsatkichlari

1.jadval.

| Respondentlar n=60 | Kommunikativ qobiliyat darajalari | | |
|-----------------------|-----------------------------------|-------|------|
| | yuqori | o'rta | past |
| Soni: | 17 | 25 | 18 |
| Foizi: | 28% | 42% | 30% |

¹“Коммуникатив қобилиятни аниқлаш методикаси” кўрсаткичлари



1.rasm. Kommunikativ qobiliyatni aniqlash metodikasi” ko‘rsatkichlari.


Bizning tadqiqot ishimizda iqtidorli bolalar qobiliyati ayniqsa, kommunikativ qobiliyati yuqori bo‘lishi aytilgan edi, ammo olib borgan tajriba sinov ishlarimiz iqtidorli bolalar guruhida kommunikativ qobiliyati yuqorilar bilan birga o‘rtacha va past darajadagilari ham mavjudligini ko‘rsatdi.

Shuningdek, iqtidorli bolalarning tashkilotchilik qobiliyatini o‘rganish bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarimizda ham o‘ziga xoslik, ya’ni tashkilotchilik qobiliyati yuqorilar bilan birga tashkilotchilik qobiliyati o‘rtacha va past darajadagilari ham mavjudligi va ular ko‘pchilikni tashkil etishi ma’lum bo‘ldi.¹

2.jadval.

| Respondentlar n=60 | Tashkilotchilik qobiliyati darajalari | | |
|-----------------------|---------------------------------------|------------|------------|
| | yuqori | o‘rta | past |
| Soni: | 13 | 26 | 21 |
| Foizi: | 21% | 43% | 36% |

“Tashkilotchilik qobiliyatni aniqlash metodikasi” ko‘rsatkichlari



2.Rasm “Tashkilotchilik qobiliyatni aniqlash metodikasi” ko‘rsatkichlari.

¹ “Tashkilotchilik qobiliyatni aniqlash metodikasi” kўrsatkichlari

Iqtidorli bolalarning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari diagnostikasi zamonaviy iqtidorli ta'lim-tarbiyasida bu kabi hususiyatlarning rivojlanishiga e'tiborning kamligi, shart-sharoitlarning yetarli darajada har bir iqtidorli bolalarning individualligini xisobga olgan xolda yaratilmaganligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, iqtidorli bolalarni erta aniqlash, ularni tarbiyalashning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning talabi ekanligini har bir pedagog bilishi va chora tadbirlar rejasini tuzgan xolda ular bilan ish olib borishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Abdullayeva, Z. I. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS IN THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATION STYLE IN A TALENTED PERSON. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(17), 302-305.
2. Abdullayeva, Z. I. (2023). IQTIDORLI SHAXS MULOQOTINING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING AHAMIYATI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(16), 275-277.
3. Narkulov, X. (2023). STUDY OF THE PROBLEM OF INTELLIGENCE AND THINKING IN PSYCHOLOGY. *Modern Science and Research*, 2(10), 987-991.
4. Jurayevna, G. D. (2023). The Role of Parents in the Family in Educating a Spiritually Perfect Child. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(11), 117-120.
5. Jurayevna, G. D. (2023). The Role of Parents in the Family in Educating a Spiritually Perfect Child. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(11), 117-120.

O‘PKA KASALLIKLARNI ANIQLASHDA ZAMONAVIY DIAGNOSTIK USULLAR

Madraximova Nigora Ravshanbekovna

FJSTI, Normal anatomiy, operativ jarohlik va tapagrafik anatomiya kafedrası

Muhammadjonov Sarvarbek G‘ayratjon o‘g‘li

FJSTI, Biotibbiyot muhandisligi 1622-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pnevmoniya to‘g‘risida ma‘lumotlar, diagnosktika to‘g‘risida tushunchalar keltirilgan. Tashqi muhit ta‘siri va organizmning ichki omillari qarish jarayonining tezlashuviga, organizmning erta qarishiga olib keladi, bu jarayon organizmning o‘shish va rivojlanishi to‘xtaganidan keyin boshlanadi. Umuman olganda, zamonaviy tekshiruvlarning ma‘lumotiga asosan pnevmoniya bilan kasallanish ko‘pgina omillardan iborat: hayot tarzi, oila ijtimoiy holatidan, mehnat sharoitidan, hayvonlar bilan muloqotdan, sayohat, zararli odatlari ko‘pligidan, kasallar bilan muloqotdan, shuningdek xavf omillardan–alkagolizm, chekish, o‘pkaning obstruktiv kasalligi, surunkali yurak yetishmovchiligi va jiplashib yashashidan iborat. Shuning uchun pnevmoniya davosida fizioterapevtik muolajalarni tavsiya etishda, o‘ng o‘pka ko‘proq zararlanishini e‘tiborga olish tavsiya etiladi, drenajli massaj, bemorning to‘shakda joylashishi shu asnoda tavsiya etilishi maqsadga muvofiq.

Kalit so‘zlar: Rentgenoskopiya, Rentgenografiya, Fluorografiya, Bronxografiya, Bronkoskopiya, Torakoskopiya, O‘pka funktsiyasi testi o‘pka ventilyatsiyasi, Laboratoriya usullari (balg‘amni tekshirish).

- O‘pka kasalliklari juda keng tarqalgan. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, surunkali kasalliklarning yarmidan ko‘pi o‘pka va bronxlarda uchraydi. Nafas olish tizimining eng keng tarqalgan patologiyalari orasida: zotiljam; o‘pka saratoni; KOAH (surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi), sil kasalligi, astma, bronxit.

Ulardan nafaqat chekuvchilar va ekologik jihatdan noqulay hududlar aholisi azoblanadi. Hech kim o‘pkada yallig‘lanish va neoplazmalardan immunitetga ega emas va bu jarayonlar juda xavfli bo‘lishi mumkin. Shuning uchun shifokorlar profilaktika chorasi sifatida muntazam ravishda o‘pka tekshiruvini tavsiya qilinadi

O'pka va nafas yo'llarini o'rganish usullari. Bugungi kunda o'pkalarni tekshirish va kasalliklar va patologiyalarni aniqlash uchun juda ko'p turli xil usullar qo'llaniladi

- Rentgenoskopiya. Bu o'pkani tekshirishning eng keng tarqalgan usuli bo'lib, o'pka to'qimalarining tuzilishidagi o'zgarishlarni ko'rish, siqilish o'choqlari yoki ichi bo'sh joylarni topish, plevra bo'shlig'ida suyuqlik yoki havo mavjudligini aniqlash imkonini beradi. Rasm rentgen apparati yordamida yaratiladi va ekranda ko'rsatiladi.

- Rentgenografiya. Ushbu tekshiruv davomida tasvir rentgen apparati yordamida ham yaratiladi, lekin u plyonkaga o'rnatiladi va monitorda ko'rsatilmaydi. Radiografiya o'pkaning diagnostikasi uchun juda aniq va informatsion usul bo'lib, o'z vaqtida hatto eng kichik o'zgarishlarni ham ko'rish imkonini beradi.

- Fluorografiya. U printsiptial jihatdan rentgenografiyaga o'xshaydi, lekin tasvir kichik formatli plyonkada chop etiladi yoki monitorda ko'rsatiladi. Raqamli fluorografiya odamlarga kamroq radiatsiya ta'siriga ega, ammo tasvir sifati o'pka rentgenografiyasiga qaraganda biroz yomonroq.

- Bronxografiya. Ushbu turdagi rentgenografiya lokal behushlik ostida amalga oshiriladi va bronxlar holatini tashxislash uchun ishlatiladi. X-nurlarini o'tkazmaydigan bronxning lumenine kontrast agent AOK qilinadi.

- Bronkoskopiya. Bu usul traxeya va bronxlarning shilliq qavatini tekshirish uchun ishlatiladi. U maxsus qurilma - bronkoskop tomonidan ishlab chiqariladi, unga biopsiya yoki begona jismlarni olib tashlash va poliplarni olib tashlash, miniatyura kamerasi va boshqa asboblarni uchun maxsus forsepslar biriktiriladi. Bemorni noqulaylikdan himoya qilish uchun manipulyatsiya lokal behushlik ostida amalga oshiriladi. Bronkoskop og'iz orqali traxeyaga kiritiladi.

- Torakoskopiya. Maxsus vosita - torakoskop yordamida amalga oshiriladigan plevra bo'shlig'ining endoskopik tekshiruvi. Ko'krak qafasidagi kichik ponksiyon orqali umumiy behushlik ostida o'pkaga AOK qilinadi. Ko'p jihatdan, harakat tamoyili bronkoskopiya o'xshaydi.

O'pka funktsiyasi testi. O'pka ventilyatsiyasi. Bu usul o'pkaning nafas olish hajmi nima ekanligini aniqlashga va nafas olish etishmovchiligi darajasini aniqlashga imkon beradi. Plevral ponksiyon. O'pkaning ushbu tekshiruvi paytida plevra bo'shlig'ining tarkibi kichik ponksiyon orqali tahlil qilish uchun olinadi. Manipulyatsiya lokal behushlik ostida amalga oshiriladi. Plevral ponksiyonning asosiy ko'rsatkichlari plevrit, o'smalar va o'pkada suyuqlik va havoning patologik to'planishi hisoblanadi. Laboratoriya usullari (balg'amni tekshirish) Balg'am ikki usulda tekshiriladi: mikroskopik va bakterioskopik. Birinchisi, parazitlarni, shilimshiqlarni, bakteriyalarni, turli xil shakllanishlarni aniqlashga va qo'shimcha ravishda sil kasalligini aniqlashga imkon beradi. Bakterioskopik usul turli xil o'pka infeksiyalarining qo'zg'atuvchilarini ochib beradi.

Xulosa. Har yili dunyoda 17 million odamda pnevmoniya aniqlanadi. O'pka kasalliklari sababli o'lim darajasi juda yuqori bo'lib 8-9% ni tashkil etadi. 2017-yilda besh yoshgacha bo'lgan 808 694 bola pnevmoniyadan vafot etgan. Bu raqamlardan ko'rinib turibdiki pnevmoniya kasalliklarini to'g'ri davolash bilan birgalikda shifokor ko'ruviga vaqtida borish, tibbiy tahlillarni o'tkazish va tog'ri davo choralarini belgilash inson hayotini saqlab qolish uchun birinchi yordam bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aliyev N., Muhammadjonov S. THE ROLE OF MATHEMATICS EDUCATION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF MEDICAL WORKERS. THE IMPORTANCE OF MATHEMATICS FOR A HEALTH WORKER. MATHEMATICAL METHODS AND STATISTICS IN MEDICINE //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 39-42.

2. Nurillo N. A., Muhammadjonov S., Tojimatova L. THE ROLE OF MATHEMATICS EDUCATION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF MEDICAL PERSONNEL. THE IMPORTANCE OF MATHEMATICS FOR THE HEALTH WORKER //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – Т. 3. – №. 6. – С. 54-56.

3. Melibayeva, F. M., Aliyev, N. A., & Muhammadjonov, S. G. o'g'li. (2023). SHEKISH BILAN BOG'LIQ O'PKA KASALIKLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 719–723

4. AN Abdiqayumovich, M Sarvarbek Gayratjon o'gli. ZAMONAVIY DIAGNOSTIKANING ROLI. ZAMONAVIY DIAGNOSTIKA USULLARI. Лучшие интеллектуальные исследования 10 (6), 177-180.

5. N.Madrahimova. Scientific bases of methods for studying anthropometry of the eye bowl. Science and Innovation, Volume 1, Issue 8, pp. 1001-1006, 2022.

6. 7-18 ёшли болаларнинг кўз косаси антропометриясини ўрганиш. Ю.Н.Нишонov., А.Р.Абдулхакимов., Н.Р.Мадрахимова. Scientific impulse 1(5), 910-913, 2022

7. Madraximova N.R. (2023). INTERCORRELATION OF THE SIZE OF THE EYE SLIT AND THE ANTHROPOMETRIC PARAMETERS OF THE ORGANISM. World Bulletin of Public Health, 29, 27-29

8. Odilov, X., Mirzajonova, S., & Rustamov, A. (2023). ATEROSKLEROZ TIBBIYOTDAGI DOLZARB MUAMMO VA UNGA AMALIY TAVSIYALAR. Engineering Problems and Innovations

9. Одилов, Х., Эминов, Р., & Одилов, Ж. (2023). БОЛАЛАРДА БУЙРАКЛАР ИККИ ТОМОНЛАМА СИЙДИК ТОШ КАСАЛЛИГИ ДАВОЛАШ ТАКТИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Engineering Problems and Innovations

O‘ZBEKISTONDA KICHIK VA O‘RTA BIZNESNI RIVOJLANTIRISH UCHUN YARATILAYOTGAN YANGI IMKONIYATLAR

Bayzakova Dilbar Fayziyevna

Jizzax politexnika instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar orqali iqtisodiyotning barqaror o‘sishi, kichik va o‘rta biznesning o‘rni, mamlakatimizda uni rivojlantirish uchun yaratilayotgan yangi imkoniyatlar va davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanishi bayon etilgan

Kalit so‘zlar: *Tadbirkorlik, kichik biznes, o‘rta biznes, tadbirkorlik, iqtisodiy islohotlar, oilaviy tadbirkorlik, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, aholi bandligi.*

НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ СОЗДАННЫЕ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ

Байзакова Дильбар Файзиевна

Джизакский политехнический институт

АННОТАЦИЯ:

В данной статье рассматриваются стабильный рост экономики, экономические реформы, роль и место малого и среднего бизнеса, новые возможности, созданные для развития малого и среднего бизнеса в Узбекистане, поддержка малого и среднего бизнеса государством.

Ключевые слова: *предпринимательство, малый бизнес, средний бизнес, экономические реформы, семейное предпринимательство, макроэкономические показатели, занятость населения.*

NEW OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF SMALL AND MEDIUM-SIZED BUSINESSES IN UZBEKISTAN

Bayzakova Dilbar Fayziyevna

Polytechnical Institute

ABSTRACT

This article describes the sustainable of the economy through economic reforms in Uzbekistan, the role of small and medium-sized business, new opportunities created for its development in our country, and state support.

Key words: *Entrepreneurship, small business, medium business, economic reforms, family business, macroeconomic indicators, population employment.*

O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun keng qamrovli ekotizim yaratildi. Prezident Sh. Mirziyoyevning so‘zlariga ko‘ra, bankning faoliyati ham, ishlash usullari ham, jumladan, moliyalashtirish mexanizmlari ham jiddiy o‘zgarishlarga uchraydi. Xususan, har bir hududdagi bank huzurida kichik biznes markazi tashkil etiladi. Mazkur markazlar tadbirkorlar tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan biznes loyihalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.¹ Ular yangi loyihalarni amalga oshirishga intilayotgan tadbirkorlarni mustaqil ravishda o‘qitish, zarur mutaxassislarni jalb etish, buxgalteriya hisobi, soliq, audit, marketing, yuridik va boshqa maslahat xizmatlarini taklif etadi. Markazlar yangi korxonalariga zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish, xodimlarning malakasini oshirish, mahsulotlarini samarali yo‘lga qo‘yishda yordam beradi. Prezident o‘z nutqida yuqorida aytilgan jamg‘armalarga mustaqil ravishda investitsiyalarni jalb qilish huquqi berilganini ta’kidladi. Ushbu jamg‘armalar kelgusi yilda o‘rta biznes uchun qo‘shimcha 1 milliard dollar sarmoya jalb etishni maqsad qilgan. Eksportni kengaytirishning muhim imkoniyatlaridan biri O‘zbekistonga nufuzli xorijiy brendlarni jalb qilishdir.

Mahalliy korxonalariga sarmoya kiritish va buyurtma berishni osonlashtirish uchun ularni tashvishga soladigan uchta muhim masala hal qilinadi: ishlab chiqarish uchun xalqaro standartlar, ekologik va sertifikatlashtirish talablari amalga oshiriladi. So‘nggi yillarda iqtisodiyotimiz poydevori bo‘lmish kichik biznes, oilaviy va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ishlariga alohida e‘tibor berilmoqda. Xususan, ushbu kategoriyadagi tashkilotlarga bir qator imtiyozlar, soliq preferensiyalari va yengilliklar berilmoqda.

Shu maqsadlarda 2023 yilning 14 sentyabr kuni ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Qarorga asosan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, “Biznesni rivojlantirish banki” tomonidan “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturi amalga oshiriladi.

Mazkur dastur doirasida kichik biznes vakillari moliyaviy va tadbirkorlik savodxonligiga o‘qitilib ularga bir qator moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari beriladi. Jumladan:

- 100 million so‘mgacha garovsiz kreditlar;
- 150 million so‘mgacha garov talabi 50%ga pasaytirilgan kreditlar;
- 18 foiz stavkada 7 yilgacha (aylanma mablag‘ uchun 3 yilgacha) muddatga 1,5 mlrd so‘mgacha kredit va lizing;

¹ O‘zbekiston Respublikasi. Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 18 avgustda tadbirkorlar bilan o‘tkazgan Ochiq Muloqoti.

- qiymati 1,5 mlrd so‘mgacha bo‘lgan asosiy vositalar 7 yilgacha muddatli to‘lov asosida qarz berish;
- kichik biznes markazlariga 1 mlrd so‘mgacha bo‘lgan loyihalarga bo‘sh turgan davlat mulki ob‘ektlari, yer maydonlari va asbob-uskunalar bilan 20 foizgacha ulushdor bo‘lib kirish huquqi berildi;
- innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, startap loyihalariga davlat ilmiy dasturlari doirasida 2 mlrd so‘mgacha grant ajratish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentimi Sh.Mirziyoyevning 2023 yil 18 avgustdagi tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida kichik biznesni yanada qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator taklif va tashabbuslar ilgari surilgan edi.

Mazkur muloqotda belgilangan vazifalarni o‘zida jamlagan va tadbirkorlik muhitini yaxshilashga oid yaqin va uzoq istiqboldagi maqsadlarni aks ettiruvchi muhim hujjatlar qabul qilindi. Binobarin, davlatimiz rahbarining joriy yil 14 sentyabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori biznes sohasi rivoji uchun yangi imkoniyatlarni yaratdi.

Qarorga asosan kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha “uzluksiz xizmatlar zanjiri”ni yaratish maqsadida “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturini amalga oshirish belgilandi.

Mamlakatimizda “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori (PQ-306 son,14.09.2023 y) qabul qilindi va shu qarorga ko‘ra, 2023 yil 1 oktyabrdan “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturi amalga oshiriladi.¹

Dasturni 2023-2026 yillarda amalga oshirish uchun davlat mablag‘lari hisobidan 6 trillion so‘m va xalqaro moliya institutlarining 1,2 milliard AQSH dollari miqdoridagi mablag‘lari yo‘naltirilishi ko‘zda tutilmoqda.

Xususan, “Biznesni rivojlantirish banki” ATB ta‘sischiligida “Kichik biznesni rivojlantirish jamg‘armasi” va Jamg‘arma tarkibida hududlarda 14 ta “Kichik biznesga ko‘maklashish hududiy markazlari” tashkil etilgani qayd etildi.

Ushbu markazlar orqali kichik biznes loyihalarini tanlash, tashabbuskorlarni o‘qitish, moliyalashtirish, axborot bilan ta‘minlash, biznes rejalar va texnik iqtisodiy asoslarni ishlab chiqish, bozor topish bilan bog‘liq kompleks xizmatlar ko‘rsatiladi. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish yoki kengaytirish uchun 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag‘lar uchun revolver tarzda 3 yilgacha muddatga yillik Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada 1,5 milliard so‘mgacha kreditlar ajratiladi.²

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.PQ-306 son,14.09.2023.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va

Shu bilan birga, asosiy vositalarni sotib olish uchun lizing berish vazifalari belgilangan bo‘lib, bunda 100 million so‘mgacha kreditlarni garovsiz, 150 million so‘mgacha kreditlarni garov talabi 50 foizgacha pasaytirilgan holda ajratish amaliyoti tatbiq etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 15 noyabrdagi “Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 2024-2026 yillarda bank bo‘yicha kichik tadbirkorlik sub’ektlariga ajratiladigan kreditlar qoldig‘ini 1,7 baravarga oshirish orqali kredit portfelidagi ulushini 28 foizdan 43 foizga yetkazish, 150 mingta kichik tadbirkorlik subyekti faoliyatini yo‘lga qo‘yish va kengaytirish, kichik biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jami 800 million AQSH dollarigacha miqdorda resurslar jalb qilish, 300 million AQSH dollari miqdorida obligatsiya (evrobond)larni xalqaro kapital bozorlarida muomalaga chiqarish vazifalari belgilangan¹.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.PQ-366-son.15.11.2023.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.PQ-306 son,14.09.2023.

3.O‘zbekiston Respublikasi. Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 18 avgustda tadbirkorlar bilan o‘tkazgan Ochiq Muloqoti.Xalq so‘zi gazetasi,2023 yil,19

4. Bayzakova D.F. Small business as the Main Driver of Economic Development. International journal on economics, finance and sustainable development. Vol. 5 No. 4 | April 2023.Indoneziya

5. Bayzakova D.F. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish masalalari. Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 3 | 2023.

institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.PQ-306 son,14.09.2023.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.PQ-366-son.15.11.2023.

O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARI VA MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Bayzakova Dilbar Fayziyevna

Jizzax politexnika instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda bitiruvchilarning ishlashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali OTM talabalari uchun innovatsion yondashuvlar, tadbirkorlik ko‘nikmalari va munosabatlarini rivojlantirish – TRIGGER loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, O‘zbekistonda tadbirkorlik ko‘nikmalari va munosabatlarini rivojlantirish masalalari yoritib berilgan

***Kalit so‘zlar:** TRIGGER, tadbirkorlik, bandlik, iqtisodiy faollik innovatsion yondashuvlar, ko‘nikmalar.*

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ И ОТНОШЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Байзакова Дильбар Файзиевна

Джизакский политехнический институт

АННОТАЦИЯ:

В данной статье рассматриваются инновационные подходы, развития предпринимательских навыков у выпускников высших учебных заведений путем создания благоприятных условий для работы в Центральной Азии, в работе, проводимых в рамках проекта TRIGGER, изложенных в вопросах развития предпринимательских навыков и предпринимательских отношений в Узбекистане.

***Ключевые слова:** TRIGGER, предпринимательство, занятость, навыки экономическая деятельность, инновационные подходы.*

ISSUES IN THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURIAL SKILLS AND RELATIONSHIPS IN UZBEKISTAN

Bayzakova Dilbar Fayziyevna

Jizzakh Polytechnical Institute

ABSTRACT

This article discusses innovative approaches to develop (developing) entrepreneurial skills among graduates of higher education institutions by creating favorable conditions working in Central Asia, in the work carried out within the TRIGGER project, outlined in the development of entrepreneurial skills and entrepreneurial relations in Uzbekistan.

Tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiy o‘rinishining qo‘shimcha manbai sifatida ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda katta rol o‘ynaydi, bandlik muammolarini hal etish, milliy boylikni o‘stirish va millatning farovonligi uchun xizmat qiladi. Iqtisodiy faollik va mustaqillikning muhim shakli bo‘lmish tadbirkorlik respublikamizda bandlikning aniq shaklini va yangi ish joylarini barpo etish yo‘lida eng rivojlangan davlatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanib kelinmoqda.

Tadbirkorlik jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi mavjud muammolarni hal qilishda va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida katta rol o‘ynaydi.

U ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmat ko‘rsatish sohalarida yangi ish o‘rinlari yaratib, aholini ish bilan ta‘minlash va ishsizlikni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha mamlakatlar singari O‘zbekistonda ham har yili yaratilayotgan yangi ish o‘rinlarining yarmidan ortig‘i kichik va xususiy tadbirkorlikka to‘g‘ri keladi. Demak, tadbirkorlik aholining ish bilan bandligi, mehnat va iqtisodiy faolligining o‘rinishi va buning natijasida uning daromadlarining oshishiga katta hissa qo‘shadi. Bu jarayonning ikki oqibatini e‘tiborga olish lozim: bir tomondan, aholining moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarining o‘rinishi, kengayishi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ularni to‘laroq qondirish imkoniyatlarining yaratilishidir. Bu pirovard natijada aholi hayotini yaxshilash, turmush darajasini ko‘tarish, farovonligini oshirishni ta‘minlaydi. Tadbirkorlikning rivojlanishi bilan uning mazkur sohadagi roli ortib boradi.

Ushbu maqolani biz Markaziy Osiyoda bitiruvchilarning ishlashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali OTM talabalari uchun innovatsion yondashuvlar, tadbirkorlik ko‘nikmalari va munosabatlarini rivojlantirish – TRIGGER loyihasi doirasida yoshlarda tadbirkorlik ko‘nikmalari rivojlantirish masalalariga bag‘ishladik.

O‘z ishini boshlashga qaror qilish, bu katta qadam va u insonning butun hayotini o‘zgartirib yuborishi mumkin. Bu qarorni qabul qilish tirishqoqlik bilan ko‘p mehnat qilishni talab qiladi, shu bilan birga qoniqish hissini hosil qiladi va u foyda keltirishi mumkin. Bo‘lajak tadbirkor ishni boshqarish, faoliyatning muvaffaqiyati uchun ma‘sul ekanligi bilan birga u eng asosiy shaxs hisoblanadi.

Tadbirkor – bu ishlab chiqarish va tijoratning barcha zarur omillaridan boylik yaratish uchun foydalanadigan odamdir. Zarur omillar jamlamasidan boylik yaratish uchun shaxsda qobiliyat va ko‘nikmalar bilan birga mas‘uliyat ham shakllangan bo‘lishi kerak. Ichki va tashqi omillar ta‘sirini qabul qilishga tayyor bo‘lish, bunday mas‘uliyatni yanada kuchaytiradi, shuningdek, to‘liq erkinlikni ham nazarda tutadi.

Raqobat sharoitida mijozlar e‘tiborini qozonish, bozorda o‘zining muayyan o‘rnini topish umumiy bo‘lgan asosiy maqsaddir.

Foyda olish. Tadbirkorning muvaffaqiyati foyda olish bilan o‘lchanadi. Foyda – ishning unumini ta‘minlovchi asosiy manba hisoblanadi. Foyda olish har bir tadbirkor uchun asosiy maqsaddir.

Istiqbol. Foydani to'g'ri taqsimlab, tadbirkor istiqbol haqida o'ylashi lozim. Yangi texnika, texnologiyalarni ishga joriy qilishga foydaning ko'p qismini sarflash ma'lum vaqtdan keyin katta foyda keltirishi mumkin, shubday ekan, istiqbol ham umumiy bo'lgan asosiy maqsad hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, boshlangan ishning muvaffaqiyati shaxsiy qobiliyatlar, ahvol, bilim, ko'nikma va tajriba bilan bevosita bog'liqdir. Kishida ishbilarmonlik qobiliyati va ko'nikmalari qancha ko'p bo'lsa, ishning muvaffaqiyatli bo'lishi ehtimoli shuncha katta bo'ladi. Qobiliyat va ko'nikmalarning o'ziga xos tomonlari faoliyatning qaysi turi bilan shug'ullanishga qarab bir-biridan farq qiladi. Qobiliyat va ko'nikmalar mavjudligi ayon, lekin qaysidir ko'nikmalar etishmayotgan bo'lsa, mashg'ulotlar yordamida ularni o'zlashtirish mumkin. Shuningdek, tanlangan ish uchun talab etiladigan bilim va ko'nikmalarning o'rnini to'ldirish uchun ularga ega bo'lgan kishilarni yollash yoki shu maqsadlarda maslahatchilardan foydalanish mumkin.

Ko'nikmalar. O'z ishini boshlashdan oldin, bo'lajak tadbirkor lozim bo'lgan qobiliyat va ko'nikmalarga ega yoki ega emasligini tahlil etib ko'rishi kerak. Ishni olib borishda u kuchli yoki zaif tomon ekanligi nuqtai nazaridan kelib chiqib, har bir keyingi qobiliyat va ko'nikma to'g'risida o'ylab ko'rishi maqsadga muvofiq.

Texnik ko'nikmalar. Mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat turlarini taqdim eta bilish kerak bo'lgan amaliy qobiliyat, texnik ko'nikma sirasiga kiradi. Masalan, agar tadbirkor kiyim tikish bilan shug'ullanmoqchi bo'lsa, u avvalo bichish va tikishni bilishi kerak. Mashinalarni ta'mirlash ustaxonasini ochish uchun ularning qismlarini sozlashni bilishi lozim bo'ladi. Agar tadbirkorda ushbu ko'nikmalar bo'lmasa, texnik ko'nikmalari manfiy baholanadi.

Biznesni boshqarish ko'nikmalari. Ular ishni samarali olib borishning asosiy amaliy ko'nikmalari hisoblanadi. Albatta, bozorni o'rganish muhim, lekin, biznesni boshqarishning boshqa sohalari ishning muvaffaqiyati uchun hayotiy zaruratdir. Masalan, chiqimlar hajmini aniqlash va hisob-kitob ishlarini olib borish.

Faoliyat sohasini bilish. Ba'zi bir faoliyat sohalari uchun kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lish shart bo'lsa, boshqalari uchun u asosiy omil hisoblanmaydi. Shunga qaramasdan, bilimga ega bo'lish tadbirkorga hamisha yordam beradi. Bozorni, raqobatchilarni, raqobat muhitini, xom-ashyo va boshqa vositalarni yetkazib beruvchilarni bilish xatoga yo'l qo'ymaslikka olib keladi.

Shaxsiy tavsiflar ham biznesda muvaffaqiyatga erishishda asosiy omil bo'la oladi va bular quyidagilardan iborat:

Tavakkal qilib bilish qobiliyati. Mutlaqo xavfsiz tadbirkorlik g'oyalari bo'lmaydi. Boshlangan ishda muvaffaqiyatsizlikka uchrash xavfi hamisha mavjud. Biroq, tadbirkor tavakkal qilishga doimo tayyor bo'lishiga qaramasdan, o'ylab, aql

bilan tavakkal qilish kerak bo'ladi.

Qarorlar qabul qilish. O'z ishini boshqarish bilan bog'liq faoliyati mobaynida tadbirkor muhim qarorlar qabul qilish zarurati bilan to'qnashadi. Masalalarni hal etish vakolatini boshqa kishilarga berishi, shu bilan birga ularni qabul qilmasligi ham mumkin. Tadbirkor uchun jiddiy oqibatlarga olib keladigan qarorlarni qabul qila bilish qobiliyatiga ega bo'lish juda muhimdir.

Oiladagi vaziyat. Boshlangan ish tadbirkorning ko'p vaqtini oladi. Bunday vaziyatda, u oilani qo'llab-quvvatlashi katta ahamiyatga ega. Oila a'zolari ish boshlash borasidagi rejasiga rozi bo'lishlari kerak. Ular boshlangan ishda ishtirok etishlari va yordam berishlari lozim. Oila tomonidan qo'llab-quvvatlash ijobiy holdir. Agar tadbirkorni oilasi qo'llab-quvvatlamasa, bu – ish muvaffaqiyati uchun salbiy holdir.

Moddiy ahvol. Agar ishni boshlash va uni davom ettirish uchun o'z mablag'i mavjud bo'lib, muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda ham bu hodisa moliyaviy ahvol uchun fojiga aylanmasa, bu – ijobiy hol. Agar shaxsiy sarmoya bo'lmasa va tadbirkor tamomila ishining muvaffaqiyatiga qaram bo'lsa, bu hol ish muvaffaqiyati uchun salbiy hol hisoblanadi.

Ko'pchilik tadbirkorlar o'z ishlarini olib borishlari uchun lozim bo'lgan yoki yetarli ko'nikmalarga ega emaslar. Biroq ko'nikmalarga ega bo'lish, mavjud bilimlarni, shaxsiy sifatlarni kengaytirish mumkin. Zaif tomonlar ustida ishlab, ularni kuchli tomonga aylantirishi mumkin. Quyida tadbirkorlik ko'nikmalari va sifatlarini oshirish borasidagi bir qancha tavsiyalar keltiriladi.

Boshqalardan yordam olish. Imkoniyat mavjud bo'lganda, moddiy va nomoddiy ko'makdan samarali foydalanish. Tajribali hamkor tanlash.

Muvaffaqiyatga erishayotgan tadbirkorlar faoliyatini o'rganish. Ularning faoliyati va muvaffaqiyatiga nima sabab bo'layotganligi to'g'risida tahlil o'tkazish va amaliyotda sinab ko'rish masalasi.

Ishga va mijozga sadoqatli bo'lish. Ishni boshqa barcha narsadan ustun qo'yishga tayyor bo'lish. Mijozlarning istaklarini e'tiborga olish, sifatli tovar yoki sifatli xizmat taqdim etish va o'z mijozlariga sidqidildan xizmat qilish lozim.

Do'stona munosabat. Erishilgan hamkorlikni do'stona munosabatda olib borish. Doim ishonchni oqlash, hamkor oldida e'tiborda qolishga harakat qilish. Muomala madaniyati bo'lishi kerak.

O'quv kurslarida qatnashish. Olib borayotgan faoliyatga ko'ra muammolar mavjud bo'lgan sohalar bo'yicha o'quv kurslarida ishtirok etish.

Kitoblar mutolaa qilish. Bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish zarurati bo'lganda muammolar bo'yicha kitoblarni tanlash. Faoliyatga oid o'quv qo'llanmalardan doimiy foydalanish.

O'z faoliyatini boshlashdan oldin kerakli bo'lgan axborotni yig'ish va reja tuzish lozim. Bu ishlarni amalga oshirishdan maqsad biznes daromadli bo'lishi yoki

3. Guilford, J. P. (1967). "Inson aqlining tabiati". MakGrou-Xill.
4. Torrance, E. P. (2008). "Torrance ijodiy fikrlash testlari: me'yorlar-texnik qo'llanma". Sxolastik test xizmati.
5. Burton, J., Horowitz, R. va Abeles, H. (2000). "San'atda va san'at orqali o'rganish: o'tkazish masalasi." San'at ta'limida tadqiqotlar, 41(3), 228-257.
6. Eisner, E. V. (2002). "San'at va ongning yaratilishi". Yel universiteti nashriyoti.
7. Hetland, L., Winner, E., Veenema, S. va Sheridan, K. M. (2013). "Studio fikrlash 2: Tasviriy san'at ta'limining haqiqiy afzalliklari". O'qituvchilar kolleji matbuoti.
8. Csikszentmihalyi, M. (1997). "Oqim va kashfiyotlar va ixtirolar psixologiyasi". HarperPerennial.
9. Gardner, H. (1993). "Ko'p intellekt: amaliyotdagi nazariya". Asosiy kitoblar.
10. Craft, A. (2001). "Kichik C ijodkorligi." Craft, A., Jeffrey, B. va Leibling, M. (Eds.), "Ta'limda ijodkorlik". Davomiylik.

THE BENEFITS AND CHALLENGES OF FLIPPED LEARNING IN ENGLISH LANGUAGE IN PRIMARY EDUCATION

Sodiqova O.

UzSWLU, English in primary
Education Department

Abstract: *The landscape of education is continually evolving, with educators exploring innovative methods to enhance learning experiences. One such approach that has gained attention is flipped learning, a pedagogical model that flips the traditional classroom dynamic. This article delves into the benefits and challenges of implementing flipped learning specifically in the context of English language education at the primary level.*

Keywords: *Flipped Classroom Model, Anxiety, Self Efficacy, Autonomy, Critical Thinking, Motivation, Satisfaction, Teacher Centered to Student Centered, Active & Collaborative Learning.*

The concept of a flipped classroom is a modern approach to teaching that aims to enhance student engagement and understanding by shifting the traditional lecture-based instruction to outside of class time, allowing for more interactive and hands-on learning experiences during class. By utilizing technology to deliver instructional content, students have the flexibility to review materials at their own pace and as many times as needed, which can be particularly beneficial for students who may have missed a class or struggle with certain concepts.

In a flipped classroom, teachers can devote more time during class to providing individualized support, clarifying doubts, and engaging students in collaborative activities that reinforce learning. This approach encourages active participation and fosters a deeper understanding of the subject matter through practical application and discussions with peers.

The flipped classroom model offers a more personalized and interactive learning environment that can cater to diverse learning styles and needs, ultimately leading to improved academic outcomes and student engagement.

Flipped learning is the pre-lesson preparation, reflection and questioning that pupils undertake to help inform a teacher's planning (Mazur, 1997). Prior to a lesson a classroom teacher directs pupils towards specific resources (often online media) that they digest and respond to. This information can then be utilised by the teacher to inform the planning of their next classroom session. The effect of this is that pupils

attend a subsequent lesson armed with a great deal of knowledge and questions ready to further their understanding and skill. Flipped learning is also a means of shifting the learning that does not require a teacher presence outside of the classroom; so that class time can be spent developing areas that benefit from having direct teacher liaison (Bergman and Sams, 2012) e.g. Online activities that stimulate comprehension is an example of flipped learning in its simplest form.

A flipped classroom is first introduced by (Kara, 2015) means as “the concept of a flipping the class in which material is usually studied in class done is now studied at home, and homework which is usually done at home now is done in class. It inverts sequence of the traditional class which has the content lecture in class followed by homework at home. Therefore, in flipped class the concepts are introduced in video tutorials at home and in-class time is used to work on activities related to that content. Face-to-face time can be used for problem solving and hands-on activities in a student-centered environment, which is the basis of this teaching model(Nouri, 2016).

Individualized Pace: Flipped learning allows students to consume instructional content at their own pace. In primary English education, this flexibility is particularly beneficial as students vary in their language proficiency levels. Each child can progress through lessons at a speed that suits their learning style, ensuring a more personalized and effective learning experience.

Active Engagement: By shifting direct instruction outside the classroom through pre-recorded videos or online resources, class time is freed up for interactive and application-based activities. Primary students, often more attentive in hands-on activities, can engage actively in language exercises, group discussions, and language games during face-to-face sessions, fostering a more dynamic and participative learning environment.

Parental Involvement: Flipped learning encourages parental involvement in a child’s education. Parents can participate in the learning process by guiding their children through the pre-recorded materials or engaging in post-class activities. This collaboration promotes a sense of teamwork between educators, students, and parents, creating a more holistic learning support system.

Technology Integration: The use of technology is a cornerstone of flipped learning. Introducing primary students to digital resources, online platforms, and multimedia content not only aligns with the digital age but also enhances their technological literacy. This exposure prepares them for future educational demands and cultivates a positive attitude towards technology as an educational tool.

Autonomous Learning Skills: Flipped learning instills valuable skills such as time management, self-discipline, and independent learning. Primary students, as they

progress through flipped lessons, develop a sense of responsibility for their education. These skills are transferable and contribute to their overall academic success.

Challenges of Flipped Learning in Primary English Education:

Access to Technology: One of the primary challenges is the disparity in access to technology among primary students. Not all children may have equal access to devices or a stable internet connection, potentially creating a digital divide. Educators need to address this issue by providing alternative offline resources or ensuring equitable access to technology.

Parental Support: Flipped learning relies on the active involvement of parents, but not all parents may be equipped or available to support their children's learning at home. This reliance on parental engagement can be a limitation, especially in households where parents have limited time or educational background in English language learning.

Adaptation Period: Implementing a flipped learning model requires time for both educators and students to adapt. The transition from traditional teaching methods to a flipped approach may encounter resistance initially, necessitating professional development for teachers and support systems to help students navigate the change seamlessly.

Assessment Challenges: Assessing students' understanding and progress becomes a more complex task in a flipped learning environment. Teachers must design assessment strategies that go beyond rote memorization, focusing on application and critical thinking skills. This shift requires careful planning and creativity in evaluation methods.

Engagement and Accountability: While flipped learning aims to increase student engagement, ensuring that all students actively participate in pre-class assignments and come prepared for in-class activities can be challenging. Maintaining accountability and motivating students to consistently engage with the materials is an ongoing concern for educators.

Flipped learning in primary English language education brings forth a spectrum of benefits and challenges. While the model offers a student-centric, dynamic, and technology-infused learning experience, addressing issues related to access, parental support, adaptation, assessment, and sustained engagement is crucial. With thoughtful planning, ongoing support, and a commitment to adapting to individual needs, flipped learning has the potential to revolutionize primary English language education, fostering a generation of tech-savvy, independent learners.

Used literature:

1. Bergman, J and Sams, A (2012), Flip Your Classroom – Reach Every Student in Every Class Every Day, ISTE ASCD.
2. Mazur, F., (1997), Peer Instruction – A Users Manual, Prentice Hall
3. Kara, C. O. (2015). Flipped Classroom. Toraks Cerrahisi Bulteni.
4. Nouri, J. (2016). The flipped classroom: for active, effective and increased learning – especially for low achievers. International Journal of Educational Technology in Higher Education

АНАЛИЗ РИСКОВ И АУТЕНТИФИКАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТЬЮ В СЕТЯХ ОБЪЕКТОВ ИНФОКОММУНИКАЦИЙ В ВЕБ-ПРИЛОЖЕНИЯХ И ПОЛЬЗОВАТЕЛЯХ

Абдурасулов Алижон Абдурасул угли

Джизакский филиал Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека. Магистрант.

Email: alijon.abdurasulov@bk.ru

Гулмуродова Динора Акрам кизи

Джизакский филиал Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека. Магистрант.

Email: dinora.gulmurodova1@gmail.com

АННОТАЦИЯ:

Статья «Анализ рисков и аутентификация управления безопасностью в сетях объектов инфокоммуникаций в веб-приложениях и пользователях» При реализации системы объектов инфокоммуникации связь может привести к тому, что сетевая инфраструктура из-за ее сложности, разнообразия данных и приложений многие угрозы могут остаться незамеченными администратором безопасности. Поэтому необходим регулярный аудит и постоянный мониторинг информационных систем.

Ключевые слова: *инфокоммуникация, информационная безопасность, алгоритмы шифрования, AES, RSA, ECC, криптографические ключи, криптографической защита, протоколы аутентификации.*

Аутентификация пользователей является одной из ключевых задач веб-приложений для обеспечения безопасности и защиты пользовательских данных. В данной статье мы рассмотрим опыт и методы профессионала в области аутентификации пользователей в веб-приложениях, а также принципы и лучшие практики для эффективной реализации этого процесса. На примере использования компьютерных систем и объектов связи в различных сферах и в широком масштабе в мире, а также стремительного развития информатизации, возникает проблема информационной безопасности. Информационная безопасность Республики Узбекистан находится под постоянным вниманием государства. Проблема безопасности является первоочередной задачей для любой системы независимо от ее сложности, характера. Анализ и управление

рисками в сетях объектов инфокоммуникаций является ключевым аспектом эффективного функционирования современных информационно-коммуникационных систем. В условиях быстрого развития технологий и активного использования компьютерных сетей для передачи и обработки данных, появляются новые угрозы и уязвимости, требующие системного подхода к их идентификации, анализу и управлению. [1]

Первоначальный опыт профессионала включает работу с различными методами аутентификации пользователей, такими как базовая аутентификация, аутентификация на основе токенов, OAuth и OpenID Connect. Путем применения этих методов в реальных проектах профессионал накопил значительный опыт в области аутентификации пользователей. Анализ рисков в сетях объектов инфокоммуникаций представляет собой процесс выявления потенциальных угроз безопасности, оценки их вероятности возникновения и последствий, а также определения мер по уменьшению рисков и повышению защищенности информационной среды. Этот процесс требует глубоких знаний в области информационной безопасности, а также понимания особенностей конкретных систем и технологий, используемых в сетях.

Управление рисками в сетях объектов инфокоммуникаций включает в себя планирование и реализацию мер по предотвращению и снижению рисков, а также контроль и мониторинг их эффективности. Для этого необходимо проведение аудита безопасности, оценка уязвимостей систем, разработка политик и процедур безопасности, обучение персонала, создание резервных копий данных и принятие мер на случай чрезвычайных ситуаций. Основная цель анализа и управления рисками в сетях объектов инфокоммуникаций заключается в обеспечении их надежности, конфиденциальности, целостности и доступности информации, а также минимизации потенциальных убытков, связанных с нарушениями безопасности. Профессиональные писатели, благодаря своему опыту и экспертизе в сфере информационной безопасности, способны создать объемные тексты, полноценно освещающие данную тему и обеспечивающие читателям необходимые знания в этой области. [2]

Средства криптографической защиты, такие как алгоритмы шифрования, криптографические ключи, генераторы случайных чисел и протоколы аутентификации, играют важную роль в защите систем мониторинга энергоснабжения. Они помогают обеспечить безопасность передачи данных, предотвратить атаки на систему и убедиться в подлинности источников данных. Кроме того, использование криптографии может помочь обеспечить соответствие законодательству и нормативным требованиям.

Средства криптографической защиты для систем мониторинга энергоснабжения и объектов инфокоммуникаций включают в себя следующие компоненты:

1. **Алгоритмы шифрования:** Они обеспечивают защиту данных, передаваемых между различными компонентами системы мониторинга. Обычно используются алгоритмы симметричного или асимметричного шифрования, такие как AES, RSA, ECC и другие.
2. **Криптографические ключи:** Используются для шифрования и дешифрования данных. В системах мониторинга обычно используются длинные ключи, чтобы обеспечить высокую степень безопасности.
3. **Генераторы случайных чисел:** Позволяют создавать уникальные случайные ключи для каждого сеанса связи.
4. **Криптографические хеш-функции:** Используются для обеспечения целостности данных и защиты от атак типа “человек посередине”.
5. **Протоколы аутентификации:** Обеспечивают проверку подлинности сторон, участвующих в обмене данными. Примеры протоколов аутентификации включают TLS, SSH, Kerberos и другие.
6. **Средства управления ключами:** Позволяют управлять жизненным циклом криптографических ключей, обеспечивая их безопасное хранение, генерацию и распределение между участниками системы.
7. **Криптографически стойкие операционные системы и приложения:** Они разработаны с учетом требований безопасности и обеспечивают защиту от вредоносного кода и других угроз. [3]

Аппаратные модули безопасности (HSM): Обеспечивают безопасное хранение и использование криптографических ключей.

Системы обнаружения и предотвращения вторжений (IDS/IPS): Используются для обнаружения и блокировки атак на систему мониторинга, включая атаки на криптографические компоненты.

Системы управления ключами и сертификатами: Помогают управлять криптографическими ключами и цифровыми сертификатами, используемыми в системе мониторинга. – Описание различных объектов инфокоммуникаций и их функций, включая сети связи, оборудование связи, информационные системы, средства массовой информации, коммуникационные технологии и сетевые технологии.

– Обсуждение важности объектов инфокоммуникаций для современного общества, включая их роль в экономике, образовании, науке и культуре.

– Анализ развития объектов инфокоммуникаций в разных странах и регионах, а также сравнение их уровня развития.

– Рассмотрение проблем и вызовов, связанных с объектами инфокоммуникаций, таких как безопасность и защита информации, экологичность и энергоэффективность, а также перспективы развития в будущем.

– Оценка роли и влияния объектов инфокоммуникаций на качество жизни людей и их возможности в области образования, работы и досуга. Такая статья может быть полезна для специалистов в области инфокоммуникационных технологий, студентов и преподавателей, а также для всех, кто интересуется современными технологиями и их влиянием на общество.

Базовая аутентификация: При использовании базовой аутентификации пользователь предоставляет свои учетные данные (логин и пароль) для проверки. Профессионал рекомендует использовать SSL/TLS для обеспечения безопасности передачи учетных данных. [4]

Заключение.

В данной статье мы рассмотрели основные принципы и методы анализа рисков и аутентификации управления безопасностью в сетях объектов инфокоммуникаций в веб-приложениях и пользователях. Понимание и применение данных методов и принципов являются важной составляющей работы профессионалов в данной сфере. Только через анализ рисков и применение аутентификации можно достичь высокого уровня безопасности в сетях информационных коммуникаций и обеспечить защиту для веб-приложений и пользователей. Аутентификация пользователей является неотъемлемой частью веб-приложений, которая требует специализированных знаний и опыта для обеспечения безопасности и защиты данных пользователей. В данном реферате были рассмотрены методы, принципы и лучшие практики, основанные на опыте профессионала в области аутентификации пользователей в веб-приложениях. Знание и применение этих принципов помогут разработчикам создать надежные и безопасные веб-приложения для пользователей.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА И ИСТОЧНИКИ.

1. Мингбоев Улугбек и Абдурасулов Алижон, “Мониторинг информационной безопасности”, IJSTR, PP. 275-279, май 2023 г. Том 1 (2).
2. Лазарев, П.И. Анализ рисков в управлении безопасностью в сетях объектов информационных коммуникаций // Информационный журнал безопасности. – 2013. – Т. 5. – № 2. – С. 54-62.
3. Миронов, Н.А. Практические аспекты аутентификации пользователей в веб-приложениях // Информационные технологии и безопасность. – 2015. – Т. 8. – № 4. – С. 67-76.
4. Иванов, В.М. Анализ рисков в управлении безопасностью сетей объектов инфокоммуникаций // Электронное образование и наука. – 2016. – Т. 13. – №4. – С. 96-103.

IKKI TOMONLAMA QAVARIQ LINZANING BOSH FOKUS MASOFASI VA OPTIK KUCHI ANIQLASH PRAKTIKUMINI BAJARISHGA DOIR AYRIM METODIK KO'RSATMALAR

Suvonov Doston Abduvaxobovich

Payariq tumani 76-maktab fizika fani o'qituvchisi

Totliyev O'lmasjon Xusniddin o'g'li

SamDU 2-bosqich doktoranti

ANNOTATSIYA


Ushbu maqolada laboratoriya jarayonida linzalarning bosh fokus masofasini va optik kuchini o'lchashning oddiy va samarali usulini o'rganish. Ikki tomonlama botiq linzaning optik kuchi va bosh fokus masofasini laboratoriya sharoitida o'lchashlarni amalga oshirish uchun praktikum tavsifnoma keltirilgan.

Kalit so'zlar: qavariq va botiq linza, optik skamya yoki darajalangan chizg'ich, taglikka o'rnatilgan lampochka, ekran, o'lchov lentasi yorug'lik manbai. Sochuvchi linza, masofani o'lchovchi asbob (shkalalangan uzun chizg'ich), yorug'lik manbai, yig'uvchi linza, optik taglik. Kerakli formulalar.

Fizika praktikumiga doir qo'llanmalarda ikki tomonlama qavariq va ikki tomonlama botiq linzalarning fokus masofasi va optik kuchini aniqlash bo'yicha qo'yilgan fizika praktikumlarining tavsiflarida asosan, ikki tomonlama qavariq linzalarning fokus masofasi va optik kuchini aniqlash yo'llari batafsil keltirilgan holda, ikki tomonlama botiq linzalar uchun tavsiyalar deyarli berilmaydi. Bundan tashqari ikki tomonlama botiq linzalarning fokus masofasi va optik kuchini aniqlash biroz murakkab optik sistemani yig'ishni talab etadi. Bunga o'xshash o'ziga xos nozik jihatlar optikaga doir praktikumlarning ko'pchiligida uchraydi. Agar o'shanday tartiblarga amal qilinmasa ayrim optik o'lchashlarni umuman amalga oshirib bo'lmaydi. Ikki tomonlama botiq linzalarning fokus masofasi va optik kuchini aniqlash praktikumi ham shunday ishlar jumlasiga kiradi. Shuning uchun ma'ruzada ikki tomonlama botiq linzalarda ushbu parametrlarni aniqlash laboratoriya ishlari (mashqlar) ning algoritmlari batafsil bayon qilinadi.

Ma'lumki, linzalarda tasvir yasash uchun asosan 3 ta nurdan foydalanish qulay bo'ladi. Masalan, qavariq linza bosh optik o'qiga parallel bo'lgan nur, linzada (C) singandan so'ng, uning bosh fokusi (F) dan o'tadi; linzaning fokusi (F_1) orqali o'tuvchi nur o'qda singandan (D) keyin bosh optik o'qqa (BB_1) parallel ravishda (DA_1) ketadi;

linzaning optik markazi (O) orqali o'tuvchi nur o'z yo'nalishini o'zgartirmaydi (AOA₁) (1-rasm).



1- rasm. Qavariq linzada tasvir yasash

Hisoblashlarning ko'rsatishicha, buyumdan linzagacha bo'lgan d masofa, linzadan tasvirgacha bo'lgan f masofa va linzaning fokus masofasi $F=OF$ o'zaro quyidagicha bog'langan:

$$\frac{1}{F} = \frac{1}{d} + \frac{1}{f} \quad (1)$$

bunda

$$F = \frac{d \cdot f}{d + f} \quad (2)$$

Bu laboratoriya ishida qavariq va botiq linzalarning fokus masofasi F va optik kuchi D aniqlanadi. Shuningdek kattalashtirishlari ham aniqlanishi mumkin.

1-mashq. Yig'uvchi linzaning bosh fokus masofasini aniqlash

Linzaning bosh fokus masofasi ikki xil usulda aniqlanadi. Uni linza bilan buyum va linza bilan tasvir orasidagi masofalarga qarab aniqlash mumkin. Ma'lumki, yig'uvchi linzaning bosh fokus masofasi (2) formula yordamida topiladi.

Kerakli asbob va materiallar: yig'uvchi linza, optik skamyaya yoki darajalangan chizg'ich, taglikka o'rnatilgan lampochka, ekran, o'lchov lentasi yorug'lik manbai.

Ishning bajarilish tartibi

1. Strelkali karton o'rnatilgan yoritgichni optik skamyaning bir tomoniga, ekranni esa ikkinchi tomoniga o'rnatiladi. Ular orasiga linzani qo'yning.

2. Lampani yoqing va linzani optik skamyaga bo'ylab surib, ekranda buyumning aniq tasvirini hosil qililadi.
3. Buyumdan linzagacha va linzadan ekrangacha bo'lgan d va f masofalarni o'lchadi.
4. (2) ifodadan foydalanib, linzaning bosh fokus masofasi F ni hisoblanadi.
5. Buyum va ekran orasidagi masofani o'zgartirib, tajribani 7-10 marta takrorlanadi.
6. Bosh fokus masofaning o'rtacha qiymatini, absolyut va nisbiy xatolikni hisoblanadi.
7. Tajriba natijalarini 1-jadvalga yozinadi. 1-jadval

| Tajriba nomeri | d, m | f, m | F, m | D, dp |
|-------------------|--------|--------|--------|---------|
| 1-7gacha | | | | |

2-mashq. Botiq linzaning fokus masofasini aniqlash


Kerakli asbob va materiallar: sochuvchi linza, masofani o'lchovchi asbob (shkalalangan uzun chizg'ich), yorug'lik manbai, yig'uvchi linza, optik taglik.

Ishning bajarilish tartibi

1. Optik taglikka chizg'ichni gorizonttal o'rnatiladi.
2. Optik taglikka yoritgich, yig'uvchi linza va yarim shaffof ekranni o'rnatiladi va ekranni surib, unda strelkasimon tirqishning aniq tasvirini hosil qilinadi.
3. Ekran vaziyatini chizg'ich yordamida aniqlab oling va ekranni chapga o'ngga surib, yana shu ishni 7-10 marta takrorlanadi.
4. Ekranni chapga surib, ekran bilan qavariq linza orasiga botiq linzani 2-rasmda ko'rsatilganidek kiriting va tirqishning yaqqol tasvirini hosil qilinadi. Bunda botiq linza ekranning dastlabki (3-punkt) vaziyatidan biroz o'ngroqda bo'lishiga erishiladi.
5. Linza va ekranning vaziyatlarini chizg'ich shkalasidan aniqlang va linza yoki ekranni surib, tajribani 7-10 marta takrorlanadi. Ekranning ikkinchi vaziyati (2-rasm), E nuqtani topib $ES=a$, $DC=b$ larni aniqlanadi va

$$F = \frac{ab}{a+b} \quad (5)$$

(5) formuladan botiq linzaning fokus masofasini topiladi.



2-rasm. Botiq linza fokus masofasini aniqlash

7. Olingan natijalarni 3-jadvalga yozing va o'lchash xatoligini baholanadi. 2-jadval.

| Tajriba nomeri | A, m | b, m | F, m | D, dp |
|-------------------|---------|---------|------|-------|
| 1-7 | | | | |

ESLATMA: botiq linza uchun F' manfiy ekanligini (5) formulani chiqarishda hisobga olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

1. Парпиев Қ., Отажонов Ш., Маматисақов Д., Ортиқов А. Умумий физикадан практикум. Андижон, 2002.
2. В.И. Иверонова. Физикадан практикум. Т., Ўқитувчи. 1979
3. Бўрибаев И., Каримов Р. Оптика. (Физик практикум) Т., 2004.

ZIRHLI TEXNIKALARNI BOSHQARISH TRENAJYORLARINING RIVOJLANISH TARIXI

R.K.Mavlyutov

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
Sikl boshlig‘i

Annotatsiya: Maqolada zirhli texnikalarni boshqarish trenajyorlari, ularning rivojlanish tarixi, turli avlodlardagi haydash trenajyorlarning asosiy tuzilish elementlari, ularning afzalliklari va kamchiliklari, haydovchi-mexaniklarni tayyorlash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: trenajyor, haydash, qurol-yarog‘ va texnika, zirhli, baholash, mezon, rel‘ef.

Аннотация: в статье рассматриваются тренажеры для управления бронетехникой, история их развития, основные конструктивные элементы тренажеров для вождения в разных поколениях, их преимущества и недостатки, возможности обучения механиков-водителей.

Ключевые слова: симулятор, вождение, оружие и техника, броня, оценка, критерий, местность.

Abstract: The article discusses driving simulators for armored vehicles, the history of their development, the main structural elements of driving simulators in different generations, their advantages and disadvantages, and training opportunities for driver mechanics.

Keywords: simulator, driving, weapons and equipment, armor, assessment, criterion, terrain.

Hozirgi vaqtda qo‘shinlarda trenajyorlardan samarali foydalanish harbiy xizmatchilarni tayyorlash sifatini oshirishda eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy trenajyorlar harbiy xizmatchilarning yakka (individual) tayyorgarligini va taktik tarkibiy qismini inobatga olgan holda, ekipajlar, raschotlar, bo‘linmalar va shtablar tarkibida har tomonlama tayyorgarlikni ta‘minlaydi. Trenajyorlar - bu harbiy xizmatchilarni ular bilan sifatli va to‘g‘ri ishlash uchun ma‘lum darajada tayyorgarlikni talab etadigan yuqori texnologik qurilmalar.

Tarixiy jihatdan trenajyorlar haqiqiy ob‘ektlarda o‘qitishdagi xatolar, og‘ir oqibatlariga olib kelishi va katta moliyaviy xarajatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan

sohalarda – harbiy ishlar, aviatsiya, atom energetika va kosmosda – paydo bo‘ldi va keng tarqaldi.

Zirhli texnikani haydash uchun trenajyorlarni ko‘rib chiqamiz, ularning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – o‘quvchining vestibulyar apparatiga kinematik ta‘sirni ta‘minlash, transport vositasi shassisining yer bilan haqiqiy o‘zaro ta‘sirini simulyatsiya qilishdir. Trenajyorlarni texnik ob‘ektlar sifatida yaratish tarixini ularning tuzilishiga kiritilgan muhandislik yechimlariga muvofiq avlodlarga bo‘lish mumkin.

Trenajyorlarni avlodlarga bo‘lish shartli va bir qator omillar bilan belgilanadi:

– fizik modellashtirish uchun yangi ob‘ektlarning paydo bo‘lishi; elementar bazaning, shu jumladan elektron, optik va elektron-optik asbobsozlikning rivojlanish darajasi;

– mexanika, mikromexanika va ularga yaqin sohalarning yutuqlari;

– boshqarish tizimlari va xususan trenajyor texnikasi sohasida yutuqlar va ishlashning yangi tamoyillari ishlab chiqish.

Trenajyorlarni takomillashtirish ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi bilan parallel ravishda amalga oshirildi. Ilmiy tadqiqotlar sohasidagi yutuqlarning qo‘llanilishi kursantlarga amaliy ko‘nikmalarni singdirish va ularni baholashda trenajyorlarning imkoniyatlarini yaxshilashga imkon berdi.

Ulug‘ Vatan urushidan keyingi davrda haydovchi-mexaniklarni tayyorlash va o‘qitish uchun faqat statik trenajyorlardan foydalanilgan. Ushbu trenajyorlarda yo‘riqchi rahbarligida va o‘rgatuvchi moslama yordamida zirhli texnikalarni boshqarish jarayonining ketma-ketligi o‘rganilgan.

Trenajyorning nazorat-o‘lchov uskunalari ko‘rsatgichlari o‘zgarishi mexanik pedali va uskuna o‘qi bog‘liqligi orqali amalga oshiriladi. Belgilangan o‘quv dasturlari ushbu trenajyorlar kursantdan harakatlarning qat‘iy belgilangan tartibini talab qiladi, ushbu dasturdan har qanday chetlashish xato deb tasniflanadi. Statik trenajyorlarda boshqaruv organlari bilan ishlashda faqat bajarish qobiliyatlari shakllanadi. Tayyorgarlik darajasini baholash mezonlari sifatida kursantlar dastur topshiriqlarini bajarish tezligi va xatosiz ishlashlari hisobga olinadi.

Avtomatik baholash tizimining kamchiligi shundaki, trenajyor belgilangan yo‘nalishga to‘liq bog‘langan. Bundan tashqari, bunday o‘quv tizimining haydovchi-mexanik o‘quv joyini ishlab chiqarish zirhli texnikalarni ishlab chiqarishdan qimmatroq, motor resurslari, yoqilg‘i sarfi, maxsus uskunalarni o‘rnatish uchun qo‘shimcha xarajatlar talab etiladi.

Dinamik kinoproeksiya trenajyorlari zirhli texnikalarni boshqarish jarayonini qisman yoki to‘liq takrorlaydigan, fizikaviy yoki matematik modellashtirish usullariga asoslangan trenajyorlarni o‘z ichiga oladi. Analog trenajyorlarning eng muhim

xususiyati - ob'ektiv baholash mezonlari yordamida tayyorgarlik darajasi va sifatini nisbatan osonlikcha baholash imkoniyatlari edi.

Barcha ishlab chiqarilgan dinamik trenajyorlar “bitta o‘quvchi - bitta yo‘riqlovchi” tamoyili bo‘yicha konstruktiv tarzda bajariladi, ya’ni trenajyorlar majmuasi o‘quvchi va yo‘riqlovchi o‘rinlaridan iborat.

Dinamik trenajyor quyidagi vazifalarni bajarishga imkon beradi:

– zirhli texnikalarni haydashga tayyorlash, dvigatelni ishga tushirish va to‘xtatish, joyidan qo‘zg‘atish, ulashni almashtirish, burilish, sekinlashish va to‘xtash bo‘yicha bir qator operatsiyalarni bajarish;

– haydovchi-mexanikga to‘siqli va chegaralangan o‘tish joylarda yo‘l holatiga muvofiq boshqarish mexanizmlarining to‘g‘ri va muvofiqlashtirilgan harakatlarini o‘rgatish;

– nazorat-o‘lchov uskunalari ko‘rsatkichlarini kuzatish.

Trenajyorda videofilmlar to‘plamidan foydalanib, ularni o‘zgartirish va burilish bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish mumkin edi. Vizual ma’lumotdan tashqari, haydovchi haqiqiy texnikadagi kabi trenajyor korpusining chayqalishlarini sezgan. Ushbu trenajyorning muhim kamchiligi shundaki, harakat tezligi va yuqlanish o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlik mavjud emas. Harakat tezligiga va ma’lum darajada kabina chayqalishiga rel’efning ta’siri yo‘qligi, kabina chayqalishi va dvigatel shovqinining statik xususiyati, nisbatan past ishonchliligi va past o‘tkazuvchanligi trenajyor ishlab chiqarishini tugatishga olib kelgan.

Dinamik televizion trenajyorlarda barcha axborot oqimlari yo‘riqlovchi pultiga o‘rnatilgan ikkita hisoblagich tomonidan qayta ishlanadi. Ushbu ikkita hisoblagich hisoblash moslamasi va maxsuslangan elektron hisoblash mashinasi shaklida amalga oshiriladi.

Hisoblash moslamasi elektron hisoblash mashinasi bilan birgalikda ishlaydi va mashina holatining dinamik xususiyatlarini hisoblaydi. Dvigatel va transmissiyaning ishlashi, harakatlanish tezligi va shunga qarab vizualizatsiya, gidroprivod tizimlari, asboblari ko‘rsatkichlari va shovqin taqlidchi tizimlari uchun boshqaruv habarlarni ishlab chiqadi.

Maxsuslangan elektron hisoblash mashinasi quyidagi vazifalarni bajaradi: tavsiyanoma tizimi orqali trenajyor majmuasining ish tartiblarini tanlash va o‘rnatish; havoning har xil haroratida dvigatelni ishga tushirishga tayyorgarlik ko‘rish va starter, havo va kombinatsiyalangan usulda ishga tushirishni, dvigatelni to‘xtatishni kuzatish; “Mustaqil o‘rgatish” tartibida dvigatelni yozgi va qishki sharoitlarda ishga tushirishga tayyorlash va ishga tushirishni tahlillash, bunda monitor ekraniga o‘quvchining harakatlari ketma-ketligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar avtomatik ravishda chiqariladi; haydash texnikasi va o‘rtacha tezlik me’yorlari bo‘yicha mashq bajarish sifatini

baholash; mashq bajarish uchun yakuniy bahoni chiqarish va qayd etilgan xatolarni ko'rish; dasturning ishlashini nazorat qilish.

Trenajyorga elektron hisoblash mashinasining kiritilishi bilan o'quv jarayoni tugagandan so'ng, o'quvchiga haydash jarayonida qayd etilgan xatolar ketma-ketligi, ularning soni va baholash ko'rsatkichlarining xulosa jadvali taqdim etilishi mumkin bo'ldi. Zamonaviy trenajyorlarda kursantning ish joyining ichki maketi va axborotni qayta ishlashning dasturiy ta'minoti uning o'ziga xosligi va maqsadini belgilaydi, sensorlar tizimi ko'rsatkichlari, boshqaruv elektron hisoblash mashinasi, tashqi vaziyatni namoyish vositalari va ijro etuvchi tizim kabi tugunlar turli trenajyor tizimlari uchun bir xil bo'ladi. Ma'lumotlar operatorga mo'ljalga oluvchi va kuzatuv moslamalariga o'rnatilgan monitorlarda taqdim etiladi. Monitor ekranlarida analog va raqamli ko'rsatkichlar ham ko'rsatiladi. Kompyuterning tezligi atrof-muhitni namoyish qilishda yerning tasvirini to'liq sintezlash va unga turli ob'ektlarni ko'shishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy trenajyorlarda kursantlarning jangovar mashinalarni boshqarish malakalarini oshirish hozirgi rivojlanish zamonida juda ham maqbul yo'l sanaladi. Kursantlarni zirhli mashinalarni boshqarish tajribasi ortibgina qolmasdan yoqilg'i mahsulotlari tejash va jangovar mashinalarning yashovchanligi ortib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

<https://iz.ru/1451129/andrei-frolov/tankovyi-nariad-naskolko-bronetekhnika-effektivna-v-khode-svo>

<https://www.1tv.ru/shows/chasovoy/vypuski/bronetekhnika-v-svo-chasovoy-vypusk-ot-21-05-2023>

https://ria.ru/tag_bronetekhnika/

<https://tass.ru/armiya-i-opk/19544205>

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA BUYUK SARKARDALARNING O'RNI

Abidjanov Zafar Xamidjanovich

O'R Q K Akademiyasi katta o'qituvchisi

***Annotatsiya:** maqola yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda buyuk sarkardalarning millat oldidagi xizmatlarini yoritishga bag'ishlangan.*

***Tayanch tushunchalar:** vatanparvarlik, tarbiya, ma'naviyat, davlat, buyuk, sarkarda, xizmat, madaniyat.*

***Аннотация:** статья посвящена освещению заслуг великих полководцев перед нацией в патриотическом воспитании молодежи.*

***Ключевые слова:** патриотизм, воспитание, духовность, государство, великий, полководец, служба, культура.*

***Abstract:** the article is devoted to highlighting the merits of great generals to the nation in the patriotic education of young people.*

***Keywords:** patriotism, education, spirituality, state, great, commander, service, culture.*

Bugun zamon shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Har qadamda rivojlanish har qadamda yuksalish bo'layotgan ayni bir pallada ba'zi mamlakatlar, davlatlar va xalqlarning kelajagiga bo'lgan ishonchi va umidi yon atrofidagi boshqa davlatlar va mamlakatlarga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ayni shunday bir tahlikali zamonda mamlakatimiz osoyishta va tinch kunlarni o'tkazmoqda.

Bugun biz dunyoda imperiyaparastlik va shovinizm bosh ko'tarayotgan, tajovuz va tahdid tobora ortayotgan, tarixni buzib talqin qilish kuchayayotgan, kamsitish, bosqinchilik, vayronkorlik va bir-biriga qarama-qarshi qo'yish, adovat qo'zg'ash, urushlarni moliyalashtirish, ichki ishlarga aralashish ochiq-oydinlik kasb etayotgan ziddiyatli va murakkab bir davrda yashayapmiz.

Mustaqil davlatlarga tahdidlar turli ko'rinishlarda namoyon bo'lyapti. Ba'zan unga beparvo qaraymiz, ba'zida kampaniyabozlik qilib, kimo'zarga javob qaytaramiz. Lekin biz millat sifatida anglab yetishimiz zarur bo'lgan bir haqiqat bor. Mustaqillik uchun kurash qachonki, unga nisbatan tahdidlar yuz bergandagina ko'zga

tashlanmasligi kerak. Bu o'z qarash bilan mutlaqo murosa qilib bo'lmaydi. Zero, mustaqillik uchun jang mamlakat va millat bor ekan, hech qachon to'xtamaydi.

Unutmaslik kerakki, bu jang to'xtagan kuni dushmanlar bosh ko'taradi. Ular hali-hamon mustamlakachilik, hukmronlik da'vosidan voz kechgani yo'q, payt poylab turibdi. Qachonki, biz ahillikni, birlikni, hamjihatlikni yo'qotsak, ichimizdan xoinlar chiqsa, vatan ozodligini ko'z qorachig'imizdek asramasak, bunday vaziyat dushmanlarimizga qo'l keladi.

Vatanparvarlik – bu kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, [xalq](#), [millatlar](#) uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o'z [vatanlari](#) taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi. Vatanni sevish iymondandir deb ham bejizga aytishmagan. Vatanparvar insonlar vatanimizda juda ham ko'p uchraydi. Masalan, [Abdulla Avloniy](#), u qatag'on yillari paytida yashagan bo'lsa ham so'z erkinligi unda juda rivojlangan. [Mahmudxo'ja Behbudiy](#), u o'zining bolalarni o'qitish kitoblari bilan Vatanimizda tanilgan. Uning bolalarga Chet tilini o'rgatish, Savod chiqarish va boshqa o'qitishga oid qilgan ishlari taqsiqga loyiq. Birinchi prezidentimizning “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch asarida” ham ajdodlarimiz oz ona yurtlari uchun qo'shgan hissalarini haqida juda kop ma'lumotlar keltirilgan. Masalan: Chingizxon zulmiga qarshiliklar Amir Temur jasorati, Jaloldin Manguberdi va boshqa buyuk sarkardalar haqida malumotlar berilgan .

Amir Temur – yirik davlat va siyosat arbobi, sarkarda, qonunshunos, iste'dodli me'mor, notiq ruhshunos bo'lish bilan birga Turkistonni jahonga mashhur qilgan milliy g'ururli, so'zi bilan ishi bir, vatanparvar inson – buyuk shaxs edi. Uning nomi bilan boshlangan “Temuriylar madaniyati” o'ziga xos “Temuriylar tarbiyasi”ni yaratdi. Navoiy, Ulug'bek, Bobur kabi ulug' zotlar va ana shu tarbiyaning natijasi – mevasi bo'ldilar. Amir Temur davrida ilm-fan, madaniyat gullab yashnadi, boy ma'naviy qadriyatlar yaratildi. Bular Markaziy Osiyo mintaqasidagi xalqlarining madaniy-ma'naviy taraqqiyotida asosiy yo'nalishni belgilab berdi.

Bobur Mirzo ijodi ma'naviyatimizning bir bo'lagidir. Zahiriddin Muhammad Boburdek munosib farzandlari bo'lgan millat yangi - yangi g'oyalarni yaratishga qodirdir. Biz Bobur Mirzoni ulkan davlat arbobi sifatidagina emas, qomusiy alloma, mumtoz shoir sifatida ham cheksiz qadrlaymiz. Bobur o'zbek xalqining buyuk farzandi, milliy g'ururidir.

Zahiriddin Boburdagi tabiiy iste'dod uning har tomonlama rivojlangan va

qomusiy bilimlarni o'zida mujassamlantirgan shaxsiyati, aql-zakovati, insoniy xislatlari va qolaversa, uning ochiq ko'ngilliligi, nozik tabiatliligi bizni doimo hayratga solib keladi.

Boburning asosiy maqsadlaridan biri yagona markazlashgan davlat barpo etish, mamlakatni obod etib, ezgu niyatlarini amalga oshirish edi. Boburning bu maqsadlari Hindistonda amalga oshdi. Uch asrdan ortiqdavom etgan va Hindiston tarixida muhim rol o'ynagan markazlashgan davlatning vujudga kelishi, albatta, Bobur nomi bilan chambarchas bog'liqdir.

Jaloliddin yurt ozodligi yo'lida jon fido etdi, mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda ularga qaqshatqich zarbalar berib, mo'g'ul hukmdorlariga tahlika solib, ularga qarshi tura oldi. Uning nomi tarix zarvaraqlarida jasur sarkarda sifatida hamisha qayd etilishi uning matonatiga berilgan bahodir, albatta. Yuqorida keltirilgan sabablar esa, uning fojiali halok bo'lishiga olib keldi.

Sulton Jaloliddin xizmatiga o'z hayotini bag'ishlagan, uning yonida so'nggi yetti yil mobaynida doimiy hamrohi bo'lgan, sulton vafotidan keyin uning hayot yo'lini tasvirlab asar yozgan alloma Shahobiddin an-Nasaviy edi. Buyuk sarkardaga xos dovyuraklik, adolatlilik, kamtarinlik fazilatlarini haqqoniy qalamga olgan alloma Jaloliddinning vafotidan keyin olti yil o'tgach, o'z hukmdori to'g'risida ajoyib tarixiy asar yaratadi.

Jaloliddinning el-ulus, vatan ozodligi va mustaqilligi yo'lidagi fidoyiligi, mislsiz jasorati mangulikka daxldordir. Istiqlol nashidasini surayotgan mustaqil O'zbekistonda ulug' ajdodlar ruhining e'zozlanayotgani, jumladan, Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yillik yubileyining munosib nishonlanishi bejiz emas. Zero, ana shu aziz va muqaddas Vatan oldidagi xizmatlarining, bugun biz erishgan istiqlolgacha ham buyuk ajdodlaming xalq, yurt ozodligiga qo'shgan hissasining tan olinganidir.

Xulosa qilib aytganda Bugungi globalashuv jarayonida, vatanimizning kelajagi uchun yosh avlodga to'g'ri tarbiya berish, ular ongida vatanga bo'lgan muhabbat, ajdodlarimizning buyuk jasoratlari, ona tuproq qadri, oilaning muqaddasligi, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni oshirish hamda ota-onalarning farzand tarbiyasidagi ma'suliyatini yanada oshirishga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. "O'zbekiston", 2016.
2. Temur tuziklari // nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir J.Rahimov, forscha matndan A. Sog'uniy va H.Karomatov tarjimasi, izohlar B. Ahmedov va A. Ahmedov – T., "Shodlik nashriyoti" – 2018. – B.116
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma - Toshkent: "Yulduzcha", 1990. B.207.
4. M.Farmonova. "Qadriyatlar – ma'naviy kamolot asosi" ilmiy-uslubiy qo'llanma., "Tasvir nashriyot uyi" Toshkent., 2019 y.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI MA‘NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH TAMOYILLARI

Shukurov Aktam Sagdullayevich

O‘R QK Akademiyasi o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** maqola bo‘lajak o‘qituvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash tamoyillarini o‘rnini yoritishga bag‘ishlangan. Maqolada ta‘lim jarayonida ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash tamoyillari tushunchalarining mazmuni asoslab berilgan.*

***Tayanch tushunchalar:** ma‘naviy, madaniyat, talim, axloqiy, rivojlanish, tamoyil, imkoniyat, jarayon, tizim.*

***Аннотация:** статья посвящена освещению места принципов духовно-нравственного воспитания будущих педагогов. В статье обосновано содержание понятий принципов духовно-нравственного воспитания в образовательном процессе.*

***Ключевые слова:** духовное, культура, образование, нравственное, развитие, принцип, возможность, процесс, система.*

***Abstract:** the article is devoted to highlighting the place of the principles of spiritual and moral education of future teachers. The article substantiates the content of the concepts of the principles of spiritual and moral education in the educational process.*

***Keywords:** spiritual, culture, education, moral, development, principle, opportunity, process, system.*

Globalashayotgan jamiyatning jadal rivoji bugungi kunda harbiy ta‘lim tizimida tayyorlanayotgan malakali kadrlar korpusining raqobotbardoshligini ta‘minlash zaruratini ham talab qilmoqda. Bunday sharoitda bo‘lajak harbiy xizmatchilar uchun berilayotgan, ta‘lim mazmuni, o‘quv jarayonining jahon andozalari darajasida tashkil etilishi globalashayotgan dunyo, innovatsion asosda rivojlanayotgan milliy iqtisodiyot, ijtimoiy tizim talablariga mos kelmog‘i lozim. Shuning uchun ham harbiy ta‘lim tizimida malakali kadrlar tayyorlashning samarali mexanizmlarini joriy etish bo‘lajak harbiy xizmatchilarni kasbiy malakasini shakllantirish, shuningdek, ularni

ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish bugungi harbiy ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Pedagogik jarayonlar ham shaxsning shakllanishida muhim, mohiyatli takrorlanib turuvchi ichki bog'lanishlarni ifodalaydi. Bu o'zaro bog'lanishlar jamiyat, uning ijtimoiy munosabatlari, shaxs va muhit, insonlarning o'zaro ta'sirida muhim, umumiy, ichki va mohiyatli bog'lanishlardan kelib chiqadi. Shuning uchun biz insonning biron bir sifati yoki xususiyati haqida gapirar ekanmiz, undagi bu xislatlar boshqa kishilar va jamiyatdagi munosabatlar bilan o'zaro aloqadorlikda shakllanishini e'tibordan soqit qilmasligimiz kerak. Shundan kelib chiqib, ma'naviy-axloqiy tarbiya qonuniyatlarini pedagogik hodisa va jarayonlarning o'zaro aloqalaridan keltirib chiqarmoq lozim.

Biron bir nazariya, ta'limot, fan, dunyoqarash, g'oya, siyosiy tashkilot, jamiyatning asosiy qoidalari bo'lib, busiz ular o'z mohiyatini yo'qotadi. Mazkur fan, ta'limot shu hodisalar asosida amal qiladi, o'z sohasini o'rganadi. Shu bilan birga biron sabab, mexanizmning tuzilishi, ishlash tamoyilining tub xususiyatlarini ham ifodalashi mumkin. Dunyoqarash – o'ziga va voqelikka munosabatini belgilovchi e'tiqod, xulqatvor me'yorlari ham ma'lum g'oyaviy, axloqiy tamoyillarga tayanadi. Shaxsning ma'lum g'oyaga e'tiqodi asosida ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy munosabatlarda aniq bir nuqtai nazarga ega bo'lishi uning maslagining prinsipi (tamoyili) hisoblanadi.

Mustaqillik sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiya butun jamiyat ishi bo'lib, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan, tarbiyaviy jarayon milliylashib, uni insonparvarlashtirish, yakka shaxsni emas, balki butun jamiyat, jamoalarni tarbiyalash, ularning ma'naviy dunyosi, ongi, tafakkurini o'zgartirish ijtimoiy zaruratga aylanganda bu tarbiya tamoyillari yaroqsiz bo'lib qoldi. Mustaqillik sharoitida kishilarni gumanistik, umumbashariy va milliy qadriyatlar, urf-odat, an'analar ruhida tarbiyalash zaruriyati ma'naviy-axloqiy tarbiya tamoyillarini tasnif qilishda axloqiy, insonparvarlik va jamoaviy xususiyatlar ma'naviy-axloqiy tarbiyani belgilovchi tamoyillar bo'ladi. Tamoyillar milliy istiqlol mafkurasining gumanistik g'oyalariga asoslanishi kerak.

Shunga asoslanib, biz ma'naviy-axloqiy tarbiyaning axloqiylik, insonparvarlik, gumanistik xarakterdagi quyidagi tamoyillarini taklif qilamiz:

1. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada jamoaning g'oyaviy va tashkiliy asoslari birligi.
2. Inson shakllanishida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yetakchilik va yo'naltiruvchi rahbarlik roli.
3. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar, tarbiyalanuvchi va pedagoglarning o'zaro munosabatlarining ma'naviy boyligi.
4. Ma'naviy-axloqiy tarbiya va tarbiyalanuvchilar ma'naviy hayotida fuqarolik mas'uliyatiga egaligi.

5. Muntazam ravishda tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning g'oyaviy, intellektual hamda ma'naviy boyligini oshirib borishi.
6. Yuksak ehtiyoj, qiziqishi va istaklarining o'zaro uyg'unligi.
7. An'analarni ehtiyotkorlik bilan asrab avaylash va ularni avloddan-avlodga ma'naviy boyluk sifatida yetkazish.
8. Kursantlar guruhining boshqa guruhlar bilan g'oyaviy, intellektual, estetik o'zaro munosabatlarining boyligi.
9. Guruh (jamo) hayotining emotsional boyligi.
10. Guruh (jamo)da kursantlarning o'z faoliyati (topshiriq) va xulqi uchun qat'iy tartib-intizom va mas'uliyatni his etishi. Mazkur ma'naviy-axloqiy tarbiya tamoyillari o'z mazmun va mohiyati bilan milliy g'oyamizga hamohangdir.

Ma'lumki, tarbiyaviy jarayonlar yaxlit tizim sifatida bir-biriga bog'liq hodisalarning sabab va oqibat tarzida rivojlanishida namoyon bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonidagi pedagogik hodisalar ma'lum qonuniyatlar asosida o'zaro bog'liq bo'ladi. Ularni bilish ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslarini ilmiy jihatdan egallab olish, boshqarish va rejalashtirish uchun muhim negiz sifatida xizmat qiladi. Har bir pedagogik hodisa ma'lum sabablarga ko'ra vujudga kelib, muayyan natijaga olib keladi. Shuning uchun u yoki bu pedagogik jarayon yoki hodisani keltirib chiqargan sabablarni aniqlash, ularni faqat bilibgina qolmasdan, ijobiy ta'siridan foydalanish, salbiylarining oldini olish imkoniyatini beradi. Shu asosda ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonini ilmiy asosda boshqarish, uni shaxs kamolotiga yo'naltirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Hodisalar o'rtasidagi muayyan zaruriy munosabatlar ichki aloqadorlikdan kelib chiqadi. Narsa, hodisalarning birligi, o'zaro aloqadorligi ularning mohiyatini bilish bosqichlaridir. Bunday bog'lanishlar umumiy, mohiyatli va takrorlanib turuvchi ichki bog'lanishlar bo'lib, qonun yoki qonuniyat tarzida namoyon bo'ladi. Qonun hodisalar mohiyatidagi ichki barqaror bog'lanishlar demakdir. Bu jihatdan qonun va qonuniyat o'zaro bir-biriga yaqindir. Narsa, hodisalar pedagogik jarayonlar o'rtasidagi munosabatda qonuniyatli bog'lanishlar, muayyan sharoitda, albatta, zaruriy kuch sifatida amal qiladi. Qonuniyatli bog'lanishlar hodisalar sababiyatini taqozo qilishning natijasidir. U hodisalarning ma'lum darajada muntazamliligi va izchilligini ifodalaydi va shu tarzda namoyon bo'ladi.

Ya'ni, tarbiyaviy jarayon tashkilotchilari ularni bilsa, mohiyatini chuqur anglasa, olib boradigan tarbiyaviy ishining ta'siri oshadi. Ularni ilmiy bilish, tushunish va ulardan o'rinli foydalanish qonuniyatlarining namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratishni va amaliyotda ularga rioya qilishni taqozo qiladi. Binobarin, tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish va boshqarish ham mustahkam mohiyatli, umumiy, takrorlanib turuvchi, zaruriy, obyektiv bog'lanish va munosabatlardan kelib chiqmog'i lozim.

Tarbiyaviy jarayon haqida fikr yuritar ekanmiz, uning inson shaxsiga yo‘nalganligini, o‘z navbatida bular murakkab ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlash o‘rinlidir. Ijtimoiy munosabatlar va u asosida vujudga keluvchi shaxslararo munosabatlar ko‘p qirrali va murakkabdir.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlariga uning davr, tarixiy taraqqiyot, siyosiy tuzum bilan bog‘liqligini ko‘rsatish mumkin. Har bir jamiyat o‘z iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, huquqiy-siyosiy qonuniyatlariga ega. Buma’naviy-axloqiy tarbiyaga ham tegishli. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi umumiy bo‘lib, ya’ni hamma ijtimoiy tuzumlarga xos, ammo uning ta’siri har bir jamiyatda turlicha namoyon bo‘ladi. Ya’ni jamiyat o‘z ma’naviy-axloqiy, mafkuraviy jarayonlardan kelib chiqib, undan foydalanadi.

Jamiyat ijtimoiy tuzilishining o‘zgarishi uning ma’naviy-madaniy rivojiga hamda davlat siyosatining o‘zgarishiga olib keladi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya siyosatdan tashqari, siyosat esa ma’naviy-axloqiy tarbiyaga befarq qaray olmaydi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya siyosat bilan u orqali jamiyat mafkurasi bilan uzviy bog‘liq, qolaversa ularning manfaat va talablariga xizmat qiladi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya mafkuraning g‘oyaviy yo‘nalishi va ko‘rsatmalarini amalga oshiruvchi muhim vositaga aylanadi. Hozirgacha bo‘lgan jamiyatlarning tarixiy tajribasi yuqoridagi fikrlarni isbot qiladi. Bu esa ma’naviy-axloqiy tarbiyaning g‘oyaviyligi va maqsadga yo‘naltirilganligi qonuniyatining obyektiv amal qilishiga dalil bo‘la oladi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya hamma vaqt ma’lum g‘oyaga asoslanishi, uni kishilarga singdirishga xizmat qilishi lozim.

Mamlakatni har tomonlama rivojlantirish, yuksaltirish bo‘yicha belgilangan dolzarb masalalarni muvaffaqiyatli hal qilishning muhim shartlaridan biri xalqning ma’naviy, ma’rifiy va madaniy saviyasini o‘stirish hisoblanadi. Chunki xalqning, jamiyatning har bir a’zosining ma’naviy, ma’rifiy va madaniy saviyasi qancha yuqori bo‘lsa, kadrlar salohiyati shuncha baland bo‘ladi, xalqning turmush darajasi oshadi. Shunday ekan, xalqimizning, jamiyatimizning madaniy, ma’naviy-axloqiy saviyasini o‘stirishga alohida e’tibor qaratish muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir. /O‘zbekiston Respublikasi xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig‘ilishdagi nutqi.//Vatanparvar, 2024. 12 yanvar.
2. Psixologik-pedagogik atamalar izohli lug‘ati. – T.: O‘R Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2019 y. –116 b.
3. Satib-Aldiev A. Ofitserning pedagogik madaniyati. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent OUQBYu, 2013. – 38 b.
4. Falsafa: qomusiy lug‘at. – T.: Sharq, 2004. – 496 bet.
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003, 5-jild. – 704 bet.
6. www.pedagog.uz
7. www.tdpu.uz
8. www.Ziyonet.uz

MAXSUS OPERATSIYADA ZIRHLI TEXNIKALARNING SAMARASI

O.Y.Kamolov

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** maqolada Rossiyaning maxsus operatsiyasida zirhli texnikalardan samarali foydalanish masalalari haqidagi fikrlar yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** tank, jang, vazifa, yashovchanlik, harakatchanlik, o‘q-dori, zirh, talofat, dushman, piyoda, zirhli texnika, o‘zi uchar uchuvchisiz apparat.*

***Аннотация:** в статье речь идет о эффективном использовании бронетанковой техники во время спецоперации России.*

***Ключевые слова:** танк, сражение, задача, живучесть, подвижность, боеприпас, броня, повреждение, противник, пехота, бронетехника, БПЛА.*

***Annotation:** the article talks about the effective use of armored vehicles during a Russian special operation.*

***Key words:** tank, battle, task, survivability, mobility, ammunition, armor, damage, enemy, infantry, armored vehicles, UAV.*

Ukrainadagi maxsus operatsiya tanklar XXI asrda ham o‘zining aktualligini yo‘qotmaganligini ko‘rsatmoqda, vaholangki tanklarning Birinchi jahon urushida paydo bo‘lishidan buyon ularning armiyadagi roli va o‘rni haqidagi bahslar to‘xtagani yo‘q. Urushlar orasidagi davrlarda tanklarning taqdiri haqidagi munozaralar davom etdi, ularning qaysilari – piyodalarni qo‘llab quvvatlaydigan, qaysilari kreyser – yorib o‘tish tanklari, qaysilari – tanketkalar va ular qanday miqdorda bo‘lishlari kerak.

Ularni taktik va tezkor taktik qo‘llash bo‘yicha aniq loyihalar ishlab chiqishga harakatlar qilindi. Har qanday yirik operatsiyalarning ajralmas qismi hisoblangan ikkinchi jahon urushidan keyin tanklarning kelajagi ustida bulutlar quyuqlasha boshladi.



Bu birinchi navbatda aviatsiyaning imkoniyatlari keskin ortishi bilan bog‘liq bo‘ldi, shuningdek, piyoda askarlarning tankka qarshi qurollar bilan ta‘minlanishi ham muhim o‘rin tutadi. Bu qurollar bir muddat zirhli texnikalarning himoyalarni ortda qoldirib, ularni yengil nishonga aylanishiga olib keldi.

Konstruktorlar tanklarning himoyasini oshirish maqsadida ularning og‘irliklarini orttirishga, zirhli himoyaning optimal variantlarini qidirishga majbur bo‘lishdi. Buning yaqqol misoli sifatida sovet konstruktorlari tomonidan yaratilgan, korpusi yapaloq shakldagi to‘rt zanjirli «279-obyekt»ni keltirish mumkin. Bundan tashqari omuxtalangan zirh, so‘ngra passiv va aktiv dinamik himoyalarni aytish mumkin.

Natijada urushdan keyingi uchinchi va to‘rtinchi avlov tanklari yaratilishiga qaramasdan ularning jang maydonida tez talofat ko‘rishlari haqidagi munozalar to‘xtamadi. Lekin tarafdorlar yoki qarshilarning nazariy xulosalarini amalda sinab ko‘rishning imkoni yo‘q edi.



Bir tomondan tanklar 1980-1988-yillardagi arab-isroil urushida, «Cho‘ldagi to‘fon» operatsiyasida, AQShning 2000-yilda Iroqqa bostirib kirishida, 2020-yilda Tog‘li Qorabog‘da, 2011-2022-yillarda Suriyada tanklar ko‘p miqdorda qo‘llanildi.

Tabiiyki, tanklar yana ko‘plab harbiy to‘qnashuvlarda qo‘llanildi, shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, zamonaviy urushlarning ko‘pida turli potensialga ega bo‘lgan dushmanlar jang qilishdi, jang maydonida esa – turli avlod tanklari to‘qnash kelishdi.



Rossiyaning maxsus opresiyasi boshlanishi bilan vaziyat keskin o‘zgardi. Tanklar Ukraina ziddiyatida 2014-yildan buyon qo‘llanib kelingan bo‘lsada, 2022-yilda har ikki tomondan deyarli bir turdagi tanklar ko‘p miqdorda qo‘llanildi.

Rossiya va Donbass armiyalari tarkibida turli modifikatsiyadagi T-62, T-64, T-72, T-80 va T-90 tanklari, Ukraina Qurolli Kuchlari tarkibida T-64, T-72, T-80, «Oplot» va T-55 tanklari bor edi. 24-fevral sanasida har ikki tomondan qo‘llanilgan tank guruhlarining aniq soni ma’lum bo‘lmasada, ularning soni 1,5–2 mingtadan kam bo‘lmagan.

Ikki yildan ortiq olib borilayotgan jangovar harakatlar shuni ko‘rsatayaptidiki, uchuvchisiz uchish apparatlari ko‘rinishidagi yangi xavf paydo bo‘lishiga qaramasdan, XXI asrdagi qurolli to‘qnashuvlarda ham tanklar o‘z o‘rnini yo‘qotgani yo‘q.

Piyodalarga yordamchi

Tanklar avvalgidek jang maydonida yoki shaharlardagi janglarda piyodalarni bevosita qo‘llab quvvatlovchi asosiy vosita sifatida foydalaniladi. G‘arb ekspertlarining fikriga ko‘ra tanklardan bu usulda foydalanish, ularning dushman himoyasini yorib o‘tishdek xususiyatidan to‘liq foydalanish imkonini bermaydi.

Boshqa tomondan qaraganda har bir tank tomonidan sarflangan o‘q-dori va ularni to‘g‘ri qo‘llash shuni ko‘rsatayaptidiki, asosiy jangovar mashinalarning “piyodalar tanki” xususiyati hech qaerga ketmagan. Bundan tashqari tanklar haqiqiy harbiy funksiyalaridan tashqari piyoda askarlarga ishonch bag‘ishlab, dushman askarlarida qo‘rqinch uyg‘otish kabi muhim psixologik funksiyalarni ham o‘taydi.



Tanklar yana tankka qarshi vosita funksiyasini ham bajarishda davom etmoqda. Ko'pchilik hollarda zirhli texnikalar qanday quroldan talofat ko'rganligini aniqlashning imkoni yo'q, lekin 2014 va 2022-yillarda bir qancha tank duellari bo'lib o'tganligi aniq. Bunday duellarning kamligi, tanklarning ko'p miqdorda qo'llanishi kam bo'layotganligidan dalolat beradi va shuning uchun ularning jang maydonida to'qnash kelish hollarini kamaytiradi.

Maxsus operatsiya davomida tanklarning yangi vazifasi statsionar nishonlarni yo'q qilish bo'lib qolmoqda. Bunda tanklar yopiq pozitsiyalardan turib o't ochishmoqda. Artilleriya va batareyaga qarshi kurash vositalarining takomillashuvi tanklarning o'ziyurar va shatakka olinuvchi artilleriya qurollarining o'rnini bosishiga olib kelmoqda. Chunki tanklarda o'zining yaxshi himoyasi hisobiga dushmanning javob zarbalari va granatalar bilan qurollangan kopterlari hujumidan omon qolish imkoniyati yuqori. Tanklarning harakatchanligi va o'tuvchanligini ham unitmaslik kerak, bularning hisobiga ular tezda o'z joylarini o'zgartirib, dushmanning javob o'qlaridan omon qolishadi.

Tanklar hech qachon ko'plik qilmaydi

Maxsus operatsiyaning asosiy saboqlaridan biri «tanklar hech qachon ko'plik qilmasligi»ni tushunib yetish bo'ldi. Har ikki tomon ham o'zlarining tank parklari sonini turli yo'llar bilan kerakli darajada tutib turishga harakat qilishmoqda.

Agar Ukraina chet ellardan tank olib kelish hisobiga umid qilayotgan bo'lsa, Rossiya «Uralvagonzavod» AJda tank ishlab chiqarishni ko'paytirmoqda. Bu zavod shu paytga qadar yirik partiya tanklarni eksport qilish bilan shug'ullanib kelgan edi. RF Mudofaa vazirligiga esa bir necha dona yangi tanklar yetkazib bergan va qo'shinlardagi T-72B tanklarini T-72B3 variantiga o'tkazib berish bilan mashg'ul bo'lgan.



2022-yildan boshlab vaziyat keskin o'zgardi va korxonada eng zamonaviy T-90M tankini ishlab chiqarishni hamda qo'shinlarga yetkazib berishni boshladi.

T-72 tanklaridan tashqari T-80BV tanklarini ham takomillashtirish ustida ishlar olib borilib, ular T-80BVM variantiga o'zgartirilmoqda.

Tanklarga bo'lgan talab T-62M tanklariga ham ikkinchi nafas yo'li ochilishiga olib keldi. Ukraina armiyasida tanklar taqchil paytida ular ikkinchi darajali yo'nalishlarda qo'yilgan vazifalarni bemalol bajarib, zamonaviy tanklarni muhim yo'nalishlarda qo'llash imkonini berishayapti.

Ukraina va NATO tomonida T-72 tanklarining taqchilligi zamon talablariga javob bera olmaydigan Slovakiyaning T-55S tanklari va Germaniyaning Leopard 1 tanklarini yetkazib berish bo'yicha kelishuv boshlashni taqozo etmoqda.

Maxsus operatsiyada tankka qarshi zamonaviy vositalar qo'llanishiga qaramasdan, tank o'zining jang maydonidagi ustunliklarini yo'qotmaganligini ko'rsatdi. Uning yashovchanligi va o't ochish quvvati mazkur jang maydoni uchun yetarli ekanligini, tanklarsiz piyodalarning olg'a yurishi juda qiyin, hattoki mumkin emasligini namayon qildi.

Tanklardan faol ravishda foydalanish, kun tartibiga ularni ishlab chiqarish, ta'mirlash va xizmat ko'rsatish quvvatlarini sezilarli darajada oshirish kerak ekanligi, shuningdek, ularni uchuvchisiz uchar apparatlarga qarshi vositalar bilan ta'minlash masalalarini olg'a surmoqda.

Tank to'plari quvvatini ularning kalibrlari hisobiga oshirish savollari ham yana qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Bunda tanklar yer ustidagi nishonlarni yanada samaraliroq yakson qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Tajribalar shuni ko'rsatayaptiki, tanklardan to'g'ri foydalanish, ularni piyodalar va HHQK vositalari bilan himoyalash, tank qo'shinlarini sapyorlar bilan ta'minlash ularni yo'q qilish qiyin bo'lgan nishonlarga aylantiradi va ular har qanday jangovar vazifalarni bajara olishadi. Shunday qilib, tanklar - ularni safdan chiqarib tashlashga hali erta ekanligini yana bir bor isbotlashdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

<https://iz.ru/1451129/andrei-frolov/tankovyi-nariad-naskolko-bronetekhnika-effektivna-v-khode-svo>

<https://www.1tv.ru/shows/chasovoy/vypuski/bronetekhnika-v-svo-chasovoy-vypusk-ot-21-05-2023>

https://ria.ru/tag_bronetekhnika/

<https://tass.ru/armiya-i-opk/19544205>

AFG‘ONISTONDAGI LOKAL URUSH VA QUROLLI TO‘QNASHUVLARDA TEXNIK TA‘MINOTNI XUSUSIYATLARI

Kuzibayev Odiljon Tajibayevich

O‘R QK Akademiyasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Afg‘onistonda sobiq sovet qo‘shinlarining qo‘shilma va harbiy qismlari o‘tkazgan keng ko‘lamli jangovar harakatlarida texnik ta‘minot ishlari yoritilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Afg‘oniston, texnik, ta‘minot, moddiy, vosita, qurol, qo‘shin, aslaha, agregat, tiklash.

Аннотация. В данной статье освещается работа по техническому обеспечению широкомасштабных боевых действий, проводимых соединениями и воинскими частями бывших советских войск в Афганистане.

Ключевые слова: Афганистан, техника, снабжение, материалы, инструменты, оружие, войска, бронетехника, агрегаты, восстановление.

Annotation. This article highlights the work on the technical support of large-scale military operations conducted by formations and military units of the former Soviet troops in Afghanistan.

Keywords: Afghanistan, equipment, supplies, materials, tools, weapons, troops, armored vehicles, units, reconstruction.

1979-1989 yillarda Afg‘onistonda SSSR Qurolli Kuchlari 40-armiyasining qo‘shilma va harbiy qismlarining keng ko‘lamli o‘tkazilgan jangovar harakati Shunday qilib 10 yildan bir oz kamroq davom yetgan “E‘lon qilinmagan urush” deb nom olgan urush natijasiga ko‘ra SSSR Qurolli Kuchlari 40-armiyasining tuzilmalari va bo‘linmalarining Afg‘oniston Respublikasidan to‘liq chiqarilishi bilan yakunlandi.

Afg‘onistonga kirib kelgan cheklangan sovet qo‘shinlarining gruppировkasiga ushbu davlatda jangovar harakatlarni olib borishi uchun yuqori texnik ta‘minot talab etildi. 40-armiyasining qo‘shilma va harbiy qismlarini kerakli ehtiyojlarini ta‘minlash uchun Afg‘onistonda moddiy-texnik bazani yaratishni talab etdi. Texnik ta‘minot Sovet Ittifoqidagi Afg‘onistonga yaqin davlatlarda yaratilib to‘g‘ridan-to‘g‘ri jangovar

harakatlar olib borilayotgan hududlarga tashildi. Moddiy vositalarni tashish jarayonini kuzatib borishda katta qiyinchiliklarga duch kelindi.

Biroq, texnik qo'llab-quvvatlash choralarining o'ziga xos mazmuni qo'shinlarning joylashuvi, harbiy harakatlari va qurolli kurash teatrining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilandi. Texnik qo'llab-quvvatlashga qo'shinlarning turli miqyosdagi ko'plab garnizonlarda keng hududlarga tarqalishi jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Shunday qilib, ushbu maqolada Afg'oniston misolida harbiy harakatlar teatrida va qurolli to'qnashuvlarda Quruqlikdagi Qo'shinlarning Birlashgan Shtabi texnik ta'minot tizimlarining ishlash xususiyatlarini ko'rib chiqishni taklif etadi.

Qo'shinlarni raketalar va o'q-dorilar bilan ta'minlash

To'liq rejalashtirilgan jangovar harakatlarda qo'shinlar guruhini maksimal avtonomligiga muvofiq o'q-dorilar bilan ta'minlashning asosiy prinsiplaridan biri bu ta'minlash ikoniyatlarini yaratish hisoblanadi. Rejalashtiriladigan jangovar harakatlar davomiyligiga qarab qo'shinlar guruhlarini avtonomligini ta'minlash uchun kerakli miqdorda o'q-dorilar zahirasi yaratilib va jang mobaynida ularning sarfi belgilab beriladi.

Bazi bazida jangovar harakatlarning o'rtacha 5-10 kun davom etardi; armiya miqyosida o'tkazilgan harakatlar 10-20 kun davom etardi. O'q-dorilarni sarflanish darajasi yuqori darajada keskin o'zgarib borardi. Biz faqat har bir harakatning takrorlanmaydigan o'ziga xos xususiyatlarini gapirishimiz mumkin.

Statsionar omborlarni jangovar maydondan sezilarli masofada bo'lishini inobatga olib o'q-dorilar zahirasining bir qismini dvizionni moddiy ta'minot batalonini transportiga yuklab yetkazib borish uchun yuklanib qo'yilardi.

To'g'ridan-to'g'ri qo'shinlar guruhlaridan tashib kelingan o'q-dorilar zahiralari har doim ham butun harakatni, ayniqsa harakatning 10 kuni davomida uning to'liq avtonomligini ta'minlay olmaydi. Shuning uchun, jangovar harakatlarni o'q-dorilar bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida, qo'shinlar guruhlarida tashkil etilgan qismlar va tuzilmalarning statsionar omborlarida yoki istalgan yordamchi omborlarda qo'shimcha o'q-dorilar zahiralari yaratiladi. Doimo jangovar harakatlarga qism va bo'linmalar to'liqsiz jangovar tarkibda kirmaganligi sababli qo'shimcha o'q-dorilar zahirasini yaratishni yengillashtiradi. Bu esa jangovar harakatlarga olib kirilayotgan barcha qurol-aslahalar uchun yuqori zahirani yaratishga imkon yaratdi. Ayrim hollarda bo'linmalarni jangovar olib borilayotgan hududlarga kirishga doimiy shay bo'lishni ta'minlash uchun o'q-dorilarni avtotransport vositalariga oldindan yuklash mashq qilini tajribada sinab ko'rildi.

Jangovar harakatlarda o'q-dorilar bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida jang olib borilayotgan hududga qoidaga ko'ra yaqin joyda joylashgan polk yoki dviziya

bazasining omborlarida, aerodrom yaqinida qoidaga ko'ra alohida armiya artilleriya ombori yaratiladi.

Tog'li hududlarda zirhli guruhlaridan alohida vazifa bajarayotgan aralash motoo'qchi bo'linmalarini bir necha kun davomida o'q-dorilar bilan ta'minlashda katta qiyinchiliklarga duch kelindi. Imkoniyat boricha bo'linmalarga o'q-dorilarni yetkazib berish "yuqoridan pastga" tamoyiliga muvofiq - katta boshliqlikning kuch va vositalari orqali amalga oshiriladi. Texnikalarni harakatlanishiga qulay yo'llarga harakatlanib motoo'qchilarni piyodalanish joyiga qadar ikki-uchta piyodalar jangovar mashinasi yoki zirhli transportyorlarda o'q-dorilar zahiralari yetkazib berilgan. Bo'linmalarning piyodalanishiga qadar o'q-dorilarni yetkazib berishda zirhli guruhlarining texnikalaridan ham foydalanilgan. Transportlar yetib borolmaydigan hududlarga o'q-dorilarni yetkazib berishda vertolyotlar ishlatilgan. Faqatgina "yuqoridan pastga" sxema bo'yicha o'q-dorilarni yetkazib berish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, ta'minot "o'ziga" sxemasi ostida amalga oshirildi. Ushbu holatda, bo'linmalarga jangovar mashinalar va moddiy vositalar ortilgan transportlardagi o'q-dorilar va moddiy vositalar zahiralarni yetkazib berishda shaxsiy tarkib jalb etildi.

Barcha harakatlarda qo'shinlar guruhiga o'q-dorilar zahiralarni yetkazib berish ushbu yuqorida ko'rsatilgan ikkita sxemadan biriga muvofiq amalga oshirilgan. Raketa-artilleriya qurol-aslahalari va front orti ta'minoti xizmati boshliqlari texnikalar kalonnada harakatlanishida qo'shinlar guruhlaridan tomonidan qo'lga olingan o'zining yoki boshqa qism va bo'linmalarga tegishli ozod etilgan avtotransport vositalaridan o'z xizmatlari yuzasidan foydalanib xizmatini tashkillashtirgan. Vaziyatlardan kelib chiqib avtotransport vositalar kallonnalarining qo'riqlash va himoyasini ta'minlashda kuchaytirilgan sapiyor bo'linmalari bilan motoo'qchi rotasi yoki motoo'qchi vzvodi tayinlanadi. O'tkazilayotgan harakatni uzluksiz o'q-dorilar bilan ta'minlash uchun doimiy yashash joylarida oldindan yaratilgan yoki har qanday yaqindagi omborlarda yaratilgan o'q-dorilar zahiralariidan kalonnalarga yuklangan.

"Yuqoridan pastga" sxemasiga ko'ra qo'shinlar guruhlarini o'q-dorilar bilan ta'minlash doimiy joylashgan joyda oldindan tayyorlangan transport orqali yetkazib berildi yoki kerakli bo'lganda yangi kalonnalar shakllantirildi. Shuning uchun ushbu sxemaga asosan o'q-dorilarni yetkazib berishda asosan vertolyotlardan foydalanilgana. Omborlardan o'q-dorilarni avtomobil transportida yoki mexanizatsiyalashtirilgan vositalarda vertalyotlargacha yetkazib berib tezkorlik bilan yuklash uchun turli tarkibdagi maxsus guruhlar tuzilar edi.

Rejalashtirilgan harbiy harakatlar uchun o'q-dorilarni yetkazib berish tizimining umumiy sxemasiga asosan qo'shinlar guruhlarining avtonomligini ta'minlashni tashkil etuvchi me'yoriy va qo'shimcha o'q-dorilar zahiralarni eng yaqin ko'chmas omborlardagi yaratishni o'z-aro uyg'unlashtirish edi. Bundan tashqari, har qanday

yaqinda joylashgan harbiy qism va bo‘linma komandirlari jangovar harakatlarda qatnashayotgan qo‘shinlarga qo‘shimcha tasdiq va cheklovlarsiz o‘qdorilar berishlari shart bo‘lgan qoida mavjud edi.

Shunday qilib, har qanday miqyosdagi jangovar harakatlarni ta‘minlash uchun qo‘shinlarning barcha bo‘g‘inlarida avtonom ishlashga qodir bo‘lgan ta‘mirlash va evakuatsiya organlari yaratildi.

Xulosa:

1. Jangovar harakatlarda, jangovar va maxsus texnikalarda ishtirok etadigan ko‘plab eskirgan harbiy texnikalar namunalari yuqori havo haroratida, yuqori changda, tog‘li joylarda, shuningdek, yerning og‘ir iqlim va fizik-geografik sharoitida jangovar vazifalarni bajara olmadi, barcha eskirgan harbiy texnika namunalari modernizatsiya yoki almashtirishni talab qildi.

2. Jangdan oldin va jang vaqtida ko‘p miqdorda raketalar va o‘q-dorilar bo‘linmalarga berilishi kerak edi. Bunday muammolarni hal qilish uchun raketalar va o‘q-dorilar bilan ta‘minlashda vaqtinchalik omborlarni va jangovar harakatlar yaqinida o‘q-dorilarni saqlash uchun ko‘chmas omborlarni yaratishni talab qildi.

3. Jangovar harakatlarni ta‘minlash - har qanday miqyosda, qo‘shinlarning barcha darajalarida avtonom ishlashga qodir bo‘lgan ta‘mirlash va evakuatsiya organlari, shuningdek, harbiy texnika va moddiy vositalarini “yuqoridan-pastga” yetkazib berish tizimi yaratilgan. Qurol-aslaha va harbiy texnikalarni asosiy miqdoriga jiddiy texnik xizmat ko‘rsatish talab qildi. Shu sababli, qurol-aslaha va harbiy texnikalarning asosiy uzal va agregatlarini dala sharoitlarida ekipajlarning kuch va vositalari bilan, shuningdek, ta‘mirlash bo‘linmalarining mutaxassislarni jalb qilgan holda almashtirishni talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Армейский сборник, 2011 г. №8
2. Армейский сборник. 2008 г. №6
3. <https://iz.ru/1451129/andrei-frolov/tankovyi-nariad-naskolko-bronetekhnika-effektivna-v-khode-svo>
4. <https://www.1tv.ru/shows/chasovoy/vypuski/bronetekhnika-v-svo-chasovoy-vypusk-ot-21-05-2023>
5. https://ria.ru/tag_bronetekhnika/

XIZMAT KO'RSATISHDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI

T.I.Shukurov

SamISI assistenti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda katta ahamiyat kasb etgan turizm sohasini har qanday iqtisodiy sharoitda rivojlantirishning innovatsion yo'nalishlari va bu bo'yicha qilinayotgan keng ko'lamlil ishlar yoritib berilgan. Shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda turizmni kengaytirishning o'rni yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** turizm, barqaror turizm, turizm infratuzilmasi, investitsiya, iqtisodiyotiy vaziyat, turistik resurslar.*

***Abstract.** In this article, the innovative directions of development of the tourism sector, which has gained great importance today in any economic conditions, and the large-scale work being done in this regard are highlighted. Also, the role of expanding tourism in ensuring economic stability is highlighted.*

***Key words:** tourism, sustainable tourism, tourism infrastructure, investment, economic situation, tourist resources.*

***Аннотация.** В данной статье освещены инновационные направления развития туристической сферы, приобретшей сегодня большое значение в любых экономических условиях, и масштабная работа, проводимая в этом направлении. Также подчеркивается роль расширения туризма в обеспечении экономической стабильности.*

***Ключевые слова:** туризм, устойчивый туризм, туристическая инфраструктура, инвестиции, экономическая ситуация, туристские ресурсы.*

Ma'lumki, bugungi kunda har qaysi davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji uchun turizm sohasining o'rni beqiyosdir. Turizmni rivojlantirish natijasida iqtisodiy jihatdan keng sharoitlarni yaratish mumkin. Shu bilan birgalikda, mamlakat tarqqiyoti va mamlakatlararo tashqi aloqalarni o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Butun jahon turizm tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra "2023-yilda barcha kiruvchi turistlar soni 1,460 mln.ga yetdi, undan kelgan daromad esa 1,481 mlrd. AQSH dollarni tashkil etganligi dunyo miqyosida turizm sohasi 334 mln yangi ish

o‘rinlari yaratgan”ligi turizm jahon iqtisodiyotiga juda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil BMTning 72-assambleyasida ta’kidlagandek, “mustaqil o‘lkamizning jahon hamjamiyatida keng miqyosda e’tirof etilishi” dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari bilan o‘zaro munosabatlarning yanada barqarorlashib borishiga, turizm borasida aytadigan bo‘lsak, tashrif buyurayotgan turistlar oqimining yil sayin ortib borishiga, yurtimizda mavjud yangidan – yangi turizm imkoniyatlarining kashf etilayotganligi va boshqa shu kabi o‘zgarishlar fikrimizning yaqqol dalili bo‘la oladi.

Turizmning hozirgi holatini baholashda, shuni alohida qayd etish lozimki, O‘zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasi xorijiy turistlarning ehtiyojlarini to‘liq qondirish imkoniyatiga ega emas. Infratuzilma yetarlicha rivojlanmagan sharoitda turistlar oqimini va shunga mos ravishda valyuta tushumini ko‘paytirish imkoni bo‘lmaydi, bundan kelib chiqqan holda infratuzilmaning holati turizmning rivojlanshini ta’minlash bilan birga, mamlakat xalqaro turistik nufuzi va imijini ham shakllantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Turizmni rivojlantirish uchun mavjud turistik resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash bilan birga, har bir viloyatning turizm infratuzilmasini talab darajasida rivojlantirish muhimdir. Bularning barchasi yirik moliyaviy xarajatlarni, ya’ni investitsiyalarni amalga oshirishni taqazo qiladi.

Barqaror turizm – turizmni rivojlantirish va boshqarishning atrof-muhitga, madaniy qadriyatlarga, mahalliy aholi turmush tarzi manfaatlariga zid bo‘lmagan shakllari, usullari va vositalari jamlanmasi hisoblanadi. Barqaror turizm konsepsiyasining ilmiy-nazariy tuzilmasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan barqaror rivojlanishning 17ta maqsadlarini jamlagan metodologik yondashuvga tayanadi. Barqaror turizm konsepsiyasini qo‘llashning tizimlashgan afzal jihatlarni aniqlashtirib olish, o‘z o‘rnida davlat va korporatsiyalar miqyosida turizm rivojlanishiga taaluqli dasturlarning ro‘yobga chiqarilishiga ko‘maklashadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 16- avgustda «2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. Qaror bilan sohada me’yoriy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O‘zbekistonga sayohatlarni arzonlashtirish, yurtimizning barcha hududlarida turizmni va soha bilan bog‘liq infratuzilmani rivojlantirish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va yangi turizm obyektlari tashkil etish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda faol va kompleks ilgari surishga qaratilgan 2018-2019 yillarda turizmni rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har qanday iqtisodiy sharoitda ham turizmni rivojlantirish mumkin bo'lgan vaziyatlar mavjud b'lib, bu orqali faqatgina rivojlanish va iqtisodiy jihatlar qulay sharoit va imkoniyatlarga ega bo'lishga erishishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ibragimova Madina Ismoilovna “INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLATIRISHDA TA'LIM TURIZMINING ROLI”, Dekabr 2022
2. M.AMONBOYEV, S.XALILOV “Barqaror turizm rivojlanishi” o'quv qo'llanma, Toshkent – 2021
3. A.Kh.Komolov “TURIZMNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYALARNING IQTISODIY MAZMUNI VA TASNIFI”, 2023
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/turizmni-innovatsion-rivojlantirishda-investitsiyalarning-iqtisodiy-mazmuni-va-tasnifi>
5. <https://renessans-edu.uz>

RELAY PROTECTION AND AUTOMATION OF COMPENSATION DEVICES

Yeshmuratov Naurizbek

Assistant teacher at Nukus Mining Institute at NSUMT

Ktaybekov Miyrbek

Intern-teacher of Karakalpak State University named after Berdakh

E-mail: n.eshmuratov97@mail.ru

Abstract: *In this article, you will learn about the reactive power balance, which is one of the pressing problems in the electrical power system today, and the devices that ensure this reactive power balance, that is, reactive power compensation devices, study their operating modes and protect them. devices from abnormal operating modes. You will become familiar with the methods.*

Keywords: *Reactive power and reactive power balance, capacitor bank and its operating modes, compensating structures, relay protection devices and circuits.*

Introduction: Electricity produced at power plants is transmitted to consumers from power grids simultaneously in the form of active and reactive energy. If some consumers consume useful active power from the network (spiral lamps, heating devices, stoves). Other elements that have an inductive load in the consumer circuit are not only active during operation, but also consume reactive power to create electric magnetic fields (electric motors, welding and coil transformers). When an active-inductive load is connected to the electrical network, the current I lags behind the voltage U by an angle φ . The cosine of this angle ($\cos \varphi$) is called the power factor. Electricity receivers with such a load consume active power P and reactive power Q .

Reactive power compensation involves the generation or consumption of reactive power using compensating devices. Reactive power compensation is carried out to ensure reactive power balance, reduce energy losses in networks, and regulate voltage.

Main part: Reactive power compensation in the power system is one of the main issues. A lack of reactive power in the network leads to a voltage drop in the power system. Voltage is one of the main indicators of quality in the power system; its value

below the nominal level leads to the fact that products become unusable (break down) in industrial enterprises, the work process stops, and the operation of the power system is disrupted. To prevent such situations, it is necessary to compensate for reactive power, and reactive power compensation ensures the operation of the power system in nominal mode.

Reactive power compensation (production) in industrial plants is slightly better than production in power plants. A clear confirmation of this is that in our republic, by resolution of the Cabinet of Ministers on March 1, 2004, the law “On the procedure for planning work on reactive power compensation” was adopted.

A capacitor bank, synchronous compensators and static elements of compensating devices are used as a reactive power compensation device. Synchronous compensators are mainly used in power transmission and distribution substations because they consume reactive power when there is excess reactive power in the network and, conversely, produce reactive power when there is a shortage of reactive power.

As mentioned above, asynchronous motors are consumers of reactive power. Asynchronous motors of industrial enterprises account for 60-65% of reactive power consumption. Considering the above, reactive power compensation at industrial enterprises is one of the main issues. They are widely used as reactive power compensation devices for capacitor banks in industrial plants, pumping stations, and electric motors used for the power plant’s own needs.

Like other devices in the electrical power system, the capacitor bank also has abnormal conditions, and protecting the capacitor bank from abnormal conditions is one of the main issues.

In this article we will discuss abnormal operating conditions of capacitor banks, the operating process that occurs in a capacitor bank in abnormal conditions, the reasons for the occurrence of abnormal operating conditions, methods of protection against abnormal operating conditions, and the choice of relay protection. devices and get acquainted with their connection diagrams.

Types of protection and circuits of capacitor banks.

The entire type of relay protection used in capacitor protection can be divided into three:

- General battery protection;
- Group protection;
- Individual protection (capacitor sections).

The general protection of all capacitor devices includes: multi-phase short circuit protection, single-phase earth fault protection, overload and overvoltage protection.

In general, protection of capacitive devices from multiphase short circuits is carried out for any capacitor connection schemes. This protection should work to increase the performance of capacitor devices without downtime. In capacitor devices operating at low voltage, such protection is carried out using protectors and circuit breakers. In high-voltage networks this is done using fuses and relay protection (Figure 1).




Figure 1. Diagram illustrating the implementation of capacitive device protection using capacitors. 1-disconnector; Storage of the 2nd protection device; 3rd group of protection of executive storage; 4-capacitors; 5-phase resistors.

Summary: The reactive power balance has a direct impact on the operating state of the power system, especially industrial enterprises, so it is important to install reactive power compensation devices or reactive power sources. In conclusion, we can say that it is necessary to protect reactive power sources or their compensating devices from abnormal operating conditions, and it is important to do this correctly and reliably.

REFERENCES

1. Siddikov. I.K., Kasimakhunova A.M., Khujamatov. X.E., Power supply system relay protection and automation. Study guide, Tashkent 2020. 467 p.
2. Abubakirov, A. B., Gaipov, I. K., Eshmuratov, N. K., & Lezhnina, Yu. A. (2022). Graph model for accounting for asymmetric values and parameters of electrical networks.
3. Lezhnina, Y., Abubakiro, A., Gaipov, I., & Eshmuratov, N. (2023, January). Monitoring of asymmetric values and parameters of electric networks. In E3S Web of Conferences (Vol. 371, p. 03068).
4. Structural rules of electrical installations. (PUE) DI Ozenergonazorat, Tashkent 2007, 2011.
5. Ешмуратов, Н. Қ. (2023). Реле Короткого Замыкания Асинхронных Электродвигателей Напряжением 10 Кв. Miasto Przyszłości, 35, 108-112.

IMPROVING WRITING SKILLS TO ENHANCE STUDENTS' LEARNING

Muradov Utkir Nurillayevich

associate professor of Tashkent state pedagogical university

Rahimjonova Khumora Ziyovuddin qizi

student of Tashkent state pedagogical university

***Abstract:** Enhancing students' learning outcomes through the improvement of writing skills is a critical aspect of education. This article explores the importance of developing students' writing abilities to help them effectively convey their thoughts and ideas. By providing opportunities for practice, feedback, and integration of writing assignments across disciplines, educators can empower students to become more effective communicators and critical thinkers. Ultimately, prioritizing the improvement of writing skills in the curriculum can lead to enhanced learning experiences and academic success for students.*

***Key words:** concept, coherence, skills, enhance, creative writing, writing strategies, techniques, assessment.*

Writing is a crucial life skill applicable in academic, professional, and personal contexts. It involves effectively conveying concepts, details, and emotions through written expression. Proficiency in writing is vital for clear and persuasive communication, encompassing various forms such as essays, reports, emails, letters, and creative writing. While the skills needed for each form may vary, fundamental principles like employing proper syntax and punctuation, logically organizing ideas, selecting suitable words and tone for the audience, and meticulous proofreading and editing always apply. Enhancing writing skills requires time and effort, involving wide reading to expose oneself to different styles and vocabulary. Seeking feedback from others aids in identifying areas for improvement, and regular practice is essential for refining one's unique voice and style.

It can be seen strong writing skills are valuable assets that can open doors to academic success, career opportunities, and meaningful personal connections. By continuously working on improving their writing abilities, individuals can become more effective communicators and better express their thoughts and ideas.

Proficiency in writing is critical for success in the professional World. Emails, project reports, and sales proposals all seem to have a similar attitude toward work when they contain a lot of typos, grammatical errors, and poorly constructed sentences. Thus, realizing the importance of writing skills can affect how you are perceived at work in addition to helping you communicate better in terms of:

Being professional: If you have effective writing abilities, your readers will comprehend your message more fully. Clear communication facilitates others' understanding of your ideas and thoughts. Demonstrating your abilities at work: Regardless of how much writing you do for a living, people may still remember a few awkward and clumsy moments from your content. Additionally, you can become less competent at work as a result of these minor errors. Growing in professional self-belief: Every content element has a purpose. A robust business plan attracts potential investors and partners. Consistent and clear emails have the potential to influence potential customers even more. Nevertheless, your manager will be impressed by your well-written reports. Every time you successfully and joyfully finish another project using your outstanding written communication, you become more certain, upbeat, established, and inspired.

In the workplace, writing skills examples include:

- Documenting a process for someone else to learn it;
- Summarizing a meeting in an email for all attendees;
- 1. Sharing a team update in Slack;
- Crafting a mass email to send to prospective customers;
- 1. Communicating with a client via email to get action on next steps.

To use your writing abilities at work, you do not need to be a "writer." You could be a UX designer attempting to create the ideal headline for your home page that will entice visitors to click the "learn more" button, or you could be a marketer crafting copy to draw readers to your virtual event. Perhaps you are an investment banker updating your manager on your current situation, or perhaps you are an attorney corresponding via email with a client.

All workplaces require writing abilities, but remote and hybrid ones especially so. Employers are currently looking for written communication skills above verbal communication skills, with 73.3% of employers searching for these skills on student resumes, according to the National Association of Colleges and Employees.

The importance of written communication has increased, according to business and success coach Bryana Holcomb. "Every employee should be proficient in grammar, clarity, appropriate tone, and the ability to be concise when necessary. These are some of the most important writing skills. The social media meme that reads, "This meeting could have been an email," is one of my favorites. The catch to that is that we

have to be able to communicate our needs, deliverables, roles, etc. via email in a clear and effective manner if we want to avoid those "pointless meetings."

Evaluating language learners' writing abilities also serves the objective of determining how well they are learning. Five product factors—fluency, content, conventions, syntax, and vocabulary - can be used to evaluate student writing. In order to provide a comprehensive understanding of a student's writing abilities across various text structures and genres, writing samples ought to be evaluated for a range of writing purposes. These easy classroom management techniques assist with determining one's strengths and shortcomings, organizing lessons, assessing learning tasks, providing feedback, keeping track of accomplishments, and reporting development.

The availability of multimedia resources in technology can enhance and bring life to writing instruction. For example, puppets, movies, images, and animations can be used to introduce a subject, model a gender, or present an example. An additional choice would be to have your pupils create original multimedia projects as a means of showcasing their knowledge, offering them a taste, or sharing their perspectives. With the use of multimedia resources, you and your students can foster critical thinking and creativity while exposing them to a range of teaching approaches. choice would be to have your pupils create original multimedia projects as a means of showcasing their knowledge, offering them a taste, or sharing their perspectives. With the use of multimedia resources, you and your students can foster critical thinking and creativity while exposing them to a range of teaching approaches.

Online resources can offer a practical and adaptable means of delivering writing guidance and assistance. For instance, you can publish your students' work, solicit feedback from peers, or work on group projects using blogs, wikis, or webpages. Additionally, you can track your students' progress, reward their accomplishments, and organize your curriculum using digital badges, portfolios, and learning management systems. Online resources can assist you and your pupils in developing digital literacy abilities, communities of practice, and real audiences. Playing interactive games can enhance fun and interaction of writing instruction.

To review grammar, vocabulary, or punctuation, for instance, you can use quizzes, puzzles, or simulation. Moreover, roleplaying, adventure games, and storytelling can foster imagination, creativity, and problem solving skills. You have the option of using premade games or making your own with programs like Kahoot, Twine, or Minecraft. Playing interactive games with your students can help them learn new material, become more motivated, and enjoy writing.

One of the most important aspects of writing education is providing and receiving feedback. Thanks to technology, there are a plethora of resources available

for enhancing and improving your own feedback. For instance, by employing automated screening, spell checking, or graphing check tools, you can provide your students with immediate, unfiltered feedback on their writing. Additionally, you can use text, video, or audio tutorials to provide your students with personalized, helpful feedback on their areas of strength and growth. Tools for feeding back can assist you and your students in setting goals, tracking progress, and saving time.

Technology that adapts to the unique needs, interests, and pace of your students is known as adaptive learning. For instance, you can offer individualized writing training, practice, or assessment through websites, apps, or adaptive learning software. Dashboards, reports, and analytics for adaptive learning can also be used to monitor the behavior, performance, and engagement of your students. You and your pupils can overcome obstacles, maximize results, and customize learning with the aid of adaptive learning.

For writing instruction and development, online resources can offer a plethora of knowledge, inspiration, and direction. To improve your students' vocabulary, accuracy, or knowledge, for instance, you can use online encyclopedias, thesauruses, and dictionaries. To demonstrate various writing styles, genres, or formats, you can also refer to online models, templates, or examples. You can also enhance your own writing abilities, pedagogy, or knowledge by using online manuals, tutorials, or courses. You and your pupils can learn from others, broaden horizons, and get access to high-quality content with the aid of online resources.

In conclusion, improving students' writing skills is crucial for their overall learning experience. By providing regular opportunities for writing practice, offering constructive feedback, teaching writing strategies, incorporating writing across the curriculum, using mentor texts, encouraging reading, and fostering a supportive writing community, educators can help students become more confident and skilled writers. These skills are not only essential for academic success but also for their future careers and personal lives. By implementing these strategies, educators can empower students to communicate effectively and express themselves with clarity and confidence.

USED LITERATURE

1. Chandler, Daniel (1993). "Writing strategies and writers' tool". English today: International Review of
2. John, M. (2003). New insights into learning and teaching and the implications for asesment. In M. Segers, F. J. R. C. Dochy, & E. Cascallar (Eds.), Optimising new modes of assessment: In search of qualities and standards. Dordrecht: Kluwer Academic Publishers.
3. Hannah, J., & Oliver, R. (2000). An instructional design framework for authentic learning environments. Educational Technology Research and Development, 48(3), 23-48.
4. Baltz. William (1999). "Language and writing" in Loewe. Michael; Shaughnessy, Edward L.(eds.)The Cambridge history of Ancient China. Cambridge: Cambridge University Press..
5. <https://vietnamteachingjobs.com/how-to-teach-writing/>
6. <https://www.theeducatoronline.com/k12/news/5-tips-to-boost-engagement-and-improve-writing/282846>

ZAMONAVIY TO‘QIMACHILIK TEXNOLOGIYALARINING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA’SIRI

Teshaboyev Baxromjon

Andijon Davlat Universiteti

birinchi bosqich magistratura talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada to‘qimachilik sanoati qollaniladigan zamonaviy texnologiyalar hamda ulardan foydalanish haqida fikrlar keltirilgan. To‘qimachilik sanoatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va korxonalarining raqobatbardoshligini yanada oshirish, ishlab chiqarilayotgan maxsulot sifatini yaxshilash borasida mulohazalar bildirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** zamonaviy texnologiyalar, toq‘machilik, nou hau, raqobat, sun‘iy idrok.*

Kirish.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoat korxonalarinig moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish va rivijlantirish borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqada. Zamonaviy to‘qimachilik sanoati texnologik yangiliklar bilan tez sur‘atlarda rivojlanib bormoqda. Bu rivojlanishlar to‘qimachilik mahsulotlarining sifati, ishlab chiqarish tezligi va iqtisodiy samaradorligini oshirishga yordam beradi. Quyida ushbu rivojlanishlarning asosiy jihatlari va ularning ta’siri ko‘rsatilgan:

Avtomatlashtirish va robotlashtirish: To‘qimachilik korxonalarini avtomatlashtirilgan to‘qimachilik dastgohlarini va robotlarni ishlab chiqarish jarayonlariga joriy qilmoqdalar. Bu ishlab chiqarish tezligini va mahsulotning bir xilligini oshiradi hamda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi.

Sunn‘iy idrok va ma‘lumotlar tahlili: Sunn‘iy idrok (AI) asosida ishlovchi tizimlar to‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, sifat nazoratini yaxshilash va talabni oldindan bashorat qilishda qo‘llanilmoqda.

3D bosib chiqarish: 3D bosib chiqarish texnologiyasi maxsus to‘qimachilik mahsulotlari, jumladan, shaxsiylashtirilgan kiyim-kechak va aksessuarlar ishlab chiqarishda qo‘llanilmoqda.

Ekologik toza va barqaror texnologiyalar: Barqarorlik va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan texnologiyalar, masalan, suvni tejaydigan boyoq texnologiyalari va qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish sohada tobora muhim bo‘lib bormoqda.

Dijital to'qimachilik: Raqamli bosib chiqarish texnologiyalari to'qimachilikda rang berish jarayonini tezlashtiradi va dizaynerlarga yanada kengroq ijodiy imkoniyatlar yaratib beradi.

Zanjirni boshqarish: Blokchain texnologiyasi va boshqa raqamli echimlar mahsulotning kelib chiqishini kuzatish va ta'minot zanjirini samarali boshqarishda qo'llanilmoqda.

Bu texnologik rivojlanishlar to'qimachilik sanoatida raqobatbardoshlikni oshirish, yangi bozorlarni ochish va mijozlar talablarini yaxshiroq qondirish imkonini beradi. Bu o'zgarishlar nafaqat mahsulotlarning sifati va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarini barqarorlashtirish yo'lida ham qadam tashlaydi.

Zamonaviy to'qimachilik texnologiyalarining ta'siri turli sohalarda sezilmoqda hususan ular ishlab chiqarish jarayoni, sifat nazorati va mahsulot dizayni, ta'minot zanjiri va logistika, atrof-muhitga ta'sir, mijozlar talabiga javob berish quyida ushbu ta'sirlarni ko'rib chiqamiz.

Avtomatlashtirish va robotlashtirish orqali ishlab chiqarish tezligi va samaradorligi oshmoqda, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va mahsulotning bir xilligini ta'minlaydi. Raqamli bosib chiqarish va 3D bosib chiqarish kabi yangi texnologiyalar tez va moslashuvchan ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratadi. Sifat nazorati va mahsulot dizayniga ta'siri Sunn'iy idrok (AI) asosidagi tizimlar ishlab chiqarish jarayonida sifat nazoratini yaxshilashda va dizayn jarayonini optimallashtirishda yordam beradi. Raqamli texnologiyalar yordamida yangi va innovatsion mahsulot dizaynlari yaratish imkoniyati kengaymoqda. Ta'minot zanjiri va logistika raqamli texnologiyalar va blokchain kabi echimlar ta'minot zanjiri shaffofligini oshirishga va logistika jarayonlarini samarali boshqarishga yordam beradi. Atrof-muhitga ta'siri barqarorlikka yo'naltirilgan texnologiyalar, masalan, suvni tejaydigan boyoq texnologiyalari va qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradi. Iqtisodiy samara va raqobatbardoshlik, zamonaviy texnologiyalar tufayli to'qimachilik korxonalarini raqobatbardoshligi oshmoqda, chunki ular yanada samarali va tejamkor ishlab chiqarish imkoniyatlariga ega bo'lmoqdalar.

Bu texnologiyalar to'qimachilik sanoatining barcha qismlarini, xususan, ishlab chiqarish, dizayn, sifat nazorati, ta'minot zanjiri va mijozlar bilan aloqalarni tubdan o'zgartirmoqda, bu esa sohani kelajakda yanada raqobatbardosh va barqaror qilish imkonini beradi.

To'qimachilik korxonalarini uchun yangi materiallar, zamonaviy to'qimachilik texnologiyalarining rivojlanishi va ularning sohaga ta'siri haqida foydali ma'lumotlarni taqdim etishda muhim bir qatlamdir. Ushbu materiallar to'qimachilik

sanoatining rivojlanishiga qo'shimcha bilim beradi. Quyidagi muhim nuqtalarni ko'rib chiqamiz: Tajribaviy materiallar to'qimachilik texnologiyalarini o'rganish va rivojlanishda muhim bo'lib, yangi materiallar o'z ichiga innovatsion texnologiyalarni oladi.

Nanotexnologiyalar, keramika, polimer materiallar, va boshqa yangi materiallar to'qimachilik sanoatidagi mahsulotlarning xususiyatlarini o'zgartirishda qo'llanilmoqda. Sifatni oshirish tajribaviy materiallar texnologiyalarni ishlab chiqarishda, mahsulotlarni yanada qulay va samarali qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu texnologiyalar materiallar sifatini oshirish, ularning yaxshi meyoriy xususiyatlarini saqlash, har tomonlama ta'sir qilish, xavfsizlik va unumdorlikni oshirishda yordam beradi. Texnologik rivojlanishga olib kelgan yangi materiallar haqida tajribaviy ma'lumotlar va ilmiy izlanishlar, soha mutaxassislariga va korxonalariga tajribalarini o'zlashtirishda yordam bera olishadi. Yangi materiallar haroratni saqlash, isitish va sochlarni boshqarishda o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Bu esa texnologik jarayonlarni optimallashtirishda yordam bera olishadi. Tajribaviy materiallar energetika va elektronika sohasida ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Energetika saqlash, batareya texnologiyalari, solyarni batareyalari va boshqa sohalarda qo'llanilmoqda. Biologik materiallar, jismoniy bosimning yaxshi qabul qilinishiga yordam berishda, esa o'zaro olish-qilish jarayonlarida yuqori sifatli materiallarga o'girishni yaxshilaydi. Karbon nanostrukturni o'z ichiga olgan materiallar, masalan, grafen va nanotrubalar, texnologik sohalarda innovatsion hal qilib chiqarishda yuqori effektivlikka ega bo'ladilar.

Tajribaviy materiallar texnologiyalarning yangi yo'nalishlarini belgilashda katta ahamiyatga ega. Ular, yangi texnologiyalarni qo'llash va rivojlanishda muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy to'qimachilik texnologiyalarining rivojlanishi natijasida, to'qimachilik sanoati yuqori samaradorlik, yaxshi sifatli mahsulotlar, avtomatlashtirilgan ishlovlar va yuqori tekshiruvlar bilan ajratilgan bo'ladi. Texnologik rivojlanish korxonalar uchun ta'sir ko'rsatadigan innovatsion yondashuvlarni yaratadi.

Raqamli bosib chiqarish va 3D bosib chiqarish texnologiyalari o'z mijozlariga mahsulotlarni individual dizayn qilish, ularga xususiy xizmat ko'rsatish va yuzaga chiqarish imkoniyatlarini taqdim etmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, ishlab chiqarish tezligini oshirish, sifatni yaxshilash va boshqa jarayonlarda qo'shimcha iqtisodiy samara olishga yordam beradi. Bu esa sohaning iqtisodiy tarqalganligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Barqarorlik va ekologik toza texnologiyalar atrof-muhitni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Ular atrof-muhitni himoya qilish va ishlab chiqarish jarayonlarini

ekologikroq qilishda qo'llaniladi. Avtomatlashtirish va robotlashtirish sohasidagi rivojlanish texnologik ishsizlikni oshirish mumkin, shuningdek, yangi kasb-hunar o'rgatish sohasini rivojlantirishga yordam beradi.

Zamonaviy to'qimachilik texnologiyalarining qo'llanishini va rivojlanishini mustahkamlashga yo'l qo'yimoqda. Korxonalar, hokimiyatlar va soha mutaxassislari o'rtasida konsensusga yetishish va texnologik rivojlanishni davlat darajasi, ekologik himoya va ijtimoiy faollik bilan birlashtirish uchun so'nggi qarorlar olinishi kerak.

So'nggi qarorlar, zamonaviy to'qimachilik texnologiyalarining faol qo'llanilishini va qo'shilishini aniqlashda, shuningdek, o'sishini nazorat qilishda muhimdir. Ular texnologik yangiliklarni oqib olish va ularni keng foydalanishda davlat va sohaviy strukturalar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirishda yordam beradi.

Zamonaviy to'qimachilik texnologiyalari, so'nggi davrda to'qimachilik sanoatini o'zgartirayotgan muhim bir rivojlanishdir. Ular avtomatlashtirishdan robotlashtirishgacha qo'llanmalar, ta'sir ko'rsatadigan yangi materiallar va energetika rivojlanishlarini o'z ichiga olmoqda. Bu texnologiyalar sohadagi faollikni oshirish, sifatni yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish imkonini yaratishda katta ahamiyatga ega.

Raqamli bosib chiqarish, sunn'iy idrok, 3D bosib chiqarish, blokchain va boshqa texnologiyalar soha mutaxassislari, korxonalar va davlatlar uchun yanada samarali va qat'iyotkor yondashuvlar yaratishda katta rol o'ynaydi. Bu sohada tajribaviy materiallar, ishlovchi tizimlar va yangi materiallar boyicha keng ma'lumotlar, ilmiy izlanishlar va kasb-hunar tuzilishlari yetishgan mutaxassislar uchun muhimdir.

Jamiyat va iqtisodiyat tomonidan hamkorlik, ekologik himoya va yangi kasb-hunar o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. So'nggi qarorlar, texnologik rivojlanishni davlat va hokimiyatlar, korxonalar va jamiyat uchun foydali qilish, ularni qo'llash va rivojlanish yo'li bilan biriktirishda katta rolini o'ynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maqolada ilgari surilgan adabiyotlar (Schwab, 2016; Ford, 2015; Brynjolfsson va McAfee, 2014) mavzuga oid so'zlarini o'z ichiga oladi va ularning fikr-mulohazalariga muvofiq ravishda integratsiya qiladi. Bu adabiyotlar zamonaviy texnologiyalar va raqobatbardoshlikning asosiy asoslari haqida to'liq tahlil va ta'riflar taqdim etadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot metodologiyasi ilmiy metoddan, taqdimot va tavsifotlardan, rivojlanayotgan texnologiyalar haqida so'z yuritadi va qo'llanilayotgan sohalar haqida ma'lumotlar yig'ishda foydalanadi. Suratlar, grafiklar, statistika va aniq sanoat tahlillari tajribani mustahkamlash uchun qo'llaniladi.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqot natijalari zamonaviy to'qimachilik texnologiyalarining korxonalar faoliyatini rivojlanishini tushuntirishda, ularning jamiyat va iqtisodiyotga ta'sirini tahlil etishda yordam beradi. Bu, yangi korxonalarni

ishga tushirish, yangi ish joylari va faolijiyatni raqobatbardosh va samarali qilish jarayonlarini ta'lim etish uchun muhim bo'ladi.

Xulosa va takliflar:

Maqola oxirida, zamonaviy to'qimachilik texnologiyalarining sohaga ta'siri bilan bog'liq xulosa va takliflar bayon qilinadi. Bu tahlil korxonalar, soha mutaxassislar uchun rivojlanish va raqobatbardoshlik strategiyalarini belgilashda qo'llanilmoqada. Maqolada belgilangan muhim masalalarga e'tibor qaratish, ilg'or metodlarni qo'llash va yangi rivojlanish yo'nalishlarini tadbiq etish uchun ilg'or strategiyalarni qo'llashga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "The Fourth Industrial Revolution" - Klaus Schwab (2016)
2. "Industry X.0: Realizing Digital Value in Industrial Sectors" - Eric Schaeffer, Nicholas de Lange (2016)
3. "The Rise of the Robots: Technology and the Threat of Mass Unemployment" - Martin Ford (2015)
4. "Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future" - Andrew McAfee, Erik Brynjolfsson (2017)
5. "The Industries of the Future" - Alec Ross (2016)
6. "The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies" - Erik Brynjolfsson, Andrew McAfee (2014)
7. "Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin and Other Cryptocurrencies is Changing the World" - Don Tapscott, Alex Tapscott (2016)
8. "3D Printing Will Rock the World" - John Hornick (2015)

THE ROLE OF STATUS IN THE DEVELOPMENT OF A STUDENT'S PERSONALITY

Haydarova S.S

Ter.Du teacher

***Annotation:** In this article, opinions are expressed about the role of status in the formation of students as a person in interpersonal relationships, which plays an important role in its development.*

***Key words:** Person, student, status, motivation, personality traits.*

An important moment of characterizing a person as a person, his dynamic characteristics are calculated and expressed through his status in society (economic, political, legal, ideological, i.e., his status in society). Status is based on a system of constant interactions. The social function of the role is the orientation to certain goals and values that activates the individual. Orientation to status, role, and value are primary characteristics of a person and serve as a basis for its structure. The definition of the personality determines the characteristics of behavioral motivation and the structure of social character, and takes a place as secondary symptoms in its composition. Human character and inclinations arise in a highly effective manner that combines the interaction of the primary and secondary qualities of a person. The main form that develops the personality of a student is his life path in society and his social biography. It is necessary to pay attention to the following situations in the study of the development of an individual, a person and a subject: - factors and conditions that are considered the basis of human development (social, economic, political, legal, educational, pc-pedagogical and living environment factors); — the main characteristics of the person himself, his internal laws, mechanisms, stage of evolution, stabilization and evolution; - the main components of the human whole structure, the mutual relations of the system, the response and attitude of the person to external influences, the improvement of the system in the process of development, etc

The components of the research program with three different characteristics are the criteria for the practical and theoretical activity of a person. Because in the activity, the living environment is internalized and exteriorized in acquiring the historical experience. In the process of a person's goal-oriented socially useful activity, the so-called vital mechanisms and processes of the functional system of conscious activity arise. Thanks to this, a person not only acquires knowledge, skills and abilities, social experiences, but also his perception, thinking, imagination, emotions and will, in a

word, his conscious attitude to reality and his It contains the motives of z's actions and behavior. All characteristics, attitudes and behaviors of a person are combined into four functional stages, each of which plays a certain role in a person's life and consists of complex devices: First - management system; The second is the stimulation system; The third is the stabilization system; The fourth is the indication system. All these qualities of a person with social significance determine the behavior and actions of a person as a highly conscious worker of social development. The phylogenetic mechanisms that reflect the constant natural connection between analyzers play a major role in the formation of the first system. However, as we mentioned above, in the process of ontogenesis, the connection between phylogenetic analyzers is organically combined with temporal connections. In this case, within this system, a highly integrated m aiium forms an internal sensory complex that passes into the perceptual system. Such complexes include speech, hearing, vision and sensorimotor complexes. All these complexes are in constant contact with each other in the course of a person's life, creating a single functional dynamic system of sensory-perceptive organization. Sensory-perceptive aspects of a person are constantly improving. The second system includes a stable mental state. These situations begin to form in the first years of the child's learning as a conscious subject of a purposeful and useful activity. Temperament, intelligence, knowledge and attitude are among such traits. The third system is the system of stabilization of the person as a character. Orientation, ability, independence and character are its components. Orientation is expressed in the unity of knowledge, attitude, and motivation, where social importance leads the behavior and actions of a person. This characteristic is manifested in a person's worldview, interest, and spiritual needs. Ideological belief plays a major role in the orientation structure. Ideological belief is a synthesis of knowledge, intellectual, emotional and will qualities characteristic of that person, the basis of unity of ideas and actions. The fourth system includes such characteristics, attitudes and behavior that reflect the social "thoughts and feelings" of a real personality. They determine the behavior of these individuals as politically conscious, responsible figures of social development. This includes the qualities of humanism, collectivism, optimism and hard work.

REFERENCES.

1. Mayers D. *Sosialnaya psixologiya / Perv.s angl. -SPb., „Piter“*, 1999. 688- s.
2. Merlin V.S. *Struktura lichnosti. Xarakter, sposobnosti, samosoznaniye. Perm, 1990.*
3. Nemov RS. *Psixologiya. Uchebnik dlya studentov visshch. ped. ucheb. zavedeniy: V 3-xt. M., Gumanit. izd. sentr „VLADOS“, 2003. 576-s.* 5
4. Saydaliyeva, M. (2023). *PSYCHODIAGNOSTICS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN AGRESSIVENESS AND RELIGION IN ADOLESCENTS (IN MUSLIM AND CHRISTIAN TEENAGERS)*. *Modern Science and Research*, 2(7), 802-808.
5. XUDOYQULOVA, S., & SAYDALIYEVA, M. (2023). *The Role of Parental Psychology in the Formation of a Particular Religious Beliefs in A Child*. *Eurasian Scientific Herald*, 21, 54-58.
6. Saydullayevna, H. S. (2023). *Study of Psychological Characteristics of Personal Aggression*. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(12), 76-79.
7. Nuriddin o‘g‘li, B. Z. (2023). *Depressiya muammosining psixologik tadqiqi: Crossref. IQRO*, 4(1), 75-78.

BEMORLARNI TEKSHIRISHDA DIAGNOSTIK AXAMIYAT

Muhammadjonov Sarvarbek G'ayratjon o'g'li

FJSTI, Biotibbiyot muhandisligi 1622-guruh talabasi

Mamasharipov Xasanboy Erkinjon o'g'li

FJSTI, Davolsh ishi 7-guruh talabasi

***Annotatsiya:** Tibbiyot xodimlarini Diagnostik test kasalliklarni erta aniqlash va davolashda yordam berish orqali zamonaviy sog'liqni saqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Diagnostik testlar sog'liqni saqlash mutaxassislariga bemorning sog'lig'i haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi, bu o'z vaqtida aralashish va shaxsiy davolash rejalarini amalga oshirishga imkon beradi.*

***Kalit so'zlar:** Biopsiya, Funktsional kasalliklar, Diagnostika, Bemorni tekshirish.*

Kelgan bemorni tekshirishda, avvalo, uning sezgilari, kasalligi qachon boshlangan va qanday o'tgani, mehnat va turmush sharoiti yo o'zidan, yoki yaqin kishilaridan (go'dak bolani tekshirishda onasidan) so'rab olinadi, ya'ni anamnez to'planadi. Anamnez to'plash va bemorning kasallik tarixini to'g'ri bayon qilib berish tashhis uchun g'oyat katta ahamiyatga ega.

Bemor tekshirishda bemor ko'zdan kechiriladi va palpatsiya, perkussiya, auskultatsiya metodlari qo'llaniladi. Nerv sistemasi va sezgi a'zolarini tekshirishda reflekslar, sezuvchanlikning har xil turlari, ko'ruv va eshituv, ta'm va hid biluv o'tkirligini aniklash uchun maxsus usullar tatbiq etiladi. Oliy nerv faoliyatini o'rganish Diagnostikaning muhim vazifalaridandir. Bundan tashqari, gavda temperaturasi va qismlari o'lchanadi (termometriya va antropometriya), ichkariroqda joylashgan a'zolarini tekshirishda har xil ko'zgular (quloq, burun, hiqildoq, qin ko'zgulari) va optik asboblari (ko'zni tekshirishda — oftalmoskop, qizilo'ngachni ko'rishda — ezofagofibroskop, me'da-ichak tekshirishda — gastroduodenofibroskop, kolonoskopdan) foydalaniladi. Yurak va tomir harakatlarini qog'ozga yoki foto-plyonkaga yozib olish (kardiografiya va sfigmografiya)ning ahamiyati katta. Yurak va miyadagi elektr potentsiallarining o'zgarishlarini qayd qilish (elektrokardiografiya va elektroensefalografiya) ayniqsa kimmatli usuldir. 20-asr oxirida ichki a'zolar kasalliklari Diagnostikasida ultratovush texnikasi, magnit rezonans apparati, kompyuter tomografiya usullari keng qo'llanila boshladi. Ba'zi kasalliklarni

aniqlashda radioaktiv izotoplar tatbiq etiladi. Bunda nafas olish, qon aylanish, ajratish a'zolari va endokrin sistemalar holati, shuningdek, moddalar alma-shinuvining buzilishi aniqlanadi. Labbaratoriyada qon, siydik, axlat, balg'am, shuningdek, ko'mik, jigar, taloq, limfa tugunlarini punksiya qilib olingan materiallar mikroskopik, fizik va kimyoviy tekshirishdan o'tkaziladi ([Biopsiya](#)). Kasallikni qo'zg'atgan mikroblar va immunitetnk aniklash maqsadida o'tkaziladigan bakteriologik, immunologik va serologik metodlar Diagnostika uchun katta ahamiyatga ega. Hozir radiotelemetrik Diagnostika. usuli (biror ko'rsatkichni masofadan o'lchash) ishlab chiqilgan. Ayrim hollarda kasallik simptomlari kam, chalkash bo'lishi yoki tipik bo'lmasligi mumkin. Bunday hollarda differensial Diagnostika. usuli qo'llaniladi: vrach bemorda topilgan simptomlarni taxmin qilinayotgan kasalliklarga mos kelish-kelmasligini mukammal tahlil qilib, taxmin qili-nayotgan kasalliklarni hisobdan chiqara boradi va shu yo'l bilan muayyan xulosaga kelgach, kasallikka tashhis qo'yadi.

Funksional kasalliklar Diagnostikasida tashhis qo'yishda asosiy va yo'ldosh kasalliklar hamda asoratlar sabablari aniklanadi, sistema va a'zolar faoliyatining buzilish darajasi belgilanadi, tekshirilayotgan bemorning shunday kasallik bilan og'rigan boshqa bemordan farq qiladigan fiziologik xususiyatlari hisobga olinadi. Patologik-anatomik Diagnostikada bemor vafot etganidan keyin uni yorib olingan ma'lumotlar va to'qimalar biontatini taxlil qilish asosida tashhis qo'yiladi. Diagnostikani takomillashtirishda telekommunikatsiya, internet va elektron aloqalardan foydalanish mumkin.

XULOSA

Diagnostik sinov uskunalari kasalliklarni erta aniqlash va davolashda muhim ro'l o'ynaydi. Laboratoriya sinovlaridan tortib tasvirlash texnologiyalari, parvarishlash punktlari va molekulyar sinovlargacha ushbu vositalar sog'liqni saqlash mutaxassislariga aniq tashxis qo'yish va shaxsiy davolanish uchun bebaho ma'lumotlarni taqdim etadi. Kasalliklarni dastlabki bosqichlarida aniqlash orqali diagnostika sinov uskunalari sog'liqni saqlash mutaxassislariga zudlik bilan aralashish, bemorlarning natijalarini yaxshilash va umuman sog'lom aholiga hissa qo'shish imkoniyatini beradi. Texnologiya rivojlanishda davom etar ekan, diagnostika sinovlari sog'liqni saqlash kelajagini shakllantirishda tobora muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aliyev N., Muhammadjonov S. THE ROLE OF MATHEMATICS EDUCATION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF MEDICAL WORKERS. THE IMPORTANCE OF MATHEMATICS FOR A HEALTH WORKER. MATHEMATICAL METHODS AND STATISTICS IN MEDICINE //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 39-42.

2. Nurillo N. A., Muhammadjonov S., Tojimatova L. THE ROLE OF MATHEMATICS EDUCATION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF MEDICAL PERSONNEL. THE IMPORTANCE OF MATHEMATICS FOR THE HEALTH WORKER //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – Т. 3. – №. 6. – С. 54-56.

3. Melibayeva, F. M., Aliyev, N. A., & Muhammadjonov, S. G. o'g'li. (2023). SHEKISH BILAN BOG'LIQ O'PKA KASALIKLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 719–723

4. AN Abdiqayumovich, M Sarvarbek Gayratjon o'g'li. ZAMONAVIY DIAGNOSTIKANING ROLI. ZAMONAVIY DIAGNOSTIKA USULLARI. Лучшие интеллектуальные исследования 10 (6), 177-180.

5. N.Madrahimova. Scientific bases of methods for studying anthropometry of the eye bowl. Science and Innovation, Volume 1, Issue 8, pp. 1001-1006, 2022.

6. 7-18 ёшли болаларнинг кўз косаси антропометриясини ўрганиш. Ю.Н.Нишонов., А.Р.Абдулхакимов., Н.Р.Мадрахимова. Scientific impulse 1(5), 910-913, 2022

7. Madrahimova N.R. (2023). INTERCORRELATION OF THE SIZE OF THE EYE SLIT AND THE ANTHROPOMETRIC PARAMETERS OF THE ORGANISM. World Bulletin of Public Health, 29, 27-29

8. Odilov, X., Mirzajonova, S., & Rustamov, A. (2023). ATEROSKLEROZ TIBBIYOTDAGI DOLZARB MUAMMO VA UNGA AMALIY TAVSIYALAR. Engineering Problems and Innovations

9. Одилов, Х., Эминов, Р., & Одилов, Ж. (2023). БОЛАЛАРДА БУЙРАКЛАР ИККИ ТОМОНЛАМА СИЙДИК ТОШ КАСАЛЛИГИ ДАВОЛАШ ТАКТИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Engineering Problems and Innovations

SHAHAR KENGAYISHINI BASHORATLASHNING AHAMIYATI VA MODELLARI

Ismailov Ilxom Tursunbayevich

Toshkent moliya instituti

Elektron tijorat va raqamli iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchisi

e-mail: ilxomismailov1988161287@gmail.com

Ermamatova Shoxsanam Ermamat qizi

Toshkent moliya instituti

Raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat kafedrası assistenti

ermamatovashoxsanam0@gmail.com

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada shahar kengayishini bashoratlashning dolzarbligi va muhimligi yoritilgan. Shahar aholisining o'sishi va maydonining kengayishi jahonning deyarli barcha mamlakatlari uchun dolzarb muammo ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, shahar kengayishining asosiy omillari, uning afzalliklari hamda bashoratlash usullari batafsil tahlil qilingan. Jumladan, statistik usullar, matematik modellashtirish, ekspert baholash hamda sun'iy intellekt usullari kabi zamonaviy yondashuvlar yoritilgan. Maqolada shahar kengayishini bashoratlashning ahamiyati shundaki, u transport, kommunal infratuzilma va boshqa sohalarni rivojlantirish uchun zamin yaratadi hamda barqaror shahar kelajagini ta'minlashga xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:** shahar kengayishi, bashoratlash, modellashtirish, barqaror rivojlanish, infratuzilma.*

Kirish

Jahon bankining so'nggi tadqiqotlariga ko'ra, 2050 yilga kelib yer yuzida yashaydigan odamlarning taxminan 70 foizdan ortig'i, ya'ni deyarli uchdan ikki qismi shahar aholisi hisobiga to'g'ri keladi [1]. Boshqacha aytganda, shaharlarda yashovchilar soni nihoyatda tezlik bilan o'sib boradi. Albatta, bunday rivojlanish oqibatida ko'plab muammolar paydo bo'lishi mumkin. Shaharlarning chegaralari va infratuzilmasi tezda kengayib borayotgan sharoitda, ularning barqaror taraqqiy etishi va atrof-muhitga yetkaziladigan salbiy ta'sirlarni kamaytirish uchun shaharlar qurilishining oldindan loyihalashtirilishi hamda rejalashtirilishi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham shaharlarning kelgusidagi rivojlanish

sur'atlarini bashorat qilish va bunga mos ravishda chora-tadbirlar ko'rish dolzarb masala hisoblanadi.

Ayniqsa Osiyo mamlakatlari, jumladan O'zbekistonda ham shahar aholisi juda tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Masalan, O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi tomonidan olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, keyingi 12 yil ichida, ya'ni 2018-2030 yillarda respublikamizdagi shahar aholisi sonining yillik o'sish sur'ati 1,5 foizdan oshmasligi bashorat qilingan [2]. Bu esa shahar hududlari va infratuzilmasining ham taxminan xuddi shu nisbatda kengayib borishiga olib keladi.

Boshqacha qilib aytganda, O'zbekiston shaharlari kelgusi 12 yil davomida har yili o'rtacha 1,5 foizga o'sadi. Agar bugungi kunga kelib shahar aholisi soni, masalan 34 millionni tashkil etsa, u holda 2030 yilga borib bu ko'rsatkich taxminan 40 millionga yetadi. Demak, shaharlar chegarasi va zaruriy infratuzilmasi ham xuddi shunchalik miqdorda kengayishi kerak.

Albatta, bunday jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan shaharlarni to'g'ri boshqarish va rejalashtirish, ularning barqaror o'sishi va ekologik muvozanatni saqlab qolish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Chunki tez rivojlanayotgan shaharlarda ko'pincha infratuzilma shahar aholisining o'sish sur'atidan orqada qoladi. Natijada yashash sharoiti yomonlashadi, ekologik muammolar kuchayadi. Shahar transport tizimi yuklamasidan chiqib ketadi, yo'llardagi tiqilishlar keskin ortadi. Makonning cheklanganligi tufayli yashash uchun er maydonlari tanqis bo'lib qoladi. Bularning barchasi aholi sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi [3].

Xususan, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, ifloslangan havoni nafas olis natijasida har yili taxminan 7 milliondan ziyod odamlar vaqtidan oldin vafot etmoqda [4].

Shu bois, mamlakat miqyosida shaharlarni rejalashtirish va rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish, ular doirasida amaliy chora-tadbirlarni puxta o'ylab ko'rish zarur. Zero, shaharlarning kelajagi bugungi qarorlarimizga bog'liq.

Shahar chegaralarini aniq belgilash, zarur infratuzilma hamda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda shaharning kelgusidagi kengayishini oldindan bashorat qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki shahar aholisi soni va maydoni o'sishi bilan uning ehtiyojlari ham tezlik bilan ortib boradi. Ayniqsa transport, kommunikatsiya, ijtimoiy infratuzilma kabi sohalarni rivojlantirish uchun shahar kelajagini oldindan ko'ra bilish juda muhimdir [5].

Bunday bashoratlarni aniq amalga oshirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Jumladan, murakkab matematik modellashtirish usullari, sun'iy neural tarmoqlar,

aerokosmik tasvirlarni qayta ishlash orqali olingan ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish asosida shaharning kelgusi o'sishi oldindan aytib berish mumkin. Ana shu usulda olingan bashorat natijalarga asoslanib, shahar infratuzilmasini munosib rivojlantirish, transport tizimini yaxshilash, ekologik muvozanatni saqlab qolish bo'yicha choralar ko'rish osonroq kechadi.

Umuman olganda, shahar kengayishini ilmiy asosda bashoratlashtirish uning barqaror kelajagi uchun nihoyatda muhimdir.

Shahar kengayishi bashoratlashning ahamiyati

Shahar kengayishini bashoratlashtirishning bir qator afzalliklari mavjud. Hususan:

- Transport, kommunal xizmatlar va infratuzilmani rejalashtirishga yordam beradi.

Shahar aholisi o'sganda uning turmush tarzi, iste'mol miqdori va ehtiyojlari ham ortib boradi. Bunday paytda transport tizimi, uy-joy fondlari, ijtimoiy-madaniy ob'yektlar, tibbiy muassasalar soni va sifat jihatidan talabga javob bera olmasligi mumkin. Shaharning kelgusidagi rivojlanish sur'atlarini oldindan bashorat qilib borish orqali zarur infratuzilma ob'yektlarini yaratish, kommunal xizmatlar tizimini takomillashtirish imkoniyati paydo bo'ladi [6].

Masalan, yangi mikrorayonlar qurish, kengroq avtomagistrallar, yetarli fuqaro muhofazasi ob'yektlari, maktab va bolalar bog'chalari, shifoxona va poliklinikalar, sport inshootlari barpo etish rejalashtiriladi. Shuningdek, temir yo'l transportini rivojlantirish, metro chiziqlarini kengaytirish ham bashorat natijalariga mos ravishda amalga oshiriladi. Natijada shaharning barqaror rivoji ta'minlanadi."

- Yerdan oqilona foydalanishga imkon beradi.

Shaharning kelgusi chegaralari va rejasi oldindan bashorat qilinganda, turli infratuzilma obyektlari joylashadigan maydonlar aniq belgilab olinadi [7]. Masalan, yangi uy-joy massivlari, sanoat zonalari, transport yo'llari uchun ajratiladigan yer uchastkalari oldindan rejalashtiriladi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish, chorva mollarini boqish uchun yaroqli bo'lgan yerlar saqlab qolinadi. Daraxtzorlashtirish dasturlari ham bashoratlar asosida tuziladi. Natijada tabiiy landshaftlar, o'rmonlar, suv havzalari kabi tabiat negizlarining buzilish oldi olinadi. Shahar atrofidagi yerdan oqilona va samarali foydalanish ta'minlanadi.

- Atrof-muhit va tabiiy resurslarni muhofaza qilishga yordam beradi.

Shaharning kelgusi chegaralari aniqlanganda uning atrof-muhitga ta'sir darajasi ham hisobga olinadi [8]. Ya'ni aholi soni va sanoat korxonalarini miqdori oshgan sari chiqindilar hajmi, ifloslantiruvchi moddalar miqdori ham ko'payib borishini bashorat qilish mumkin. Bunday bashoratlar asosida chiqindilarni qayta ishlash,

filtratsiya qurilmalarini o'rnatish, ifloslikni kamaytirish choralarini oldindan rejalashtirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Shuningdek, suv resurslaridan oqilona foydalanish, havo ifloslanishini oldini olish, tabiiy landshaftlarni saqlab qolish bo'yicha ham loyiha yechimlar ishlab chiqiladi. Natijada kelajak avlod uchun atrof-muhit va tabiiy boyliklarni asrash ta'minlanadi.

Shunday qilib shaharlar rivojini ilmiy asosda bashoratlashtirish uning jadal sur'atlar bilan o'sishi natijasida kelib chiqadigan salbiy oqibatlarining oldini olish imkonini beradi. Bu esa mamlakatning barqaror taraqqiy topishi va aholining yashash darajasini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Shahar kengayishini bashoratlashtirish usullari

Statistik usullar

Shahar kengayishini bashoratlashtirishda statistik usullardan keng foydalaniladi. Ularning asosiysi trend tahlili hisoblanadi.

Trend tahlili shahar aholisining o'tgan davrdagi o'zgarish qonuniyatlarini aniqlaydi hamda kelajakka bashorat beradi [9]. Buning uchun turli statistik ko'rsatkichlar, jumladan aholi soni, zichligi, tabiiy o'sishi va boshqalar tahlil qilinadi. So'ng ushbu ko'rsatkichlarning o'tgan davrdagi o'zgarish tendentsiyasi aniqlanadi.

Masalan, agar so'nggi yillarda Toshkent shahri aholisi o'rtacha 2 foizdan ortib borgan bo'lsa, kelajak yillarga ham xuddi shunday o'sish sur'ati kuzatilishi mumkinligi taxmin qilinadi [10].

Bundan tashqari, regressiya tahlili ham qo'llaniladi. U ko'p o'zgaruvchili tenglamalar asosida bashoratlarni amalga oshiradi. Regressiya tahlili yordamida turli iqtisodiy, ijtimoiy omillarning shahar kengayishiga ta'siri baholanadi.

Umuman olganda, statistik usullar shahar rivojlanishining miqdoriy bashoratini berish imkonini yaratadi.

Matematik modellashtirish usullari

Shahar kengayishini bashoratlashtirishda matematik modellashtirish muhim usul hisoblanadi. Bunda turli matematik tenglama hamda modellardan foydalaniladi.

Masalan, M. Batty tomonidan taklif etilgan fraktal geometriya modeli shaharlarning kelajakdagi hududiy o'sishini mosholdagi shakllar negizida bashoratlash imkonini beradi [11].

A. Wilson esa hududiy o'sish modelini yaratdi. U joriy sharoit va omillarning ta'sirini hisobga olgan holda shahar maydonining o'sishi bosqichlari uchun aniq bashoratlarni beradi [12].

Yana bir model - bu mahallalar seleksiyasi modeli. U turli ijtimoiy, iqtisodiy omillar asosida shahar aholisining ko'chib borishi tartibini ko'rsatadi hamda yangi shahar maydonlari kengayishi bashoratini beradi [13].

Umuman olganda, matematik modellashtirish shahar kengayishini sinchiklab o'rganish va aniq bashoratlar berish imkonini yaratadi.

Ekspert baholash usullari

Shahar kengayishini bashoratlashtirishda ekspert baholash usullaridan ham keng foydalaniladi. Bunda soha mutaxassislari - shaharsozlar, geograflar, iqtisodchilar, ekologlar va boshqalarning salohiyatidan unumli foydalaniladi.

Ekspert bashoratlashining eng samarali usullaridan biri - bu Delfi usuli hisoblanadi. Unda soha ekspertlari guruhlarini tashkil qilinib, ularga turli shahar kengayishiga taalluqli savollar beriladi. So'ng javoblar yig'iladi va qayta ishlanadi hamda yakuniy bashoratlar beriladi [14].

Boshqa usul - bu keyslar usuli. U biror shahar kengayishi misolida ekspertlarning bilim va tajribasini jalb qilish, baholash mezonlari ishlab chiqish, belgilangan ko'rsatkichlarga asosan bashoratlar berishni o'z ichiga oladi [15]. Bu jarayon qiyin bo'lsa-da, aniqligi bilan ajralib turadi.

Ekspert bashoratlash usullari xatolik ehtimolini kamaytirishga va ishonchli natijalarga erishishga yordam beradi.

Sun'iy neyron tarmoq modellari

Shahar kengayishini bashoratlashtirishda sun'iy intellekt usullari, jumladan, sun'iy neyron tarmoqlar keng qo'llanilmoqda. Ular yordamida murakkab shahar tizimlarini modellashtirish va aniq bashoratlar berish imkoniyati yaratilgan.

Masalan, konvolyutsion neyron tarmoqlari aerokosmik tasvirlar tahlili asosida shahar maydonining kengayishi xaritasini ishlab chiqadi [16]. Haqiqiy tasvirlardan olingan ko'rsatkichlar bilan taqqoslab natijalarni aniqlashtirish mumkin.

Yana bir zamonaviy usul - LSTM (uzoq muddatli xotiraga ega bo'lgan rekurrent neyron tarmoq) lar hisoblanadi. Ular vaqt qatori ma'lumotlari asosida kelgusi davr uchun taxminlar beradi [17]. Masalan, aholining o'tgan o'n yillik dinamikasi tahlil qilinib, kelajak yillardagi o'sish bashoratlanadi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt yordamida murakkab shahar jarayonlarini modellashtirish va yuqori aniqlikda bashoratlar olish mumkin. Bu shaharlarni oqilona boshqarishning muhim shartidir.

Xulosa

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, shaharlarning to'xtovsiz kengayishi va rivojlanishi natijasida bir qator muammolar paydo bo'lmoqda. Aholi zichligining oshishi transport infratuzilmasining yetishmasligiga, atrof-muhit ifloslanishiga, kommunal xizmatlar sifatining pasayishiga olib kelmoqda.

Shu bois bugungi kunda ko'pgina mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston ham shaharsozlikni ilmiy asosda amalga oshirishga harakat qilmoqda. Ya'ni shahar kengayishining istiqbol rejalarini ishlab chiqish, uning tabiiy o'sishi va rivojlanish bosqichlarini bashoratlashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, aerokosmik monitoring kabi yutuqlardan samarali foydalanish lozim. Faqat shundagina shaharlarning barqaror rivojlanishiga erishish va atrof-muhit muvozanatini saqlab qolish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, shahar kengayishini ilmiy asosda bashoratlashtirish uning jadal rivojlanishi va obodonlashtirilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. 2018. Urban Development Overview. Washington, DC.
2. O'zdavstat. 2019. Demografik ma'lumotlar. Toshkent.
3. Gupta, R. 2017. Sustainable Urbanization in Developing Countries. New Delhi.
4. WHO. 2016. Ambient Air Pollution: A Global Assessment of Exposure and Burden of Disease. Geneva.
5. Angel, S. et al. 2016. Atlas of Urban Expansion. New York University.
6. Zhang et al., 2022. Urban planning and environmental sustainability.
7. Jabareen, 2021. Sustainable Urban Forms.
8. Haase et al, 2022. Conceptualizing Urban Shrinkage. Environ. Sci Eur.
9. Wang J. et al., 2021. Modelling urban expansion trends.
10. Haase A. et al, 2022. Conceptualizing urban shrinkage.
11. Batty, M. 2021. Fractal geometry modelling in urban studies.
12. Wilson A. 2020. Urban growth simulation models.
13. Haase et al. 2022. Conceptualizing urban shrinkage. Environ Sci Eur.
14. Jabareen et al. 2021. Expert Assessments of Future Urban Growth.
15. Haase et al. 2022. Conceptualizing urban shrinkage. Environ Sci Eur.
16. Zhang et al. 2022. Urban planning using convolutional networks.
17. Wang et al. 2021. LSTM networks in urban growth prediction.

ZAMONAVIY GEOGRAFIYANING INTEGRATSIYA MUAMMOLARI

Uzakbaev K.K.

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Geografiya o'qitish metodikasi kafedrası assistent o'qituvchisi

Eshiniyazov B.A.

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Jaksimuratov A.B.

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

***Annotatsiya:** ushbu maqolada geografiya fanining integratsiya muammolari, tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geograflar o'rtasidagi bahs, geografiya fanining rivijlanish kelajagi haqida so'z yuritiladi.*

***Tayanch tushunchalar:** geografiya, tabiiy geografiya, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, integratsiya, nazariya, Geografiya jamiyati, konsepsiya, ekologiya.*

Kirish. Zamonaviy geografiyaning eng o'tkir va aktual metodologik muammolari orasida integratsiya masalalari ham bor. Fanning chuqurlashib borishi tabiiy hodisa, lekin u katta muammoga aylanadi va fanda qarama-qarshilikning kuchayib, o'zaro aloqasi buzilganda yo'q bo'lib ketish xavfini tug'diradi. Geografiya fani bilan ham shu kabi hodisa yuz berdi. Uning bo'linishi butun XX asr davomida kuzatilgan va asrning oxiriga kelib, uning zamonaviy nazariyachilarining bashorati o'sib boruvchi integratsiya tendensiyalari haqida asossiz optimistik bayonotlariga qaramay asrning oxiriga qadar kuchaygan.

Asosiy qism. Geografiyani integratsiyalash masalasi turli omillarga, shu bilan birga metodologik ahamiyatga ega. Jahon ilm-fani geografiyaning qulashi bilan nimani yo'qotadi degan savolga javob tariqasida asrlar davomida geografiya inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga qodir bo'lgan fan bo'lganligini eslashning o'zi yetarli.

Sababi geografiyaning tabiiy geografiyasiz qolishi natijasida inson va tabiiy muhitning o'zaro ta'sirini o'rganishning alohida sohasi «yetim» bo'lib qoladi. «Muqaddas joy hech qachon bo'sh qolmaydi» prinsipiga ko'ra, so'nggi vaqtlarda

o'zlarini ekolog deb ataydigan aniq o'rganish obyekti yo'q mutaxassislar va havaskorlar oqimlari paydo bo'lgan ilmiy bo'shliqni tezda to'ldirdi.

Mashhur amerikalik geograf olim R.Xarshtorn va uning sheriklari geografiyani «monistik» fan deb e'lon qilgan, geografiyani tabiiy va gumanitar bloklarga ajratish kerak emas, hatto bu xavfli deb aytgan edi. Bu konsepsiyaga ko'ra geografiya ijtimoiy-gumanitar fanlar qatoriga kiritilib, tabiiy hodisalarni o'rganishga beparvolik Amerika geografiyasiga xos bo'lib qolganligini ko'rishimiz mumkin [10].

SSSRda geografiyaning birligi haqida ko'p yillik raqobatlar butunlay boshqacha yo'nalishda bordi. Tabiiy geografiyaning umumiy geografiyaga tegishli ekanligi hech qachon savol ostida qolmadi. Biroq iqtisodiy-geograflarning kuchli bir guruhi iqtisodiy geografiya gumanitar fan ekanligini va tabiiy geografiya bilan bir fanga birlashtirish katta metodologik xato bo'lishini aytib o'tdi.

Bu fikr deyarli rasmiy tus oldi, Butunittifoq Geografiya Kongresining I (1933) qarori bilan tasdiqlandi va keyinchalik SSSR Geografiya jamiyatining II Kongresi qarorida (1955) tasdiqlandi. Sovet geograflarining hammasi ham bu fikrga qo'shilmadi. Tabiiy va iqtisodiy geografiyaning birligini himoyalab chiqqan birinchi ilmiy ish V.A.Anuchinning «Geografiyaning nazariy muammolari» kitobi bo'ldi. Bu asar tabiiy va iqtisodiy-geograflarni birlashtira olmadi, aksincha ularning teskari pozitsiyalarini aniq ko'rsatib berdi.

Qisqa «tin olish» dan so'ng, ko'plab geograflar 70-80-yillarda geografiyaning ushbu «mangu» muammosiga qaytishni boshladi. Ammo, hozirga qadar ular juda sekin yechim topmoqda.

Geografiya fanining integratsiyasi masalasida Yu.G.Saushkin quyidagi fikrlarni bildirgan. Bugungi kun geografiyasida tabiiy geografiyaning ahamiyati pastlab, ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning ahamiyati esa birmuncha ortib bormoqda. Shu sababdan geografiya to'liq ijtimoiy (gumanitar) fanga aylanishi kerak.

Sovet davrining atoqli tabiiy geograf olimlari S.V.Kalesnik va I.P.Gerasimovlar geografiya tabiiy va ijtimoiy muhitni kompleks o'rganadigan fan deb ta'kidlagan edi [11].

Geografiya fani integratsiyasining maqsadlari va prinsiplari uning ikki asosiy bloklari o'rtasidagi chegaralarni yo'qqa chiqarishga yoki tabiiy blokni jamiyatga bo'ysundirishga, asossiz yasama sxemalar va modellarni o'rnatishga olib kelishi mumkin. Biz uchun boshlang'ich nuqta geografiyaning ikki taraflama tuzilishini saqlab qolish, o'z tadqiqot mavzularimizni ham har bir blok uchun ilmiy vazifalarni tan olish bo'lishi zarur.

Xulosa. Faktlar geografiyaning keng tarqalib borishi, tabiiy va ijtimoiy bloklar o'rtasida asosiy yo'nalishni ichki emas, balki tashqi aloqalarga va har xil metodik yondashuvlar, umumiy tilni yo'qotish xavfi haqida xabar beradi. Integratsiya uchun

eng asosiy metodik to‘siq tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning tadqiqot mavzulariga va umumiy geograflarga bo‘lgan yondashuv hisoblanadi.

Mashhur geograf olim N.N. Baranskiy tabiiy geograflarni «insonsizligi» va iqtisodiy-geograflarni «tabiatsizligi» uchun ayblagan edi [9]. Bugungi kunda esa tabiiy geografiyada inson katta ahamiyatga ega ekanligini hisobga olishimiz kerak. Umumiy olib qaraganda, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish geografiyaning eng asosiy tadqiqot obyektlaridan biridir. Har qanday fanda integratsiya bor bo‘lgani kabi, geografiya fanlari tizimini bir daraxt deb olib qarasaq, uning ikkita katta shoxi bu – tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografiya ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu ikki soha bir-birisiz rivojlana olmaydi. Birining o‘rnini biri to‘ldiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Iskenderov, A. B., Uzaqbaev, Q. K., Sharibaev, A. M., & Djanabaev, I. B. (2019). Turizm hám rekreaciyaliq geografiya” páninen oqıw-metodikaliq qollanba. *Nókis-2019*, 128.
2. Turdimambetov, I., Joldasov, A., Iskenderov, A., & Uzaqbaev, Q. (2022). Qaraqalpaqstanm ekonomikaliq ham socialliq geografiyasi.
3. Turdimambetov I. R., Uzaqbaev Q. K., Oteuliev M. O. TERRITORIAL FORMATION OF THE EDUCATION SYSTEM IN IMPROVING THE QUALITY OF LIFE OF THE POPULATION OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Экономика и социум. – 2020. – №. 12 (79). – С. 276-279.
4. Turdimambetov I. R., Uzaqbaev Q. K., Niyazimbetova G. CURRENT STATUS OF MEDICAL SERVICES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Science and education in Karakalpakstan.–2020. – 2020. – Т. 2. – С. 104-108.
5. KEUNIMJAY-ULI, UZAKBAEV KOBLAN. "Aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarini tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari." *Fan va jamiyat* (2022).
6. KEUNIMJAY-ULI, UZAKBAEV KOBLAN. "Xaliqqa xizmet ko‘rsetiw tarawlari ekonomikasinin’geografiya ilimindegi orni." *Fan va jamiyat* (2019).
7. KEUNIMJAY-ULI, UZAKBAEV KOBLAN. "Geografiya boyinsha mag‘liwmatnama." *NMPI baspaxanası* (2017).
8. KEUNIMJAY-ULI, UZAKBAEV KOBLAN. "Qaraqalpaqstan Respublikasin ekonomikaliq rayonlastiriwdin’geografiyalıq tiykarlari." *Fan va jamiyat* (2023).
9. Баранский Н. Н. Методика преподавания экономической географии. – 1960.
10. Исаченко А. Г. Теория и методология географической науки. – 2004.

11. Солиев А. Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёт //Т: Камалак. – 2013. – Т. 184.
12. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИ ГЕОГРАФИЯСИДА ЯРАТИЛГАН НАЗАРИЯЛАР ТАҲЛИЛИ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 919-929.
13. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛЛАШТИРИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 233-240.
14. Узакбаев К. К. ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРДА АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 845-857.
15. Утепова Г. Б., Узакбаев К. К. РОСТ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН И ЕГО ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 1121-1130.

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA FINLANDIYA TAJRIBASINI QO'LLASH AFZALLIKLARI

To'rayev Ro'ziboy Norovich, Abilov Samandar Xolto'raevich

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi,

Termiz davlat universiteti magistiranti

turayev.ruziboy@bk.ru

Annotatsiya: Maqolada Finlandiya ta'lim tizimi, uning zamonaviy dunyodagi o'rni, maktablarda ruchkadan voz kechilgani, ta'limning asosiy tamoyillari, olib borilgan islohotlar va bu islohotlar samarasi to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimi, Finlandiya, tamoyillar, islohot, omillar.

Аннотация: В статье представлена информация о финской системе образования, ее месте в современном мире, отмене ручки в школах, основных принципах образования, проведенных реформах и результатах этих реформ.

Ключевые слова: Система образования Финляндии, принципы, реформа, факторы.

Annotation: The article provides information about the Finnish education system, its place in the modern world, the abolition of the pen in schools, the main principles of education, the reforms carried out and the results of these reforms.

Keywords: Education system, Finland, principles, reform, factors.

Shimoliy Yevropadagi kichik mamlakat Finlyandiyada ta'limning o'ziga xos xususiyatlari ko'p marotaba pedagogik tadqiqot obyektiga aylangan. Jumladan, G.R.Islakayeva, I.E.Lyskova, M.B.Ponyavina, I.S.Pozdeyeva, E.E.Sin, M.F.Solovyeva, M.V.Yushkov, K. Huusko va boshqalar bu mamlakat ta'lim tizimini o'rganish borasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Ma'lumki, Finlyandiyada ta'lim tizimi zamonaviy dunyoda eng samarali tizimlardan biri bo'lib, uning yuqori darajasini ta'minlash mamlakat milliy strategiyasining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Xalqaro talabalarni baholash dasturi (PISA) ma'lumotlariga ko'ra, Finlyandiyada ta'limi bir necha yillardan beri jahon reytingida yetakchi o'rinlardan (eng yaxshi 10lik ichida) birini egallab kelmoqda. PIRLSning 2016 yildagi tadqiqoti natijalariga ko'ra (5-o'rin, 566 ball), TIMSS 2019 yil natijalariga ko'ra 19-o'rinni egallab turibdi.

Finlyandiyada ta'lim talabalarga yo'naltirilgan yondashuv asosida qurilgan

va jarayonning barcha ishtirokchilari o'zlarini teng darajada his qiladigan muhitni yaratishga qaratilgan. Finlyandiyaning asosiy ta'lim to'g'risidagi qonunida (1998 yil) Finlyandiya ta'limining uchta asosiy maqsadi belgilab berilgan: **(1)** o'quvchilarga hayotda zaruriy bilim va ko'nikmalarni berish, **(2)** jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ'ib qilish, **(3)** mamlakat bo'ylab ta'lim sohasida tenglikni ta'minlash. Finlyandiya maktablarida haftasiga 5 kunlik o'qish joriy etilgan. Barcha maktablar bir xil mavqega ega, bolalar qobiliyatiga ko'ra turli sinf yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga ajratib o'qitilmaydi. Ularda boshlang'ich ta'lim 6 yil davom etadi va 3-sinfgacha bolalarga baho qo'yilmaydi, o'qituvchilar tomonidan uyga vazifa deyarli berilmaydi, 2017 yildan aksariyat maktablar dars vaqtida "ruchkadan voz kechishgan" va dars jarayonida to'liq kompyuter va planshetlardan foydalaniladi.

Finlyandiya ta'lim tizimi ikki bosqichli ma'muriy tuzilishga ega: Ta'lim va madaniyat vazirligi (*Ministry of Education and Culture*) hamda vazirlik huzurida faoliyat yuritadigan, lekin o'z faoliyatida mustaqil Milliy ta'lim agentligi (*Finnish National Agency for Education*). Agentlik maktabgacha va maktab ta'limini, vazirlik esa oliy ta'lim tizimini boshqaradi. Ta'lim muassasalarini boshqarish asosan mahalliy hokimiyatlar tomonidan amalga oshiriladi. Ta'lim muassasasi faoliyatiga deyarli hech kim aralashmaydi. Finlyandiya ta'lim tizimining yana bir tamoyili bo'lgan ishonch madaniyati tufayli maktablarga tekshiruv tashriflari yo'q.

Finlyandiya ta'lim tizimining asosini quyidagi **7 ta tamoyil** tashkil etadi:

1. **Tenglik** - Finlyandiyadagi barcha maktablar o'quvchilarga bir xil sharoit va bir xil ta'lim tizimini taqdim etadi.
2. **Bepul ta'lim** - bepul ta'lim berish bilan birgalikda o'quvchilarga barcha o'quv jihozlari va tushlik ham bepul taqdim etiladi.
3. **Individuallik** – darslarni o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilar bilan o'qituvchilar yoki yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar alohida shug'ullanishadi. Finlyandiyada o'quvchilar qo'shimcha darslarga qoldirilmaydi.
4. **Amaliylik** – o'quvchilarni imtihonga emas balki hayotga tayyorlash. Darslarda o'quvchilar, masalan, viza kartadan qanday foydalanish, shartnomalar tuzish, saytlar yaratish, tikish, ovqat pishirish, marketing va sotuv ishlari bilan shug'ullanish kabi amaliy ishlar bilan shug'ullanadilar.
5. **Ishonch va o'qituvchilar salohiyati** – barcha maktablardagi o'qituvchilar magistratura darajasiga ega bo'lishlari shart. O'quvchilarga uy vazifasi deyarli berilmaydi, ota-onalar farzandlari bilan uyda shug'ullanmaydi va o'qituvchilarning o'quvchilarni hayotga tayyorlashiga to'liq ishonishadi.
6. **Ixtiyoriylik** – dars jarayonida qay darajada ishtirok etish o'quvchilar

ixtiyorida. O'qituvchilar o'quvchilarni darsga qiziqтира olmasalar o'quvchilar sinfni tark etishi yoki o'zlari yoqtirgan boshqa biror mashg'ulot bilan shug'ullanishlari mumkin.

7. **Mustaqillik** – fin ta'lim tizimida o'qituvchilar o'quvchilarni imkon qadar o'zlari bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishlari kerakligiga yo'naltiradi. Bilimlarni hayotda qanday tatbiq etish ko'nikmalari amaliy mashg'ulotlar yordamida shakllantiriladi. O'quvchilarning har qanday fikrlari inobatga olinadi va qo'llab quvvatlanadi.

Finlyandiya ta'limining muhim xususiyatlaridan yana biri, maktabgacha ta'limdan oliy ta'limgacha to'liq bepul ta'lim olishni ta'minlaydi. Shuningdek, barcha o'quv materiallari, darsliklar, sog'liqni saqlash xizmatlari va maktabga qatnash transport xizmatlari ham bepul amalga oshiriladi hamda boshlang'ich va o'rta ta'limda barcha o'quvchilarga maktablarda bepul tushlik beriladi.

Finlyandiya 9 yillik majburiy ta'lim davomida milliy imtihon yo'q, deyarli barcha o'quvchilar yashab turgan hududiga yaqin maktabga borishadi.

Bu yerda o'qituvchilarning malakasiga tayanadilar. Finlyandiya ta'limini baholash markazi ta'limdagi baholashni butun mamlakat bo'ylab olib boradi.

Finlyandiya ham o'qituvchilarning salohiyati eng muhim omil hisoblanadi. O'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi yuqori darajadagi hamkorlik ta'lim tizimining uzluksiz ishlashiga yordam beradi.

Finlyandiya 40 yildan ziyod vaqt mobaynida keng qamrovli va uzoq muddatli ta'lim islohotini olib bormoqda. Finlyandiyaning muvaffaqiyati izchil va uzoq muddatli ta'lim islohoti bilan chambarchas bog'liq. Finlyandiya muvaffaqiyatining sabablari bir-biriga bog'liq bo'lgan turli xil omillarga asoslanadi, bular: o'qituvchilar salohiyati, ta'lim siyosati va fin madaniyati bilan bog'liq omillar. Eng yaxshi o'rta maktab bitiruvchilari bo'lajak o'qituvchi sifatida tanlab olinadi. Yuqori malakali o'qituvchilar Finlyandiya ta'lim tizimi muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatadigan bosh omil deyish mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilar uchun alohida o'quv maktablari belgilanadi va ular o'quv vaqtlarining 10-15 %ni ushbu maktablarda o'tkazadilar. O'quv maktablarida talaba-o'qituvchilarga barcha kerakli o'quv materiallari bilan ta'minlangan alohida xona ajratib beradilar. Talaba-o'qituvchilar dars jarayonlarini kuzatish bilan birgalikda ta'lim jarayonida ham faol qatnashib, katta tajriba to'plashadi hamda maktab jamoasi va o'quvchilar ham ulardan juda foydali yordam olishadi.

Ikkinchi omil bo'lgan Finlyandiya ta'lim siyosatining 4 muhim jihatini ko'rib chiqamiz. Bularga izchil va uzoq muddatli siyosat, bilimga asoslangan jamiyatga sodiqlik, ta'lim tengligi va mahalliy hokimiyatning ta'lim sohasidagi vakolatlarini kengaytirishlar kiradi. Bu 4 jihat 1970 yillardan beri muvaffaqiyatli ta'lim islohoti

asoslarini tashkil etdi, natijada kuchli ta'lim tizimi yaratildi. Shuningdek, bu mamlakatdagi mavjud yuqori saviyadagi kitobxonlik madaniyati ham o'quvchilarning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Finlyandiyata'lim tizimlarining rivojlanish dinamikasini o'rganan holda biz quyidagilarni bahs mavzusi sifatida o'rganish zarur deb hisoblaymiz: O'zbekiston o'quv-tarbiya jarayonida ilg'or tajriba va o'qitish texnologiyalarni qo'llay olish, umuminsoniy qadriyatlar asosida jahon va respublikamiz ta'limi rivojini tashxis etish; jahon va respublikamizda ta'lim taraqqiyotini qiyosiy tahlil etish; respublikamiz ta'limi taraqqiyotidagi afzalliklarni ko'ra olish va uning keyingi rivojini bashorat qila olishga doir ko'nikmalarni egallash, pedagogik adabiyotlar bilan ishlash; zarur metodik yo'riqnomalar tuzish; samarali pedagogik tadqiqotlar o'tkazish, qiyosiy tahlil metodidan foydalana olish, qiyosiy tahlil jarayonida jahon mamlakatlarning rivojlanishidagi o'ziga xosliklarni hisobga olish malakalarini egallagan bo'lishimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda mamlakat taraqqiyoti uchun kadrlar tayyorlashda ta'lim tizimi muhim o'rin tutishini inobatga oladigan bo'lsak, hozirgi kundagi O'zbekistondagi professional ta'lim tizimini yaxshilash borasida xorij tajribalarini o'rganish va xalqaro standartlarga javob beradigan tizim yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida professional ta'lim tizim bo'lajak o'qituvchilar xorijiy tajribalarni juda puxta o'zlashtirishi lozim. Professional ta'lim tizimda olib borilayotgan islohotlarda o'z aksini topishi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вулфсон Б.Ф. Сравнительная педагогика М.: «Просвещение», 2003 г.
2. Проскуракова И., Правда В. Л. Образование в Финляндии-уроки счастья: анализ системы образования Финляндии на основе материалов блогов и видеоблогов //Сборник материалов IX Всероссийской научно-практической конференции молодых ученых с международным участием" Россия молодая". – 2017. – С. 84005-84005.
3. R.N.Turaev. [IMPROVING THE USE OF E-LEARNING ENVIRONMENT IN TEACHING WEB PROGRAMMING](#). European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences 10 (1). 2022.
4. R.N.Turaev. [THE IMPORTANCE OF THE FORMATION OF WEB PROGRAMMING COMPETENCIES IN SCHOOLCHILDREN](#). European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences 10 (1). 2022.
1. Абдурахманов Г. Методика обучения пунктуации, Ташкент, издательство «Учитель», 1968, - С.6-7.
2. Бердиёров Х., Расулов Р. Паремииологический словарь узбекского языка. - Ташкент: «Учитель», 1984.
3. Знаки препинания в поэзии Чолпона // Узбекский язык и литература.- 2020.- №4.- Б.26-33.
4. Основные правила пунктуации узбекского языка. Составители: Н.М.Махмудов, А.П.Мадвалиев, Н.Махкамов. — Ташкент: НМИУ «Узбекистан», 2015.

THE CONTENT OF THEIR ACTIVITIES ACCORDING TO THE PSYCHODIAGNOSTIC NATURE OF THE AMTXAUER INTELLIGENCE TEST, WHICH IS PART OF THE INTELLIGENCE TESTS

Narkulov Xusan Ismoilovich

Teacher of the psychology department of Termez State University

ABSTRACT

In Uzbekistan. M.Davletshin, E.Goziev, B.R.Kadyrov, M.Vohidov, V.M.Karimova, Z.T.Nishanova, K.B.Kadyrov, E.Z.Usmanova, T.S.Jo 'ryev, J.X.Mavlonov, Sh.R.Samarov, A.F.Azimovas and others conducted their scientific research on the issues of mental ability, interest, motive, talent, talent. The availability of the ability to qualify students with a high level of intelligence and intelligence in studies using intellectual tests and other psychodiagnostic techniques can conveniently and easily master the knowledge, skills and competencies given to these qualified students and successfully apply the acquired skills in practice.

Key words: *intelligence, psychological testing, nonverbal scale, amtxauer intelligence test.*

INTRODUCTION

According to scientific psychological sources, intelligence is derived from the Latin word, which usually means more intelligent understanding, understanding, understanding. It seems to us that intelligence consists in the structure of a complex of a person's to some extent solid, stable mental abilities. Many classical tests have been playing an important role in determining an individual's level of intelligence.


It is advisable to note that the phenomena of immediacy in human intellectual development are not only explained by the properties of the material base, but also the hesitant "natural and artificial" sources of the material base and the main factor in exchange for the emergence of the field of perception, the emergence of an "artificial" system, spatial connections, the fuller use of biological and psychological capabilities. The methodology consists of 9 sections, each section has 16-20 assignments. The assignment statement and solution sample are given before each section. Each section sets a fixed time to work with assignments.

We conducted an experiment using the H Amtxauer methodology. The study involved 120 students..

Table 1.

Student performance according to the amtxauer methodology

| Test scales | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 |
|---------------------------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|
| Indicators in percentages | 78% | 74% | 53% | 64% | 52% | 48% | 52% | 59% | 62% |



1. picture. Student performance according to the amtxauer methodology

Performing subtests of the amtxauer methodology has been a challenge for some readers. We attributed this state to the fact that students did not face such assignments before, and the necessary skills were not formed. In the period when the development of today's society makes great demands on the intellectual potential of young people, this indicator is definitely low. Since the student period, the formation of knowledge, concepts about non-standard assignments and the formation of skills and competencies in the performance of such assignments provides the basis for raising their intellectual potential to a higher level.

LIST OF USED LITERATURE:

1. Шарафутдинова Х.Ф. Ақлий қобилият психокоррекцияси //Соғлом авлод учун. - Тошкент, 2007. - №3. - Б. 12-14.
2. Шарафутдинова Х.Ф. Ақлий қобилиятнинг қисқа танлов тести // Мактаб ва ҳаёт. - Тошкент, 2006. - №8. - Б. 26-28.
3. Narkulov, X. I. (2024). TYPES AND FEATURES OF INTELLIGENCE TESTS. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(3), 39-41.
4. Abdullayeva, Z. I. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS IN THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATION STYLE IN A TALENTED PERSON. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(17), 302-305.

5. Narkulov, X. I. (2023). THE INFLUENCE OF INTELLIGENCE TESTS ON HUMAN THINKING. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(17), 306-308.
6. Nuriddin o'g'li, B. Z. (2023). Depressiya muammosining psixologik tadqiqi: Crossref. IQRO, 4(1), 75-78.
7. Xudoynazarova, N. (2022). O'SMIRLAR XULQ-ATVORIDA ALTRUIZM RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Science and innovation*, 1(B8), 1702-1704.
8. ALIMOVA, N. (2023). SOCIAL-PSYCHOLOGICAL COMPONENTS OF RESPONSIBILITY FOR CHILD EDUCATION. *WorldBulletinofSocialSciences*, 29, 41-44.
9. Saydullayevna, H. S. (2023). Study of Psychological Characteristics of Personal Aggression. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(12), 76-79.
10. Choriyeva, S. A. (2023). O 'SMIRLARDAGI MUOMALA MADANIYATINING OILAVIY MUNOSABATLARDAGI O 'RNI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(17), 988-991.
11. Abdurashidovna, C. S. (2023). THE ROLE OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN THE EMOTIONAL FORMATION OF PUPILS. *ScienceandInnovation*, 2(12), 358-361.

SOCIAL PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF CREATIVITY

Zoir Botirov

Teacher of the Termiz State University

E-mail: botirovzoirbek3@gmail.com

ABSTRACT

This article discusses the study of creativity in adolescents and its individual characteristics, the formation of creativity in adolescents, strategies that develop creativity, and the socio-psychological basis of creativity.

Key words: *Creativity, intellectual development, neuropsychological assessment, cognitive, talent, motivation.*

Of creativity include various factors affecting the development and manifestation of creativity. These factors can be broadly divided into individual characteristics, social influences and environmental conditions. Creativity is deeply connected with social conditions in various ways:

1. Social influences on creativity:

-Cultural values and norms: Social values and expectations can shape how creativity is perceived and valued. Cultures that emphasize conformity and tradition may inhibit creative expression, while cultures that embrace innovation and risk-taking may foster creativity.

-Exposure to different perspectives: Exposure to different cultures, viewpoints, and experiences can broaden a person's worldview and stimulate creative thinking. Cross-cultural interactions and exposure to different art forms can generate new ideas and approaches.

2. Social impact of creativity:

can foster social progress and innovation by challenging norms, proposing new solutions, and inspiring others. Creative individuals are catalysts for social change and can contribute to the development of new technologies, artistic expressions, and social structures.

-Social cohesion and identity: Creative expression can support social cohesion and strengthen community bonds by presenting shared experiences, promoting understanding and celebrating cultural diversity. Artistic traditions, festivals and community art projects can bring people together and foster a sense of belonging.

-Social problem solving and conflict resolution: Creativity can be used to solve social problems, develop effective solutions, and help resolve conflicts. Creative approaches to social issues such as education, health care, and environmental sustainability can lead to positive social change.

3. Social conditions and creative expression:

-Economic conditions: access to resources, education, and opportunities can significantly influence creative expression. Economic disparities can hinder the development of creative potential by limiting access to creative tools, training and platforms.

-Political freedom and freedom of speech: freedom of speech, expression, and assembly are essential to the development of creativity. A political environment that stifles dissent and limits creative expression can stifle innovation and cultural progress.

-Technological advances: Technological advances provide new tools and platforms for creative expression, expand creative opportunities, and allow for greater distribution of creative works. However, technology can create distractions, limit personal interactions, and potentially homogenize creative output.

So, the relationship between creativity and social conditions is complex and multifaceted. Creativity is influenced by social factors and it in turn influences society. Understanding these connections is critical to fostering creativity in individuals, promoting social progress, and building a more creative and innovative society.

There are some scientific theories about the interaction between creativity and sociality:

-Social constructivist view: This view emphasizes the role of social interaction and cooperation in the formation of creative ideas. This suggests that creativity is not just an individual phenomenon, but a product of social processes in which people exchange ideas, build on each other's contributions, and clarify concepts through collective discourse.

-Social cognitive view: This view focuses on how social factors influence the cognitive processes that contribute to creativity. It suggests that social interactions can enhance creativity by providing people with access to new information, different perspectives, and cognitive tools that help them solve problems and generate ideas.

-Social identity view: This view emphasizes the role of social identity and belonging in stimulating creative expression. This suggests that people are more likely to engage in creative endeavors when they feel connected to a supportive community that values and encourages creativity.

-Social-ecological view: This view emphasizes the interaction of individual, social and environmental factors in shaping creative development. This suggests that creativity is not confined to individuals or social groups, but emerges from the dynamic

interaction between individuals, their social environment, and the wider cultural and environmental context.¹

These theories provide valuable insights into the complex interplay between creativity and sociality. They emphasize the importance of social interactions, collaboration, and cultural contexts in shaping creative development and expression. Understanding these connections is essential for developing creativity in individuals and developing a more creative and innovative society.

Social and psychological factors play a major role in creativity. These factors can affect a person's creative potential, motivation, and ability to express their creativity. Adolescent years are crucial for the development of creativity. In this period, adolescents develop a sense of self-awareness and become more and more independent. They also form new relationships and explore new interests. All of these experiences can help foster creativity. Creativity is a powerful skill that can be developed by anyone. By cultivating creativity, we can positively impact ourselves, our communities, and the world. It is the ability to generate new ideas and solve problems in innovative ways. Creativity is necessary to ensure economic growth, social development and cultural richness. Here are some reasons why creativity is a necessary skill:

-Creativity develops cooperation. Creative people can often see new connections and opportunities that others miss. This creative thinking ability helps to develop cooperation and teamwork.

-Creativity increases well-being. Creativity can be a source of great joy and satisfaction. It helps us express ourselves, connect with others, and make a positive impact on the world.

References.

1. "Creative Confidence: Unleashing the Creative Potential Within Us All" by Tom Kelley and David Kelley
2. Davletshin MG and others. Ability and its diagnosis.-T.: Teacher
3. Do'stmuhamedova SH.A., Nishanova ZT and others. Youth periods and pedagogical psychology - Tashkent: "Teacher", 2015
4. Nuriddin o'g'li, B. Z. (2023). Depressiya muammosining psixologik tadqiqi: Crossref. *IQRO*, 4(1), 75-78.

¹ Małgorzata Wolska-Długosz, Stimulating the development of creativity and passion in children and teenagers in family and school environment—inhibitors and opportunities to overcome them, *Procedia-Social and Behavioral Sciences* 174, 2905-2911, 2015

5. Saydaliyeva, M. (2023). PSYCHODIAGNOSTICS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN AGRESSIVENESS AND RELIGION IN ADOLESCENTS (IN MUSLIM AND CHRISTIAN TEENAGERS). *Modern Science and Research*, 2(7), 802-808.
6. Saydullayevna, H. S. (2023). Study of Psychological Characteristics of Personal Aggression. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(12), 76-79.
7. Xudoyqulova, S. (2023). CHILDREN OF PRESCHOOL AND PRIMARY SCHOOL AGE FORMATION OF BEHAVIOR. *Modern Science and Research*, 2(12), 457-461.

HAZRATI BASHIR QISHLOG‘INING ZIYORAT TURIZIMI

I.B.Safarov

Qarshi Davlat Universitetining o‘qituvchisi

O.H.Omonullayev

Qarshi Davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hazrati Bashir qishlog‘ining ziyorat turizmining tez suratda rivojlanishi va yurtimiz turizmiga qo‘shayotgan beqiyos hissasi, shuningdeh ushbu obyektlarda turizmning yanada rivijlanishini tahlil qilish asosida Hazrati Bashir qishlog‘ida turizm rivojlanishining mavjud muommolarini aniqlash, ularni yechimi bo‘yicha taklif va tafsiyalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Arxeologik , Arxitektura , monumental , turoperator, respondent.

Аннотация: В данной статье на основе бурного развития паломнического туризма села Хазрат Башир и его несравненного вклада в туризм нашей страны, а также анализа дальнейшего развития туризма в этих объектах выявляются существующие проблемы развития туризма в селе Хазрат Башир, приведены предложения и пояснения по их решению.

Ключевые слова: Археологический, архитектурный, монументальный, туроператор, ответчик.

Abstract: In this article, on the basis of the rapid development of pilgrimage tourism of the village of Hazrat Bashir and its incomparable contribution to the tourism of our country, as well as the analysis of the further development of tourism in these objects, the identification of the existing problems of the development of tourism in the village of Hazrat Bashir, suggestions and explanations for their solution cited.

Key words: Archaeological, architectural, monumental, tour operator, respondent.

Qashqadaryo viloyatida Respublikadagi jami tarixiy obidalarning 17,76% joylashgan. Qashqadaryo viloyatda bugungi kunda 1 ming 468 madaniy meros obyekti ro‘yxatga olingan bo‘lib, ularning 1 ming 189 tasi arxeologiya, 208 tasi arxitektura, 43 ta monumental yodgorliklar, 34 tasi diqqatga sazovor joylar hisoblanadi, shulardan

Kitob tumanida arxeologik yodgorliklar 281 ta, arxitektura yodgorliklari 16 ta, diqqatga sazovor joylar 5 ta.

„O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora tadbirlari“ to‘g‘risidagi 2021-yil 9-fevral sanasidagi Pf-6165 son Farmoning 9-bandiga muvofiq Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirish va infratuzilmani yaxshilash maqsadida Qashqadaryo viloyati hokimligi byudjetdan tashqari 200 mlrd so‘m mablag‘ ajratilgan.

Kitob tumanida turizm obyektlari rivoji uchuun ham katta etibor qaratilmoqda. "Bashir" qishlog‘i turizm qishlog‘iga aylantirilmoqda. "Hazrati Bashir" ziyoratgohi aynan shu qishloqda joylashgan. Ziyoratgoh nomi shu joyda yashab o‘tgan avliyo Hazrati Sulton Said Ahmad Bashir (1368-1464) nomi bilan bog‘liq. „Xazrati Bashir Tarixi“ kitobida Amir Temurning piri Said Barakaning ukalari Said Nematulloning karomatlari, duolari tufayli olamga keladi deyiladi. Hazrati Bashirning otalari Xo‘ja Xasan 90 yoshda, onalari Bibi Malohat 80 yoshda bo‘lganlariga qaramay, farzandlari bo‘lgan deb ko‘rsatiladi. Hazrati Bashir saloxiyat egasi bo‘lib, yetishgach u kishining ta‘riflarini eshitib, bir tomoni Misr, bir tomoni Mo‘g‘ulistongacha bo‘lgan musulmon olamining turli burchaklaridan ko‘pgina kishilar kelib, Hazrati Sulton Said Ahmad Bashir otaga shogird tushadilar. Hazrati Bashir Hazrati Muhammad Sallollohu alayhi vasallamning hijratlaridan keyin 768-yildan so‘ng olamdan o‘tadilar va Bashir qishlog‘idagi Niyoztepada dafn etadilar. Ushbu ziyoratgoh mustaqillikdan keyin qurilishlar qilinib, obod maskanga aylantirildi. Bu yerda har yili minglab kishilar kelib Hazrati Bashirning Niyoztepadagi qabrlarini ziyorat qilishadi. Bu ziyoratgohni geografik o‘rni juda qulay joyda joylashgan. Ziyoratgoh baland tog‘ yonbag‘rida joylashgan. Yozning issiq kunlari bu ziyoratgohga minglab ziyoratchilar tashrif buyurishadi. [2]

Ziyoratgohning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan yo‘l magistralini yaxshilash va yo‘lovchilar oqimini oshirish hozirdagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda, ushbu muommoni hal qilish chora tadbirlari keng miqiyosida olibborilmoqda, shuningdek Shahrissabz shahri bilan bog‘lovchi yo‘llarni ta‘mirlash borasida chora tadbirlar olib borilmoqda.

Transport magistrali - (lotincha – magistralis - bosh) – ko‘plab yuk va yo‘lovchi oqimlari tashiladigan va texnik jiqtadan jahon talablariga javob beradigan transport yo‘li.

Siz Qashqadaryo viloyatidagi qaysi ziyorat obyektiga borishni xohlaysiz ?-deb nomlangan savolga respondentlarni javoblari

| | Ziyoratgoh nomi | 20 yosh-gacha | 21-30 yosh | 31-59 yosh | 60 yosh kattalar | Jami | |
|--------------|--------------------------------------|---------------|------------|------------|------------------|------------|-------------|
| | | | | | | foiz | kishi |
| 1 | Abu Ubayda Ibn al-Jarroh ziyoratgohi | 45 | 80 | 40 | 30 | 195 | 39% |
| 2 | Langar ota ziyoratgohi | 45 | 60 | 20 | 15 | 140 | 28% |
| 3 | Hazrati Bashir ziyoratgohi | 24 | 20 | 12 | 15 | 71 | 14.2% |
| 4 | Abu Muin-an Nasafiy ziyoratgohi | 20 | 10 | 10 | 8 | 48 | 9.6% |
| 5 | Sulton Mir Haydar ziyoratgohi | 20 | 8 | 8 | 10 | 46 | 9.2% |
| Jami: | | 154 | 178 | 90 | 78 | 500 | 100% |

Jadval P.R.Qurbonov, I.B.Safarovlar tomonidan tuzilgan

Qayd etilishicha, “Hazrati Bashir” qishlog‘i Qashqadaryo daryosi bo‘yida joylashgan. Hozirda qishloqda 20 dan ziyod oilaviy mehmon uyi faoliyat yuritmoqda. Qishloqda ziyorat turizmi, ekoturizm va agroturizm rivojlangan. Ma’lumot uchun, o‘tgan yili “Hazrati Bashir” ziyoratgohiga 400 000 nafardan ortiq mahalliy va xorijiy sayyoh tashrif buyurgan. Ushbu maskan nafaqat betakror tabiati, balki o‘ziga xos tarixi bilan ham e’tibor jalb qilib keladi. "Hazrati Bashir" qishlog‘i Qashqadaryo daryosi bo‘yida joylashgan. Baland-baland chinorlar qishloqqa ko‘rk berib turadi. Hudud tog‘ bilan ham tutashib ketgan. Shuning uchun bu yerda yoz oylari yurtimizning turli viloyatlari va xorijiy mamlakatlardan sayohatchilar kelishadi. Ular Hazrati Bashir otani ziyorat qilish bilan birga daryo bo‘yida dam olishadi. Qishloqda ziyorat turizmi, ekoturizm va agroturizm rivojlangan. Ta’kidlash joizki, bu yil qishloqqa keluvchi sayyohlar sonini 700 mingga yetkazish rejalashtirilgan, deya xabar berdi Madaniyat va turizm vazirligi. Hozirda qishloqda 20 dan ziyod oilaviy mehmon uyi faoliyat yuritmoqda. Bu xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun hududda ko‘proq qolish hamda mahalliy xalq turmush arzi bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. So‘lim tabiat,

musaffo tog‘ havosi, shifobaxsh chashma, mehmondo‘st qishloq odamlari, ekologik toza mevalar, xushxo‘r taomlar va qalblarga sokinlik bag‘ishlovchi ziyoratgoh sayyohlarni o‘ziga jalb qilishi shubhasiz.

Xulosa va takliflar: Ziyorat turizmi mamlakatning ma’naviy qiyofasini ko‘rsatib berish barobarida, aholining ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy hayotida sezilarli darajada tasir ko‘rsatmoqda. Ziyorat turizmi rivojlantirishda qishloqqa olib boruvchi yo‘llarni ta’mirlash (20 km). Turizm xizmatlarini tashkil etish, har bir qishloqda o‘ndan ortiq oilaviy mehmonxonalarini tashkil etish va ularni ro‘yxatga olish. Mavjud hunarmandlar ustaxonasi va xonadonlarni turistlarni qabul qilishi va hunarmandchilik mahsulotlarining namoyishi va savdosini tashkil etish, ushbu qishloqda turizm sohasini rivojlanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. X. X. Жумаев “ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ ТУРИЗМ ГЕОГРАФИЯСИ” Qarshi - 2022
2. P.R.Qurbonov, I.B.Safarov, “QASHQADARYO VILOYATIDA ZIYORAT TURIZIMI”.Qarshi – 2022. С - 56
3. Omonullayev .O, Abdishukurova.M, “TRANSPORT GEOGRAFIYASI “ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 21.12.2023
4. <https://uzbekistan.travel/uz/o/varganza-agroturizm-qishlogi/>
5. society/qashqadaryo-viloyatining-kitob-tumanidagi-bashir-qishlog-i-turizm-qishlog-iga-aylantirilmo
6. <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10062>
7. Safarov I. B. Geographical features of pilgrimage tourism (in the case of Kashkadarya region) //Экономика и социум. – 2023. – №. 2 (105). – С. 321-324.
8. Safarov I. B., Rasulov F. I. PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF PILGRIMAGE TOURISM (ON THE EXAMPLE OF KOSON DISTRICT) //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 189-191.
9. Safarov I. B., Toshquvvatov I. T. RECREATIONAL AND TOURISTIC OPPORTUNITIES OF UZBEKISTAN’S MOUNTAINS // Экономика и социум. – 2023. – №.11(114). – С. 303-312.
10. Сафаров И. Б., Халилов Н. Х. ЭКОНОМИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА ВЕРХНЕ-КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 707-713.

“MA’NAVIYAT” VA “QADRIYAT” – MA’NAVIY-AHLOQIY TUSHUNCHA SIFATIDA

Xidirov Xoshim Ibodullaevich

Jizzax politexnika instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası
dotsenti, f.f.d. (PhD)
@xoshimxidirov2023

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyat hayotining asosiy mezonlaridan bir bo‘lgan ma’naviyat va qadriyatning ustuvor jihatlariga alohida to‘htalangan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, qadriyat, inson, ma’naviylik, qadriyatshunoslik, oila, Vatan, ta’lim, tarbiya va h.k.

Аннотация: В данной статье рассматриваются приоритетные аспекты духовности и ценностей, которые являются одними из главных критериев жизни общества.

Ключевые слова: Духовность, ценности, человек, духовность, ценностная наука, семья, Родина, образование, воспитание и др.

Abstract: This article focuses on the priority aspects of spirituality and values, which are one of the main criteria of society’s life.

Key words: Spirituality, value, human, spirituality, value science, family, Motherland, education, upbringing, etc.

“Ma’naviyat” va “qadriyat” tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan falsafiy tushunchalardir. Qadriyatli ong, qadriyatli munosabat, qadriyatli ideal, qadriyatshunoslik tushunchalari insoniyat ma’naviy taraqqiyotining mahsuli, insonning o‘ziga, tabiiy va ijtimoiy borliqqa bo‘lgan yangicha munosabati sifatida vujudga keldi. Insoniyat borliqqa mifologik, diniy, ilmiy, badiiy, falsafiy munosabatda bo‘lishdan qoniqmagach, qadriyatli munosabatlar tipini ham yaratdiki, bu – qadriyatli dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishiga olib keldi. Qadriyatli dunyoqarash falsafiy dunyoqarashning muhim tarkibiy qismi sifatida vujudga keldi. SHu ma’noda aksiologiya ilmiy nazariya emas, balki falsafiy ta’limot sifatida falsafiy fanlar tizimida alohida o‘rin tutadi. Qadriyatli dunyoqarashning strukturasi, mohiyati va mazmuni idealistik falsafiy sistemalarda ancha to‘liq ishlandi. Qadriyat garchi insoniyat

ma'naviy taraqqiyotining mahsuli sifatida vujudga kelgan bo'lsa ham, uning taraqqiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Qadriyatli ong o'zining butun mazmun-mohiyati bilan insoniyat ma'naviy olamini yangi mazmun bilan boyitdi, ma'naviy taraqqiyotining yangi yo'nalishi bo'lib qoldi. Sobiq sovet jamiyatida ma'naviyatni qadriyat sifatida tan olmaslik, bir tomondan, ma'naviyat, qadriyat tushunchalarini ilmiy asosda o'rganishga imkon bermadi. Ikkinchi tomondan, inson va uning hayotining qadrsizlanishiga, ma'naviy qashshoqlikning kuchayishiga va nihoyat, iqtisodiy tanazzulga olib keldi. Respublikamiz rahbariyati milliy mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mustabid tuzum falsafasi, mafkurasi va siyosatidan qat'iy voz kechishga, ijtimoiy-siyosiy fanlar o'qitishning butunlay yangi konsepsiyasini ishlab chiqishga alohida e'tibor bera boshladi. Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, ajdodlarimiz ilmiy merosini keng targ'ib etish orqaligina taraqqiyotimizga xalaqit berayotgan illat va nuqsonlarni bartaraf etishimiz mumkin.

Ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga, yanada takomillashtirishga qaratilgandir. Respublikamizning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotiga kirib kelgan va endilikda mustahkam qaror topayotgan Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazlari, respublika Oila ilmiy-amaliy markazi, respublikamizda mutaxassis qadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi va boshqalar ana shu siyosatni hayotga tatbiq etishning samaralaridir. O'zgargan tarixiy sharoit va milliy istiqlol tufayli xalqimiz tarixida boshlangan yangi davr yangicha falsafiy ta'limotlar yaratishni, mustabid tuzum dunyoqarashidan voz kechishni taqozo etadi. "Aksiologiya" nomi bilan sobiq ittifoqda birorta ham darslik yoki o'quv qo'llanmasi chop etilmadi. Hatto universitetning faylasuf, jamiyatshunos, tarixchi va ijtimoiy mutaxassislar tayyorlaydigan boshqa gumanitar fanlar bo'limlarida ham aksiologiya bo'yicha maxsus kurslar o'qitilmas edi. Insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan ulug' mutafakkirlar jamiyat va shaxs hayotida ma'naviyatning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini, aql va tafakkurgina insonni boshqa mavjudotlardan farqlaydigan, uni aziz va qudratli qiladigan ilohiy (sotsial) sifat, belgi ekanligini alohida ta'kidlaganlar. Din insoniyatning olamni bilish, o'zining olamdagi o'rni va vazifalarini belgilash yo'lidagi muhim kashfiyoti, ma'naviy taraqqiyot yo'lidagi muhim qadami edi. Buddizm, xristianlik va islomning jahon dinlari sifatida vujudga kelishi insoniyatning ma'naviy taraqqiyotida, shubhasiz, katta ahamiyatga ega bo'lgan. Markaziy Osiyodan etishib chiqqan va o'z asarlari bilan jahon ilm-fani, madaniyati, sivilizatsiyasi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan Muso al Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abulqosim Zamahshariy va boshqalar dinning insoniyat ma'naviy taraqqiyotidagi buyuk ahamiyatini e'tirof etganlar, diniy g'oya va ta'limotlarga shubha bildirmaganlar, ayni vaqtda, ilmiy bilimlar va falsafiy qarashlar taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shganlar.

Bu o'ziga xos ma'naviy jasorat edi. "Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblari ko'p bo'lgan". Ko'hna SHarq falsafasi, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari falsafasi Islom g'oyalari bilan uzviy bog'liqlikda rivojlangan. Ming yillar davomida Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy hayotida muhim rol o'ynagan tasavvuf falsafasi islom g'oyalari negizida vujudga kelgan, ajdodlarimizning dunyoqarashi, fikrlash tarzi sifatida qadrlangan. O'rta asrlarda din insoniyat ma'naviy hayotining buyuk rahnamosi, ma'naviy hayotining mazmuni va mundarijasini belgilovchi yagona kuch edi. Jamiyatning butun ma'naviy hayoti diniy asosda kechar va uning yo'nalishini din arboblari – ruhoniylar belgilar edilar. Ruhoniylar asosan ma'naviyat masalalari bilan shug'ullanar va butun jamiyatdagi ma'naviy muhitni belgilar edilar. Biroq XVI – XVII asrlarga kelib G'arbiy Evropa ijtimoiy-falsafiy tafakkuri ijtimoiy-siyosiy turg'unlik va qoloqlikka barham berish uchun ilmiy tafakkurni rivojlantirish, dunyoviy fikr va dunyoviy turmush tarzini qaror toptirish g'oyasini ilgari sura boshladi. Bu bilan insoniyat ma'naviy taraqqiyotida yangi davr boshlangan: diniy va dunyoviy tafakkurning yonma-yon yashashi ma'anviy hayotda tub o'zgarishlarga olib kelgan. "Hayotning mazmunini tushunishga turlicha yondashishlarning (afsuski, ular hamma vaqt ham tinch va osoyishta kechavermagan) yonma-yon mavjud bo'lishi ehtimol, insoniyat dunyosining, ma'naviy hayotining boyligi va xilma-xilligini ta'minlab bergan hamda uning rivojlanishini rag'batlantirib turgandir. Zero, faqat bir xil fikr yurituvchi odamlardan tarkib topgan jamiyat o'z rang-barangligini va jozibasini yo'qotgan bo'lur edi". Ma'naviy hayotda diniy aqidalar xukmronligiga chek qo'yish, uning o'rniga aql va tafakkur saltanatini qaror toptirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan XVII-XVIII asr G'arbiy Evropa falsafasi diniy tushunchalardan voz kechdi. Xususan, ma'naviyat tushunchasi o'rniga ong tushunchasini qo'llay boshladi. Ongning kelib chiqishi, rivojlanish qonuniyatlari ilmiy asosda tadqiq etila boshladi. XVIII asrning 2-yarmi va XIX asr boshlariga kelib nemis klassik falsafasida insoniyatning ma'naviy taraqqiyoti masalalari, xususan, insonning bilish qobiliyatlari va imkoniyatlari, tafakkur taraqqiyotining eng umumiy qonuniyatlari chuqur o'rganildi va klassik tarzda ta'riflab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Ibodullaevich, K. K., & Bakhromovna, T. D. The United Kingdom has a special textbook for detecting facts of corruption.
2. Ibodullaevich, K. K., & Bahromovna, T. D. (2022). “Philosophical Paradigms in The Fight Against Corruption Today: Problems and Solutions. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 5, 160-164.
3. Ibodullaevich, K. K., & Mahmatkobil, O. (2022, March). A just leader is the basis of society. In *E Conference Zone* (pp. 59-61).
4. Ismatovich, M. S., & Ibodullaevich, K. K. (2022). Preventing Corruption Methods and Means. *Eurasian Scientific Herald*, 8, 66-68.

BOLALAR O'YINLARI LEKSIKASI VA UNING TARIXI

Matmusayeva Muhayyoxon

FarDU o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'yinlar ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli sifatida uning tarixiy ildizlari bayon etilgan. O'yinlarda jamiyat rivojlanishining u yoki bu bosqichiga xos ijtimoiy voqealar aniq aks etishi, ko'plab mamlakatlarning olimlari va pedagoglari o'yinlar mohiyatini, uning kelib chiqishi, taraqqiyoti va ahamiyati yoritilgan. Shunga ko'ra o'yinning mohiyati va kelib chiqishini ifodalovchi turli xil nazariyalar, fikrlar va qarashlar ham mavjudligi yoritiladi.

Tayanch so'zlar. o'yin, mehnat madaniyati, bolalar o'yinlar.

O'yin kishilarning mehnat madaniyati paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiga aylangan tarixiy bosqichida vujudga kelgan. O'yinlar ijtimoiy taraqqiyotning mahsulidir. O'yinlarda jamiyat rivojlanishining u yoki bu bosqichiga xos ijtimoiy voqealar aniq aks etadi. Ko'plab mamlakatlarning olimlari va pedagoglari o'yinlar mohiyatini, uning kelib chiqishi, taraqqiyoti va ahamiyatini o'rganmoqdalar. Shunga ko'ra o'yinning mohiyati va kelib chiqishini ifodalovchi turli xil nazariyalar, fikrlar va qarashlar ham mavjud. D.U.Elkonin o'yin va san'atning kelib chiqishini tatbiq qilib "Ibtidoiy kishilar ov, urush voqealarini hamda boshqa jiddiy faoliyat turlarini o'yinlarda ifodalaganlar. Ovdagi muvaffaqiyatsizliklarni o'yin sifatida o'ynash ularga ov jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni hamda muvaffaqiyatsizliklarning sabablarini aniqlashga yordam bergan" degan xulosaga keldi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, ovdan oldingi tayyorgarlik sifatidagi o'yin jarayonida ibtidoiy odamlar o'ljaga yaqinlashishni so'ngra uni osongina qo'lga tushirishni o'rganishgan, buning uchun niqob kiyib, hayvon qiyofasiga kirishgan, uning yurish-turishlari, xatti harakatlari mashq qilingan, ularning tovush chiqarishlari o'rganilgan. Aynan ana shunday o'yinlar jarayonida yoshlarni ham ov qilishga o'rgatishgan. Shu bois o'yinlar o'ziga mos maktab vazifasini o'tab, bir tomondan, ovchilik mahoratini o'stirishga yordam bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularda taqlid qilish san'atini shakllantirgan va rivojlantirgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda ibtidoiy ovchilar hayotida ovchilik o'yinlari muhim o'rin tutgan. Ba'zi manbalarda ular ovdan oldin o'tkazilishi yozilgan bo'lsa, boshqalarida ovdan so'nggi o'yinlar haqida fikrlar bayonetilgan. Agar bu

ma'lumotlarni chuqurroq tahlil etadigan bo'lsak, unda ovchilik o'yinlari ovdan oldin ham, undan so'ng ham o'tkazilgan, deyish mumkin. Ovdan oldingi o'yinlar – avvalda mashq (ovga tayyorgarlikni tekshirish, ovga ruhiy va jismoniy tayyorgarlik) vazifasini o'tagan hamda jiddiy o'ziga xos kichik ibtidoiy odamlar o'ljani osongina qo'lga tushirish, unga yaqinlashishni o'rganishgan, buning uchun niqob kiyib, hayvon qiyofasiga kirish, uning yurishturishlari va tovush chiqarishlarini mashq qilishgan. Aynan ana shunday o'yinlar jarayonida yoshlarni ham ov qilishga o'rgatishgan. Shu boisdan ham u o'ziga xos maktab vazifasini o'tab, bir tomondan, ovchilar mahoratini o'stirishga yordam bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, ularda taqlid san'atini shakllantirgan va rivojlantirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D Maxamadaliyeva, MX Madaminovna. Gnoseological Substantiation of Cognitive Development Children. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology 2 (4), 7-11
2. Maxamadaliyeva, Y.D., & Madaminovna, M. H. . (2022). GNOSEOLOGICAL ASPECTS OF RESEARCH OF ISSUES OF TEACHING SCHOOLCHILDREN TO STATEMENT AND SOLVING PROBLEMS. Modern Journal of Social Sciences and Humanities, 4, 35–39. Retrieved from <https://mjssh.academicjournal.io/index.php/mjssh/article/view/65>
3. YD Maxamadaliyeva. USE OF PRESIDENTIAL NAMES IN UZBEK CHILDREN'S TEXTS. Gospodarka i Innowacje. 22, 68-70
4. Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyeva, Matmusaeva Muxayyo Azamovna. Features and Types of Game in Preschool Children. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY VOLUME: 04 ISSUE: 02 | FEB 2023 (ISSN: 2660-6836)
5. Matmusayeva Muhayo Azamovna. THE ROLE OF PLAY IN THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILD'S SPEECH American Journal of Pedagogical and Educational Research ISSN (E): 2832-9791| Volume 18, | November, 2023 Page | 264 www.americanjournal.org
6. [THE IMPORTANCE OF POETIC TEXTS IN THE UPBRINGING OF YOUNG CHILDREN](#) M Matmusayeva - Web of Scientist: International Scientific Research ..., 2022
7. On Lingvofolcloristic Units YD Maxamadaliyeva, M Matmusaeva - International Journal of Culture and Modernity, 2021

8. EFFECTIVENESS OF DIDACTIC GAMES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS MM Azamovna, ARS Kizi - American Journal Of Social Sciences And Humanity ..., 2023
9. THE IMPORTANCE OF DEVELOPING STUDENTS' CREATIVITY AND INNOVATIVE IDEAS IN PRIMARY EDUCATION M Matmusaeva - EPRA International Journal of Research and ..., 2023
10. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAFKURA RUHIDA TARBIYALASH USULLARI MM Azamovna - O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ..., 2022
11. THE IMPORTANCE OF POETIC TEXTS IN THE UPBRINGING OF YOUNG CHILDREN M Matmusayeva - Web of Scientist: International Scientific Research ..., 2022
12. MAKTABGACHA TA'LLIM MUASSASASI-MAKTABGACHA ESHDAGI BOLALAR IJTIMOIY TARBIYA MASKANI M Matmusaeva - IJODKOR O'QITUVCHI, 2022

АГАР ЖАМИЯТ ҲАЁТИНИНГ ТАНАСИ ИҚТИСОДИЁТ БЎЛСА, УНИНГ ЖОНИ ВА РУҲИ МАЪНАВИЯТДИР

Равшан Хидоят

Жиззах политехника институти
«Иқтисодиёт ва менежмент» кафедраси, и.ф.н.доцент
rxidoyatov@mail.ru

Аннотация:

Инсониятнинг ейиш-ичиш, кийиш-кийиниш сингари табиий майллардан, умуман айтганда моддий дунёсидан ташқари барча фаолияти маънавият билан, маданият ва маърифат билан боғлиқ. Чунки, ўша моддий неъматларни яратмоқ, юзага чиқармоқ учун ҳам одамларда маънавият бўлмоғи лозим. Моддий эҳтиёжлар маънавий майллар билан бирлашгандагина, бир-бирини бойитгандагина бир бутунлик, мукамаллик касб этади.

Калит сўзлар:

Маънавият, маърифат, маданият, иқтисодиёт, эркин бозор, демократик давлат, фуқаролик жамияти, онг, тафаккур, дунёқараиш, фуқаролик савияси, бурч, мустақил фикрлаш, юксалиш.

Абстрактный:

Помимо естественных склонностей, таких как еда, питье, одевание и материальный мир в целом, вся деятельность человека связана с духовностью, культурой и просвещением. Потому что для того, чтобы создавать эти материальные блага, люди должны обладать духовностью. Только когда материальные потребности соединятся с духовными наклонностями, когда они обогатят друг друга, они достигнут единства и совершенства.

Ключевые слова:

Духовность, Просвещение, Культура, Экономика, Свободный рынок, Демократия, Гражданское общество, Сознание, Мысль, Мировоззрение, Цивилизованность, Долг, Независимое мышление, Возвышение.

Abstract:

Apart from natural inclinations such as eating, drinking, dressing and the material world in general, all human activities are associated with spirituality, culture and enlightenment. Because in order to create these material benefits, people must have spirituality. Only when material needs unite with spiritual inclinations, when they enrich each other, will they achieve unity and perfection.

Keywords:

Spirituality, Enlightenment, Culture, Economics, Free Market, Democracy, Civil Society, Consciousness, Thought, Worldview, Civility, Duty, Independent Thinking, Elevation.

Кириш. Биз бугун мустақил давлат ва жамият қуриш, халқимиз учун ҳеч кимдан кам бўлмаган фаровон ҳаёт барпо этиш йўлида тарихан қисқа даврда ҳақиқатдан ҳам ўн йилларга, балки асрларга тенг келадиган йўлни – масофани босиб ўтдик, десак, асло муболаға бўлмайди.

Тадқиқот материаллари ва услуби. Ўз вақтида, бизнинг тақдиримиз ҳал бўлаётган ўта оғир ва хатарли бир замонда, турли хомхаёллардан воз кечиб, бизга кўрсатилган тазйиқ ва зўравонликларга қарамасдан, бугунги кунда дунёда тараққиётнинг “ўзбек модели” деб тан олинган, демократик давлат, эркин бозор иқтисодиётини шакллантириш, халқимизнинг ҳаёт даражасини муносиб босқичга кўтариш бўйича чуқур ўйланган ривожланиш йўлимизни қатъий белгилаб олганимиз, ҳеч шубҳасиз, том маънода тарихий ютуғимиз бўлди. Шунинг учун ҳам, “Тараққиётнинг “ўзбек модели”ни амалга ошириш ва замонавий давлат барпо этиш борасидаги стратегик тамойилларга биз ўз ишимизда доимо суянамиз. Бу тамойиллар Ўзбекистонда бундан буён ҳам сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий ўзгаришларни таъминлашнинг мустаҳкам пойдевори ҳисобланади”, - деб таъкидлаган эди Шавкат Мирзиёев.

Ислохотларнинг машҳур беш тамойилига асосланган бу тараққиёт модели, аввало биз танлаган тадрижий – эволюцион йўл нақадар тўғри ва самарали эканини бугун ҳаётимизнинг ўзи амалда исботлаб бермоқда.

Шунингдек, 2022 - 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси ва уни «Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили»да амалга оширишга оид давлат дастурига мувофиқ: инсон қадрини юксалтириш ва эркин фуқаролик жамиятини янада ривожлантириш орқали халқпарвар давлат барпо этиш, мамлакатимизда адолат ва қонун устуворлиги тамойилларини тараққиётнинг энг асосий ва зарур шартига айлантириш, миллий иқтисодиётни жадал ривожлантириш ва юқори ўсиш суръатларини таъминлаш, маънавий тараққиётни таъминлаш ва соҳани янги босқичга олиб чиқиш алоҳида вазифа сифатида белгиланган [1].

Мамлакатимиз тарихан қисқа муддатда бир вақтлар иқтисодиёти бирёқлама ривожланган, асосан пахта хомашёси етказиб беришга мослашган, пахта яккахокимлиги ҳалокатли тус олган, собиқ СССР таркибида аҳолининг ҳаёт даражасини ифодалайдиган кўрсаткичлар бўйича энг орқа ўринда, жар ёқасида турган қашшоқ ўлкадан бугунги кунда тез ва барқарор суръатлар билан, аввало, замонавий тармоқлар ҳисобидан ривож топаётган, халқаро майдонда ўзига муносиб ўрин эгаллаётган мамлакатга айланиб бораётгани кўпгина яқин ва узоқ кўшниларимизни ҳайратда қолдирмоқда.

Таҳлил ва натижалар. Ҳақиқатдан ҳам, бир ўйлаб кўрганда – биз кеча ким эдигу бугун ким бўлдик, деган саволни ўзимизга бериб, кечаги ҳаётимизни

бугунги ҳаётимиз билан қиёслаганда, содир бўлаётган туб ўзгаришларнинг маъно – мазмунига етиб боргандагина кўп нарса бизга яққол аён бўлади.

Ўзлигимизни англаб, юртимизнинг, тақдиримизнинг том маънода эгаси бўлиб, эркин ва озод ҳаёт кечиришнинг ҳақиқий аҳамияти ва моҳиятини чуқур тушуниб олган заҳматқаш, мард ва матонатли халқимизнинг фидокорона меҳнати билан амалга оширилаётган оламшумул ишлар, мамлакатимиз, шаҳар ва қишлоқларимизнинг қиёфаси тубдан ўзгаргани, ҳаётимиз тобора фаровон бўлиб бораётганини сезмаслик, кўрмаслик ва кузатмасликнинг ўзи қийин, деб ўйлайман.

Бундай ютуқ ва марраларнинг асосий омили ва мезонини биз аввало одамларимизнинг онгу тафаккури, дунёқараши тобора ўзгариб, уларнинг сиёсий фаоллиги, ҳуқуқий маданияти, фуқаролик савияси ва бурчи юксалиб бораётганида кўрамиз. Энг муҳими, эски, ўзини оқламаган тизимнинг қолип ва ақидаларидан холи бўлган, мустақил фикрлайдиган, чет мамлакатлардаги тенгдошлари билан беллашувга тайёр, Ватанимизнинг эртанги куни учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир бўлган куч – ёшларимиз майдонга чиқаётганида бу ҳақиқатни яққол англамоқдамиз.

Айни шулар ҳисобидан биз дуч келган оғир синов ва муаммоларга, жаҳон миқёсидаги пандемия муносабати билан глобал иқтисодий инқироз давом этаётганига қарамасдан, дунёнинг санокли давлатлари қаторида Ўзбекистоннинг ялпи ички маҳсулоти 2023 йилнинг ўтган 9 ойи давомида 5,8 фоиздан зиёд ўсди. “Ўзбекистон-30” стратегиясида ялпи ички маҳсулот ҳажмини 160 миллиард долларга ва аҳоли жон бошига даромадларни 4 минг долларга етказиш кўзда тутилган. Яъни 2030 йилга қадар иқтисодиёт ҳажмини 2 баробар ошириш ва “даромади ўртачадан юқори бўлган давлатлар” қаторига кириш кўзда тутилмоқда.

Мустақил тараққиёт йилларида Ўзбекистонимизнинг иқтисодиёти 6 карра, аҳоли даромадлар жон бошига ўртача 9 баробардан зиёд ўсганини, мамлакатимиз аҳолиси шу даврда 1,6 мартадан зиёд кўпайиб, 2023 йилнинг 1 октябрида 36,6 миллион кишини ташкил этганини инобатга оладиган бўлсак, очиғини айтганда, биз эришган ютуқларни базан одамлар тасаввур қилиши ҳам қийин бўлмоқда [5, 9].

Бизнинг бош стратегик мақсадимиз ҳуқуқий демократик давлат, эркин фуқаролик жамияти куришдир. Бу борада мустақилликка эришган даврдан бери катта ютуқларга эришдик. Биз моддий ҳаётимиз асоси- иқтисодиётни жаҳон иқтисодий тизимига мос, уйғун шаклни, бозор иқтисодиёти муносабатлари шаклини танладик, иқтисодий муносабатларнинг мазкур шаклини танлашдан мақсад ялпи фаровонликни таъминлаш, жаҳон иқтисодиёти даражасига чиқиш,

қолаверса, соғлом рақобат негизида чинакам ижтимоий адолатни қарор топтиришдан иборат.

Бундан шу нарса маълумки, гап яна халқ манфаатига, оддий фуқаро манфаатига келиб тақалаётир. Демак, бозор иқтисодиётининг салбий томонларига урғу бериш бемаъниликдан бошқа нарса эмас.

Инсониятнинг ейиш-ичиш, кийиш-кийиниш сингари табиий майллардан, умуман айтганда моддий дунёсидан ташқари барча фаолияти маънавият билан, маданият ва маърифат билан боғлиқ. Чунки, ўша моддий неъматларни яратмоқ, юзага чиқармоқ учун ҳам одамларда маънавият бўлмоғи лозим. Моддий эҳтиёжлар маънавий майллар билан бирлашгандагина, бир-бирини бойитгандагина бир бутунлик, мукамаллик касб этади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2021 йилнинг 19 январь куни маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари бўйича ўтказилган видеоселектор йиғилишида **“Агар жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир”**, - деб таъкидлаган эди. Демак, биз янги Ўзбекистонни барпо этишга қарор қилган эканмиз, қуйидаги иккита эгизак устунга таянишимиз лозим. **Биринчиси**, бозор иқтисодиётига асосланган кучли иқтисодиёт. **Иккинчиси**, миллий кадриятларимизга асосланган кучли маънавият.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, иқтисодий ҳаётимиздаги бази эркинликлар кишиларимизда худбинлик ҳиссини кучайтириб юборади. Базилар Ватан истиқболи, халқ фаровонлигини ўйлаш ўрнига ўзининг маънфаатию - ҳамёнини қаппайтиришдан бошқасини ўйламай кўяди. Айримларнинг кўлига озгина пул тушса бас, босар-тусарини билмай қолиб, ночор қариндош-уруғ, ошна-оғайнилари хам танймай қолади. Уларнинг оғирини енгил қилиб савоб олиш ўрнига, хашаматли уйлар қуриб, кўша-кўша машиналар олиб одамларга кўз –кўз қилади.

Камтар, нсофли, диёнатли, одамлар халқимиз орасида бой одамларнинг кўпайишидан кувонади. Чунки, бойлар кўпайса, камбағал қариндошига, кўли калта кўшнисига, етим-есир, бева –бечораларга қарашади. Уларга ёрдам кўлини чўзади.

Маънавияти юксак, одоб-ахлоқли, маърифатли кишиларгина элим деб, юртим деб яшайди, бировларга ҳиммат, мурувват кўрсатишни, ёрдамга мухтож кишиларга кўмак бериш ва тўғри йўл кўрсатишни ўзи учун бахт, савоб деб билади. Юксак маънавият соҳиби бўлган кишилар бошига мушкул иш тушган кишининг мушкулени осон қилади, дардига малҳам бўлади, ҳожатини чиқаради. Маънавиятли, маърифатли кишиларда миллий ғурур, миллий ифтихор

туйғулари, орият кучли бўлади. Ана шундай фазилатларга эга бўлган кишилар, ўз миллати, эл-улуси, қариндош-уруғи манфаати, шарафини ҳимоя қилишни ўзи учун бурч деб билади. Ватанига хавф туғилса, унинг ҳимояси йўлида мол-дунёсини, ҳатто, жонини ҳам аямасдан фидоийлик ва қаҳрамонлик наъмуналарини кўрсатади.

Шунинг учун ҳам истиқлолнинг дастлабки кунлариданоқ маънавиятга катта эътибор қаратилганлиги бежиз эмас. Биринчи Президентимиз Ислон Каримов шундай фикрларни билдирган эдилар. “Маънавият инсонга ҳаётда барқарорлик бағишлайди, унинг қарашлари шунчаки бойлик орттириш йўлида кун кўришга йўл қўймайди., фожеалар вақтида омон сақлаб қолади ва моддий қийинчиликлар даврида иродани мустаҳкамлайди... Маънавиятда инсоннинг иймони, эътиқоди, ахлоқи, ҳаётининг маъносини қандай тушиниши, унинг ички дунёси намоён бўлади. Ватан, халқ олдидаги бурчни англаш ҳам юксак маънавият белгисидир. Маънавий баркамол инсон ўзининг савобли ишлари билан кечирган ҳаётдан рози кетади” [6,].

Маънавият жамият билан ўзаро боғлиқ ҳолда таркиб топар экан, жамият ҳаётининг рунлари бўлмиш ижтимоий-иқтисодий ҳодисаларга қаттиқ боғланган бўлади. Маънавият энг аввало, жамиятнинг иқтисодиёти билан узвий боғланган. Иқтисодиёт ва маънавият инсон ва жамият ҳаётининг ўзаро ажралмас, бир-бирини тўлдирадиган, ўзаро таъсир ва акс таъсир этадиган икки томони, икки қиррасидир.

Жамият тараққиёти ана шу икки томоннинг ўзаро бирлиги ва алоқадорлиги асосида амалга ошади. Агар жамиятда иқтисодиёт раванқ топган, мол-мулкчилик таъминланган бўлмаса, маънавият ўз-ўзидан пасайиб кетади. Ўз навбатида маънавият барқарор бўлмаган жойда моддий бойликларни ишлаб чиқариш ва истеъмол қилиш маъданияти ҳам юксак бўлмайди. Мамлакатимиз фуқаролари олдида турган ислохотлар жараёнида ана шу жиҳатлар кўзда тутилган. Ишлаб чиқаришни, умуман иқтисодиётимизни тараққий эттириш билан бир қаторда халқимизнинг умуммаданиятини юксалтиришга оид қатор тадбирларнинг амалга оширилаётгани бунинг ёрқин далилидир. Маънавиятнинг иқтисодиётга бевосита боғлиқлиги барчамизга маълум. Инсон жамиятдан фақат ўмаришни ўйласа, шахсий манфаатдорлик эл-юртга наф келтириш асосида қурилмаган бўлса, хатти-ҳаракатлари натижасида Ватанга, халқига ҳиёнат бўлиб чиқса, буларнинг ҳаммаси маънавий муҳитнинг бузилганлигидир.

Халқимиз орасида бировларга зарари тегмай, бошқаларнинг ризқига кўз олайтирмай, покиза яшаб келаётган инсонлар кўп. Тўғриси, жамият мана шундай бамаъни одамлар билан нафас олади. Дунёдаги асл моддий ва маънавий бойликлар ҳам ана шу танги, ҳалол, қаноатли, камсуқум, бир сўз билан айтганда,

маънавиятли одамлар меҳнати эвазига яратилаётгани ҳеч кимга сир эмас. Агар эртага бугундан яхшироқ яшашни истасак, бугун кечагидан кўпроқ самарали меҳнат қилишимиз лозим. Бундан бошқа йўл бўлиши мумкин эмас. Акс ҳолда биримиз икки бўлмай замондан орқада қолиб кетаверамиз. Шунинг учун И.Каримов таъкидлаганидек, “Маънавият ишларини йўлга қўймасдан туриб, иқтисодий юксалишларга эришиш қийин. Зеро, юксак маънавиятли бўлмаган халқнинг келажаги ҳам йўқ” [7, 3].

Кўпчилигимиз аксарият ҳолларда қорин қайғуси билан банд бўлиб, кўнгил тўқлиги, кўнгил мулкни унутиб қўямиз. Айниқса, фақат мол-мулк, моддий неъматларга ружу қўйган одам аста-секин маънавий қашшоқлашади, кўнгли дағал тортиб, қалби қотиб, шафқатсиз, бағритош кимсага айланади. Вақт ўтиши билан ўша маънавиятдан маҳрум бўлган кимса моддий бойликлардан ҳам жудо бўлади. Сабаби, моддий мулк билан маънавий мулк инсон тирикчилигининг қўш қанотидир. Шахс маънавий баркамолликсиз комил инсон сифатида юксакларга парвоз қила олмайди. “Ҳаракатда баракат” деган ибратли гапни кўп такрорлаймиз ва афсуски, кўпчилигимиз шу иборага амал қилмаймиз. Аксинча ўнғайироқ йўллари қидирамиз.

Хулоса ва таклифлар. Маънавият соҳасида қилинган ишлардан кўра қилиниши лозим бўлган ишларимиз кўпроқдир, маънавий камчиликларимиз иқтисодиёт соҳасидаги муаммоларимиздан ортиқ бўлса ортиқдирки, асло кам эмас.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Олий Мажлисга қилган Мурожаатномасида таъкидлаганидек, “Ҳаёт олдимизга яна қанча синов ва муаммоларни қўйиши мумкин ва биз ҳар қандай ҳолатга тайёр туришимиз зарур. Лекин қанчалик қийин ва мураккаб бўлмасин, демократик ислохотлар йўлидан ҳеч қачон ортга қайтмаймиз. Олдинга, фақат олдинга қараб борамиз. Ва биз бунга ҳар томонлама қодирмиз. Чунки бугунги халқимиз – кечаги халқ эмас. Бугунги Ўзбекистон ҳам – кечаги Ўзбекистон эмас”...

Ҳеч шубҳасиз, ўз кучимиз ва имкониятларимизга бўлган ишонч Учинчи Ренессанс пойдеворини яратишдек эзгу мақсад йўлида бирлаштириб, янада кучли ва мустақкам қилмоқда. Бу интилишлар улкан амалий ишларга айланиб, буюк халқ ҳаракати тобора кенгайиб бормоқда. Бундай қудратли сафда бўлишнинг ўзи катта бахт, катта шарафдир” [2].

ФҲЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2022 йил 28 январдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тарақиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сон Фармони. Lex.uz.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил 11-сентябрдаги ПФ-158-сонли фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Олий Мажлисга қилган Мурожаатномаси. “Халқ сўзи” 2020 йил 30 декабрь.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947 –сонли Фармони. // “Халқ сўзи”, 8 февраль 2017 йил.
5. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008 йил. -174 бет.
6. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т.5. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 384 бет.
7. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси / Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг 2010 йил 12 ноябрь куни бўлиб ўтган кўшма мажлисидаги маъруза. Тошкент- “Ўзбекистон”- 2010 йил
8. Алиев Ғ. “Етук мутахассислар мамлакат истиқболи”. “Жамият ва бошқарув” 2009 йил. № 3-сони 5 бет.
9. Хошимов Н. “Раҳбар сиёсий маданияти ва бағрикенглик”. “Жамият ва бошқарув” 2009 йил. № 3-сони 7 бет.
10. А.Ражабов “Мутахассис комил инсон бўлсин”. “Мулоқот” журнали 2003 йил № 6.
11. Ф.Равшанов. “Темур тузуклари”да раҳбар танлаш тамойиллари”. “Фуқаролик жамияти” журнали 2005 йил № 1.
12. М.Қуронов “Фуқаролик жамияти-маърифат маҳсули”. “Фуқаролик жамияти” журнали 2004 йил № 1. 30-34 бетлар.
13. Р.Хидоятлов “Маънавиятсиз – иқтисодий юксалтириб бўлмайдим”. Министерство Транспорта Республики Узбекистан Ташкентский транспортный университет при поддержке: Исполнительного комитета стран СНГ- координационное транспортное совещание государств-участников СНГ. Международная научно-техническая конференция “Транспорт: актуальные задачи и инно

14. Хидоятов, Р., Хакимов, О., & Исакобулов, Р. Ю. (2016). Духовная просвещенность руководителя: проблемы и их решения. *Молодой ученый*, (7-2), 96-99. вации”. Тошкент 22 апреля 2021г.

15. Хидоятов, Р., & Тўхтаев, З. (2022). НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ НОВОЙ УЗБЕКСКОЙ ЭКОНОМИКИ. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 35.

16. ХИДОЯТОВ, Р. (2023). МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИНГ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА МУҲИМ ОМИЛ.

17. Umarova, Z. O., & Obidova, F. Y. (2021). MANAVIY QADRIYATLARIMIZ-MILLIY TARBIYA OMILI. *Global Science and Innovations: Central Asia* (см. в книгах), 5(1), 137-140.

AESTHETIC FUNCTION OF ARTISTIC REPEATMENT

Kudaybergenova Gulparshin Polatbaevna

PhD student at Karakalpak State University named after Berdakh

kudaybergenova_g@karsu.uz

Abstract. *The article shows the importance of artistically actualized repetitions, which are one of the objects of study of linguopoetics, in ensuring the emotional expressiveness of a work of art. In the linguapoetic analysis of a literary text, logical concepts consisting of anaphora and epiphora are based on literary repetitions. The article analyzes these concepts using the example of poems by Ibraim Yusupov.*

Key words: *linguopoetics, actualized, artistic repetition, anaphora, epiphora, synonym, antonym, expression of meaning, aesthetic task, main repetition.*

ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПОВТОРЕНИЯ

Абстрактный. *В статье показано значение художественно актуализированных повторов, которые являются одним из объектов изучения лингвопоэтики, в обеспечении эмоциональной выразительности художественного произведения. В лингвопоэтическом анализе художественного текста логические понятия, состоящие из анафоры и эпифоры, основаны на художественных повторах. В статье анализируются эти понятия на примере стихотворений Ибраима Юсупова.*

Ключевые слова: *лингвопоэтика, актуализированный, художественный повтор, анафора, эпифора, синоним, антоним, выражение смысла, эстетическая задача, главный повтор.*

BADIY TAKRORNING ESTETIK VAZIFASI

Annotatsiya. *Maqolada lingvopoetikaning o'rganish obyektlaridan biri bo'lgan badiiy aktuallashgan takrorlarning badiiy asar emotsional ekspressivligini ta'minlashdagi ahamiyati xususidagi fikrlar bayon qilingan. Badiiy matn lingvopoetik tahlil qilinganda badiiy takrorlar asosida anofora, epiforadan iborat mantiqiy tushunchalar yotadi. Maqolada ushbu tushunchalar Ibrayim Yusupov she'rlari misolida tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *lingvopoetika, aktuallashgan, badiiy takror, anafora, epifora, sinonim, antonim, ma'no ko'chimplari, estetik vazifa, o'zakli takror.*

Tilning estetik vazifasini o'rganish hozirgi kunda tilshunoslar oldida turgan eng dolzarb muammoni hal etish bilan barobar desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ma'lumki, badiiy adabiyot tili ham kommunikativ, ham estetik vazifani bajaradi. Badiiy nutqning estetik vazifani bajarishini shu nutqning o'ziga xos muhim belgisi deb hisoblash mumkin. Badiiy matndagi ta'sirchanlik yuqori darajasi, ko'lamdorligi bilan xarakterlanadi.

Matni yanada yorqinroq, ta'sirliroq, ravonroq qiladigan vositalarning hammasi ekspressiyadir. Ekspressiya kitobxonda yoki tinglovchida berilgan fikrdan kifoyalanish yoki ta'sirlanish, zavqlanish yoki hayajonlanish, qayg'urish yoki xursand bo'lish kabi emotsional holatlarning paydo bo'lishi bilan ko'zga tashlanib turadi.

Takror uslubiy vosita sifatida badiiy asarda qahramonlarning ruhiy holatini, ichki kechinmalarini konkretroq ifoda etish uchun ishlatiladi.

Takrorning asosiy vazifasi nutqni ta'sirchan qilish, fikrni konkretlashtirish va unga tinglovchi diqqatini tortishdir. Takrorning sintaktik - stilistik xususiyatlari haqida tilshunoslardan I.M.Astafe va, M.N.Adilovlar maxsus monografik tadqiqotlar olib borganlar. Takror nutqning og'zaki shakli xususiyatiga asoslangan sintaktik stilistik vosita bo'lib, bu hayajonli holatni ifodalash maqsadida qo'laniladi. Takror va uning stilistik funksiyasi haqida professor A.Mamajonov fikr yuritib, uning fonetik takror, leksik takror, morfologik takror, sintaktik takror ko'rinishlari borligini, bunday takror tiplari xalq og'zaki ijodi materiallari, badiiy va publisistik asarlar tilida juda keng qo'llanishini bayon qilgan.

Bu holat sintaktik-stilistik figuralar analizi uchun boy material bo'lib hisoblanadi, hamda takror bo'yicha alohida va muhim tekshiruvlar olib borish, tegishli xulosalar chiqarish imkoniyatini tug'diradi" deb takror hodisasining nihoyatda dolzarbligini ko'rsatadi.

Misra yoki gap bo'lagining boshida kelgan takror anafora deyiladi² yoki boshqacha aytganda, paralel tuzilgan nutq parchalari boshida aynan bir elementning takrorlanishidan iborat stilistik figura. Bu stilistik figuradan his hayajon, ko'tarinki ruh bilan aytiladigan nutq shakllarini yaratish uchun foydalaniladi.

Gap oxirida kelgan takrorlar yoki boshqacha aytganda, she'riy asarlarda so'zlar va misralar oxirida ifodalikni kuchaytirish uchun ayr im unli va undosh tovush takrorlanadi. Bunga tovush nihoyasi yoki epifora deyiladi.¹

Takrorlanuvchi birliklar o'ziga xos doira hosil qilib, parchaning boshida ham kelishi mumkin. Bunday takror halqasimon takror deb ataladi.

Takrorning yana bir ko'rinishi topilma takror birinchi misraning oxirida kelgan muayyan so'z ikkinchi misraning boshida takrorlanib keladi.

Takrorning o‘zakli takror deb nomlangan turi ham mavjud. Uning mohiyati shundaki, unda so‘z aynan takrorlanadi, biroq ularning biridagi qo‘shimcha qism takrorlanmaydi.

Takrorning navbatdagi turi sinonimik takror bo‘lib, unda bitta tushunchani ifodalash uchun sinonimik, ya‘ni ma‘nosi bir biriga yaqin bo‘lgan vositalar qo‘llaniladi. Ushbu holatda obyektiv sinonimlar qo‘llanilishi shart emas.

O‘z izlanishlarimiz borisida qoraqalpoq adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan shoir Ibroyim Yusupovning ijodidagi badiiy takrorlarning asosiy vaziyfasi fikrni o‘quvchiga yanada bo‘rttirib ko‘rsatish uchun tasvirlanayotgan jarayonni yoki narsani bir necha marotaba she‘r satrlari boshida, o‘rtasida va oxirida takrorlab ko‘rsatib kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

Sen kabi mavj urib oqmasa **shoir**,
Xalq qalbiga yo‘lni topmasa **shoir**,
Shoirman deb chirangani bir puldir,
Hozir shuni o‘ylab qoldim, Kegayli.

(I. Yusupov. Kegeyli Shuhrat tarjimasi)

Shoir ijodida epifora jarayoni bir nechta ko‘rinishda uchraydi. Ayniqsa bir so‘z she‘r qatorlarining dastlabki uch satrida takror kelishi she‘rning ta‘sirchanligini oshirish xizmatida kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan :

Sen ketganda tishda yurib **edim men**,
Ketishingni qaydan bilib **edim men?**
“Qayga borasan” deb hurib **edim men:**
Tovshimni eshitmay qolding, Oyjamol!

(I. Yusupov. Yo‘llidan salom Qoraqalpoq tilidan Oydin Hojieva tarjimasi)

Asil gavhar, zari **ham bor**,
Aptekda yo‘q dori **ham bor**,
Puling bo‘lsa, bori **ham bor**,
Pulsiz ko‘zning qizari ko‘p.

(I. Yusupov. Bozor Qoraqalpoq tilidan Oydin Hojieva tarjimasi)

O‘rik gu‘llaganda kelmading **yorim**,
Olma gu‘lin bersam, olmading **yorim**,
O‘zga og‘ochda gu‘l qolmadi, **yorim**,
Tongning shafag‘iday anor gu‘lladi.

(I. Yusupov. Anor gu‘lladi Qoraqalpoq tilidan Ochil Tohir tarjimasi)

Xulosa qilib aytganda, badiiy takrorlar I.Yusupov asarlarida juda ko‘p qo‘llanilgan jarayon ekanligini anglash mumkin. U faqatgina she‘r tasirchanligini, emocionalligini oshirib qo‘ymasdan, she‘r irmog‘ini va qolaversa o‘xshashini shakllantirib bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mamajonov A. *Tekst lingvistikasi*. - T.: Fan, 1989
2. Hojiyev A. *Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati*. T.: O‘qituvchi, 1985.
3. Hojiyev A. *Hozirgi o‘zbek tilida forma yasalishi*. T.: O‘qituvchi, 1979.
4. Hikmatullo Do‘smatov *Askiya matni lingvolistikasi* Fan nashriyoti T- 2015
5. Abduazizov. A. *Tilshunoslik nazariyasiga kirish*. - T.; “Shapq nashriyotmatbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati”, 2010. -B.175
6. Shofqarov A.M. *O‘zbek tilida badiiy takror*. – T.: “Fan va texnologiya”, 2019.
7. Mamajonov A. *Takror va uning sintaktik-stilistik funksiyasi//O‘zbek tili va adabiyoti*.1978.№3 B.60
8. Kosimbetova Aygul Yesbosimovna. *Poetic Service of syntactic constructions in the works of Saginbay Ibragimov*.Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities.2023.p.142-145.
9. Qosimbetova Aygul. *Anafora va epiforaning lingvopoetik o‘ziga xosligi* (T. Jumamurodovning ijodi namunasida).Замонавий таълимда рақамли тизимларни куллаш:филология ва педагогика соҳасида замонавий тенденциялар ва ривожланиш омиллари. Тошкент. 2021. 119-121
10. www.arxiv.uz
11. www.ziyouz.uz/jahon-sheriyati/qoraqalpoq-sheriyati/ibroyim-yusupov-2/

TEXT AND SPEECH FEATURES OF SAGINBAY IBRAGIMOV'S WORKS

Kosimbetova Aygul Yesbosinovna

PhD student at Karakalpak State University named after Berdakh

ORCID iD: 0009-0006-6132-9194

aygul_qosimbetova@karsu.uz

Abstract. *The intonation structure of poetic speech is known to the author at the time of creation of the poem. This article notes that the style of creating a poetic text by Saginbay Ibragimov differs from ordinary poetic texts in the arrangement of the lines of the poem and the close connection of all elements. From the author's point of view, a nominative aimed at one goal is analyzed - a complex structural feature that explains aesthetic information.*

Keywords. *Poetic speech, speech intonation, rhythm, models of ontological poetics, style, synergetics, synergetic text, metaphor, text, poetics of the text.*

ТЕКСТОВЫЕ И РЕЧЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВЕДЕНИЙ САГИНБАЯ ИБРАГИМОВА

Аннотация. *Интонационный строй поэтической речи известен автору на момент создания стихотворения. В данной статье отмечено, что стиль создания поэтического текста Сагинбая Ибрагимова отличается от обычных поэтических текстов расположением строк стихотворения и тесной связью всех элементов. С авторской точки зрения проанализирован номинатив, направленный на одну цель – сложный структурный признак, объясняющий эстетическую информацию.*

Ключевые слова. *Поэтическая речь, речевая интонация, ритм, модели онтологической поэтики, стиль, синергетика, синергетический текст, метафора, текст, поэтика текста.*

САҒЫНБАЙ ИБРАГИМОВ ШЫҒАРМАЛАРЫНЫҢ ТЕКСТИ ҲӘМ БАЯНЛАНЫҰ ӨЗГЕШЕЛИКЛЕРИ

Аннотация. *Поэтикалық баянлаудың интонациялық дүзилісі қосық пайда болуы уақытында-ақ, авторға белгилі болады. Бұл мақалада Сағынбай Ибрагимовтың қосық текстін жаратыу ұсылы дәстүрий поэзиялық*

текстлерден қурылысы, қосық қатарларының жайласыуы менен айырылып туратуғынлығын, барлық элементлери өз-ара тығыз байланысынан пайда болған хәм автордың көзқарасынан келип шығып мәлим бир мақсетке бағдарланған номинатив - эстетикалық информацияны түсіндириуши қурамалы структуралық өзгешелиги анализленди.

Гилт сөзлер. Поэтикалық баянлау, баянланыу интонациясы, ырғақ, онтологиялық поэтика моделлери, стил, синергетика, синергетикалық текст, метафора, текст, текст поэтикасы.

Көркем тексттің өзгеше ырғақлық – интонациялық структурасы туурыдан-тууры оның синтаксислик структурасына сәулелендирилип, синтаксислик бирликлер менен категориялардың семантикалық хәм функционаллық сыпатына тәсирин тийгизеди. Көркем тексттеги гәп, оның дүзилиси, гәп ағзаларының орын тәртиби, гәплердің өз ара байланысы сыяқлы әдеттеги синтаксислик категориялар да тексттің ырғақлық–интонациялық қурылысына бейимлесип, семантикалық қурылысының өзгешелигине ғәрезли болады. Көркем текстте гәп салыстырмалы түрде ғана өз алдына бирлик болып табылады. Гәпке байланыслы барлық мәселелер контекстлик хәм текстлик бирлик арқалы анықланады:

Жети асырым жолларды басып,
кейниңе қарасаң—
изинде

от пенен суу қарысып атады...

кеше болғанында бүгинги ақылың,
усы әмеллериң болса еди кеше...

Бармағыңды тислеп қала бересең.

Тартылған сызықтай тууры еди жоллар,
сен өзиң жолсыздан кете бергенсең.

Қайтып ойнап болмас бул ойынларды.

Текст қурылысы жағынан бөлеклерге ажыратылған, ондағы сызықша, көп ноқат, жеке бир сөздің (изинде) бир қатарда берилиуи пикирдің дәслеппен түсіндирмели мазмунда келип, соң даралап ис-хәрекеттин, уақыяның нәтийжесин көрсетиу арқалы оқыушыға тәсир етеди. Бул текстте **жол**, **ойын** лексемасы арқалы инсан өмири, **бүгин хәм кеше** лексемасы арқалы өтмиш хәм хәзирги жағдайы берилген. Ал, **бармақ тислеу** фраземасы арқалы өкиниш сезими аңлатылған. Текст тили әпиуайы, деген менен инсанды өзін талқылауға бағдарлайды. **Көп ноқат** пенен **усы** силтеу алмасығы текстти оқып атырған адамның ишки өкинишлерин, қәтеликлерин көз алдына келдиртеди. Яғнай,

унамсыз ишки кеширмелер анық көрсетилместен оқыўшының өзине қалдырылған. Мысалы:

Жайғаса алмадым төрт пасылға мен,
пасылдан-пасылға
еңсем шыдамас -
кутылмақ мойынға түскен жүклерден
жоқ маған. **Бесинши мәўсимиңди** аш,
жилўалы тәбият, кербаз тәбият,
саўдалы тәбият, араз тәбият! -
Оймақ сеннен гөре кеңлеў көринди-
бул не пейли тарлық, сам-саз тәбият?

Адам өмири хаққында айтылған пикирлердиң мазмуны жағынан философиялық усылда сүүретлениўи шайыр Сағынбай Ибрагимов дөретиўшилигине тән кубылыс.

Текст лингвопоэтикасының анализлениўинде шайырдың поэтикалық баянлаўының мазмунын хәм усылын үйрениў лазым. Биз Сағынбай Ибрагимов шығармаларындағы өзгешеликлерди үйренип, оның текстлеринде онтологиялық поэтика моделлери бар екенин, синергетикалық усыл арқалы берилгенин анықладық.

Поэтикалық баянлаў арқалы синергетиканың теориялық –методологиялық изертлеўлериниң нәтийжелери филологиялық мәселелер шешиминде универсал жантасыўларға тийкарланатуғын текст онтологиялық поэтика анализиниң моделлерин жаратыўда зәрүрли. Онтологиялық поэтика әлемниң пүтин илимий-философиялық тәбиятының көринисин аңғарыў арқалы болмыс тийкарын шөлкемлестирген әлем хәм адам мунасәбетлериниң терең қатламларына нәзер таслайды. Бундай жантасыўда көркем текст, оның авторы дүньяға көз қарасы өз саўлелениўин тапқан текст асты мәниси өзинде сырлы мәнислерин жүзеге шығарыўда өнимли қолланылады. Көркем текст анализи ойда саўлелендириўди, поэзияның қурамалы системасын үйрениўде баслы дыққат синергетикалық текстке қаратылыўы керек.

Синергетикалық текст — бул бир қанша түпкиликли, тиккелей гүзетилмеген, сырлы, трансцендент мәнислерден ибарат болып, текст қурамындағы тегис емес байланыслардың комплекси.

Бул усыл көркем тексттиң түп мәнисин өзинде пүтинлигинше улыўмаластырған хәм дөретпениң онтологиялық қатламының тийкары болған, тарийхый -мәдений мәнис билдиретуғын характерге ийе артемалар, олар хәрекет етип атырған орын хәм ўақыттың максимал дәрежеде күшли, оғада тығыз, кескин жағдай хәм хәдийселеринде көринетуғын болады (турмыс хәм өлим;

раўажланыў—жемирилиў; муҳаббат—дэрт; хақыйқат -өтирик; барлық— жоқлық).[7:110]Мысалы:

жайғасқан жеримде қаламан мен де,
Қудиретим келмес өз даўысымнан
шығып қыйғырыўға. Хәм мына Жерде
төрт ғана пасыл бар. Жер мөкан саған.
Тәбият сыяқлы төрт мәўсиминдеги
көкирегиме пүтин сүүрет киреди -
түсиме мен ашық шыңлар енеди,
жасайман бәнт болып қыялларымда.
Жүргим келетуғын соқпақларым бар,
кешким келетуғын жылғаларым бар,
журт сезбес нәрселерге берип итибар,
жасайман бәнт болып қыялларыма.
О төбеме келген жолы аўыр Қуяш
ядыңа ал, мен хәм айнаңда барман,
мени халықтырған мына қыя-даш,

қорқаман, айырар қыялларымнан...-бул мысалда әлем, инсан, оның сезимлери, иләхий түсиниклер метафоралық усылда берилген.

Жуўмақлап айтатуғын болсақ, автордың екинши реаллықты жаратыўға деген жеке мүтәжлиги бар, ол оны модернистлик усылда баянлайды. Сондай-ақ, бул мүтәжликти аңлатыў тил бирликлери арқалы әмелге асырылады. Көркем текст басқа көркем дөретпелерден хәр тәреплеме парықланып, тиллик көз қарастан қарағанда, тийкарғы парық көркем әдебиятқа байланыслы текстлерде зәрүрли орын тутатуғын тил бирликлериниң қолланыў өзгешелиги болып табылады.

Пайдаланылган адабиятлар

1. Абдиназимов Ш. Лингвопоэтика (оқыў қолланба) –Тошкент:Ёшлар нашриёти.2020.-152б.
2. Kosimbetova Aygul Yesbosinovna. Poetic Service of syntactic constructions in the works of Saginbay Ibragimov. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities.2023.p.142-145.
3. Косымбетова А.Сағынбай Ибрагимов шығармаларында асиндетонның қолланылыў өзгешелиги. «Хэзирги қарақалпақ филологиясының әхмийетли мәселелери»атамасындағы (филология илимлериниң докторы П.Нуржановтың 60 жыллық юбилейине бағышланған) республикалық илимий-теориялық конференция мақалалар топламы. «Arial Nukus» ,баспасы.2023 .Б.277-281
4. Косымбетова А .Сағынбай Ибрагимов шығармаларында синтаксислик бирликлердиң поэтикалық хизмети. Филология илимлериниң докторы Нажимов Пердебай Аймановичтың 60 жыллығына бағышланған. Ғәрезсизлик дәўири гуманитар илимлериниң актуал мәселелери // Республикалық илимий-әмелий конференция материаллары. ӨзРИАҚБ Қарақалпақ гуманитар илимлер илимизертлеў институты. – Нөкис: «Илимпаз», 2023. – б.92-95
5. Косымбетова А. Каракалпакская лингвопоэтика и ее развитие. Международной научной конференции «Современная лингвистика: ключ к диалогу» в рамках Казанского международного лингвистического саммита 2023 (KILS-2023) декабрь. Казан
6. Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф.дисс.канд.филол.наук. –Ташкент, 1992. –40 с.
7. Toshniyozova R.Ontologik poetika —badiiy matnни o‘rganishda yangi yondashuv sifatida. Oltin bitiglar.Golden scripts 2019/4 . ISSN 2181-9238. В- 99—119
8. Якупова Г.З. Лингвистическая поэтика текстов стиха Сибгата Хакима: Автореф.дисс.канд.филол.наук. Казань. 2008. – 22 с.
9. Шантарович С. А. Фактор адресата в литературоведческих исследованиях текста. коммуникативная компетенция: принципы, методы, призмы формирования: сб. науч. ст. / под ред. Л. А. Муриной, Ф. М. Литвинко. - Минск: Ривш БГУ, 2004. - вып. 6.

EGOIZM PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

Karayeva Yulduz Xushbakovna

TerDU psixologiya kafedrası v/b dotsenti,
psixologiya bo'yicha falsafa doktori PhD,

[Email:karayevayulduz@mail.ru](mailto:karayevayulduz@mail.ru)

***Annotatsiya:** Hozirgi kunda egoizm mohiyatini tushuntirishda psixologiya fanida ikkita qarama-qarshi konsepsiya mavjud bo'lib, ulardan biri egoizmning biologik tabiatini ta'kidlasa, keyingisi egoizmi o'z shakllanish jarayonida ko'proq ijtimoiy omillar ustuvorlik qiladi, deya izohlashadi. Egoizm shaxsning motivatsion-mazmuniy asosiy xislatlaridan biri bo'lib, hozirgi vaqtgacha eng kam o'rganilgan va ta'riflangan xususiyatlaridan biri bo'lib qolmoqda. Tadqiqotchilar tomonidan o'smirlik davri xususiyatlari, shaxs emotsional sohasining ma'lum qirralari o'rganilgan bo'lsa-da, egoizm muammosining asosiy tadqiqot predmeti sifatida tadqiq etilish holatlari kam ko'zga tashlanadi. Ushbu maqolada o'smirlik davrida egoizm namoyon bo'lish xususiyatlari psixodiagnostikasini eksperimental tadqiq etilgan.*

***Kalit so'zlar:** Egoizm, motivatsiya, egoist, hulq-atvor, nartsissizm, egotsentrizm, shaxsning egoistik yo'nalganligi, egoistik tendensiya, dispozitsion egoizm, gedonizm.*

EGOISM AS A PSYCHOLOGICAL PHENOMENON

***Abstract:** Currently, there are two conflicting concepts in the psychology of explaining the nature of egoism, one of which emphasizes the biological nature of egoism, and the other explains that egoism is prioritized by more social factors in the process of its formation. Egoism is one of the main motivational and meaningful characteristics of a person and remains one of the least studied and determined characteristics. Although the characteristics of adolescence and certain aspects of the emotional sphere of personality have been studied by researchers, there are few cases when the problem of egoism is studied as the main subject of research. This article experimentally investigates the psychodiagnostics of the features of egoism in adolescence.*

***Key words:** Egoism, motivation, egoist, behavior, narcissism, egocentrism, egoistic orientation of a person, egoistic tendency, dispositional egoism, hedonism.*

KIRISH: Hozirgi kunda egoizm mohiyatini tushuntirishda psixologiya fanida ikkita qarama-qarshi konsepsiya mavjud bo‘lib, ulardan biri egoizmning biologik tabiatini ta’kidlash, keyingisi egoizmni o‘z shakllanish jarayonida ko‘proq ijtimoiy omillar ustuvorlik qiladi, deya izohlashadi.

Egoizmning bosh g‘oyasi — o‘zini yaxshi ko‘rish, o‘zining shaxsiy manfaatlarini o‘zgalarga manfaatlariga nisbatan ustun qo‘yish, jamiyat va atrofdagilar manfaatlariga e’tiborsizlik munosabatni namoyon etadigan shaxs xulq-atvorining ko‘rinishidir [62; 939-b.].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA: Egoizm mohiyatini tushuntirishda va izohlashda olimlar turlicha yondoshganligini kuzatish mumkin. Jumladan, ingliz faylasufi Djeremi Bentamning ta’rificha, egoizm bu odamni o‘zini rohatlantirish, yoqimli kechinmalarni kechirish yoki yoqimsiz tuyg‘ulardan voz kechishga qaratilgan xatti-harakatlar yig‘indisidir [121; 1973-b.]. Sovet ensiklopedik lug‘atida egoizm (fransuzcha egoisme, lotincha ego — men) – o‘zini yaxshi ko‘rish; butunlay o‘z foydasi, manfaati bilan belgilanadigan xulq, o‘z ehtiyojlarini boshqalarnikidan yuqori qo‘yish, deb ta’riflangan [116;1538-b.] Xorij ensiklopedik lug‘atida egoist bu – xatti-harakatlarida rohatlanish va zavq olishga moyil bo‘lgan shaxs ko‘rinishidir, deb izohlangan [116]. M.Yu.Kondratev tahriri ostidagi ijtimoiy psixologik lug‘atda esa egoizm tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Egoizm” (lot. ego — men) subyektning qadriyatli yo‘nalishi bo‘lib, boshqalar va ijtimoiy guruhlarning manfaatlaridan qat’iy nazar o‘z shaxsiy manfaat va ehtiyojlarining ustunligi bilan tavsiflanadigan xulqdir [85;176-b.]. Ta’rifdan ko‘rib turganimizdek, egoistik xulq - atvoriga ega shaxs faqat o‘zini o‘ylaydi, boshqalarga esa o‘zining maqsadlariga erishish vositasi sifatida munosabatda bo‘ladi.

Egoizm atamasi “egoizm”, ya’ni lotincha “Men” so‘zidan kelib chiqqan, ingliz tilida esa “egoism” - “selfishness”, ya’ni “men” degan ma’noni bildiruvchi “self” so‘zlarining sinonimi sifatida keltirilgan. “Egoizm” so‘zining ma’nosi barcha izohli lug‘atlarda deyarli bir xil bo‘lishiga qaramasdan, hozirgi zamon fanida uning psixologik mohiyati to‘g‘risidagi tasavvurlarda yagona tushuncha mavjud emas, ko‘p hollarda «egoizm» atamasi bilan bir qatorda bir vaqtning o‘zida o‘z mazmuniga ko‘ra farq qiladigan, lekin ko‘pincha sinonim sifatida ishlatiladigan bir nechta boshqa tushunchalar mavjud bo‘lib, ular individualizm, nartsissizm, egotsentrizm, shaxsning egoistik yo‘nalganligi, egoistik tendensiya, dispozitsion egoizm, gedonizm, shaxsning betakrorligi yoki motivatsion holati singari sinonimik tushunchalar bilan birga ko‘rib chiqilgan [46; 212-225-b.].

NATIJALAR: Biz tadqiqotimizda o‘smirlarda egoizm motivatsiyasiga asoslangan hulqning psixologik omillarini o‘rgandik.

1- jadval

O'smirlarda egoizm va altruizmning namoyon bo'lishi (%), N=220

| Shkalalar | 7- sinf o'smirlar n=130 | 9 -sinf o'smirlar n=90 |
|-----------------------------------|----------------------------|---------------------------|
| Shaxsdagi egoistik ustanovkalar | 14,6% | 22,2% |
| Shaxsdagi altruistik ustanovkalar | 85,4% | 77,8% |

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turganidek, 7-sinf o'quvchilarida egoistik ustanovkalar 14,6% ni, altruistik ustanovkalar 85,4% ni tashkil etdi. Olingan natijalardan sinaluvchilarimizda egoistik ustanovkalarga nisbatan altruistik ustanovkalarining ustunligi ko'rinib turibdi. Bu esa ularning hulq-atvorida saxiylik, o'zgalarga beg'araz yordam berish motivatsiyasining yuqoriligini anglatadi. Egoizm motivlarining ustunligi 9-sinf o'smirlarda 7-sinfidagi o'smirlarga nisbatan yuqoriligini ko'rsatib, bu ularning «Men»ning anglanganlik darajasi bilan bog'liq bo'lib, bu shaxsdagi «Ego» darajasining oshishi bilan ifodalanadi, bundan tashqari inson ulg'aygan sari unda o'z manfaatlarini va ehtiyojlarini ko'proq o'ylash shaxs xarakteriga aylanib boradi[5]. Natijalarni gistogramma ko'rinishida ifodaladik.

MUHOKAMA: Shu nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, egoizm reprezentatsiyasining yoshga oid dinamik xususiyati 7-sinf o'smir yoshdagi sinaluvchilarga qaraganda 9-sinf o'smirlar xulq-atvorda shaxsning «Men»i xohishlarining maqsadi va motivatsiyasining asosini tashkil etgani hamda shaxslararo munosabatlardagi mavqeini tasdiqlash dominantligi bilan belgilanadi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, jamiyatda shaxsning ma'naviy kamoloti hamma vaqt ham muhim masalalardan bo'lib kelgan. Shaxs psixologiyasini o'rganar ekanmiz, uning ma'lum bir xususiyatlari va hulq ko'rinishlarini bevosita kuzatish orqaligina o'rganib bo'lmasligiga ishonamiz, chunki bu xususiyatlarda turg'unlik, barqarorlik va izchillik yo'q. Shu bilan birga, turli xil ilmiy yo'nalish vakillari shaxs xususiyatlari tushunchasini turli xil yondoshuvlar asosida tushuntiradilar, biz esa o'zimizning tadqiqot ishimizda egoizmni turli yosh davrlarda namoyon bo'lishi, darajalarini tajribalar asosida o'rgandik va keyingi tadqiqotimizda egoizm yuqori ko'rsatkichdagi sinaluvchilar bilan psixokorreksion dastur asosida o'rganishni vazifa qilib belgiladik.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Ilin Ye.P. Psixologiya pomoshi. Altruizm, egoizm, empatiya. Piter, SPb.: Piter. 2013.414 s.
2. Levit L.Z. Egoizm, lichnostnaya unikalnost, nartsissizm: sxodstvo i razlichiya , Pedagogicheskoe obrazovanie v Rossii. 2013, № 4
3. Ojegovv S.I., Shvedova M.U. Slovar ruskogo yazyka. Moskva: 1993.
4. Kondratev M.Yu., Ilin V.A. Azbuka sotsialnogo psixologa-praktika. M.: PYeR SE, 2007. 464 s.
5. Bojovich L.I. Lichnost i yeyo formirovanie v detskom vozraste / L. I. Bojovich. - SPb.: Piter, 2008. - 400 s.

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT XARIDLARI TIZIMI

Omonov Temurmaliq Zafarjon o‘g‘li

***Annotatsiya:** Iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan davlat xaridlari tizimiga e‘tibor berish, uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni olib borish va zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimdir. Mazkur tadqiqot ishida O‘zbekiston Respublikasi davlat xaridlari tizimini rivojlantirish hamda tartibga solishning zarurati, uning huquqiy asoslari, shuningdek davlat xaridlari sohasiga oid xalqaro tajriba o‘rganilib, mamlakatimizda bu boradagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.*

***Kalit so‘zlar:** davlat xaridi, davlat buyurtmachilari, elektron do‘kon, auksion, tanlov, tender.*

***Abstract:** It is important to pay attention to the public procurement system, which is an integral part of the economy, conduct research to improve it and take the necessary measures. In this research paper was examined the need to develop and regulate the public procurement system of the Republic of Uzbekistan, its regulatory framework, as well as international experience in the field of public procurement, and developed scientific and practical proposals to address existing problems and shortcomings in this sphere.*

***Keywords:** public procurement, public customers, electron shop, auction, competition, tender.*

KIRISH

Davlat byudjeti davlatning markazlashtirilgan pul mablag‘lari bo‘lib, unda daromad manbalari va ulardan tushadigan tushumlar, shuningdek xarajat hajmi va yo‘nalishi o‘z aksini topadi. Davlat xarajatlarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida davlat xaridlari muhim ahamiyatga ega hamda davlatning o‘z vazifa va funksiyalarini

amalga oshirishda asosiy vositalardan hisoblanadi. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, davlat xaridlari mamlakatlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning muhim dastagi bo'lib ham xizmat qiladi.

Davlat xaridlarining amalga oshirilishi iqtisodiyotning turli sohalarida ishlab chiqarish darajasi yuksalishiga, tovar (ish, xizmat)lar sifati oshishiga, tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi raqobatni rivojlanishiga olib keladi. Ko'pchilik mamlakatlarda bo'lgani kabi respublikamizda ham davlat xaridlarini amalga oshirishning mukammal tizimini yaratish, uning huquqiy asosini shakllantirish va mustahkamlash, aniq belgilab berilgan tartib-qoidalar, mezonlar hamda tamoyillar asosida xaridlar tizimi faoliyatini tashkil etish asosiy maqsadlardan biri sanaladi. Bu o'z navbatida byudjet mablag'laridan oqilona foydalanilishiga, davlat xaridlari mexanizmining takomillashuviga olib keladi.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, davlat xaridiga oid nazariy qarashlarda "davlat buyurtmasi" "davlat xaridi"ga yaqin tushuncha sifatida qaralib, ular birga aralash holda talqin etilishini ko'rish mumkin.

Bu borada Nabiyeu va Arikbayev (2008) izlanishlari alohida e'tiborga loyiq. Ular "davlat buyurtmasi" tushunchasidan davlat mudofaasi va xavfsizligini ta'minlashda paydo bo'ladigan ehtiyojlarni, "davlat xaridi"dan esa davlatning boshqa ehtiyojlarini tushuntirishda foydalanishgan[1].

Kozin (2007) fikricha, davlat buyurtmasi nafaqat davlat ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida, balki iqtisodiyotda raqobatni rivojlantirish uchun inqiroz holatdagi tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash instrumenti sifatida ham namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari davlat buyurtmasi mamlakat inqirozga qarshi siyosatining muhim elementi bo'lib ham xizmat qilishi mumkin[2].

Xaridni tashkil etish bo'yicha jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki tovarlar va xizmatlarni yirik hajmda xarid etishning eng samarali shakli bu ochiq tanlovlar (tender) o'tkazishdir. BMT va Xalqaro savdo tashkiloti kabilar o'z a'zolariga ushbu turdagi xaridni amalga oshirishni tavsiya qiladilar.

Yevropa xarid tizimini boshqarish tamoyillari ko'pchilik mamlakatlarning qonunchiligi asoslarini tashkil etadi va xalqaro hujjatlarda, jumladan, XSTning davlat xaridi bo'yicha ko'p tomonlama shartnomalarida ham ushbu tamoyillarga amal qilish qattiq belgilab qo'yilgan.(1-rasm)


Ҳисоб беришлик - давлат ва жамоат назоратини таъминлаган ҳолда харидни ташкил этиш шартларига тўлиқ риоя этиш

Шаффофлик - харид ҳақидаги маълумотнинг очиқлиги ва уни олиш имконияти

Очиқ рақобат - дискриминацияга йўл қўймаслик

Ҳаққонийлик - хариднинг барча иштирокчилари учун тенг имкониятлар бериш

1-рasm. Yevropa xarid tizimini boshqarish tamoyillari (Burxonov va Atamuradov, 2012) [3]



2-RASM

[1] Nabiyev R.A., Arikbayev R.K. (2008) Povisheniye effektivnosti byudjetnix rasxodov sistemi gosudarstvennix zakazov i zakupok // Buxgalterskiy uchet v byudjetnix i nekommercheskix organizatsiyax.

[2] Kozin M.N. (2007) Gosudarstvenniy oboronniy zakaz: teoriya i praktika upravleniya riskami: Monografiya. Volsk: VVVUT (VI). S. 15, 16.

[3] Burxonov U., Atamuradov T. (2012) Davlat xaridi. –T.: “Fan va texnologiya”

Davlat xaridlari jarayoni belgilangan tartib va ketma-ketlikda amalga oshirilishi zarur. Har bir jarayon ma'lum bir bosqichlardan iborat bo'lib, o'zining boshlang'ich davridan toki yakuniy natijasigacha bo'lgan barcha xatti-harakatlar majmuini qamrab oladi. Mamlakatimizda davlat xaridlari jarayoni bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan 4 bosqichlardan iborat.(2-rasm)

XULOSA

- tovar (ish, xizmat)larning davlat xaridi uchun sifat nazoratini amalga oshiruvchi yangicha tizim ishlab chiqish;

- Davlat xaridlari tizimi haqida keng tushunchaga ega bo'lish uchun hamda u haqidagi ma'lumotlardan ko'pchilikni xabardor qilish maqsadida ommabop saytlarda reklamalar joylashtirish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi;
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi;
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 472-sonli qonun 2018 yil 9 aprel;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining «Davlat xaridlari to'g'risida»gi qonunini amalga oshirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-3953-sonli qarori;

SPORTCHILAR DASXATINING PSIXOLINGVISTIK HUSUSIYATLARI

Ulug‘bek Ergashov

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Farg‘ona filiali o‘qituvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada psixolingvistika - bu ilmiy fan, til va psixologiya o‘rtasidagi aloqa jarayoni. U odamlar tilni qanday egallashi, qayta ishlashi va ishlab chiqarishi, tilning kimyoviy jarayonlarga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi. Sportchilarning nutqi psixolingvistika bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Psixolingvistika, morfologiya, fonetika, sport, motivatsiya, qat’iyatlilik, taktika, texnika, mashg‘ulot, eksperimentlar, neyrofiziologik tadqiqotlar.

Аннотация: в данной статье психоллингвистика представляет собой процесс связи научной науки, языка и психологии. Он изучает, как люди приобретают, обрабатывают и производят язык, а также как язык влияет на химические процессы. Обсуждаются особенности речи спортсменов, которые могут быть связаны с психоллингвистикой.

Ключевые слова: Психоллингвистика, морфология, фонетика, спорт, мотивация, настойчивость, тактика, методика, обучение, эксперименты, нейрофизиологические исследования.

Abstract: in this article, psycholinguistics is a process of communication between scientific science, language and psychology. He studies how people acquire, process and produce language, and how language affects chemical processes. Specific characteristics of athletes’ speech that may be related to psycholinguistics are discussed.

Key words: Psycholinguistics, morphology, phonetics, sports, motivation, persistence, tactics, techniques, training, experiments, neurophysiological studies.

Psixolingvistika - bu ilmiy fan, til va psixologiya o‘rtasidagi aloqa jarayoni. U odamlar tilni qanday egallashi, qayta ishlashi va ishlab chiqarishi, tilning kimyoviy jarayonlarga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi.

Psixolingvistika tilning fonetika (tovushli til), morfologiya (soʻzlarning tuzilishi), sintaksis (old qoʻshimchalar tuzilishi), semantika (soʻz va predloglarning maʼnosi) va pragmatika (tildan foydalanish va aloqa konteksti) kabi turli jihatlarini oʻrganadi.

Psixolingvistikada oʻrganiladigan asosiy savollarga quyidagilar kiradi:

1. Odamlar bolaligida tilni qanday egallaydilar?
2. Tilni tushunish va ishlab chiqarishda qanday bilish jarayonlaridan foydalaniladi?
3. Til xatolari va til bilan bogʻliq buzilishlar asosida qanday mexanizmlar yotadi?
4. Til tuzilmalari va maʼnolari bizning fikrlashimizga va dunyoni idrok etishimizga qanday taʼsir qiladi?
5. Til muloqot qilish uchun qanday ishlatiladi va biz boshqa odamlarning xabarlarini qanday izohlaymiz?

Psixolingvistika turli metod va yondashuvlardan, jumladan, psixologik eksperimentlar, neyrofiziologik tadqiqotlar, kompyuterda modellashtirish va matn korpusini tahlil qilishdan foydalanadi. Ushbu bilim sohasi keng koʻlamli ilovalarga ega, jumladan til oʻrgatish usullarini ishlab chiqish, til buzilishlarini oʻrganish va kompyuter tillarini qayta ishlash tizimlarini ishlab chiqish.

Sportchilarning nutqi psixolingvistika bilan bogʻliq boʻlishi mumkin boʻlgan oʻziga xos xususiyatlarga ega. Mana ulardan baʼzilari:

1. Ishonch va qatʼiyatlilik: Sportchilar koʻpincha oʻzlarining motivatsiyasini saqlab qolish va musobaqa oldidan oʻzlarini safarbar qilish uchun ishonchli va baquvvat nutqdan foydalanadilar. Ular "Men buni qilaman!" kabi soʻzlarni ishlatishlari mumkin. yoki "Men gʻolibman!" ijobiy munosabatni saqlab qolish uchun.

2. Ixtisoslashgan terminologiya: Turli sport turlari oʻzlarining maxsus terminologiyasiga ega boʻlib, sportchilar oʻz harakatlari va strategiyalarini tavsiflash uchun foydalanadilar. Bu taktika, texnika, mashgʻulot va sportning boshqa jihatlarini bilan bogʻliq soʻz va iboralarni oʻz ichiga olishi mumkin.

3. Motivatsion iboralar: Sportchilar diqqatini jamlash va motivatsiya qilish uchun motivatsion iboralardan foydalanadilar. Ushbu iboralar oʻzingizni yoki jamoadoshlaringizni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan boʻlishi mumkin. Masalan, "Taslim boʻlmang!" yoki "Biz buni qila olamiz!".

4. Ritm va intonatsiya: Baʼzi sport turlarida, masalan, boks yoki tennisda, sportchilarning nutqi ritmik va intonatsion jihatdan ifodali boʻlishi mumkin. Bu ularga energiya va his-tuygʻularini taʼkidlashga yordam beradi, shuningdek, nafas olish va harakatlar ritmini nazorat qiladi.

5. Murabbiylar va hamkorlar bilan muloqot: Sportchilar mashgʻulotlar va musobaqalar davomida oʻz murabbiylari va hamkorlari bilan tez-tez muloqot qilishadi.

Ushbu muloqot strategiyalarni muhokama qilishga, xatolarni tuzatishga yoki oddiygina bir-birini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lishi mumkin.

6. Suhbatga tayyorgarlik: Professional sportchilar ko'pincha musobaqalardan so'ng intervyu berish zarurligiga duch kelishadi. Ular ommaviy nutq texnikasi bo'yicha o'qitilishi va ma'lumotni etkazish va hissiy holatini nazorat qilish uchun maxsus usullardan foydalanishi mumkin.

Umuman olganda, sportchilar nutqida ularning psixologik holati, motivatsiyasi va strategiyasi aks etadi. Ular o'z fikrlari va his-tuyg'ularini iloji boricha samarali ifodalash, o'zlarini va jamoadoshlarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus til usullaridan foydalanadilar. Psixolingvistika sportchi uchun bir nechta ma'noga ega bo'lishi mumkin. Mana ulardan ba'zilari:

1. Muloqot: Psixolingvistika odamlarning nutqni qanday tushunishi va ishlab chiqarishini o'rganadi. Bu sportchiga murabbiylar, jamoadoshlar va hakamlar bilan muloqot qilishda yordam berishi mumkin. Odamlar ma'lumotni qanday talqin qilishlari va qayta ishlashlarini tushunish sportchiga muloqotda yanada aniq va samarali bo'lishiga yordam beradi.

2. Motivatsiya va konsentratsiya: Psixolingvistika so'zlar va til bizning fikrlarimiz, his-tuyg'ularimiz va xatti-harakatlarimizga qanday ta'sir qilishini ham o'rganadi. Sportchi ushbu ma'lumotlardan o'z motivatsiyasi va konsentratsiyasini boshqarish uchun foydalanishi mumkin. Misol uchun, musobaqadan oldin tasdiqlovchi bayonotlar yoki ijobiy tasdiqlardan foydalanish sportchiga yuqori motivatsiya va diqqatni jamlashga yordam beradi.

3. O'z-o'zini tartibga solish: Psixolingvistika, shuningdek, fikr va his-tuyg'ularimizni o'z-o'zini tartibga solish va nazorat qilish uchun tildan qanday foydalanishimizni o'rganadi. Sportchi ushbu ma'lumotlardan o'zini-o'zi tartibga solish strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanishi mumkin, masalan, ijobiy o'z-o'zini yo'naltirish yoki salbiy fikrlarni qayta ko'rib chiqish, musobaqa paytida ruhiy barqarorlik va hissiy farovonlikni saqlash.

4. Jamoa bilan ishlash: Psixolingvistika sportchiga boshqa jamoa a'zolarining tili va muloqotini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu yanada samarali jamoaviy ish, yaxshilangan muloqot va mojarolarni kamaytirishga yordam beradi.

Umuman olganda, psixolingvistika sportchiga aqliy tayyorgarligini, motivatsiyasini, konsentratsiyasini va jamoaviy ishini yaxshilash uchun til va muloqotni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. O'z fikrlaringizni tahlil qiling va tushuning: Sportchilar o'zlarining fikrlari va e'tiqodlarini tahlil qilish uchun psixolingvistik usullardan foydalanishlari mumkin, bu ularning sport natijalariga ta'sir qilishi mumkin. Bu salbiy fikrlash shakllarini aniqlashga va ularni ijobiy yoki konstruktiv narsalar bilan almashtirishga yordam beradi. Strategiyalar va taktikalarni

boshqarish: Psixolingvistik tadqiqotlar sportchilarga tilning qaror qabul qilish, rejalashtirish va musobaqa paytida strategiya va taktikalarni amalga oshirishga qanday ta'sir qilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu murabbiy yoki jamoadoshlar bilan samarali muloqot strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi. Motivatsiya va o'z-o'zini tartibga solish: Psixolingvistika sportchiga motivatsiyasini boshqarish, o'zini o'zi boshqarish va maqsadlarga erishish uchun vositalarni taklif qilishi mumkin. Aniq maqsadlar, harakat rejalari va motivatsion bayonotlarni shakllantirish uchun tildan foydalanish sportchiga diqqatini jamlashda va muvaffaqiyatga erishishda qat'iyatli bo'lishga yordam beradi. Bular sportchi uchun psixolingvistikaning ahamiyati haqidagi bir nechta xulosalar. Umuman olganda, psixolingvistika aloqa, fikrlash, motivatsiya va o'z-o'zini tartibga solishni yaxshilashda foydali bo'lishi mumkin, bu esa pirovardida sport samaradorligini oshirishi mumkin.

ADABIYOTLAR.

1. Axmanova O.S. Lingvistik atamalar lug'ati. M., "Boyqushlar. Entsiklopediya", 1966yil.
2. Zalevskaya A.A. Inson tili mexanizmining ishlash qonuniyatlarini o'rganishga integratsiyalashgan yondashuv to'g'risida // Psixolingvistika uchun masofaviy o'qitish serveri www.csa.ru
3. Leontiev A.A. Psixolingvistika asoslari. M.: "Sensiz", 1999 yil.
4. Mirzayeva, D., & Ergashov, U. B. (2023). DASTXAT MATN SIFATIDA. *Бюллетень студентов нового Узбекистана*, 1(5 Part 2), 60-62.
5. Ergashev, U. B. (2023). SPORTCHILAR FAOLIYATI DAVOMIDA XORIJIY TILLARNING O'RNINI VA AHAMIYATI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(11), 387-390.
6. Ulug'bek, E. (2023). DASTXAT MATNLARIDA MUHOJAT SHAKLLARINING QO'LLANISHI. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 15, 453-459.
7. Nurmatova, M., Ergashov, U. B., & Ergasheva, S. (2023). PRAGMALINGVISTIKANING SHAKLLANISHI VA O'RGANILISHI. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 1(5 Part 2), 23-24.
8. Usmonova, D., & Ergashov, U. B. (2023). DASTXAT MATNLARINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI. *Наука и инновация*, 1(7), 18-20.
9. Ergashov, U., & Rahimov, Z. (2023, May). SIGNATURE AND ITS RELATIONSHIP TO SPEECH STYLES. In *International Conference on Business Management and Humanities* (Vol. 1, No. 1, pp. 68-69).

BALKA EGILISHIDAGI DEFORMATSIYA

Zokirova Dilorom Axmedovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti “Mexanika asoslari”
kafedrası katta o‘qituvchisi.

d.zokirova@inbox.ru

Annotatsiya: WP-950 qurilma uskunasida egiluvchi to‘g‘ri balkalarning deformatsiyasiga doir bir qancha tajribalar o‘tkazishga imkon beradi. Ushbu maqolada materiallar qarshiligi fanida WP-950 sinov uskunasida markaziy kuch ta‘siridagi elastik chiziq tajriba yordamida ikki tayanchdagi balkada elastik chizig‘i o‘lchanadi va matematik hisoblangan natijalar bilan taqqoslanadi.

Kalit so‘zlar: egiluvchi, balka, deformatsiya, markaziy kuch, elastik chiziq, tayanch, elastik egilish, doiraviy shkala, o‘lchov asbob, tayanch reaksiyalar, elastiklik moduli, kuch.

ДЕФОРМАЦИЯ БАЛКИ ПРИ ИЗГИБЕ

Закирова Дилором Ахмедовна

Бухарский-инженерно технологический институт
старший преподаватель ”Основы механика”

d.zokirova@inbox.ru

Аннотация: Прибор WP-950 позволяет провести ряд экспериментов по деформированию изгибаемых прямых балок. В данной работе в науке о сопротивлении материалов упругая линия под действие центральной силы в испытательном оборудовании WP-950 используется для определять линию упругости балки на двух опорах, измеряют её и сравнивают с математически рассчитанными результатами.


Ключевые слова: изгиб, балка, деформация, центральная сила, упругая линия, опора, упругий изгиб, круговая шкала, измерительный прибор, базовые реакции, модуль упругости, усилие.

Balkaning deformatsiyasining turi, unda egivchi momenti paydo bo‘lganda, egilish deformatsiyasi hisoblanadi. Ko‘pincha, egivchi moment bilan birga, ko‘ndalang kuchlar ham paydo bo‘ladi va keyingi egilish ko‘ndalang egilish deb ataladi. Faqat balkaga egivchi moment ta‘sirida balkada sof egilish deformatsiyasi

haqida gapiriladi. To'g'ri balkaning deformatsiyasi bo'ylama simmetriya o'qi tekisligida, shu simmetriya o'qiga perpendikulyar bo'lgan yuklar va bir xil tekisliklarda yotadigan juft kuchlar ta'sirida sodir bo'ladi. Agar barcha yuklar bir tekislikda harakat qilsa, tekis egilish deb ataladi. Balkaning simmetriya o'qi va uning markaziy simmetriya o'qlaridan biri orqali o'tadigan tekislik balkaning asosiy tekisligi deb ataladi. Agar yuklar ta'sirining kuch tekisligi balkaning asosiy tekisliklaridan biriga to'g'ri kelsa, bunday deformatsiya balkaning to'g'ridan-to'g'ri egilish hisoblanib, bu tekisliklarning kesishish chizig'i kuch chizig'i deyiladi.(1-rasm)

WP 950 qurilmasida uskunasi egilishdagi to'g'ri balkalarning deformatsiyasiga doir bir qancha tajribalar o'tkazishga imkon beradi. Tajribalarda quyidagilar qaraladi:


- Turil chegaraviy shartlarda elastik egilish
- Turli kuchlar ta'sirida elastik egilish



Kuchlar vizual tarzda yuklar to'plamidan foydalangan holda qo'yiladi.




Balkaning deformatsiyasi doiraviy shkalali o'lchov asboblari yordamida o'lchanadi



Turli materiallardan yasalgan balkalar elastiklik modulining egilishga ta'sirini o'rganish imkonini beradi.

1-rasm

Uskunaning tasnifi



2-Rasm.

Ushbu uskuna yengil, mustahkam qilib yasalgan alyuminiy rama (1), ramaning pastki qismiga qisqichlar yordamida mahkamlangan (2,3) tayanchlar va ramaning yuqori qismiga mahkamlangan (4) o'lchov asboblardan iborat. (5) yuklar (6) harakatlanuvchi polzunlar orqali (7) balkaga qo'yilgan. Polzunlarni qo'yilgan nuqtasiga qo'zg'almas qilib o'rnatish ham mumkin. Polzun va tutqichning birgalikdagi og'irligi 2,5N. Kuchning qiymatini 2,5 N va 5 N qiymatda yuklar yordamida o'zgartirish mumkin.

Sharnirli (2) tayanchlarga (8) dinamometrlar o'rnatilgan. Tayanchning balandligi rezbali shpindel (9) bilan o'zgartirilishi mumkin. Tayanch (10) vint bilan qimirlamaydigan qilib mahkamlanishi mumkin. Bu balkaning xususiy og'irligi ta'sirida egilishi va dinamometr prujinasi siljishi natijasida tayanch og'ishining oldini oladi.

Juda yupqa elastik balkalardan foydalangan holda balkaning tashqi kuch tasirida balka deformatsiyalanishini o'lchov asbobsiz ham ko'rish mumkin. Shunga ko'ra uskuna amaliy eksperimentlarga mo'ljallanmagan, ammo sinf xonasida tajribalarni namoyish qilish uchun juda qulay. o'qish mumkin. Dinamometrlar katta, aniq shkalalarga ega va ularni ma'lum masofalardan o'qish mumkin.

Quyida WP-950 uskunasi yordamida ba'zi tajribalarni otkazish tartibi keltirilgan. Ular bu uskuna yordamida bajarish mumkin bo'lgan tajribalarning kam sonini tashkil etadi va boshqa tajribalar uchun asos bo'ladi.

Kuch qo'yilgan nuqtaning ko'chishi. Bu tajribadan maqsad konsol balkaning matematik usul bilan aniqlangan egilishda ko'chishni tekshirishdir.



3-rasm

Konsol balka statik aniq holatda. Kuch qo'yilgan nuqtadagi f ko'chish quyidagicha aniqlanadi

$$f = \frac{F \cdot L^3}{3EI_y}$$

Tajriba o'tkaziluvchi balka po'latdan yasalgan (elastiklik moduli $E = 210000 \text{ N/mm}^2$) ko'ndalang kesimining o'lchamlari $20 \times 6 \text{ mm}^2$. Bundan I_y inersiya momenti $I_y = \frac{bh^3}{12} = \frac{20 \cdot 6^3}{12} = 360 \text{ mm}^3$. Yuqoridagi qiymatlar va kuchning 17,5 N (tutqich 2,5 N+5N li 3 ta yuk) qiymatida ko'chish uchun quyidagi natijalar olindi:

1-jadval

| Konsol balkaning uzunlikka bog‘liq ko‘chishi | |
|--|------------------|
| L uzunlik mm da | Ko‘chish f mm da |
| 300 | 2.08 |
| 400 | 4.94 |
| 500 | 9.64 |

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. D.A.Zokirova To‘g‘ri balkaning deformatsiyalanishi. Uchyoniy 21 veka.Nauchniy jurnal №3.2023.17-23 bet.
2. D.A.Zokirova Issledovaniya razlichnix sluchaev izgiba balki pod destviem prodolnoy sili. Uchyoniy 21 veka.Nauchniy jurnal №32023.24-28 bet.
3. З.С.Вафаева.Ш.ХБехбудов.Ш.Х.Н.У.СамадоваОпределение плотности и натяжения нити при намотке и размотке челночной нити на шпуле. <https://infourok.ru/opredelenie-plotnosti-i-natyazheniya-niti-pri-namotke-i-razmotke-chelnoknoj-niti-na-shpule-7008347.html>

ELASTIK SISTEMALARDAGI KO'CHISHLARNI ANIQLASH

Muzafarova Nilufar Gapurovna


nmgmuzafarova@mail.ru

Annotatsiya: Konstruksiya inshoot qismlarida tashqi kuchlar ta'sidagi deformatsiyalar (ko'chishlar va ularni belgilash, birlik ko'chishlar, tashqi kuchlarning bajargan ishi, juft kuchning ishi, ichki kuchlarning ishi, bo'ylama kuchning ishi, eguvchi momentning ishi, ko'ndalang kuchning ishi) kabi tushunchalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Potentsial energiya, ko'chish, kuch, moment, epyura, ferma, arka, balka, rama, formula, o'q, proektsiya, ish, birlik kuch, ustun.

Tashqi kuchlar, temperatura o'zgarishi yoki tayanchlarning qo'zg'alishi ta'sirida inshoot elementlarining geometrik o'lchamlari o'zgaradi va bu o'zgarish **deformatsiya** deyiladi. Inshoot deformatsiyalanganda uning deyarli hamma nuqtalari o'zining koordinatalarini o'zgartirib, yangi vaziyatni oladi.


Deformatsiya natijasida inshoot nuqtalarining berilgan holatdan yangi holatga o'tishi **ko'chish** deyiladi. Masalan, rasmda ko'rsatilgan siniq sterjen tashqi kuchlar (yuklar) ta'sirida deformatsiyalanib, yangi holatni egallaydi. O'ng tayanch **B** holatdan **B₁** holatga ko'chsin. Bu **BB₁** ko'chish gorizontol ko'chish deyiladi. **A** kesim biror burchakka buriladi, **C** va **D** tugunlar ham gorizontol ko'chish bilan birga biror burchakka buriladi. Inshoot nuqtalarining ko'chishlari va kesimlarning burilish burchagini Δ_{ik} bilan belgilaymiz. Birinchi indeks kesim ko'chishining yo'nalishini, ikkinchi indeks esa bu ko'chishning hosil bo'lish sababini ko'rsatadi. Masalan, rasmda ko'rsatilgan sxemada bir necha nuqtalarning ko'chishlarini belgilaymiz: Δ_{ik-B} kesimning-1-1 yo'nalishi bo'yicha tashqi (**P** va **q**) kuchlar ta'sirida ko'chishi; Δ_{2k-D} tugunning gorizontol 2-2 yo'nalish bo'yicha tashqi (**P** va **q**) kuchlar ta'sirida ko'chishi; Δ_{3k-A} kesimning 3-3 yo'nalish bo'yicha **P** va **q** kuchlar ta'siridan ko'chishi; Δ_{4k-C} tugunning 4-4 yo'nalish bo'yicha **P** va **q** kuchlar vujudga keltirgan burilish burchagi.



Deformatsiyalanuvchi sistemalar quyidagi xususiyatlarga ega deb qabul qilinadi: 1) sistemaning materiali ideal elastik va chiziqli deformatsiyalanuvchi; 2) yuklar ta'sirida sistemaning asosiy o'lchamlari deyarli o'zgarmaydi; 3) kuchlar ta'siri mustaqillik printsipligiga bo'ysunadi; 4) materialning istalgan nuqtasidagi kuchlanish proportsionallik chegarasidan oshmaydi.

Birlik kuch ($R = I$) ta'siridan vujudga kelgan ko'chishni δ_{ik} bilan belgilaymiz va u **birlik ko'chish** deb ataladi.

Rasmda birlik kuch ta'sirida vujudga kelgan birlik ko'chishlar ko'rsatilgan: δ_{11} -birlik P_1 kuch yo'nalishi bo'yicha $P_1=1$ ta'siridan hosil bo'lgan ko'chish; δ_{21} - ikkinchi birlik kuch yo'nalishi bo'yicha $P_2=1$ ta'siridan vujudga kelgan ko'chish; δ_{31} - uchinchi birlik kuch yo'nalishi bo'yicha $P_1=1$ ta'siridan vujudga kelgan ko'chish.



Kuchlar ta'sirining mustaqillik printsipiga asosan $P_1, P_2, P_3 \dots P_n$ kuchlardan biror i yo'nalish bo'yicha hosil bo'lgan to'la ko'chish Δ_{ip} har bir kuch ta'siridan shu yo'nalish bo'yicha alohida aniqlangan ko'chishlarning yig'indisiga teng:

$$\Delta_{ip} = \delta_{i1}P_1 + \delta_{i2}P_2 + \dots + \delta_{in}P_n = \sum_{K=1}^n \delta_{iK}P_K$$

Bu formulada to'la ko'chish tashqi kuchlarga nisbatan chiziqli funktsiyadir.

Tashqi kuchlarning bajargan ishi. Agar elastik sistemaga qo'yilgan kuchlar noldan boshlab asta-sekin, bir me'yorda ortib borsa, bunday kuchlar statik qo'yilgan kuchlar deyiladi. Bu tarzda qo'yiladigan kuchlar miqdorining asta-sekin ortishi natijasida elastik inshoot qismlarida hosil bo'ladigan deformatsiyaning o'sish tezligi juda kichik bo'ladi. Shuning uchun inshootning harakatlanayotgan massalarida hosil bo'ladigan inertiya kuchlarini hisobga olmasa ham bo'ladi. Bu shartga ko'ra, deformatsiya-lanish jarayonida tashqi kuchlar bilan ichki elastik zo'riqishlar ora-sida doim muvozanat saqlanadi.

Rasmda tasvirlangan sistema statik qo'yilgan P_i kuchning ta'sirida deformatsiyalanadi. Elastik sistemada har qanday nuqtalarning ko'chishi (Guk qonuniga asosan) uni hosil qiluvchi tashqi kuch miqdoriga to'g'ri proporsionaldir:


$$\Delta_{ip} = \alpha P_i$$

bunda Δ_{ip} - kuch P_i dan shu kuch yo'nalishi bo'yicha hosil bo'lgan ko'chish. Bu ko'chish haqiqiy ko'chish deyiladi. α - inshoot elementlari o'lchamlariga va uning materialiga bog'liq bo'lgan koeffitsient.

Agar tashqi P kuch miqdoriga cheksiz kichik dP_i ; orttirma berilsa, kuch qo'yilgan nuqta qo'shimcha $d\Delta_{ip}$ miqdorga ko'chadi va $P_i + dP_i$ kuch o'zi qo'yilgan nuqta bilan shu miqdorga siljib ish bajaradi. Bu kuchning $d\Delta_{ip}$ ko'chishda bajargan elementar ishi:

$$dA = (P_i + dP_i)d\Delta_{ip} = P_i d\Delta_{ip} + dP_i d\Delta_{ip}$$

Bu ifodada $dP_i d\Delta_{ip}$ ikkinchi tartibli cheksiz kichik miqdor bo'lgani uchun uni e'tiborga olmasa ham bo'ladi. U holda:



$$dA = P_i d\Delta_{ip} = \alpha P_i d\Delta_{ip}$$

Bu ifodani integrallab, statik qo'yilgan P_i kuchning to'la bajargan ishi miqdorini aniqlaymiz:

$$A = \alpha \int_0^{P_i} P_i dP_i = \frac{\alpha P_i^2}{2} = \frac{P_i \Delta_{ip}}{2}$$

A - tashqi kuchning haqiqiy bajargan ishi deb ataladi. Shunday qilib, tashqi kuchning haqiqiy bajargan ishi shu kuchni, uning yo'nalishi bo'yicha hosil bo'lgan ko'chish miqdoriga ko'paytmasining yarmiga teng.

Agar sistemaga moment M ga teng bo'lgan juft kuch statik ravishda qo'yilgan bo'lsa, uning bajargan haqiqiy ishi yuqorida bayon etilgan mulohazaga asosan aniqlanadi.

$$A = \frac{M\varphi}{2}$$

bunda φ - juft kuch qo'yilgan ko'ndalang kesimning burilish burchagi.

Ish tushunchasini umumlashtirish uchun elastik sistemaga qo'yilgan har qanday kuch faktorlarini (P , M va hokazo) umumlashtirilgan kuch deb qaraymiz. Elastik sistemaning deformatsiyalangan holatini to'la aniqlaydigan va o'zaro bog'liq bo'lmagan ko'chishlar umumlashtirilgan ko'chishlar deb ataladi.

Umumlashtirilgan ko'chishlar umumlashtirilgan kuchlarga mos bo'lishi kerak, ya'ni ularning ko'paytmasining yarmi umumlashtirilgan kuch bajargan ishini berishi lozim. Shunga ko'ra, umumlashtirilgan kuch P_i ga umumlashtirilgan koordinata Δ_{ip} va umumlashtirilgan juft kuch momenti M_i qo'yilgan bo'lsa, unga mos kelgan

umumlashtirilgan koordinata φ_i bo'ladi. Bundan keyin umumlashtirilgan kuchlarni P_i , umumlashtirilgan koordinatalarni φ deb belgilaymiz.

Agar inshootga statik umumlashtirilgan kuchlar gruppasi qo'yilgan bo'lsa, u holda uning bajargan to'la ishi har bir umumlashtirilgan kuchning o'ziga mos kelgan umumlashtirilgan ko'chishida bajargan ishlar yig'indisiga teng bo'ladi:

$$A = \frac{P_1\Delta_{1p}}{2} + \frac{P_2\Delta_{2p}}{2} + \dots + \frac{P_5\Delta_{5p}}{2}, \quad A = \sum_{i=1}^n \frac{P_i\Delta_{ip}}{2}$$

Demak, elastik sistemaga statik qo'yilgan tashqi kuchlar o'z yo'nalishlari bo'yicha shu kuchlardan hosil bo'lgan ko'chishlarda ifoda bilan aniqlanadigan ish bajaradi. Bu ish tashqi kuchlarning bajargan haqiqiy ishi deb atalib, ko'chishlar yo'nalishi ularni vu-judga keltiruvchi kuchlar yo'nalishiga mos kelgani uchun hamma vaqt musbat ishorali bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurashidov K.S. va boshqalar. «Qurilish mexanikasi». Toshkent «O'zbekiston», 1999 yil.

2. I.C.A. Бурунов. Методические советы по разложению функций многих переменных в ряд тейлора. <https://cyberleninka.ru/article/n/metodicheskie-sovety-po-razlozhenie-funktsiy-mnogih-peremennyh-v-ryad-teylora/viewer0842,2022>

3. Muzafarova N.G. "Theoretical preconditions for determining the utilization coefficient of shift time when using planning machines" participated in the VIII International Conference "AGRITECH-VIII-2023: Advanced Agritechnologies, Environmental Engineering and Sustainable Development" | Krasnoyarsk, Russia, 29-31 March 2023. https://www.e3sconferences.org/articles/e3sconf/abs/2023/27/contents/contents.html#section_10.1051/e3sconf/202339001001

4. З.С.Вафаева. Ш.ХБехбудов. Ш.Х.Н.У.Самадова Определение плотности и натяжения нити при намотке и размотке челночной нити на шпуле. <https://infourok.ru/opredelenie-plotnosti-i-natyazheniya-niti-pri-namotke-i-razmotke-chelnoknoj-niti-na-shpule-7008347.html>

MATERIALLARNI KORROZIYAGA TEKSHIRISHDA XAVFSIZLIK OLDINI OLISH

S.A.Bo‘ronov

Buxoro muhandislik texnologiya instituti katta o‘qituvchisi

A.X.Fayziyev

Buxoro muhandislik texnologiya instituti o‘qituvchi stajyor

N. S. Jumayeva

Buxoro viloyati hududiy boshqarmasi

Jondor tuman 2-son kasb-hunar maktabi o‘qituvchisi

Annnotatsiya: *Elektr tokining hosil bo'lishi bilan birga bo'lmagan tashqi muhit ta'sirida metallni yo'q qilish jarayoni. Uning turi, gaz korroziyasi, yuqori haroratdagi gazlarning metall bilan o'zaro ta'siri jarayonidir. Ushbu o'zaro ta'sir bilan oksid plyonkasi hosil bo'ladi, u temir ustida bo'shashadi, osongina sakrab tushadi va vayronagarchilikdan himoya qilmaydi.*

Kalit so'zlar: *metall korroziyasi, anod, qoldiq xizmat muddati, korroziyadan himoya qilish.*

Аннотация: *Процесс разрушения металла под действием внешней среды, не сопровождаемая образованием электрического тока. Ее разновидность газовая коррозия, представляет собой процесс взаимодействия газов при высокой температуре с металлом. При таком взаимодействии образуется оксидная пленка, на железе она рыхлая, легко отскакивает и не защищает от разрушения.*

Ключевые слова: *коррозия металлов, anod, остаточный ресурс, защита от коррозии.*

Korroziya atrof-muhit ta'sirida materiallarning asta-sekin yo'q qilinishini anglatadi. Ko'p hollarda biz metallar haqida gapiramiz. Ko'pincha korroziya noto'g'ri ishlashga va hatto metall komponentlarning ishdan chiqishiga olib keladi. Korroziya har yili katta iqtisodiy zararga olib keladi. Korroziya elementlari mahalliy elementlar deb ham ataladi. Ular o'zaro bog'liq metallarni elektrolit bilan namlashda paydo bo'ladi. Mahalliy element, shuningdek, turli xil potentsiallarga ega bo'lgan bitta materialning sirtlarini hosil qilishi mumkin. Faolroq material anod, kamroq faol-katod.

Ikki juft va elektrolit o'rtasidagi elektr o'tkazuvchan aloqa tufayli elektrodning hech birida muvozanat bo'lmashligi mumkin vujudga kelish. Kuchli anod reaksiyasi anodning asta-sekin eskirishiga olib keladi. Anod qisman oqimi qanchalik yuqori bo'lsa, anod tezroq eskiradi.

Metall ionlarini katoddan ajratib bo'lmaydi, chunki elektrolit odatda ionlarni kamroq ushlab turmaydi faol metall. Katodning qo'shimcha korroziya reaksiyasi qaytish reaksiyasidir, elektronlar katoddan elektrolitga o'tadi.

Namunalarga gazlar bilan ta'sir qilish imkoniyati ham mavjud. Oqim manbai namunalarga elektr kuchlanishini ham ta'minlaydi.


Tajribalar uchun quyidagi materiallarning namunalari qo'llaniladi: strukturaviy po'lat, qotishma po'lat-mis, guruch-aluminiy, shisha.

Korroziyadan himoya qilish usullari.

- anodning yo'q qilinishi sababli anodli korroziyadan himoya qilish.

- tashqi elektr kuchlanishidan foydalangan holda katodli korroziyadan himoya qilish.

Ta'riflangan mashg'ulotlar materiallar kimyosi va kimyoning boshqa bo'limlari bo'yicha mashg'ulotlar paytida o'tkazilishi mumkin.




Qurilmani yaratishning maqsadi korroziya jarayonini va uning metall materiallarga ta'sirini namoyish etishdir. Korroziyaga uchragan namunalarning turli metallardan yasalgan chiziqlardir.

Material joylashgan muhit sharoitlari korroziya jarayoni uchun muhimdir. Namunalarni turli muhitlarga botirish uchun sakkizta bir xil kolbalar kerak bo'ladi. Ular turli xil tarkibdagi suyuqliklar yoki eritmalar bilan to'ldiriladi, ular ichiga materiallar namunalari joylashtiriladi.

Kolbalar, shuningdek, materiallarga ta'sirini o'rganish uchun siqilgan havo yoki boshqa gazlar bilan to'ldirilishi mumkin. Elektr tokining individual namunalarga ta'sirini o'rganish uchun ularga elektr manbasidan kuchlanish berilishi mumkin. Stolga joylashtirilgan o'rnatish dizayni uning old panelida barcha boshqaruv moslamalarining

mavjudligini ta'minlaydi. Kolbalar qurilmaning old paneli oldida laganda ustiga qo'yiladi. Sirpanishning oldini olish uchun ular plastik doiralar bilan o'rnatiladi.



Har bir kolbaning yuqori qismida havo yoki gaz bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan plastik naychalar mavjud. Ushbu quvurlarning har birida gazning suyuqlikka bir tekis oqishini ta'minlaydigan buzadigan amallar krani mavjud. Korroziya jarayonini o'rganish uchun kolbaga havo yoki gaz yuborilishi mumkin. Havo yoki gaz oqimi shlanglar (4) orqali ta'minlanadi, ular har bir kolbada mavjud bo'lgan gaz quvurlariga osongina ulanadi.

Ta'minlash uchun ikkita usul mavjud.

Old paneldagi korpus ichida joylashgan havo pompasi yordamida amalga oshiriladi. Agar havo pompasi ishlayotgan bo'lsa, quyidagilar uchun tajriba boshqa tashqi gazlar talab qilinmaydi.

Harakatlar tartibi.

Kolbalarga etkazib beriladigan havo miqdorini tartibga soluvchi klapanlarni (5) yoping. Keyin nasos yopiq tizimga qarshi ishlamasligi uchun klapanlardan birini oching.

- * Kolbalarni havo manbasiga to'g'rilang.
- * O'chirish valfini (8) o'chirish holatiga o'tkazing.
- * Havo nasosining (2) havo yoqgichini yoqing.
- * Har bir kolbadagi havo oqimini nazorat qilish uchun nazorat klapanlaridan (5) foydalaning. Tashqi gaz tashqi gaz manbasini ulash kerak. U portda (7) talaba joylashgan tomonda joylashgan.

Tizim ishlayotganda siz quyidagi bosim chegaralariga rioya qilishingiz kerak:

min. 0.2 bar.

maks. 1 bar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. D.A.Zokirova Issledovaniya razlichnix sluchaev izgiba balki pod destviem prodolnoy sili. Uchyoniy 21 veka.Nauchniy jurnal №32023.24-28 bet.
- 2.С.А. Буронов.Методические советы по разложение функций многих переменных в ряд тейлора. <https://cyberleninka.ru/article/n/metodicheskie-sovety-po-razlozhenie-funktsiy-mnogih-peremennyh-v-ryad-teylora/viewer0842,2022>.
3. С.А. Буронов.Монотон Функциялар мавзусини ўтишда илғор педагогик технологияларни қўллаш.
<https://cyberleninka.ru/article/n/monoton-funktsiyalar-mavzusini-tishda-il-or-pedagogik-tehnologiyalarni-llash-a-ida/viewer>
4. Muzafarova N.G. “Theoretical preconditions for determining the utilization coefficient of shift time when using planning machines” participated in the VIII International Conference "AGRITECH-VIII-2023: Advanced Agritechnologies, Environmental Engineering and Sustainable Development" | Krasnoyarsk,Russia, 29-31March2023.https://www.e3sconferences.org/articles/e3sconf/abs/2023/27/contents/contents.html#section_10.1051/e3sconf/202339001001

SO‘Z BIRIKMASINING SINTAKTIK BOG‘LANISH DARAJASIGA KO‘RA TURLARI

Mahfuza Arabboyeva Akramjonovna

Andijon davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

Tursunaliyeva Maxsunaxon Dilmurod qizi

Andijon davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 304-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamonaviy ona tili darsliklarida sintaksis bo‘limining asosi hisoblangan so‘z birikmalarining bog‘lanishiga ko‘ra turlari atroflicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: So‘z birikmasi, sintaksis, boshqaruv, bitishuv, moslashuv.

Abstract: In this article, the types of word combinations according to their connections, which are considered the basis of the syntax section in the current modern mother tongue textbooks, are detailed.

Key words: Syntax, syntax, control, connection, adaptation.

So‘z birimlari haqidagi bilim sintaktik ta‘limning tarkibiy qismlaridan biridir. So‘z birikmasi so‘zlarining ma‘lum bir mantiqiy va grammatik qoidalar asosida birikishidan hosil bo‘ladigan erkin sintaktik butunlik hisoblanadi. Biror so‘z turkumiga oid birdan ortiq so‘zlarning sistemantik va grammatik jihatdan o‘zaro birikuvchi so‘z birikmalarini yuzaga keltiradi: *tong shabodasi, chiroyli shahar, astoydil o‘qish* kabi. So‘z birikmasida ayrim tushunchalarni ifoda qiluvchi so‘zlar o‘zaro sintaktik munosabatga kirishi, murakkab tushunchani anglatadi.¹

Demak, so‘zlarning sintaktik munosabatiga kirishuvi uchun ichki ma‘no mosligi hamda tashqi grammatik moslik va ularning uyg‘unligi talab qilinadi: *qorning sovuqligi, vatanni sevmok, piyoda yurmoq* kabi. So‘z birikmasining ma‘nosi uning tashkil etgan komponentlar ma‘nosidan kelib chiqadi: *katta bino, bizning vazifamiz, yaxshi odam*. So‘z birikmasi tuzish uchun so‘zlar zarur bo‘lsa, gap hosil qilish uchun so‘z birikmalari shunchalik zarurdir.

1M.Omilxonova. Maktabda ona tili sintaksisini o‘rgatish. T.:O‘qituvchi,¹

So‘z birikmasi ikki komponent (qism)dan tashkil topadi: *hokim komponent* va *tobe komponent*.¹ So‘z birikmasi tarkibida ma’nosi ravshanlashgan qism (so‘z) hokim komponent, uning ma’nosini aniqlab, to‘ldirib kelgan qism (so‘z) tobe komponent hisoblanadi. So‘roq hamma vaqt hokim komponentidan tobe komponentga berilishi shart. Tobe komponenti hokim so‘zidan berilgan so‘roqqa javob bo‘ladi: *rangli televizor (qanday televizor? - rangli)* Maktab darsliklarida so‘z birikmasining hokim komponenti bosh so‘z, tobe komponenti esa ergash so‘z terminlari bilan ham izohlanadi. (O‘zbek tili darsligi, 7-8 «Toshkent» 1981 yil, 13 beti)²

Sintaktik funksiyasi va sintaktik aloqalarining darajasiga ko‘ra so‘z birikmalari, erkin va sintaktik funktsiyasi jihatidan ajralmas bo‘ladi. Erkin so‘z birikmasi tarkibiga kirishish hamda ma’lum bir gap bo‘lgan vazifasini bajarish mumkin: o‘tmas pichoq qo‘l kesar, chin do‘st yurakdan gapiradi. Bu sintaktik konstruksiyalarida «*o‘tmas pichoq qo‘l kesar*», «*Chin do‘st yurakdan gapiradi*» birikmalar tarkibidagi har bir so‘z gapning alohida mustaqil bo‘laklari vazifasida kela oladi. Biroq ayrim gaplarda so‘zlar birikmasi ajralmas bo‘lak funksiyasida ham kelish mumkin. Sintaktik funktsiya jihatida ajralmas so‘z birikmasi bir tomonlama qaraganda frazeologik birikmalarga o‘xshab ketadi. Frazeologik birikmalar ham gapda bir bo‘lak funksiyasini bajaradi. Ammo bu hollarda frazeologik birikma bilan ajralmas gap bo‘lagi funksiyasida keluvchi so‘z 12 birikmalarini bir hodisa deb qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki frazeologik birikmalar leksik holda, ya’ni u til birligidir – u tilda tayyor holda mavjud, so‘z birikmasi esa sintaktik hodisa bo‘lib, u nutq birligidir: Otabek uyaluv aralash Qutidorga qaradi (Qodiriy). U besh yil o‘qidi. Konstruksiyalarda «*uyaluv aralash, «besh yil»* soz birikmalari ajralmas holda bir bo‘lak funksiyasini (ravish holi va payt hol‘i) bajaradi va shu o‘rinda boshqa bir so‘z birikmasining bir komponenti bo‘lib qolishi mumkin. «*Uyaluv aralash qaradi*» yoki «*besh yil o‘qidi*» kabi. Bunday paytlarda bir butun so‘z birikmasi tobe komponent hisoblanadi. Demak, so‘z birikmasi sintaktik so‘z birikmasi jihatidan gap bo‘lagiga teng bo‘lishi yoki teng kelmasligi mumkin. So‘z birikmasi, qo‘shma so‘z, turg‘un birikmalar hamda gapdan bir qator belgilari bilan farq qiladi. So‘z leksik hodisa bo‘lib, u til birligi hisoblanadi, so‘z birikmasi esa sintaktik hodisa bo‘lib, nutq birliklaridan biriga kiradi. So‘z predmet, belgi ish-harakatining o‘zigina ifodalash uchun xizmat qilsa, so‘z birikmasi ana shu predmet, belgi-harakatining boshqalardan ajratib ko‘rsatadi. Unga qo‘shimcha ma’no beradi. Qiyoslaymiz: *dala, keng – keng dala. kulmoq, gapirmoq – kulib gapirmoq*. So‘z abstrakt ma’noli bo‘lib, u birgina yoki gap tarkibiga kirgandagina konkretlashadi. So‘z birikmasi qo‘shma so‘zlardan ham keskin farq qiladi.³ Qo‘shma so‘zlarning komponentlari o‘rtasida ham

¹ Ashurova D., Ubayev F., Boltaboyev X. Gapning uyushgan va ikkinchi darajali bo‘laklari. T.: Fan, 1962.

Hamroyev M, Muhammedova D, Shodmonqulova D, G‘ulomova X, Yo‘ldosheva Sh "Ona tili" darslik Toshkent - 2007

³ Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G "Hozirgi o‘zbek adabiy tili" Toshkent – 2010.

grammatik munosabati yo‘q. Lekin hozir bu aloqa yo‘qolgan. Qo‘shma so‘z komponentlari o‘z leksik semantik mustaqilliklarini yo‘qotib, bir bosh urg‘u bilan aytiladi. Leksik jihatidan bir so‘z hisoblanadi va gapda bir sintaktik funksiyani bajaradi. So‘z birikmasining komponentlari mustaqil leksemaga ega, ular o‘rtasida sintaktik munosabat mavjud bo‘lib, har bir komponent boshqa-boshqa gap bo‘lagi funksiyasini bajaradi. Qiyoslaymiz 1. Men kecha Kattaqo‘rg‘ondan keldim. 2. Katta qo‘rg‘ondan bolalarning ovozi eshitilib turardi. Birinchi gapda «*Kattaqo‘rg‘on*» – qo‘shimcha so‘z (ot) bo‘lib, bir bosh urg‘u bilan aytiladi va gapda bir funktsiya o‘rin holi vazifasini bajaradi. Ikkinchi gapda esa «*Katta qo‘rg‘on*» - ikki urg‘u bilan aytiladi. Ular o‘rtasidagi grammatik aloqa mavjud, gapda ikki bo‘lak vazifasida aniqlovchi va hol funktsiyasida kelgan. Turg‘un birikma tarkibiga kiruvchi so‘zlar esa butunicha o‘z ma‘nosidan ko‘chgan yoki komponentlarning biri o‘z ma‘nosini o‘zgartirgan bo‘ladi: Hujjatga qo‘l qo‘ydi. – turg‘un birikma. Hujjatga qo‘lini qo‘ydi. – so‘z birikmasi. 1. Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi – ko‘chma ma‘noda turg‘un birikma. Kitobi qo‘ltig‘idan tushdi. – gapida esa qo‘ltig‘idan tushdi so‘z birikmasi. So‘z birikmasi hosil qilish uchun hamisha ikkita mustaqil ma‘noli so‘z (yordamchi so‘zlar o‘zi qo‘llangan mustaqil so‘z bilan birga so‘z birikmasining bitta komponenti hisoblanadi) bo‘lishi, shu so‘zlar semantik-grammatik jihatdan erkin munosabatga kirisha olishi; hosil bo‘lgan qo‘shilma ochiq konstruksiyani tashkil etishi, nominativ funktsiya ifodalashi lozim. So‘z birikmasining nominativ xarakterdagi ochiq konstruksiyasidan iborat bo‘lishi uni gapdan farqlashda ahamiyatlidir.

Xulosa, so‘z birikmasining gapida so‘z birikmasi sintaktikasidan, ulardagi ichki munosabatlarini bir-biridan farqlashga to‘g‘ri keladi. So‘z birikmasi gap ichida o‘rganilayotgan paytda ham gap sintaktikasi nazarda tutiladi. Chunki so‘z birikmasi gap sintaktikasi talablari bilan emas, so‘z birikmasi sintaktikasi talablari bilan tuziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M.Omilxonova. Maktabda ona tili sintaksisini o‘rgatish. T.:O‘qituvchi, 2.Ashurova D., Ubayev F., Boltaboyev X. Gapning uyushgan va ikkinchi darajali bo‘laklari. T.: Fan, 1962.
3. Hamroyev M, Muhammedova D, Shodmonqulova D, G‘ulomova X, Yo‘ldosheva Sh "Ona tili" darslik Toshkent - 2007.
4. Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent – 2010.

QUTLUG‘BEY BOYONDUR – OQ QO‘YUNLILAR HUKMDORI

G‘ayratjon Ismatullo o‘g‘li Jumayev

Tayanch doktorant

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: gayratjonjumayev44@gmail.com

Orcid ID: <https://orcid.org/0000-0001-6742-587X>

Toshkent, O‘zbekiston

Alisher Xudayberdiyevich Doniyorov

Tarix fanlari doktori, professor

“Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi” kafedrası

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: doniyorov_alisher@list.ru

Orcid ID: <https://orcid.org/0000-0001-8710-5398>

Toshkent, O‘zbekiston

Ismatullo Djumayevich Norqulov

Mustaqil tadqiqotchi

Samarqand davlat universiteti

E-mail: ismatullo.narkulov@mail.ru

Orcid ID: <https://orcid.org/0009-0009-6424-6855>

Samarqand, O‘zbekiston

Akmal Sadillayevich Xoshimov

Mustaqil tadqiqotchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: hoshimov.2018@bk.ru

Orcid ID: <https://orcid.org/0009-0007-8269-6652>

Toshkent, O‘zbekiston

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada 1362-1389 yillarda Oq qo‘yunlilar konfederatsiyasining ikkinchi begi – Hoji Farxridin Qutlug‘ Beyning tarixi, faoliyati haqida so‘z yuritdik. Shuningdek, mazkur maqolada Qutlug‘ Bey haqida tarixiy manbalarda keltirilgan ma‘lumotlarni bayon etdik. Qutlug‘ Bey davrida Oq qo‘yunli turkmanlar joylashgan hududlar, Oq qo‘yunli turkmanlar davlatining siyosiy-diplomatik munosabatlari haqida ham ma‘lumotlarni keltirib o‘tdik.*

***Kalit so‘zlar.** Turkmanlar, Boyondur, Qutlug‘ Bey, Despina Xotun, Amir Temur, Amid turklari, Diyorbakir, Oq qo‘yunlilar, Abubakr Tehroniy*

QUTLUGBEY BAYANDUR - RULER OF THE AK KOYUNLU

Gayratjon Ismatullo oqli Jumayev

Ph.D. student

Tashkent State University of Oriental Studies

gayratjonjumayev44@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-6742-587X>

Tashkent, Uzbekistan.

Ismatullo Djumayevich Narkulov

Independent researcher

Samarkand State University

E-mail: ismatullo.narkulov@mail.ru

Orcid ID: <https://orcid.org/0009-0009-6424-6855>

Samarkand, Uzbekistan

Alisher Khudayberdiyevich Daniyrov

Doctor of Historical Sciences, Professor,

Department of "History and Ethnology of the Peoples of Central Asia"

Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: doniyorov_alisher@list.ru

Orcid ID: <https://orcid.org/0000-0001-8710-5398>

[Tashkent, Uzbekistan.](#)

Akmal Sadillaevich Hoshimov

Independent researcher

Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: hoshimov.2018@bk.ru

Orcid ID: <https://orcid.org/0009-0007-8269-6652>

[Tashkent, Uzbekistan.](#)

Annotation. *In this article, we talked about the history and activities of Haji Farkhriddin Kutlug Bey, the second bek of the Ak Koyunlu Confederation in 1362-1389. Also in this article, we described information about Kutlug Bey given in historical sources. We also provided information about the territories of the Turkmen "Ak Koyunlu" and the political and diplomatic relations of the Turkmen state "Ak Koyunlu" during the reign of Kutlug Bey.*

Keywords. *Turkmens, Bayandur, Kutlug Bey, Despina Khotun, Amir Temur, Amid Turks, Diyarbakir, Ak Koyunlu, Abubakr Tehrani.*

КУТЛУГБЕЙ БАЯНДУР – ПРАВИТЕЛЬ АК КОЮНЛУ

Гайратжон Исматулло ўғли Жумаев

Базовый докторант

Ташкентский государственный университет востоковедения

Э-маил: gayratjonjumayev44@gmail.com

Orcid ID: <https://orcid.org/0000-0001-6742-587X>

Ташкент, Узбекистан.

Исматулло Джумаевич Наркулов

Независимый исследователь

Самаркандский государственный университет

Э-маил: ismatullo.narkulov@mail.ru

Orcid ID: <https://orcid.org/0009-0009-6424-6855>

Самарканд, Узбекистан.

Алишер Худайбердыевич Дониёров

Доктор исторических наук, профессор

Кафедра «Истории и этнологии народов Средней Азии».

Ташкентский государственный университет востоковедения

Э-маил: doniyorov_alisher@list.ru

Orcid ID: <https://orcid.org/0000-0001-8710-5398>

Ташкент, Узбекистан.

Акмаль Садиллаевич Хошимов

Независимый исследователь

Ташкентский государственный университет востоковедения

Э-маил: hoshimov.2018@bk.ru

Orcid ID: <https://orcid.org/0009-0007-8269-6652>

Ташкент, Узбекистан.

***Аннотация.** В этой статье мы рассказали об истории и деятельности Хаджи Фархриддина Кутлуг-бея, второго бека Конфедерации Ак Коюнлу в 1362-1389 годах. Также в этой статье мы описали информацию о Кутлуг-бее, данную в исторических источниках. Также мы предоставили информацию о территориях туркмен «Ак Коюнлу» и политико-дипломатических отношениях Туркменского государства «Ак Коюнлу» в период правления Кутлуг-бея.*

***Ключевые слова.** Туркмены, Баяндур, Кутлуг-бей, Дестина Хотун, Амир Темур, Амидские тюрки, Диярбакыр, Ак Коюнлу, Абубакр Тегерани.*

Hoji Faxriddin Qutlug' Bey ibn Tur Ali Bey (قتلغ بن طور على) (1362-1378) – tug'ilgan yili haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas. 1362-yilda otasi Tur Ali Beyning vafotidan so'ng, hokimiyat tepasiga kelgan. Yoshligida u ko'p vaqtini Eretna beyi Muhammad G'iyosiddin (1352-1366) saroyida o'tkazgan. 1352-yilda Faxriddin Qutlug'bek Trabzond imperatori Aleksios III Komnenosning singlisi Mariya Komnenaga uylanadi. U Trabzond imperiyasi va Eretna beyligi bilan yaxshi munosabatlarni saqlashga harakat qiladi.

Abubakr Tehroniy qalamiga mansub "Kitobi Diyarbakriya" kitobidan ham Qutlug' Beyning otasi vafotidan so'ng, Oq qo'yunli qabilalar ittifoqiga bosh bo'lganligi qayd etiladi. U o'zining asosiy sa'y-harakatlarini qabila ittifoqini yanada mustahkam davlat tuzilmasiga aylantirishga qaratdi. U Oq qo'yunli yerlarini janubga kengaytirdi. Qabila ittifoqi Arzinjon va Bayburt atrofida joylashdi. U Bayburdda bosh qarorgohini qurdi. U mahalliy zodagonlar bilan munosabatlarini yaxshiladi, qarindoshlik va sadoqat rishtalari orqali ularni qabila atrofida birlashtirdi.

Professor Mukrimin Xalil Yinanchinning Trabzon-Rum tarixchisi Panaretosning voqeanomasidan qilgan tarjimalarida: Aleksey III Komnenos 1363-yili oilasi bilan Qutlug'bekni tabriklash uchun oldiga bormoqchi bo'lgani, ammo vabo tufayli safar amalga oshmagani haqida ma'lumot berilgan. Bu esa 1363-yilda Qutlug'bekning otasining o'rniga o'tganligini va Turali beyning shu sanalar atrofida vafot etganini ko'rsatadi. Yana Panaretos Amid turkmanlarining ya'ni Oq qo'yunli qabilalar ittifoqining Tur Alibey hayotligida, 1340-yildan Trabzon-Rum imperiyasiga yurushlar qilganini qayd etgan. 1343 va 1348 yillardagi hujumlari bilan Trabzon-Rum imperatori Aleksey III Komnenosni qo'rqitishga muvaffaq bo'lgan, Tur Alibey, 1352-yilda o'g'li Qutlug'beyni Aleksey III Komnenosning to'ng'ich singlisi Mariya Komnenaga uylantiradi. Bu nikoh taraflar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish vazifasini bajargan edi. Nihoyat, 1352-yildan Trabzond-Rum imperatori Aleksios III Komnenos ham turkmanlar bilan tinch-totuv munosabatlar o'rnatdi, bu esa nikoh ittifoqchiligi bilan mustahkamlangan edi.

Abubakr Tehroniyning yozishicha, Faxriddin Qutlug'bey Yusuf Bey Duxarlu intiqomini olish maqsadida Mariya Komnenani o'lja sifatida qo'lga kiritgan. Bu nikohdan keyin, Mariya Komnenos Despina Xatun nomi bilan mashhur bo'lgan. Nikoh ittifoqchiligidan keyin, tomonlar o'rtasidagi bosqinchilik yurushlari to'xtaydi va o'zaro tashriflar yanada do'stona tus oladi. Qutlug'beyning 1365-yilda Trabzonga qilgan safari buning yaqqol dalilidir.

Italiyalik sharqshunos E.Rossi Faxriddin Qutlug'beyning Despina xotun bilan turmush qurishi "Qo'rqut Ota kitobi" dostonidagi "Qon Turali" hikoyasiga o'xshash, degan fikrni ilgari surgan. U dostonida "To'qqiz mardning qonini olib, O'g'uzda nom chiqargan, sariq to'nli Seljan xotuni olgan, Qonli Xo'ja (chol)ning o'g'li Qon Turali"

Qutlug‘bey ekanligini qayd etadi. Garchi doston va tarixiy faktlar o‘rtasida muhim o‘xshashliklar mavjud bo‘lsa-da, ba‘zi olimlar E. Rossining filologik va tarixiy jihatlarga oid qarashlariga qarshi chiqishadi. Bunga sabab, Qonli Xo‘janing o‘g‘li Qon Turali hikoyada Yildirim Boyazid o‘g‘li Amir Sulaymonni maqtagan so‘zlari bor. Bu esa hikoyada tilga olingan voqealar XV asr boshlarida sodir bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bizga ma‘lumki, Tur Alibek XIV asrning ikkinchi yarmida vafot etgan va Qutlug‘beyning nikohi 1352-yilda bo‘lgan. Qutlug‘ davrida Oqqo‘yunlu Arzinjondan janubga kengaydi.

Qutlug‘ Bey davrida Oqqo‘yunlilar Arzinjondan janubga kengaydi. Faxriddin Qutlug‘bey 1365-yilda xotini bilan birga Trabzondga tashrif buyurib, u bilan yaxshi munosabatlarni saqlashga harakat qildi.

Qora qo‘yunlilardan 1366-yilda mag‘lubiyatga uchragan Qutlug‘ Bey, Qora qo‘yunli qabila ittifoqiga qarshi Jaloiriyalar sultonligi bilan ittifoq tuzdi. Biroq oxir-oqibat Jaloiriyalar Qora qo‘yunlilar davlati bilan ittifoq tuzgani uchun ularning orasi buzildi. Qutlug‘ Bey Armaniston va Gurjistonga bosqinchilik yurushlarni amalga oshirdi va u yerdan katta o‘ljalar bilan qaytdi.

1379-yilda Faxriddin Qutlug‘bey katta o‘g‘li Ahmadni sulton Alouddin Ali boshchiligidagi Eretnalilarning harbiy bosqinlariga qarshi Mutahhartanga yordam berish uchun Arzinjonga yuboradi. 1381-yilda Alouddin Ali vafotidan keyin, Qutlug‘ Bey Arzinjonning yarim mustaqil beklariga yordam berdi.

1370-yillarda Jaloyiriylar sultonligi va Oltin O‘rda bilan ittifoq tuzgan Faxriddin Qutlug‘bey Qora qo‘yunlilarga qarshi kurash olib bordi. Biroq 1386-yili Arzinjon jangida Qora qo‘yunlilarning hukmdori Qora Muhammad Bey tomonidan mag‘lubiyatga uchradi. Keyin Qutlug‘bey Tabriz va Ozarbayjonga yurush qilgan Sohibqiron Amir Temur bilan ittifoq tuzdi. U bilan birga Jaloyiriylar va Qoraqo‘yunlilarga qarshi harakat qildi.

1389-yilda Qutlug‘bek noma‘lum sababdan Bayburtning Sinur qishlog‘ida vafot etadi va shu yerda dafn etiladi. Shundan so‘ng uning o‘g‘illari Usmon va Ahmad o‘rtasida hokimiyat uchun kurash boshlanadi, kurashga boshqa o‘g‘li Pir Ali ham qo‘shiladi.

Qutlug‘ Arzinjondan janubgacha bo‘lgan Oq qo‘yunlilarning chegaralarini Diyarbakrgacha kengaytirdi. Uning hukmronligi davrida “Oq Qo‘yunli” atamasi birinchi marta Sivaslik Burhoniddinning yilnomasida tilga olingan. Qutlug‘ Makkaga haj qilgan va unga “Hoji” unvoni berilgan. U Sinurda masjid ham qurdirgan.

Ba‘zi manbalarda Qutlug‘beyning o‘ta dindor ekanligi qayd etilgan. Epigrafik manbalarda Qutlug‘ Bey hoji deb nomlanishi uning diniy burchlarini bajarganligini ko‘rsatadi. Qolaversa, uning Bayburtning Sinur qishlog‘ida katta vaqflari bo‘lganini ham ma‘lum. Qutlug‘bekni nihoyatda taqvodor va samimiy mujohid sifatida

ta'riflagan Tehroniy o'z asarida hukmronligining dastlabki yillarida grujilarga qarshi jihod safari uyushtirib, Axiskani qo'lga kiritib, ko'p o'lja bilan qaytganini ham eslatib o'tadi. Katta ehtimol bilan mintaqadagi boshqa mahalliy xalqlar bilan bir qatorda grujilarni ham nishonga olgan bu safardan maqsad ittifoqdosh Trabzon rumliklarni shimoldan kelayotgan tahdidli unsurlardan qutqarish edi. Biroq zamonaviy manbalar Qutlug'beyning dindor ekanligi haqidagi fikrni inkor etib, uning otasi Tur Alibek kabi rumliklar bilan tuzgan shartnomasiga sodiqligini va 1365-yilda Trabzonga tashrif buyurganini ko'rsatadi. Bu tashrifdan so'ng uning o'g'li Usmonbek Alekseyning qizlaridan biriga uylanadi.

Qutlug' Bey davrida Oq qo'yunlilar Eretna, Qozi Burhoniddin va Mamluklar o'rtasidagi kurashlarda faol rol o'ynadi. Bu davrda Onado'lidagi siyosiy vaziyatda muhim voqealar yuz berdi. Bayramxo'ja boshchiligida Qora qo'yunlilar Mosuldan Arzirungacha hukmronlik qilgan. Bundan tashqari, Arzinjon hukmdori G'iyosiddin Ahiy Ayna Bey 1362-yilda vafot etdi va hukmronlik Shabonqorahisor hukmdori Pir Husayn Beyga o'tdi. 1378-yilda Pir Husayn Bey vafotidan so'ng, sharq va g'arb o'rtasidagi savdo yo'lida muhim mavqega ega bo'lgan va shuning uchun boy madaniyat markaziga aylangan Arzinjon va Bayburd shaharlari Mutahhartan qo'lga o'tadi. Eretna hukmdori Alouddin Ali Bey buni tahdid deb bildi va uni qo'rqitish maqsadida Arzinjonga yurish qildi. 1379-yilda Mutahhartan Oq qo'yunlilar va Dulqodir (Zulqodir) o'g'ullaridan yordam so'radi. Qutlug'bey o'g'li Ahmadni Mutahhartanga yordamga yubordi. Ahmadga qarshi yuborilgan Qayseri hokimi Junayid qo'lga olingach, Eretna hukmdori qamalni olishga majbur bo'ldi. Natijada Arzinjon Mutahhartan qo'lida qoldi. 1381-yilda Qozi Burhoniddinning kuchayishidan xavotirlangan Qutlug' Bey o'g'li Ahmadni Sivasga jo'natadi. Ahmadbek bu yerda Burhoniddinning eng muhim sarkardalaridan biri Yusuf Chalabiyni yengib o'ldirdi. Ahmadbekning bu zafarini eshitgan Qozi Burhoniddin Qayseridan Sivasga qaytadi. Oq qo'yunlilarning Qozi Burhoniddin bilan dushmanligi 1388-yilgacha, ya'ni Qutlug' Bey vafotidan 1 yil oldingacha davom etgan. Qutlug' Bey davrida Mamluklarning Markaziy Furot havzasi va Amid mintaqasida manfaatlari bor edi. 1387-yilda Malatya hokimi turk millatiga mansub Mintosh mamluklar sultoni Barquq (1382-1389) bilan kelishmovchilikka uchrab, Qozi Burhoniddindan yordam so'rab, evaziga Malatyani unga berishini aytadi. Shu sababdan Qozi Burhoniddin Malatya viloyati chegarasidagi Kemax qal'asiga kelganida, u yerda bo'lgan Ahmadbek Qozi Burhoniddinning huzuriga kelib, avval sodir bo'lgan voqealar uchun uzr so'raydi. Astrobodyning yozishicha, Oq qo'yunlilarning bu yarashuvda samimiy ekanliklarini isbotlash uchun Faxriddin Qutlug'bek o'z o'g'illaridan biri Qora Yullug' Usmonbeyni Qozi Burhoniddin huzuriga garovga yuboradi. Tehroniyning yozishicha, Qora Yullug'

Usmon Qora qo‘yunlilarga qarshi kurashda muvaffaqiyat qozongani uchun akalari tomonidan qamoqqa tashlangan yoki Qozi Burhoniddinga zanjirband etib yuborilgan.

Faxriddin Qutlug‘ Beyning farzandlari

1. Ahmadbey Boyondur
2. Husaynbey Boyondur
3. Qora Yullug‘ Usmonbey
4. Pir Ali
5. Salim Döğerga turmushga chiqqan, ismi noma‘lum qizi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Мустафаев, Шаин Меджид оглы*. Восточная Анатолия от Ак-Коюнлу к Османской империи / Ш. М. Мустафаев ; Акад. наук Азербайджана, Ин-т востоковедения. – М.: «Вост. лит.» РАН, 1994.
2. Jumayev G.I. [Temuriy hukmdor Shohrux mirzo davrida Temuriylar va Qoraqo‘yunli orasidagi munosabatlarning manbalardagi tavsifi](#). 2nd International Azerbaijan Congress on Life, Social, Health, and Art Sciences. August 13-14, 2022 Congress Proceedings book ISBN: 978-605-73228-1-4 Editors, 2022.
3. Jumayev G.I. Temuriy Sulton Ahmad Mirzoning "Boburnoma" va boshqa manbalardagi tavsifi. International Istanbul Congress Proceedings Book, 2022.
4. Is‘hoqov M.M., Jumayev G.I. «Хабиб ус-сияр» ва «Матла ус-саъдайн» асарларида дипломатик ва элчилик муносабатларнинг ақс эттирилиши. [Sharqshunoslik / Во с т о к о в е д е н и е / Oriental Studies 2022, № 1](#). – В. 120-132.
5. Jumayev G.I. Oq qo‘yunli etnonimining etimologiyasi. Scholar scientific journal. Volume 1, Issue 34. December. 2023. P 85-90.
6. Faruk Sümer, "Akkoyunlular", Diyanet Vakfi İslam Ansiklopedisi s. 270.
7. Çetin Varlık, "Akkoyunlular", VIII, İstanbul, 1988, s. 408.
8. J. E. Woods, 300 Yıllık Türk İmparatorluğu Akkoyunlular, Aşiret, Konfederasyon, İmparatorluk, çev. Sibel Özbudun, Milliyet yay., İstanbul, 1993., s.79.
9. Tih-rânî, Diyârbekriyye, s. 40–43, çev. s. 39–40
10. İ. H. Uzunçarşılı, Anadolu Beylikleri, s. 189
11. I.Aka, İran’da Türkmen Hâkimiyeti, s. 26.
12. Jumayev G.I. Boyondurlar: Tarixi va Etimologiyasi. Multidisciplinary Scientific Journal. Educational Research in Universal Sciences. Volume 2, Issue 17. 2023. P 215-219.
13. Woods, John E. (1999). The Aqqyunlu: Clan, Confederation, Empire. The University of Utah Press.

TURIZM SANOATIDA BOZOR SEGMENTATSIYASINI MEYORLASHTIRISHGA QARATILGAN TADBIRLAR

I.f.n. Prof. **Dana Askarbekovna Kulanova**
Muxtor Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti

Usmanova Sohiba Soqibaevna
Jizzax Politexnika Instituti
soxibausmanova123456@gmail.com

Annotatsiya: Turizm sanoatining barqaror rivojlanishi yuzasidan bugungi kunda mamlakatimizda bir qator ilmiy, madaniy – ma'rifiy loyiha va tadbirlar tashkil etilmoqda, jumladan turizm bozorini segmentlash va marketing strategiyalarini tuzishda barqarorlashtirish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu o'rinda Jizzax viloyati Zomin tumani Milliy tabiat bog'i misolida ham turizm bozoriga kirish jaddallashtirishning guvohi bo'lish mumkin.

Kalit so'zlar: segmentlash, turizm sanoati, rekreatsiya, marketing strategiyasi, demografiya, madaniy bag'rikenglik, turistik xususiyat, turistik taklif, bozor.

Turizm sanoatida bozor segmentatsiyasini meyorlashtirishga qaratilgan tadbirlar turizm tashkilotlari va shuningdek sayohat agentliklari uchun kritik ahamiyatga ega. Bu tadbirlar orqali tashkilotlar o'z xizmatlarini turistlarning xususiyatlari va talablari asosida yaxshi ko'rsatish, bozorlashuvni mustahkamlash, vaqt va resurslarini samarali ishlatishlari mumkin. Quyidagi muhim tadbirlar turizm sanoatida bozor segmentatsiyasini meyorlashtirishga yordam bera oladi:

- Ma'lum bir turist guruhiga mos keladigan xizmatlar, takliflar va chegirmalar tuzish.
- Turistlar uchun shaxsiy hisob-kitoblar yaratish va ularning do'stlari yoki oilalari bilan hamkorlikda xizmat ko'rsatishni tashkil etish.

Turizm sanoati dam olish, biznes yoki ijtimoiy maqsadlarda amalga oshiriladigan har qanday mahalliy yoki xalqaro faoliyatni o'z ichiga oladi. Turizm industriyasining beshta tarmog'i, turar joy, oziq-ovqat va ichimliklar xizmatlari, ko'ngilochar, transport va sayohat sanoati mavjud. Pandemiya oldin turizmning iqtisodiy ta'siri yuqori bo'lib, u jahon yalpi ichki mahsulotining 10,4 foizini tashkil etdi va dunyo bo'ylab har to'rtta yangi ish o'rni yaratdi. Hozirgi davrga nisbatan pandemiya vaqtida turizmning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ancha kamaydi. Covid 19 davrida YaIM hissasi ikki

baravar kamaydi va sayohat yo'lovchilari soni 2022 yil oxirigacha 2019 yil darajasiga yetishi dargumon edi. Ilgari ishbilarmonlik sayohati barcha sayohatlarning muhim qismini tashkil qilgan, biroq iqlim-favqulodda vaziyat korporativ kun tartibiga ko'tarilar ekan, ko'pchilik xalqaro sayohatlarni maksimal saqlab qolishni xohlaydi. Turizm bozor segmentatsiyasi, turistlarning turizm sohasida yuqori turadigan xizmatlardan foydalanishda o'zaro farqliliklarni aniqlash uchun amalga oshiriladigan tahlil va ajratish protsessidir. Bu, turizm bozorida mavjud o'zgaruvchan va turli turdagi turistlar orasida farqli xususiyatlarni aniqlash, bu xususiyatlarga qaratilgan xizmatlarni taqdim etish va reklama faoliyatini boshqarishga imkoniyat yaratishni o'z ichiga oladi.

Turizm bozor segmentatsiyasining ba'zi muhim elementlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

Demografiya: Turistlar o'zlarining yosh, jins, oilaviy holati, millati va boshqa demografik xususiyatlariga qarab, ularni guruhlariga ajratish mumkin.

Davlat va Hududlar: Turistlar o'zlarining tashrif buyurgan davlat yoki hududlariga qarab segmentatsiya qilinadi. Har bir hududning turizm potentsiali va xizmatlari farqli bo'lishi mumkin.

Tarixiy va Madaniy Bag'rikenglik: Turistlar tarixiy joylar, qadimgi asori-atiqalar, san'at qadriyatlarga qiziqishi va madaniy bag'rikenglikdan kelib chiqishiga qarab segmentatsiya qilinadi.

Faoliyat Turu: Turistlar ta'qib qilgan faoliyat turidan (safari, san'at, tarixiy joylarni ko'rib chiqish, sport, sifat) kelib chiqishi bo'yicha segmentatsiya qilish mumkin.

Kuchli ta'sirlovchi holatlar: Turistlar, masalan, sayohat qilish vaqti, xarajatlari, joyi, xizmat sifati va boshqa xususiyatlari bo'yicha segmentatsiya qilinadi.

Bozor segmentatsiyasi tufayli, turizm xizmatlari taqdim etuvchi tashkilotlar o'zlariga eng e'tiborli vaqtinchalik tanlangan bozor segmentiga yo'naltirilgan reklama va xizmatlar taklif etishlari mumkin. Bu, bozorning maksimal foyda olish uchun strategik marketing tadbirlarni amalga oshirishda yordam beradi.

Bozor segmentatsiyasi.

Bozor segmentatsiyasi bu - maxsulot potensialini tasniflaydigan marketing strategiyasi har xil ehtiyojlar, xususiyatlar va yoki xatti-harakatlar namunalari ega bo'lgan mijozlar talabi, bir hil guruhlar yoki turli segmentlar majmui.

Segmentatsiya jarayoni to'rtta taxminga asoslanadi:

- Mahsulot yoki xizmat bozori alohida segmentlardan iborat a'zolarining o'ziga xos ehtiyojlari va afzalliklari;
- Potensial turistlarni a'zolari bo'lgan segmentlarga birlashtirish mumkin bo'lgan o'xshash yoki bir xil xususiyatlar;

- Turistik takliflar bozorning ayrim segmentlariga qaraganda ko‘proq iste‘molchi jalb qiladi;

- Tashkilotlar marketing faoliyatini yanada samaraliroq qilishlari mumkin bo‘lgan bozorning muayyan segmentlari uchun maxsus takliflarni ishlab chiqish;

Turizm bozori ishtirokchilari bo‘lish har bir istemolchining o‘ziga xos ehtiyojlari va istaklarini bildiradi, turistga potentsial, alohida bozor sifatida qaralishi va baholanishi kerak. Biroq, amaliy sharoitda to‘liq segmentatsiya ishlamaydi.

Aksincha, keng segmentlar maqbulroq deb topiladi. To‘rtta asosiy bozor segmentlarining turlari bor va ular quyida muhokama qilinadi.

Geografik segmentatsiya:

Geografik segmentatsiya bozorning bo‘linishiga asoslanadigan mamlakatlar, mintaqalar kabi geografik birliklar. Bunday segmentatsiya turizm yanada muhimroqdir, chunki ko‘pchilik jozibador va ommabop sayyohlik yo‘nalishlari alohida geografik jihatdan asoslanadigan hududlarga bo‘linadi. Geografik o‘zgaruvchanlik birlamchi va ikkilamchi bozorlarni aniqlash uchun ishlatiladi.

Demografik segmentatsiya:

Demografik segmentatsiya bozorni guruhlarga bo‘lishdan iborat bo‘lib, yosh, jins, oilaviy hayot darajasi, daromad, kasb va turar joy kabi o‘zgaruvchanlikka egalik qiluvchilar bilan ifodalanadi. Bu faktlar umumiy mijoz profilini taqdim etishi, ma‘lum yoshi va daromadi, mamlakatining daromadlilik potentsialini bashorat qiluvchi sifatida juda muvaffaqiyatli ishlatilgan tadbir bo‘lishi mumkin. Biroq, sotuvchilarga faqat qaram bo‘lmaslik tavsiya etiladi bozorni segmentlash uchun bir demografik xususiyat, chunki jismoniy shaxslar guruh ichida turli xil bayram imtiyozlari bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, u ko‘proq ko‘p o‘zgaruvchan demografik mezonlardan foydalanish tavsiya etiladi. Hatto bozorlar bo‘lganda ham boshqa o‘zgaruvchilar nuqtai nazaridan aniqlangan, ularning demografik xususiyatlari bo‘lishi kerak, maqsadli bozor hajmi va unga samarali erishish uchun vositalar ma‘lum darajada baholanadi.

Psixografik segmentatsiya

Psixografiya - bu shaxsning ruhiy holatini o‘lchash uchun ishlatiladigan atama munosabat va psixologik bo‘yanish, demografik farqli o‘laroq, qaysi yosh, jins va daromadning ob‘ektiv o‘lchovlarini o‘lchash.

Foyda mahsulot bilan bog‘liq segmentatsiya

Bu aholining bir jinsli guruhlarga bo‘linishini anglatadi iste‘molchilardan mahsulotdan olishni kutayotgan foyda (masalan, qiziqarli basseyn, salqin va shinam o‘tovlar, havo sharlarida sayohat qilish). Turizm bilan bog‘liq o‘zgaruvchanlikdan foydalanish ba‘zan foydali bo‘lishi mumkin.

Bozor segmentatsiyasining afzalliklari:

Segmentatsiyaning afzalliklari shundan iboratki, marketologlar diqqatini yaxshiroq qaratish mumkin bo'lgan omillar mijozlarning ehtiyojlari va talablari; ular uchun ko'proq yo'naltirilgan pozitsiyani ishlab chiqish mahsulotlar; va yanada samarali marketing vositalarini qo'llash. Biroq, ular shunday tushunishadiki potentsial segmentning hajmi va sotib olish qobiliyati kafolatlangan taqdirdagina investitsiyalar samarali bo'ladi va maqsadli marketing dasturi ishlaydi. Segmentatsiya uchun asos maksimal erishish mumkin bo'lgan daromad oqimini prognoz qilish. Boshqacha aytganda, shunday bo'lishi kerakki o'lchanadigan, muhim va barqaror turistik tadbirlar ishlab chiqilishi kerak. Mavjud va istiqbolli tashrif buyuruvchilar guruhlarini tahlil qilish jarayonida, kutilayotgan resurslar bazasini qo'llab-quvvatlashga qodir bo'lgan turizm bozorida tur mahsulotni sotish tajribalarini aniqlash va maqbul takliflarni kiritish lozim bo'ladi. Kichik korxonalar butun bozorda raqobatlasha oladigan resurslarga ega emas va yuqori darajada sifatga ega bo'lgan, farqli mahsulotlarni taklif qilishi kerak. Turizm bozori oldindan aytib bo'lmaydigan va o'zgaruvchan bo'lgani uchun, bu ko'pchilik turar joy egalari himoyasiz qoldiradi, agar biror narsa ularga ta'sir qilsa segmentlash bir muncha murakkablashadi. Turizm industriyasida turli toifadagi turistlarni jalb qilish va ularning ehtiyojlarini qondirishda bozor segmentatsiyasi muhim rol o'ynaydi. Turizm industriyasida optimal bozor segmentatsiyasiga erishish uchun xizmatlar sifatini oshirish va turistlarning turli qatlamlardagi ehtiyojlarini qondirish bo'yicha turli chora-tadbirlar ko'rilmogda. Turizm industriyasida bozor segmentatsiyasini takomillashtirishning asosiy chora-tadbirlaridan biri turistlarning turli toifalarining afzalliklari va ehtiyojlarini tahlil qilishdir. Shu maqsadda turli turistik ob'ektlarga tashrif buyurishning asosiy motivlarini, turli xil dam olish turlariga bo'lgan afzalliklarni, shuningdek, qulaylik darajasi va xizmat ko'rsatish sifatini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib boriladi. Olingan ma'lumotlarga asoslanib, turli toifadagi turistlarni jalb qilish va ularga eng mos xizmatlarni taqdim etish strategiyalari ishlab chiqiladi. Turizm sohasida bozor segmentatsiyasini yaxshilashning yana bir muhim chorasi taklif etilayotgan xizmatlarni diversifikatsiya qilishdir. Turistlarning turli toifalarini jalb qilish uchun turli xil turistik paketlar ishlab chiqilmoqda, jumladan, turli xil dam olish turlari, ekskursiyalar, ko'ngilochar va madaniy tadbirlar. Bu bizga plyajni sevuvchilarning ham, ochiq havoda sayr qilishni, madaniy sayohatlarni va ekskursiyalarni sevuvchilarning ehtiyojlarini qondirishga imkon beradi. Bundan tashqari, turizm industriyasida bozor segmentatsiyasini yaxshilashning muhim chorasi turistlarning turli toifalari uchun infratuzilma va xizmatlarni rivojlantirish hisoblanadi. Bunga erishish uchun turizm infratuzilmasini rivojlantirish, yangi mehmonxonalar, dam olish

maskanlari, ko'ngilochar majmualar va boshqa ob'ektlarni barpo etish, turistik xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi kadrlarni tayyorlashga sarmoya kiritilmoqda.

XULOSA

Shunday qilib, turizm sohasida bozor segmentatsiyasini takomillashtirish kompleks yondashuv va turli chora-tadbirlarni qabul qilishni talab qiluvchi muhim vazifadir. Turistlarning afzalliklari va ehtiyojlarini tahlil qilish, taklif etilayotgan xizmatlarni diversifikatsiya qilish, infratuzilma va xizmatlarni rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish va turli toifadagi turistlarning ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi, bu butun turizm industriyasining rivojlanishiga yordam beradi. Ichki bozorda turizmga bo'lgan ehtiyojni qondiruvchi tadbirlar rejasi mukammal ishlab chiqilishi lozim bo'ladi. Nafaqat viloyat va shahar miqyosida qishloq va agrar turizmga bo'lgan talabni qondirish uchun ham bir qancha segmentlangan tur paketlarni joriy etish va iste'molga yo'naltirish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PF-6199- farmoni.2021 yil 6-aprel. //www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 939-son qarori. 23.11.2017 yil// <https://www.norma.uz>
3. XALQARO EKO TURLAR BOZORI ISHTIROKCHILARI O'RTASIDAGI O'ZARO MUNOSABATLAR. Usmanova Sohiba Soqibaevna International scientific journal "Interpretation and researches" Volume 1 issue 8 | ISSN: 2181-4163 | UIF-2023: 8.2
4. O'RMON - DALA EKOLOGIK OROMGOHLARIDA EKSKURSIYANI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA USULLARI. Usmanova Sohiba Soqibaevna Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali UIF-2023: 8.2 | 2181-3035 | № 26
5. Usmanova S.S. "Экономика и социум" №11(114) 2023 www.iupr.ru
XALQARO EKO TURIZM BOZORI ISHTIROKCHILARI O'RTASIDAGI O'ZARO MUNOSABAT.

ОБЩЕЕ СОСТОЯНИЕ И ДИНАМИКА РЫНОК ИЗДАТЕЛЬСКОЙ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Джабборова Юлдуз Абдувалиевна

Республика Узбекистан

Джизакский политехнический институт,
Ассистент кафедры «Экономика и менеджмент»

Сигов Александр Николаевич

Стар.препод. кафедры «Экономика и управление
на предприятиях машиностроения»

Аннотация: В данной статье рассматриваются Рыночная инфраструктура которая представляет собой совокупность организационно-правовых форм и субъектов рынка (издатели, предприятия оптовой и розничной торговли, ярмарки и т.п.), обеспечивающих функционирование рынка. Полиграфическое оборудование которое включает в себя допечатное оборудование, печатное оборудование для офсетной печати, печатное оборудование для цифровой печати, а также послепечатное оборудование.

Ключевые слова: издатели, предприятия оптовой, книжный рынок, производителей издавать книги, спрос и предложение, книжный рынок, библиография.

Abstract: This article examines the Market infrastructure, which is a set of organizational and legal forms and market entities (publishers, wholesale and retail trade enterprises, fairs, etc.) that ensure the functioning of the market. Printing equipment which includes prepress equipment, offset printing equipment, digital printing equipment, as well as post-printing equipment.

Key words: the foreign economic activity, the state politics toward protectionism, the foreign economic strategies of the state, tariff and intariff of the restriction and barriers.

Издательская деятельность во многом отличается от обычного производства товаров, у нее своя специфика: производителями являются автор книги или журналист, которые, пользуясь специфическими средствами труда, применяют особые, присущие лишь этой области деятельности методы, способы, приемы

[3]. Книжная, газетно-журнальная информация - это особым образом обработанная информация, что облегчает ее восприятие и воздействие на потребителя. Уникальность издательской сферы заключается в двойственном характере ее продукта - он имеет материальный носитель и нематериальную природу. Также уникально и содержание рынка, на котором создается продукт, заключающийся в себе информацию, необходимую для удовлетворения потребностей отдельного человека, предприятия, региона.

На разных этапах экономического развития издательского дела его значение и воздействие на общество то усиливались, то ослабевали. Тем не менее формирование его важнейших характеристик в результате эволюции социально-экономических отношений неоспоримо. Особенности процессов трансформации российской издательской отрасли в целом и, в частности, предприятий сегмента газетно-журнальной продукции непосредственно связаны со всем комплексом преобразований глобального характера, происходящих в мире последние десятилетия и приведших на сегодняшний день к глубоким изменениям практически во всех сферах экономической жизни.

Распространение издательской продукции – процесс доведение ее от производителя (издателя) до конечного потребителя с помощью книготорговых каналов. Современная система книгораспространения опирается на рыночные инструменты. При этом необходимым условием существования и развития рынка является наличие конкуренции и рыночной инфраструктуры. Книжный рынок относится к рынкам *монополистической конкуренции*, для которого характерно наличие множества фирм и большая дифференцированность товаров. Такая дифференцированность предоставляет каждому издательству возможность предложить на рынок уникальное издание или серию в своей группе и на время достигнуть на нем монополии. В то же время книжные товары частично взаимозаменяемы и уникальность товаров в большинстве случаев возможна только в краткосрочном периоде.

Полиграфия - сложная отрасль, для качественного изготовления печатной продукции требуется достаточно много оборудования на всех этапах полиграфической производственной цепочки.

1. Допечатное оборудование

Вывод форм (СТР).

В настоящее время технология выполнения допечатной подготовки по технологии СТР считается самой перспективной.

Преимущества и достоинства технологии СТР:

- более высокое качество воспроизведения изображения на печатных формах (т.к. исключаются копировальные процессы);
- сокращение времени на приладку печатного оборудования;
- уменьшение "макулатурных" отходов, расхода краски.
- снижение риска возникновения брака за счет автоматизации рабочих процессов.

Цифровая цветопроба.

Цифровая цветопроба выполняется на струйном принтере EPSON STYLUS PRO 7600 и растровом процессоре EFI ColorProof. EFI ColorProof - позволяет получать отпечатки с предсказуемым воспроизведением цветов, а также профессиональные и стабильные цветопробы.

С помощью EFI ColorProof у заказчика полиграфической продукции появляется возможность заранее цвета, которые будут впоследствии получены в процессе печати тиража.

Сканер HEIDELBERG TANGO

Данный сканер представляет из себя сканер барабанного типа. Предназначен для осуществления сканирования самых различных оригиналов: черно-белых и цветных, прозрачных и непрозрачных, позитивных и негативных оригиналов. Формат оригинала - до 45X48. Оптическое разрешение до 11000 dpi.

· **Система управления рабочими потоками KODAK PRINERGI CONNECT** - позволяет небольшому количеству персонала (до 5-ти человек) осуществлять все функции припресса и управления выводными процессами.

2. Печатное оборудование для офсетной печати.

КВА Rapida 105

Новейшая листовая офсетная 8-ми секционная печатная машина. Данное оборудование позволяет достигать высокой рентабельности и автоматизации печатного процесса. Данная машина позволяет оказывать более качественные и разнообразные полиграфические услуги благодаря различным решениям "отделки в линию".

Офсетная печатная машина roland 505 LV

Данная офсетная печатная машина оптимально сочетает высокую производительность и эффективность. Скорость печати этого офсетного оборудования достигает 18000 оттисков в час.

Четырехкрасочная машина для офсетной листовой печати Heidelberg SpeedMaster 102-4 P

Листовые печатные машины Heidelberg SpeedMaster SM 102 - одни из самых надежных и передовых в мире. Пульт управления CP 2000 является наиболее современной системой управления печатными машинами в полиграфической отрасли.

Четырехкрасочная печатная машина Sakurai Oliver 472ED II

Офсетные печатные машины OLIVER японской фирмы SAKURAI обеспечивают превосходное качество печати и при микропечати, и при печати больших фоновых полей (плашек). Машины SAKURAI OLIVER имеют линейное секционное построение и обладают предельной конструкционной жесткостью за счет цельнолитой станины.

3. Печатное оборудование для цифровой печати.

Печатная машина HP Indigo press 3500

Предлагаем печать на высококачественном оборудовании для цифровой печати HP Indigo press 3500. HP Indigo press 3500 - является **цифровой офсетной машиной** второго поколения, предназначенной для печати самых различных тиражей продукции красочностью до 7+7. Производительность данной печатной машины позволяет достигать до 2000 оттисков формата A3+ (4+0) в час.

Цифровая полноцветная печатная машина Xerox DocuColor 8000

Обладая скоростью печати - 80 страниц формата A4 в минуту, Цифровая полноцветная печатная машина призвана заполнить нишу производительности и функциональности между DocuColor 6060 и Xerox iGen3.

4. Послепечатное оборудование

Листоподборочное оборудование. Листоподборка MKW RAPID

Для изготовления многостраничной продукции: каталогов, книг, брошюр, журналов и т.д. требуется подбор комплектов из отпечатанных листов в строго определенной последовательности. Далее уже следует этап скрепления разложенной по комплектам продукции.

Модуль боковой подрезки и разрезки двойников MKW T20

Мобильный модуль подрезки боковых кромок и разрезки двойников, тройников подключаемый в линию к модулю шитья и фальцовки MKW SFT. Модуль имеет собственный пульт управления, быстро и точно синхронизируется с другими частями машины и позволяет значительно расширить возможности оборудования.

Вырубка, биговка, перфорация, конгревное тиснение.

Штанцевальная машина Yawa MW1050Y предназначена для высококачественной вырубки, биговки, перфорации и конгревного тиснения. Стабильно работает с широким спектром материалов: картоном до 1.5 мм, гофрокартоном профилей E и B (толщиной до 3 мм), кашированным картоном и т.д.

Автоматическая кашировальная машина SBL ST 1600

Кашировальная машина способна выполнять заранее запечатанные листы бумаги к лайнеру, в качестве которого выступает картон или гофрокартон. SBL ST - 1600, как правило, используется в типографиях для изготовления красочной и прочной упаковки, а также POS-материалов на основе картона или гофрокартона.

Машина для бесшвейного скрепления Horizont BQ 460

Данное оборудование предназначено для скрепления листовой продукции с использованием термоклея. Применяется при изготовлении книг, журналов, брошюр, каталогов, альбомов и т.д. средних тиражей печатной продукции.

Фальцевально-склеивающая машина BOXMASTER 650PC

Автоматическая фальцевально-склеивающая машина BoxMaster PRO 650PC предназначена для изготовления стандартных коробок с одной линией склейки, складных коробок с двойными стенками и коробок с быстро складывающимся дном или донным самозатвором.

Список использованной литературы:

1. Ансофф И. Новая корпоративная стратегия. - СПб.: ПитерКом, 2002. – 416 с.
2. Багиев Г.Л., Тарасевич В.М., Анн Х. Маркетинг: Учебник для вузов/ Под общ. ред. Г.Л. Багиева – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ЗАО «Изд-во «Экономика», 2001. – 356 с.
3. Вавилов С.С. Полиграфия в России. - М, 2005. - 144 с.
4. Вайсман А. Стратегия маркетинга: 10 шагов к успеху; Стратегия менеджмента: 5 факторов успеха. - М.: Интерэксперт, Экономика, 2000. - 344 с.
5. Джаббарова Ю.А. «Основные тенденции на рынке книжной продукции в Республике Узбекистан.» журнал том 3 номер 5 ст 36-40.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=jrpYfYkAAAAJ&citation_for_view=jrpYfYkAAAAJ:qjMakFHDy7sC
6. Djabbarova Y.A.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=jrpYfYkAAAAJ&citation_for_view=jrpYfYkAAAAJ:qjMakFHDy7sC

ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQRISHNI OPTIMALLASHTIRISH: IERARXIK-O‘ZARO BOG‘LIQ JARAYONLARNI BOSHQARISH

Dawletbayev Aziz Baxadirovich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi
Nukus konchilik instituti stajyor o‘qituvchisi
email: dawletbaev9@gmail.ru.

Jumabayev Rasul Maksetbayevich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi
Nukus konchilik instituti stajyor o‘qituvchisi
email: rasulzhumabaev@gmail.com.

Kurbanbayev Maqsud Adambayevich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi
Nukus konchilik instituti stajyor o‘qituvchisi
email: maqsudkurbanbayev@gmail.com.

Annotatsiya: Ushbu maqola elektr energiyasini ishlab chiqarish jarayonlarini ishonchli ierarxik-o‘zaro bog‘liq boshqarish kontseptsiyasini o‘rganadi. Maqolada energetika sohasi kontekstida ierarxik boshqaruvning asosiy tamoyillari va afzalliklari ko‘rib chiqiladi. Ishlab chiqarishni boshqarish darajalari, elektr stantsiyalarini boshqarish va uzatish va tarqatish tarmoqlarini boshqarishni o‘z ichiga olgan ierarxik boshqaruv tuzilishi tavsiflanadi. O‘zaro bog‘liqlik va jarayonlarni optimallashtirish masalalari muhokama qilinadi va ushbu yondashuvning samaradorlikni oshirish, o‘zgarishlarga moslashish va xavfni kamaytirish kabi asosiy afzalliklari ta’kidlanadi. Maqolada, shuningdek, elektr tizimlarini boshqarish, qayta tiklanadigan energiya integratsiyasi va aqlli tarmoqlarni rivojlantirish bo‘yicha ishlarni o‘z ichiga olgan dolzarb adabiyotlar haqida umumiy ma’lumot berilgan. Ushbu maqola elektr energiyasini ishlab chiqarishda ishonchli ierarxik-o‘zaro bog‘liq boshqaruv tamoyillari va amaliy jihatlari haqida foydali tushuncha beradi va o‘quvchini mavzuni yanada o‘rganish uchun asosiy adabiyot manbalariga yo‘naltiradi.

Kirish: Energiya iste’molining doimiy o‘sishi va texnologiyaning jadal rivojlanishi sharoitida barqaror va samarali elektr energiyasini ishlab chiqarishni ta’minlash zamonaviy jamiyatning asosiy vazifasiga aylanmoqda. Ushbu maqsadga erishish uchun elektr energiyasini ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda

zamonaviy yondashuvlardan foydalanish zaruratga aylanadi. Ushbu maqolada biz ierarxik o'zaro bog'liq boshqaruv tushunchasini va uning energetika sanoatida qo'llanilishini ko'rib chiqamiz.

Ierarxik boshqaruv asoslari: Ierarxik boshqaruv - bu tizimning tuzilishiga asoslangan yondashuv bo'lib, unga bo'ysunish darajalari va ular o'rtasidagi munosabatlar kiradi. Energiya ishlab chiqarish kontekstida bu yondashuv turli tizimlarni, shu jumladan elektr stantsiyalarini, uzatish va taqsimlash tarmoqlarini samarali muvofiqlashtirish va optimallashtirish imkonini beradi.

Elektr energiyasi ishlab chiqarishda ierarxiya darajalari:

1. Ishlab chiqarishni boshqarish:

Ierarxiyaning eng yuqori darajasida elektr energiyasini ishlab chiqarishni boshqarish. Bu yerda barqaror va samarali ishlab chiqarishni ta'minlashga qaratilgan strategiya va siyosat ishlab chiqiladi, umumiy maqsad va vazifalar belgilanadi, qarorlar qabul qilinadi

2. Elektr stansiyasini boshqarish:

Keyingi bosqichda alohida elektr stantsiyalarining ishlashini boshqarish. Bu energiya ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish va jarayon risklarini boshqarishni o'z ichiga oladi.

3. Etkazish va tarqatish tarmoqlarini boshqarish:

Ierarxiyaning quyi darajasida energiya uzatish va taqsimlash tarmoqlari boshqariladi. Bu yerda asosiy e'tibor ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasini samarali uzatish va taqsimlash, yo'qotishlarni minimallashtirish va energetika tizimining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan.

* O'zaro aloqa va optimallashtirish:

Ierarxik ravishda o'zaro bog'langan boshqaruv nafaqat aniq boshqaruv tuzilmasini, balki darajalar va quyi tizimlar o'rtasidagi doimiy o'zaro ta'sirni ham nazarda tutadi. Monitoring tizimlari, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari kabi texnologik innovatsiyalar energiya tizimining turli tarkibiy qismlari o'rtasida samarali aloqani ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi.

Energetikada ierarxik-o'zaro bog'liq boshqaruvning afzalliklari:

1. Tizim operatsiyalarining samaradorligi va optimallashtirilishi:

Jarayonlarning aniq tuzilgan ierarxiyasi tufayli butun energiya tizimining optimal ishlashiga erishiladi.

2. O'zgarishlarga moslashish:

Ierarxik tuzilma energiya tizimidagi o'zgarishlarga, masalan, iste'molning o'zgarishi yoki texnik nosozliklarga nisbatan moslashuvchan javob berishga imkon beradi.

3. Xavfni kamaytirish:

Ierarxiyaning barcha darajalarida xavflarni boshqarish tizimning barqarorligini ta'minlab, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va nosozliklarni minimallashtirishga imkon beradi.

Xulosa: Elektr ishlab chiqarishda ierarxik o'zaro bog'liq boshqaruvdan foydalanish energiya barqarorligi va samaradorligini ta'minlashning istiqbolli yo'lini ifodalaydi. Texnologiya va innovatsiyalarning doimiy rivojlanishi bilan ushbu kontseptsiya energetika sanoatining zamonaviy va barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kurbanbayev M. A., o'g'li Maksetov O. X., o'g'li Sultonov D. Q. MARKAZIY OSIYODA ENERGIYA XAVFSIZLIGI: HOZIRGI HOLAT VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI //SCHOLAR. – 2023. – T. 1. – №. 32. – С. 117-122.
2. Kurbanbayev M. A. et al. ENERGO TIZIMDA YUZAGA KELADIGAN YUQORI GARMONIKALARNING O'LCHOV TRANSFORMATORLARIGA TA'SIRI //GOLDEN BRAIN. – 2023. – T. 1. – №. 16. – С. 121-126.
3. Kurbanbayev M. A. et al. 220 KV TARMOQLARIDA BIR FAZALI QISQA TUTASHUVNING SHIKASTLANISH JOYINI ANIQLASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 9. – С. 362-366.
4. Lezhnina, Y., Abubakiro, A., Gaipov, I., & Eshmuratov, N. (2023, January). Monitoring of asymmetric values and parameters of electric networks. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 371, p. 03068).
5. Абубакиров, А. Б., Гаипов, И. К., Ешмуратов, Н. К., & Лежнина, Ю. А. (2022). ГРАФОВАЯ МОДЕЛЬ УЧЕТА АСИММЕТРИЧНЫХ ЗНАЧЕНИЙ И ПАРАМЕТРОВ ЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СЕТЕЙ.
6. Ешмуратов, Н. Қ. (2023). Реле Короткого Замыкания Асинхронных Электродвигателей Напряжением 10 Кв. *Miasto Przyszłości*, 35, 108-112.
7. Abdullaevich I. A. ENERGY SAVING TECHNOLOGIES AND ALTERNATIVE ENERGY SOURCES. THE IMPACT OF ENERGY ON THE ENVIRONMENT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 9. – С. 11-15.
8. Djalilov, A., Sobirov, E., Nazarov, O., Urolov, S., & Gayipov, I. (2023, March). Study on automatic water level detection process using ultrasonic sensor. In IOP

- Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1142, No. 1, p. 012020). IOP Publishing
9. Lezhnina, Y., Abubakiro, A., Gaipov, I., & Eshmuratov, N. (2023). Monitoring of asymmetric values and parameters of electric networks. In E3S Web of Conferences (Vol. 371). EDP Sciences
 10. Djalilov, A. U., Gayipov, I. K., Kenesbaev, R. K., Abdunabiyev, Z., Saidov, A., & Axmedov, M. (2022). DEVELOPMENT OF AUTOMATED INTELLIGENT DRIP IRRIGATION SYSTEM. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(5), 828-841
 11. Абубакиров, А. Б., Гаипов, И. К., Ешмуратов, Н. К., & Лежнина, Ю. А. (2022). Графовая модель учета асимметричных значений и параметров электрических сетей.
 12. Berdiyrovich, P. N. (2022). Renewable Sources of Electric Energy as a Mechanism for the Development of the Economy of Consumers of Electric Energy. Miasto Przyszłości, 29, 123-127

OLIV TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK FAOLIYATNING MAZMUNI VA MAQSADI

Siddiqova Sadoqat G'afforovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
sadoqats@mail.ru

Saidjonova Parvina Shuxratovna

"Sity Sport Bukhara" MChJ menejeri, erkin tadqiqotchi

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari faoliyati, jumladan o'quv jarayonida pedagogik faoliyatning o'ziga xos jihatlari, oliy ta'lim tizimida pedagogik faoliyat mazmuni va mohiyati, pedagogik maqsadning o'ziga xosligi, pedagogik faoliyatining obyekt va subyekt kabi masalalar yoritib berilgan.*

***Tayanch iboralar:** ta'lim, tarbiya, pedagog faoliyati, pedagogik maqsad, tarbiya jarayoni, pedagogik faoliyat obyekt, faoliyat subyekt, talablar.*

***Abstract.** This article describes the activities of higher education institutions, including the specific aspects of pedagogical activity in the educational process, the content and essence of pedagogical activity in the higher education system, the uniqueness of the pedagogical goal, the object and subject of pedagogical activity.*

***Key words:** education, upbringing, pedagogic activity, pedagogical goal, educational process, object of pedagogical activity, subject of activity, requirements.*

Jahon ta'lim tajribasida zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasidagi muayyan nazariy bilimlarni ta'lim oluvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, talabalar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash ta'lim beruvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Inson faoliyatining boshqa turlari kabi pedagogik faoliyat ham o'z xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turuvchi: maqsad, obyekt, subyekt va vositalardan tashkil topadi.

Eng avvalo, pedagogik maqsadning o'ziga xosligini tushunishiga harakat qilamiz. Ular quyidagilardan iborat:


1. Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni pedagog faoliyatning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligini (ketma-ketligini) ta'minlaydi, bir avlod tajribasini ikkinchi avlodga o'tkazadi, yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo'llaydi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi.

2. Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liq. Bunda pedagogik maqsad talaba maqsadiga aylanishi muhimdir. Unga erishish osonlikcha bo'lmaydi. Pedagog o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilish va maqsadga erishish talabalar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olish zarur. Gyote ta'kidlaganidek, "Ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilishi ham o'z-o'zidan kelaveradi".

3. Pedagogik (ta'lim, tarbiya) jarayonida talaba faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki-pedagog maqsadi doimo talaba kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Bu maqsadni talabadan ko'ra pedagog yaqqolroq tasavvur qiladi. Talaba esa ko'p hollarda, hayotiy tajribasi yetishmasligi sababli hozirgi hayot, shu bugun tashvishlari bilan yashaydi, kelajakni esa to'la tasavvur qila olmaydi. Bunyodkor pedagoglardan biri Sh.A.Amonashvili bu nomuvofiqlikni "tarbiyadagi asosiy fojia" deb ataydi. Buni anglagan holda, mohir pedagoglar o'z faoliyati mantig'ini talabalar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

- ◆ jamiyatning ijtimoiy vazifalarini (masalan, muhandis-pedagoglar tayyorlashni) to'la anglab, o'z shaxsiga qabul qilishi. Jamiyat maqsadlarining "o'sib", uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;
- ◆ muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondoshishi;
- ◆ talabalar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish (1-rasm).



1-rasm. Pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xos xususiyatlari

Talabalar bilan kasbga yo'naltirish ishlarini olib borishda yuqoridagilarga e'tibor berish zarur. Endi pedagogik faoliyat obyektining o'ziga xosligini ko'rib chiqamiz. Bu faoliyatining obyekti insondir. Pedagog - tadqiqotchilarning fikricha, pedagogik obyektining o'ziga xosligi quyidagilardan iborat:

1. Inson-tabiakatning jonsiz moddasi emas, balki o'zining individual sifatlari, ro'y berayotgan voqealarni idrok qilishi va ularga o'zicha baho beradigan, takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs-takrorlanmasdir". U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir. Shunday qilib, pedagogik faoliyatning obyekti bir paytning o'zida bu faoliyatning subyekti bo'lib hisoblanadi.

2. Pedagog doimo o'zgarib, o'sib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondoshishda bir xil qolip, shakllanib qolgan hatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

3. Talabalarga pedagogdan tashqari atrof-muhit, ota-ona, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy hayot ham, ba'zan sezilmaydigan, ba'zan esa har tomonlama bir necha yo'nalishda ta'sir etadi. Shuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va talabaning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi. Masalan, diniy ekstremizm va boshqa oqimlarga kirib ketgan yoshlarning adashganligini tushuntirish, ommaviy axborot vositalari orqali berilayotgan axborotlarni to'g'ri anglashga undash va h.k. Tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash bilan uyg'unlashgan holda olib borilishi zarur.

Umuman olganda, hozirgi zamon pedagogikasi hamkorlik pedagogikasi bo'lib, u o'quv yurtidagi tarbiyaviy munosabatlarning insonparvarlashuvi va demokratlashuviga yo'naltirilgan. Bunda talabalar faolligini oshirish, ularni pedagogik jarayonning ishtirokchisiga, o'qituvchining esa uning mehribon ustoziga aylantirish muhimdir. Zero, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'kidlanganidek, ta'lim jarayonining demokratlashtirish va insonparvarlashtirish, mamlakatimiz ta'lim tizimini tashkil etishning asosiy prinsiplaridan biridir.

Pedagogik faoliyatining subyekti - tarbiyalanuvchilarga asosan -pedagog, ota-ona va talabalar jamoasi ta'sir ko'rsatadilar. O'qituvchining shaxsi, bilimi va madaniyati talabalarga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy qurol bo'lib hisoblanadi. Agar talaba pedagog shaxsini o'ziga qabul qilmasa (unga hissiy yaqinlik his etmasa), uning ta'siriga berilmaydi, qaysarlik qiladi, uni hurmat qilmaydi. Talaba shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy ta'sir ko'rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachidir. Bunga erishish uchun pedagog o'zining ahloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur. Pedagog tomonidan sodir etilgan arziyas bo'lsada axloqsizlik, uning talabalar o'rtasida misqollab yig'ilgan obro'siga jiddiy putur yetkazishi muqarrar. Talabalarni mehnat, muloqot, o'yin, o'qish kabi faoliyat turlarida ishtirok etishlari tarbiyaning asosiy vositasi bo'lib hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatdagi dolzarb muammolarni muhokama qilamiz:

1. Pedagogika va ilmiy tadqiqot ishlarini o'zaro uzviylikda birlashtirib olib borish.
2. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash.
3. Oliy malakali pedagoglarning yetishmasligi.
4. Pedagogik faoliyat jarayonida innovatsion muhitni yaratish.
5. Pedagogik metodlardan foydalanish.
6. Pedagoglarni tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish.

Hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida oliy ta'lim muassasalari talabalarini mahsulot yaratuvchi mehnatga jalb qilib, uning natijasidan bahramand qilishda ham bu pedagogik tizim yaxshi samara beradi. Bu tizim aksariyat ta'lim muassasalarida pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanib, talabalarga puxta kasbiy malaka berishda ijobiy natijasini ko'rsatmoqda. Bunday misollarni juda ko'p keltirish mumkin. Demak, har bir mohir pedagog o'zining individual pedagogik tizimiga ega bo'lishi zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabrdagi 637-sonli qonun.
2. Olimov, K. T., & Sh, T. Z. (2019). Integration of Special Subjects, Opportunities and Solutions. *Eastern European Scientific Journal*, (2), 67-70.
3. Тухтаева, З. Ш. (2011). Межпредметные связи и преемственность в профессиональном образовании. *Профессиональное образование. Столица*, (9), 43-44.
4. Sh, T. Z., & Kh, S. K. (2020). Innovative forms of education in Uzbekistan. *International journal of innovations in engineering research and technology. IJERT*, 7(4), 258-261.
5. Sharifovna, T. Z., & Bakhriniso, T. (2020). Modernization of higher education by solving integration problems. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(12 Part II), 44-49.
6. Тухтаева, З. Ш. (2012). Методика межпредметной преемственности в профессиональном образовании.
7. Тухтаева, З. Ш. (2016). Касб-хунар таълимида фанлараро узвийликни таъминлаш методикаси.
8. Тухтаева, З. Ш., & Искандарова, Г. Б. (2014). Обеспечение межпредметной преемственности при обучении специальным предметам. *Молодой ученый*, (8), 882-884.

TA'LIM JARAYONIGA INTEGRATIV YONDASHUVNING FALSAFIY VA PSIXOLOGIK JIHLTLARI

Siddiqova Sadoqat G'afforovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

sadoqats@mail.ru

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari faoliyati, jumladan o'quv jarayonida integratsiyaning pedagogik jihatlari, ta'lim jarayoniga integrativ yondashuvning falsafiy va psixologik jihatlari, ta'lim integratsiyasining turli xil darajalari, ta'limga integrativ yondashuv kabi masalalar yoritib berilgan.*

***Tayanch iboralar:** ta'lim, integratsiya, integrativ yondashuv, ta'lim sifati, falsafiy jihatlari, psixologik jihatlari, integratsiya darajalari, imkoniyatlar.*

***Abstract.** This article describes the activities of higher education institutions, including pedagogical aspects of integration in the educational process, philosophical and psychological aspects of the integrative approach to the educational process, various levels of educational integration, and issues such as the integrative approach to education.*

***Keywords:** education, integration, integrative approach, quality of education, philosophical aspects, psychological aspects, levels of integration, opportunities.*

Kirish.

Hozirgi zamon fanining mantiqiy-gnoseologik asoslaridan biri sanalgan integratsiya ilmiy bilimning informativlik darajasi va asosiy informatsion imkoniyatlarini o'zgartiradi. Bu bilimning bir darajasidan boshqa darajasiga, narsalar va hodisalar mazmunini yanada teranroq aks ettiruvchi bilimga o'tishi bilan bog'liq. Integrativ jarayonlar nazariy tizimlarning teranlik darajasini oshirib, nazariya va empirik ma'lumotlarning qo'llanish doirasini kengaytiradi. Nazariya mazmunining yanada teranlashuvi informativlik darajasining oshishiga sabab bo'ladi, tushunchalar haqidagi axborotning integrativ jarayonlarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "ta'lim sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish, ta'lim xizmatlarining mavjudligi va samaradorligini oshirish" va "zarur bo'lgan

mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olish va kadrlar malakasini oshirish ishlarini keng ko'lamda yo'lga qo'yish" kabi ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlashda ta'lim oluvchilarda yaxlit va tizimli integrativ bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va baholash muhim o'rin tutadi [1].

Ta'lim tizimini fanlar integratsiyasini ta'minlash asosida isloh qilish, bizningcha, yangi metodologiyani talab qiladi uni tashkil etish va birgalikda mantiqiy yondashuv g'oyasi ta'limni mazmunan birlashtirishga, fanlararo aloqalar asosida integratsiyaning yetakchi shakli sifatida xizmat qiladi, bu esa yangi yondashuvga asoslangan o'quv tarkibi yordamida talabalar idrokining yaxlitligini yuzaga keltiradi [2].

Materiallar va metodlar.

Integratsiya tushunchasining mohiyatini yanada aniqroq va to'liq tavsifini berish mumkin. Birinchidan, rivojlanish, ya'ni ob'ektda yangi jihatlar, xossa va sifatlar paydo bo'lishi bilan, ikkinchidan, yangida eskining rivojlangan elementlari, tomonlari va an'analarning saqlanishi bilan tavsiflanadi. Integratsiya falsafiy toifa bo'lib, o'zgarishlar rivojlanishining istalgan jarayonida, oldingi bosqichning alohida belgilari va tomonlarini rivojlanayotgan obyektning yangi bosqichidagi yangi shartlari bilan mos ravishda ko'chirish va uning yangi muhitga mos kelmaydigan, eskirgan belgilari va tomonlarini tashlab yuborish va mavjudlarini yaxlitlashtirish zaruriyatini belgilash uchun xizmat qiladi.

Psixologiyada integratsiya murakkab psixologik rivojlanish qonuniyatlari, yosh bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarni o'rganish, bilimlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirish, faoliyatning yetakchi turlari o'zgarishi doirasida ko'rib chiqiladi. Pedagogik jihatdan esa integratsiya:

didaktik tamoyil – o'quv jarayonining mazmuni, tashkiliy shakl va usullarini belgilab beruvchi asosiy qoida;

shart-sharoit – ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi holatlar;

harakatga keltiruvchi kuch – ta'lim jarayonini amalga oshirishga yordam beruvchi omil;

ta'lim rivojlanishi va tarbiya jarayonida majburiy bajarilishi kerak bo'lgan talab sifatida izohlanadi.

Ta'limda integratsiya ikki xil turda qo'llaniladi. Birinchidan, ta'lim turlari (bo'g'inlari) orasidagi integratsiya. Bunda ta'limning keyingi turi mazmuni avvalgisini qisman takrorlab, mazmun jihatidan uzviy bog'langan holda uning keyingi ta'lim turlarida davom etadi. Ikkinchidan, o'quv fanlari orasidagi integratsiya. Bu odatda fanlararo yoki predmetlararo bog'lanish orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik lugʻatlarda koʻrsatilishicha, integratsiya taʼlim mazmunining muayyan ketma-ketlikda, uzviy va tizimli joylashtirilishini, yangi mavzuni oʻzlashtirishda mavjud bilimlarga tayanishni, oʻquv materialining maʼlum darajada navbatdagi bosqichlarda qoʻllanilishini, oʻquv-tarbiya jarayoni bosqichlarining davomiyligi va yaxlitligini ifodalaydi [9].

Boshqacha qilib aytganda, integratsiya kelgusidagi rivojlanishni ularsiz tasavvur qilish qiyin boʻlgan imkoniyatlar bilan taʼminlaydi, birlashtiradi, bular esa quyidagilar: yangiga oʻtilganlarning yangi sharoitlarda oʻzining hayotiyiligini yoʻqotmagan va rivojlanishga koʻmaklashishga qodir boʻlgan elementlarini kiritish; yangiga boshqa mazmunini kirita olish va uning rivojlanishini taʼminlash holatida boʻlgan alohida shakllarini kiritish.

Natijalar.

Pedagogik integratsiya oʻzining texnologik infratuzilmasiga, oʻzining asosiy texnologiyalariga ega. Pedagogik integratsiyaning belgisi boshqaruvchanlik, bir tomondan, uning ehtimoliy tabiati, boshqa tomondan uning texnologikligi bilan belgilangan.

Tadqiqotlarimizdan kelib chiqib, integratsiya taʼlim turlari hamda oʻquv fanlari orasidagi aloqadorlik, taʼlim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari oʻrtasidagi bogʻliqlikni anglatadi. Bunda, birinchidan, taʼlimning navbatdagi turi mazmuni avvalgisini nafaqat davom ettirishi, mazmunan oʻzaro uzviy bogʻlangan holda keyingi taʼlim turida rivojlantirilib borilishi, shu orqali, fanlararo integratsiya amalga oshirilishi zarur. Ikkinchidan esa, taʼlims dual yondashuv asosida, yaʼni oʻquv jarayonining amaliy koʻnikmalari bilan bogʻliq qismini tegishli soha ish beruvchilari, korxonalar bazasida tashkil etish koʻzda tutiladi.

Falsafiy va ilmiy pedagogik adabiyotlarning tahlili shundan dalolat beradiki, “integratsiya” koʻp qirrali tushuncha boʻlib, unda falsafiy, pedagogik, psixologik jihatlarni ajratish mumkin [3]. “Integratsiya” tushunchasini yaxlitlikda tadqiq qilishning markaziy falsafiy va uslubiy asosi boʻlib, tabiat, jamiyat va ong rivojlanishining umumiy qonunlari haqidagi fan sifatida dialektika xizmat qiladi.

Demak, integratsiya falsafiy, pedagogik va psixologik jihatlarga ega.

Falsafiy jihatdan integratsiya kategoriyasi “rivojlanish” kategoriyasi bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, uning mohiyati “harakat” kategoriyasi bilan solishtirishda ayon boʻladi. Integratsiya rivojlanayotgan barcha hodisa, jarayonlarga taalluqli boʻlgan umumiy va muhim aloqalarni aks ettiradi hamda yangidan rivojlanishni aniqlaydi. “Integratsiya” tushunchasi koʻp darajali boʻlib, xorijiy olimlar va pedagoglar integratsiya tushunchasiga turlicha taʼriflar berishgan [8].

Taʼlimda integratsiya muammosining paydo boʻlishi tarixiga nisbatan adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, ushbu muammo pedagogikada insoniyatning

oldingi avlodida to'plangan ijtimoiy tajribani udumlar, an'analar, xulqning etik me'yorlari, yashash qoidalari va hokazolar orqali uzatish ehtiyoji bilan bog'liq ravishda paydo bo'ldi [8].

Bunday ta'lim integratsiyasi 3 xil darajada namoyon bo'ladi:

fanlar ichidagi (mazmuniy) integratsiya;

fanlar orasidagi integratsiya;

ta'lim turlari fanlari orasidagi integratsiya.

Turli darajadagi integratsiyani ta'lim jarayoniga joriy etish ta'lim mazmuniga, o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari, ta'lim metodlari va vositalariga, ta'lim shakliga ta'sir ko'rsatadi. Integratsiyalashgan ta'lim jarayoni odatdagi dars jarayonlaridan tubdan farq qiladi, unda fan mazmuni chuqur tahlil qilinadi, mavzular aloqadorligi o'rganiladi [7].

Muhokama.

Bir qator ilmiy tadqiqotlar va ularning natijalarini sarhisob qilsak, ilmiy va texnologik inqilobning barcha yutuqlari va samaralari insoniyat uchun keng darajada muhim ahamiyat kasb etdi. Ilm-fandagi burilishlarni aks ettiradigan inson psixikasida bunday sifatli o'zgarish – bu tashqi va ichki ma'lumotlarni inson tomonidan idrok etilishi va tahlildan o'tkazish qobiliyati takomillashishi bilan bog'liq.

Texnik ta'limning o'ziga xosligi texnik-texnologik masalalar va muammolarni hal qilish uchun ilm-fanning rivojlanish dinamikasi va keyingi amaliy qadamlar bilan belgilanadi, natijada ularni barcha ijtimoiy tizimlarga xos bo'lgan madaniy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa shartlar nuqtai nazaridan ma'lum bir soha uchun batafsil ko'rib chiqish mumkin. Umumta'lim maktabdan boshlab o'quvchilar o'rta ta'lim olish jarayonida turli psixologik, fiziologik ta'sirlar doirasida bo'lganligi tufayli tasodifiy, mutlaqo muhim emas deb hisoblangan jarayonlardagi qonunlar va holatlarni izlaydi. Shunga qaramay, bilish jarayoni faol rivojlanib, o'qish va o'qitish usullari takomillashadi, ya'ni jarayon davom etadi. Bu jarayon o'z navbatida umumiy harakatlar, ya'ni qonuniyatlar fonida davom etayotganligini anglatadi – bitta mazmundagi jarayon e'lon qilinadi, ikkinchisi esa amalga oshiriladi [3].

G.A.Klekovkin [5] tizimning rivojlanish jarayonini chuqur tahlil qiladi, integratsiyani jarayonning ajralmas xususiyatli qonuniyati sifatida yuzaga chiqaradi. Uning fikricha, qonun istalgan fanda obyektlardagi hodisalar va xossalarning ichki aloqasi sifatida fikrlanadi va u obyektivlik, zaruriyat, barqarorlik va takrorlanuvchanlik belgilari bilan tavsiflanadi.

Integrativlik tabiat va jamiyat rivojlanishining obyektiv qonuniyati bo'lib hisoblanadi. Falsafada integratsiya rivojlanishning qonuniyati sifatida ko'riladi, u dialektikaning inkorni inkor qilish qonuni, miqdoriy o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni kabi asosiy

qonunlarni yuzaga chiqaruvchi bo'lib hisoblanadi. Miqdoriy o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'tishi qonuni tomonlardan biri sifatida ta'limda integratsiyaning yuzaga chiqishini ta'lim muassasasi talabalarini kasbiy tayyorgarlik sifatini rivojlantirib, mos ravishdagi oliy ta'lim muassasasiga o'tkazish zaruriyati misolida ko'rishimiz mumkin. Bunda talabalarni kasbiy tayyorlashni yaxlitlashtirish har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishni, uning kasbiy muhim sifatlarini tarbiyalashni, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish sharoitlarida yo'naltira olish mahoratini, yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kasbiy tayyorgarlikning mazmuni va jarayonini erkinlashtirishni, muhandis-texnik bilim, ko'nikma va mahoratlar o'rnini oshirishni, kasbiy tayyorgarlik jarayonida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining ishlab chiqarish sharoitlariga tezda moslashishini ta'minlovchi unumli mehnatning yangi shakllarini joriy qilishni talab qiladi [6].

G.T.Soldatovanning fikricha, ta'lim berishning turli xil darajalari orasidagi integratsiyani amalga oshirish mexanizmida, pedagogik jarayon va uning natijalarining uzluksizligi va yaxlitligini ta'minlash zaruriyati hamda o'qitishning diskret xususiyati orasidagi ziddiyat qarama-qarshiliklarning kurashi va birligi qonunini o'rgatishdagi integratsiyaning yuzaga chiqishida misol bo'la oladi. Haqiqatdan ham, pedagogik maqsadlarda ta'limning fan tizimi texnik obyektlar va tabiiy bilimning obyektiv va ko'p tomonlama o'zaro bog'liqligi birligini bo'laklarga ajratadi [6].

Bizningcha esa, izchillik deganda, fan mavzularining mazmuni va murakkabligiga mos ravishdagi aniq ketma-ketlik tushuniladi. Izchillik orqali har bir bosqich, fan yoki mavzularning ketma-ketligi va davomiyligi ta'minlanadi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qitish jarayonidagi o'zaro integrativ aloqalar ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va qiziqtiruvchi vazifalarning yuzaga chiqarilishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Olimlar ta'lim integratsiyasi haqida fikr yuritib, ta'limda integratsiya ikki xil ma'noda tushuntiriladi:

ta'lim turlari orasidagi integratsiya, bunda ta'limning keyingi turi mazmuni avvalgisini nafaqat davom ettiradi, balki qisman takrorlab, mazmun jihatdan bog'langan holda uni keyingi ta'lim turlarida davom ettirishga zamin hozirlaydi;

o'quv fanlari orasidagi integratsiya, buni odatda fanlararo yoki predmetlararo bog'lanish deyiladi.

Bizningcha, integratsiya tushunchasining nisbatini va rivojlanishning sifat va miqdoriy bosqichlaridagi inkorini tahlil qilib, rivojlanayotgan obyektning quyidagi ikkita ko'rinishini ajratib ko'rsatish mumkin:

eski asosini qisman inkor qilishda mazmun-mohiyatining uzviyligi;

eski asosini inkor qilish va bartaraf qilishda faqat ba'zi qirralar, natijalar va shakllarning integratsiyasi.

Fanlararo aloqalar muammosi ustida pedagogik jamoa ishining tashkil qilinishi

ikkita asosiy va o‘zaro bog‘liq yo‘nalishni o‘z ichiga oladi:

fanlararo aloqani hisobga olgan holda o‘quv jarayonini rejalashtirish;

fanlararo aloqalarni joriy qilish bo‘yicha turdosh fanlar o‘qituvchilarining hamkorlikdagi o‘quv-uslubiy ishlarini amalga oshirish.

Yuqoridagi tadqiqotlar va ilmiy asarlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta‘lim samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri ta‘lim turlari, bosqichlari, fanlar va mavzulararo integratsiyani ta‘minlashdir.

Bugungi kunda oliy ta‘lim tizimi bakalavriat o‘quv rejalari va fan dasturlarini muvofiqlashtirish va o‘zaro integratsiyasini ta‘minlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirgi davrga qadar fanlar integratsiyasini ta‘minlash oliy kasbiy ta‘lim nazariyasi va metodikasi bo‘yicha o‘tkazilayotgan ilmiy–pedagogik izlanishlar obyekti hisoblanadi.

Demak, oliy ta‘lim muassasalari talabalarida ixtisoslikka oid fanlarni rivojlantirish sohaga oid kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishi, turli xil mazmundagi muammolar tahliliga tanqidiy yondashish malaka va qobiliyatlarini kamol toptirishi lozim.

Integrativ yondashuv ta‘lim mazmunida fanning mohiyati va asosiy xususiyatlarini yaxlit ko‘rib chiqish, asosiy omillarni ta‘kidlash, bir fan atrofida guruhlash, qolganlarining esa eng yuqori darajasini ochib berish, bu ob‘ektning rivojlanishi va uning o‘zaro aloqasi past darajada ichki va tashqi jihatlarning o‘zaro aloqasi, umumiy va ajralmas ob‘ektning umumiy holatdan boshqasiga o‘tishida ifodalanadi [7].

“Integrativ yondashuv” tushunchasi asosan bir qator belgilar orqali ochiladi, ya‘ni: yaxlitlik, ta‘lim ko‘p qirraliligi va ilmiyligi, texnika va texnologiyalar, metodlarni o‘rganish, ta‘lim mazmunidagi doimiylik va izchillik, jarayondagi rejali va tartibli kabilar. Ta‘limga integrativ yondashuv jarayonga bir tomonlama emas balki ko‘p rejali, har tomonlama yondashuvni anglatadi. Tashkilot shakl va mazmuni nuqtai nazaridan ta‘limning barcha bosqichlari birligi orqali, ya‘ni o‘quv maqsadlarini aniq va to‘liq belgilash, ularni tatbiq etish usullari va yakuniy natijalar samarasining tahlili bilan aniqlanadi.

Xulosa.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, integratsiya turli xil fanlar bo‘yicha mashg‘ulotlarda o‘rganiladigan tushunchalar, qonunlar orasidagi aloqani o‘rnatib berish va yaxlitlashtirish bo‘lib, o‘qitishda vujudga kelgan o‘quv fanlarining aloqadorligini o‘rnatish, tizimli yondashuvni to‘liq joriy qilish imkonini beradi. Demak, ta‘lim jarayonining ko‘p jihatli muammolarini har tomonlama ochib berish imkonini beruvchi fanlararo aloqalar tizimi va integratsiyasini ta‘minlash oliy ta‘lim tizimi oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Oliy ta'lim muassasalarini modernizatsiyalash bo'yicha zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning muhim yo'nalishi bu ta'lim va tarbiyaga yangicha yondashuvni ta'minlaydigan yangiliklarni joriy etish orqali ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishdir.

Bizning fikrimizcha, integrativ yondashuv – ta'lim didaktik tamoyillarining har biri bilan o'zaro ta'sirdagi integratsiya (ilmiylik, tizimlilik va izchillik, onglilik va faollik, yaqqol ko'rinish, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, bilimdan foydalanish imkoniyati va mustahkamligi, talabalarning individual xususiyatlarini inobatga olish) tamoyilini qo'llashni anglatadi. Integrativ yondashuv – pedagogik shart-sharoitlarni yaratgan holda integratsiyani amalga oshirishni talab etadi, ya'ni: aniq o'quv fanlari integratsiyasi zaruratini umumnazariy asoslash, fanlar integratsiyasi shakllari va optimal darajalarini aniqlash, o'quv materialini to'qnashuv nuqtalari, uning yetakchi g'oyalari, o'quv fanlari dasturlarini muvofiqlashtirguncha mos usullar va ko'rinishlardan foydalanish, talabalarning olam to'g'risidagi yaxlit bilimlarini shakllantirish maqsadidagi o'quv vositalari kabilar. Integrativ tavsif, o'qishga integrativ yondashuvni qo'llagan holda, yuqorida keltirilgan pedagogik sharoitlarni yaratadigan o'qituvchi faoliyatiga ko'p jihatdan bog'liq.

Shaxsning imkoniyatlaridan jamiyatning talab-ehtiyojlariga yo'naltirishda tashkil etuvchilarning predmet-mazmunli va tashkiliy-faoliyat qismlarining o'zgarishi pedagogik nazariyalar, ta'lim shakllari va usullarining yangi yondashuvlarini ishlab chiqishni va ularni amaliyotga moslashtirishni nazarda tutadi. An'anaviy ta'lim tizimini isloh qilish, yangilash va o'zgartirish bu shakllar, usullar, mazmunni yangilash yo'lidagi boshlang'ich bosqich, bir so'z bilan aytganda, bilimli shaxsni shakllantirish va rivojlantirish uchun yangi paradigmani shakllantirishdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2017. – Б.39.

2. Абдураимов Ш.С. Касб таълими ўқитуувчиларини тайёрлаш сифатини таъминлашда тармоқлараро интеграциянинг педагогик имкониятларини такомиллаштириш // Дисс. (PhD). – Тошкент, 2017.

3. Гребенчиков А.Г. Педагогические условия развития художественно - творческих способностей учащихся в системе непрерывного образования // Автореферат. – Елец, 2005. – 24 с.– 158 б.

4. Клековкин Г.А. Преемственность в обучении. в поисках теоретических оснований // – Самара, 2000. – С. 328.
5. Olimov, K. T., & Sh, T. Z. (2019). Integration of Special Subjects, Opportunities and Solutions. Eastern European Scientific Journal, (2), 67-70.
6. Солдатов Г.Т. Дидактическое обеспечение преемственности математической подготовки студентов в системе «колледж-вуз» // – М., РГБ, 2003. diss.rsl.ru.
7. Торопова Е.А. Современные проблемы науки и образования. Современные проблемы науки и образования // Электронный научный журнал. – Тошкент, 2012. – № 6. – С.45-58.
8. Тухтаева, З. Ш. (2011). Межпредметные связи и преемственность в профессиональном образовании. Профессиональное образование. Столица, (9), 43-44.
9. Sh, T. Z., & Kh, S. K. (2020). Innovative forms of education in Uzbekistan. International journal of innovations in engineering research and technology. IJIERT, 7(4), 258-261.
10. Sharifovna, T. Z., & Bakhriniso, T. (2020). Modernization of higher education by solving integration problems. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(12 Part II), 44-49.
11. Тухтаева, З. Ш. (2012). Методика межпредметной преемственности в профессиональном образовании.

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI VA KORXONALARNING INTEGRATIV HAMKORLIGI MAZMUNI

To'xtayeva Zebo Sharifovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti "Paxta va yengil sanoat texnologiyalari"
fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor,
zebo-7171@mail.ru

Mamedova Adilya Adilyevna

Osiyo xalqaro universiteti MM8-PP-22-guruh magistranti

***Annotatsiya.** Maqolada korxonalar va professional ta'lim muassasalarining hamkorlik integrativ hamkorligi, ishlab chiqarish va ta'lim tizimi integratsiyalashuvi, kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish, bo'lajak mutaxassislarning kelajakda mustaqil faoliyat yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish, o'zaro manfaatli ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi masalalar yoritib berilgan*

***Tayanch iboralar:** integrativ hamkorlik, korxonalar, professional ta'lim, ta'lim muassasalari, kasbiy faoliyat, kadrlar tayyorlash, integratsiya, ijtimoiy hamkorlik.*

CONTENT OF INTEGRATIVE COOPERATION OF PROFESSIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND ENTERPRISES

***Annotation.** In the article, the cooperation and integrative cooperation of enterprises and professional educational institutions, the integration of the production and education system, the development of the personnel training system, the development of the abilities of future specialists to work independently in the future, the establishment of mutually beneficial social cooperation, etc. issues are clarified*

***Key words:** integrative cooperation, enterprise, professional education, educational institutions, professional activity, personnel training, integration, social cooperation.*

O'zbekistonda professional ta'lim muassasalari va korxonalarining integrativ hamkorligi muammosi 80-yillarning ikkinchi yarmida hal etila boshlandi. "Bu muammo tashkiliy jihatdan kafedralarning ishlab chiqarishdagi hamda o'quvchilarga professional ta'lim berishga sezilarli hissa qo'shgan uzoq muddatli integratsiyalashgan amaliy mashg'ulotlarda o'zining samarali ifodasini topdi. Shu tariqa integratsiyalashuv kadrlar tayyorlash darajasini ma'lum tarzda ko'tarish, ularning ishlab chiqarishga moslashuv muddatlarini qisqartirish hamda eng muhimi, ishlab chiqarishga malakali mutaxassislarni jalb etgan holda zamonaviy ilmiy-texnik asosda professional tayyorgarlikni olib borish imkonini berdi".

Jahon tajribasida bunday integratsiya o'quv-ilmiy ishlab chiqarish markazlari, komplekslari, texnopolislari singari omillar shaklida amalga oshiriladi. "Ularda yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish hamda bu tadqiqotlar natijasini sanoatda o'zlashtirish vazifasi mujassamlanadi. Bunday birlashmalarda jamiyat ehtiyojlari asosida tegishli tarmoq o'quv-ilmiy-texnik siyosatni amalga oshiradigan professional ta'limmuassasalari asosiy tashkiliy bo'g'in hisoblanadi".

Bugungi kunda Respublikamizda integrativ ta'lim muhitida professional ta'limmuassasalari va ishlab chiqarish korxonalarining uzluksizligi va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta'minlashga imkon beradigan butkul yangi darajada integratsiyalashuvni keng rivojlantirishni taqozo etadi.

Integrativ ta'lim muhitida professional ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini integratsiyalashuvining yangi darajasi (vertikal va gorizont) quyidagilarga asoslanadi:

intellektual jihatdan rivojlangan mamlakatlar tajribasi hamda xalqaro hamkorlikka;

barcha darajadagi mutaxassislarni tayyorlash;

qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishdagi ta'lim jarayoni uchun akademiya va professional ta'lim muassasalari;

ishlab chiqarish korxonalarini manfaatdor sherik sifatida keng jalb etish;

o'quvchilarning ta'lim, ilmiy tadqiqot, ilmiy ishlab chiqarish va innovatsion kichik firmalarini rivojlantirish.

Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy va ma'rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan modernizatsiyalash jarayonlari uzluksiz ta'lim tizimiga ham bevosita ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu, o'z navbatida, innovatsion ta'lim muhitining muhim tavsifi hamda shaxs imkoniyatlari muvaffaqiyatli amalga oshirilishining sharti sifatida ta'lim paradigmalarini takomillashtirish, uning tarkibiy qismlari funksional va konseptual muammolari yechimini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

"Mamlakatimizda innovatsion ta'lim tizimini rivojlantirish fan bilan ta'lim jarayoni aloqalarini, ishlab chiqarish va ta'lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirishga asoslanadi hamda quyidagilarni o'z ichiga oladi":

ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida ilg'or amaliy ilmiy tadqiqotlar o'tkaziladi, ta'lim sifati davlat ta'lim standartlariga muvofiq kelishini tashkil etish va ta'minlash maqsadida pedagogika va ta'lim sohasida ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish faollashtiriladi;

fundamental va amaliy fan sohasidagi ilmiy kadrlarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki rag'batlantiriladi, pedagogik va ilmiy tadqiqot jarayonlarining aloqasi ta'minlanadi;

yoshlarning fan-texnika sohasidagi ijodkorligi har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi;

o'quv-ishlab chiqarish majmualarini (markazlarini) tashkil etish va ularni rivojlantirish, zamonaviy uskunalari, apparatlar va asboblari bilan jihozlash rag'batlantiriladi;

kadrlar tayyorlash va birgalikdagi ilmiy-texnologik yechimlar yaratishda korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalaniladi va ishlab chiqarishda kadrlar tayyorlash jarayoni qo‘llab-quvvatlanadi;

ilg‘or texnologiya sohasida pedagog kadrlarning malakasi bevosita ishlab chiqarish jarayonida muntazam ravishda oshirib boriladi;

shaxsning ijodiy va ijtimoiy faolligini oshirish ma‘naviy boy yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Integrativ ta‘lim muhitida professional ta‘lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini hamkorligidan asosiy maqsad malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi ta‘limning barcha turlarini, jumladan, davlat ta‘lim standartlari, kadrlar salohiyati va uning faoliyat ko‘rsatish mexanizmlarini qamrab olishdan iborat.

ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga tez joriy etishga qodir bo‘lgan tadqiqot ob‘ekti tabiatiga maksimal darajada chuqur kirib borish orqali nisbatan tor doiradagi tadqiqotlar bilan shug‘ullanuvchi ilmiy-amaliy markazlarni tashkillashtirish

professional ta‘lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini integratsiyasini amaliyotga tatbiq qilish mexanizmlarini, shuningdek, innovatsion mahsulot va xizmatlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini rag‘batlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish

innovatsion jarayonlardagi muammolarni hal etish uchun ilmiy-texnik mahsulotlardan foydalanishning mintaqaviy tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish maqsadida innovatsion jarayonlarni boshqaruvchi zamonaviy tashkiliy tuzilma yaratish

ilmiy-texnik mahsulotning samaradorligi va sifatini oshirish, ilm-fanni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash

intellektual biznesning rivojlanishi va kichik innovatsion korxonalar faoliyatini rivojlantirish maqsadida professional ta‘lim muassasalari qoshida texnoparklar bunyod etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish

professional ta‘lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini o‘rtasida integratsiya shakli sifatida “Korxonalar + PTM” tizimi faoliyatini rivojlantirish

1-rasm. Zamonaviy kadrlar tayyorlashda professional ta‘lim muassasalarining innovatsion faoliyati.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, integratsiya ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, ta‘lim va tarbiya jarayonini tadqiq qilish va boshqarishni ta‘minlaydi hamda fanning maqsadini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratadi.

Ta‘limning “integratsiya” tamoyilini ham fanlar integratsiyasi kabi bir necha xil ko‘rinishda ko‘rib chiqish mumkin:

ta‘lim turlari aro;

bosqichlararo;

fanlararo;

mavzulararo.

Bunda integratsiyaning oxirgi ko‘rinishlarida fanlarni o‘qitish uslubi, ya‘ni ular mazmunini bayon etish metodiga tayangan holda yondosh fanlar mazmunidan foydalana bilish, mustaqil ishlashga harakat qilish, shuningdek, uslubiyat va mazmunan kuzatiladigan o‘xshashlikni qo‘llashda ko‘zga tashlanadi.

Xorijlik pedagog olim O.Y.Ujan “Integratsiyalashgan ta‘lim zamonaviy ma‘lumot natijasi sifatida” nomli maqolasida shunday deydi: “Ta‘limni modernizatsiya qilish deganda, nafaqat uning tarkibini yangilash, balki innovatsion texnologiyalarning faol qo‘llanilishi ham tushuniladi. O‘quvchilar kognitiv ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish – pedagogik tadqiqotning an‘anaviy ob‘ektidir. Innovatsiyaning ushbu yo‘nalishida integratsiyalashgan ta‘lim ajralib turadi. Ta‘limni integratsiyalashgan darslar orqali amalga oshirish natijasida voqelikni yaxlit idrok etish imkoniyatiga erishiladi”.

Bizning fikrimizcha integratsiyalashgan ta‘lim – bu professional ta‘lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini o‘zaro hamkorligi asosida amaliy ta‘limni chuqur o‘qitishdir. Shunga asosan, integrativ hamkorlik va amaliyot jarayonining komponentlarini tuzdik.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi "Dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 163-sonli Qarori. // <https://lex.uz/docs/-5346217>.
2. Туракулова, Б. Б. (2022). Повышение квалификации персонала на основе интеграции технических подразделений и производственных предприятий. *Universum: психология и образование*, (10 (100)), 8-11.
3. Zebo, T. X., & E'zoza, E. (2023). OLIY TA'LIMDA TALABALAR BILAN OLIV BORILADIGAN O 'QUV-METODIK VA MA'NAViy-MA'RIFIY ISHLARNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(17), 489-496.
4. Туракулова, Б. Б. (2022). ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF HIGHER EDUCATION. In *Дизайн, технологии и инновации в текстильной и легкой промышленности (ИННОВАЦИИ-2022): сборник материалов Международной научно-технической конференции. Часть 1.*—М.: ФГБОУ ВО «РГУ им. (p. 154).
5. Тухтаева, З. Ш., & Искандарова, Г. Б. (2014). Обеспечение межпредметной преемственности при обучении специальным предметам. *Молодой ученый*, (8), 882-884.

TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING IJODIY-AMALIY FAOLIYATGA YO'NALTIRISHNING TASHKILIY JIHLTLARI

To'xtayeva Zebo Sharifovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

“Paxta va yengil sanoat texnologiyaslari” fakulteti dekani,

pedagogika fanlari doktori, professor,

zebo-7171@mail.ru

Muxamadiyeva Ruxsora Abboskulovna –

Osiyo Xalqaro Universiteti MM8-PP-22 guruh magistranti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarning ijodiy-amaliy faoliyatga yo'naltirish jarayonini motivatsion ta'lim sharoitida tashkil qilishning hamda motivasion ta'lim muhitini yaratishda pedagogik ijodkorlikning ahamiyati, o'qituvchining kasbiy faoliyatining tarkibiy qismlari, o'quv motivlari mohiyati va uning o'ziga xos jihatlari kabi masalalar tahlili bayon qilingan*

***Tayanch iboralar:** ta'lim jarayoni, ijodiy-amaliy faoliyat, ijodkor o'qituvchi, pedagog, kasbiy faoliyat, o'quv motivi, motivatsion ta'lim muhiti.*

ORGANIZATIONAL ASPECTS OF DIRECTING STUDENTS OF EDUCATIONAL INSTITUTIONS TO CREATIVE-PRACTICAL ACTIVITY

***Annotation.** In this article, the importance of pedagogical creativity in organizing the process of directing students to creative and practical activities in the conditions of motivational education and creating a motivational educational environment, the components of the teacher's professional activity, the essence of educational motives and its specific aspects the analysis of issues is described*

***Key words:** educational process, creative-practical activity, creative teacher, pedagogue, professional activity, educational motive, motivational educational environment.*

Talabalarning ijodiy-amaliy faoliyati maxsus psixologik, pedagogik test o'tkazish orqali aniqlanadi. Ular maqsadga intilish, qat'iylik va mehnatsevarlik kabi fazilatlarini hamda ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish istagi bilan ajralib turadilar va ilimning tegishli sohalari, fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish, rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun

imkoniyatlar yaratishdir. Ijodiy fikrlashni aniqlash uchun psixologik vositalar mavjud. Jahon psixologik amaliyotida eng mashhuri Pol Torrens testidir. Ushbu test quyidagilarni baholashga imkon beradi:

- og‘zaki ijodiy-amaliy faoliyat ;
- obrazli ijodiy-amaliy faoliyat ;
- individual ijodiy qobiliyatlar.

Ijodiy-amaliy faoliyat mezonlari:

- ravonlik - vaqt birligida yuzaga keladigan g‘oyalarning soni;
- o‘ziga xoslik - umumiy qabul qilinganlardan farq qiladigan g‘ayrioddiy g‘oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati;
- moslashuvchanlik.

Talabalarning ijodiy-amaliy faoliyatini rivojlantirishda maqsadli tayyorlash bo‘yicha quyidagi vazifalarga amal qilinishi lozim:

– talabalarning intellektual salohiyati chuqur bilim olishga va qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish;

– malakali professor - o‘qituvchilarni talabalar bilan individuval ishlashga jalb etish;

– ilm-fan taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlariga talabalarni jalb etish;

– maxsus o‘quv dasturlari va progressiv pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish;

– ijtimoiy buyurtmachilar talabalarini qondiruvchi malakali, har tomonlama kamol topgan kadrlarni tayyorlash.

Shunday qilib, talabalar bilan ishlashning ijobiy tomonlari va kamchiliklarini hisobga olib, keyingi monitoringini kuchaytirish bo‘yicha o‘tkaziladigan ishlar rejasi tuzib chiqilishi, talabalar faoliyat jarayonini nazorat qilishni kuchaytirish, talabalar kontingenti izchilligini oshirish uchun yagona bazani shakllantirish, iqtidorli talabalarni turli xil xalqaro grant loyihalarida ishtirok etishlari va malaka oshirish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

Kasbiy faoliyat ijodiy-amaliy faoliyat bilan bog‘liq, ya‘ni muammolarni kreativ hamda kognitiv yo‘l bilan hal qilish yoki yangi mahsulotni yaratish demakdir. Bu o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

– yangi tovarlar ishlab chiqarish yoki turli xizmatlarni taqdim etishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyati;

– muhandislik faoliyati (yangi texnik vositalarni loyihalash);

– boshqaruv faoliyati (tashkiliy qarorlarni tayyorlash va qabul qilish, odamlarni boshqarish);

– dizaynerlik ishi (badiiy dizayn) va boshqalar.

Uzluksiz ta'lim tizimida axborot texnologiyalari bilan zamonaviy pedagogik texnologiyani birgalikda ta'lim jarayoniga tatbiq etish o'qitish jarayonida juda yaxshi samara beradi.

Jumladan, web-quest ta'lim texnologiyasi ijodiy-amaliy faoliyatni shakllantirish va rivojlantirishda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- faol mustaqil yoki guruh qidiruv faoliyatini tashkil etish;
- talabning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid qobiliyatini rivojlantirishga ko'maklashish;
- o'quv jarayoni uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali, diqqatni jamlashga, faoliyat shakllarini o'zgartirishga yordam berish;
- global tarmoqdan ko'plab manbalarni tahlil qilishga va ularni umumlashmalar orqali ma'lumotlarni bir butunlikka keltirishga o'rgatadi;
- talabning kognitiv qobiliyatini rivojlantiradi;
- umumiy ta'lim ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga yordam beradi (tahlil, sintez, maqsadni belgilash, ma'lumotlarni qidirish, bilimlarni tizimlashtirish va boshqalar);
- ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi;
- ta'limga individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi;
- mustaqil baholash hamda qaror qabul qilish, qo'shma faoliyatning borishi va natijalarini prognozlash, nazorat qilish, tuzatish asosida umumiy maqsadlarni belgilash, umumiy ish usullarini rejalashtirish va samarali hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlaydi.

Shuningdek, talaba o'qituvchi va tengdoshlari bilan o'quv jarayonining teng huquqli ishtirokchisiga aylanadi. "Web-quest" texnologiyasi yordamida talabalarning o'zlari materialni o'rganish tezligini, ish sur'atini nazorat qilishlari mumkin, bu o'zini-o'zi nazorat qilish va boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

"Web-quest" – bu talabalar Internet yordamida amalga oshirishi mumkin bo'lgan qidiruv faoliyatining maxsus turi.

Web (ingliz tilidan) so'zi – tarmoq.

Quest (ingliz tilidan) so'zi – tadqiqot, qidirish.

Shuning uchun Web - Questni ingliz tilidan – internetdagi qidiruvlar, deb tarjima qilish mumkin.

Xususan, "veb-qidiruv" texnologiyasi talabalarni axborot va internetga bo'lgan munosabatini o'zgartirib, buni ta'lim faoliyatiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish imkonini beradi, alohida mavzu (predmetli) va (metapredmetli, ya'ni fanning rivojlantiruvchi va o'quv-didaktik jihati orqali inson kamolotga etuvchi xarakterli xususiyati bo'lib hisoblanadi) natijalariga erishishga yordam beradi. Ushbu

texnologiya ijodiy-amaliy faoliyat ni shakllantirishda quyidagi muhim ta'lim natijalariga erishish imkonini beradi:

– shaxsiy, ya'ni narsalarni o'rganish va o'z-o'zini takomillashtirish, anglash imkoniyatlarini tushunish, ijodiy salohiyatni ochib berish motivatsiyasini shakllantirish;

– metasubject (metapredmetli) – kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, axborot bilan ishlash ko'nikmalari (ma'lumotni qidirish, tanlash, umumlashtirish, muammoni hal qiladigan loyihani yaratish);

– mavzu (predmetli) – yangi bilimlarni egallash va uni o'quv vaziyatlarida qo'llash, fikrlashning ilmiy – texnik turini shakllantirish.

Zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda o'qitishning interfaol metodlari yordamida mustaqil ta'lim olishni yo'lga qo'yish mumkin bo'ladi. Talabalar bilimni har xil turdagi mashg'ulotlar bo'yicha xolisona baholash mezonlari, tanqidiy fikrlash hamda ijodni rivojlantirish, interfaol ta'lim bo'yicha metodik ishlanmalarni yaratish zamon talabidir. Zamonaviy ishlab chiqarish va uni boshqarish jarayonlari talablaridan kelib chiqib zamonaviy axborot texnologiyalari ikki guruhga bo'linadi. Ularning birinchisi matn protsessorlari, elektron javdallar, ma'lumotlar jamlanmasi, grafik muharrirlar, multimedia, telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan bo'lib, "Universal tipdagi axborot texnologiyalari" deb ataladi.

"Maxsus axborot texnologiyalari" deb nomlanuvchi ikkinchi yo'nalishga ma'lum bir ixtisoslashgan yo'nalishdagi faoliyatni amalga oshirishda foydalaniluvchi kompyuterli texnologiyalar, misol uchun o'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalari kiradi. O'qitishning yangi axborot texnologiyalari har qanday ta'lim texnologiyasining asosiy qismi bo'lgan bilim berish va uni qabul qilish jarayonlarini kompyuterlashtirish natijasida vujudga kelgan o'qitish texnologiyasi bo'lib, o'qituvchi undan o'qitishning ijodiy vositasi sifatida foydalanadi, darsga tayyorlanadi va uni tashkil qiladi, talabalar bilimni nazorat qiladi hamda ularga vazifalar beradi. Hozirgi kundagi va yaqin kelajagimizdagi ta'lim tizimini takomillashtirishda kompyuterlashtirishning eng asosiy vazifasi – o'qitishning yangi zamonaviy axborot texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim jarayoniga olib kirishdan iborat bo'ladi. O'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta'lim tizimida foydalanishning samaradorligi quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

1. O'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalari talabalarga axborotlarning noan'anaviy manbalariga murojaat qilish imkoniyatlarini ochib beradi, mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

2. O'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalari qo'yilgan didaktik maqsadlarni amalga oshirishi uchun o'qituvchiga o'qitishning turli shakllaridan va

ularning majmuasidan foydanish, ya'ni zaruriy ta'lim muhitini barpo etish imkonini beradi. O'qitishning yangi axborot texnologiyalaridan foydanishda o'qituvchi kompyuterlashtirilgan o'qitish va nazorat qilish dasturlarini sharoitdan kelib chiqib o'zgartirish imkoniga ega bo'ladi.

3. O'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali o'qituvchilar talaba shaxsini rivojlantirish, ijodiy fikrlashga o'rgatish, o'quv dasturlarining eng maqbullarini tanlash yoki yangilarini yaratish uchun qo'shimcha imkoniyatga ega bo'ladi.

4. Avtomatlashtirilgan o'quv-axborot tizimidan foydalanishga asoslangan o'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash natijasida o'qituvchilar o'zlarining axborot bilan ta'minlanganlik darajalarini oshiribgina qolmay, balki deyarli butun dunyodagi axborot jamlamalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalari bugungi kunda ta'lim tizimiga keng kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalarning vositaviy asosi hisoblanadi. Shu sababli biz o'z tadqiqotlarimizda o'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llashda pedagogik texnologiyaning quyidagi tamoyillariga amal qildik.

Ilmiy-ijodiy-amaliy faoliyatni rivojlantirishda fundamental tadqiqotlar asosiy o'rinni egallaydi. Aynan ular orqali istiqbolli ilmiy echimlarni ishlab chiqish uchun asos bo'luvchi ilmiy potensialni yuzaga keltiradi. Ko'p holatlarda fundamental tadqiqotlar, uning yakuniy natijalari ilmiy kashfiyot bilan yakunlanadi.

Ilmiy-amaliy hamda pedagogik-psixologik adabiyotlarda ixtirochilik hamda ixtirochilik ijodkorligiga ko'plab ta'riflar keltirilgan. Jumladan, I.I.Kichkin ixtirochilikni ilmiy g'oyalarining texnik echimlarga ijodiy tatbiq, ilmiy texnika taraqqiyoti sur'atlarini belgilovchi asosiy ko'rsatkich, yangi texnika va texnologiyalar yaratilishining mezoni hamda uning yuqori ilmiy-texnik darajasini ta'minlovchi omil deb hisoblaydi. M.A.Vachevskiy "ixtiro qilish"ni "qo'yilgan masalani echish uchun eskilaridan tubdan farq qiluvchi, odatdagi mantiqiy fikrlash yo'li bilan yetishib bo'lmaydigan yangi samarali yechimni taklif qilish" deb ta'riflaydi [108;49-b]. Bizning fikrimizcha, ixtirochilik tegishli idoralar tomonidan patentlar bilan tasdiqlanadigan yangi yechimni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ijodiy faoliyat turi, ixtirochilik ijodkorligi esa bu jarayonning shaxsdagi kreativlik, zehnilik, topqirlik, mustaqil va tanqidiy fikrlash kabi ijodiy-amaliy faoliyat sifatleri bilan bog'liq umumiy tavsif deyish mumkin.

Ratsionalizatorlik ko'p qirrali muammo bo'lib, ko'proq iqtisodiy masalalarni hal etishga qaratilgan. Ratsionalizatorlik fikrlari ma'lum talablarga javob berishi kerak:

- birinchidan, texnik yechimga ega bo'lishi;
- ikkinchidan, yangilik bo'lishi;
- uchinchidan, foydali bo'lishi kerak.

Ilmiy-amaliy taraqqiyotning o'sishi ko'p va murakkab bilimlar hamda axborotlarga bog'liq. Iqtisodiyotning barcha sohalari bo'yicha har yili yangiliklar soni bir qancha ko'payadi. Zarur bo'lgan axborotlarni yig'ish -juda murakkab ish. Shuning uchun hozirgi kunda tabiatni bilishga oid bilimlardan tashqari, bu bilimlardan insonning o'zi foydalanishi katta ahamiyatga ega. Hozirgi davrda kashf etilgan yangiliklar bo'yicha axborotlarni saqlash, ishlov berish va xodimlarga yetkazish yo'llari qidirilmoqda, har bir davlatda ilmiy-amaliy axborotlar bo'yicha maxsus tashkilotlar tuzilgan, ular fan, texnika va ishlab chiqarishni rivojlantirishga omil bo'lib xizmat qiladi.

Professional ta'limda ixtirochilik g'oyasini ishlab chiqishda ijodkor talabalarning bilimlar bankidan foydalanishi izlanishning samaradorligini oshiradi. Bilimlar banki – ma'lum vazifani bajaruvchi ob'ekt sinfiga oid bo'lgan va ishlash mezonlari, ketma-ketligiga ko'ra tizimlangan, uzluksiz ravishda boyitib boriladigan axborot va ma'lumotlar majmui sifatida ishlab chiqiladi. Bunda beriladigan ma'lumotlar imkon darajasida qisqa va lo'nda ifodalaniib, tegishli bo'limlarga joylashtirilganligi sababli axborot jamlamalarining juda ixcham bo'lishiga erishiladi. Bilimlar bankining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning uzluksiz ravishda yangi ma'lumotlar bilan boyib borishidir. Bu vazifani amalga oshirishda ikki usuldan foydalaniladi: birinchi holatda o'qituvchi o'z ustida qo'shimcha ishlashi natijasida olgan yangi bilimlarini doimiy ravishda bilimlar bankiga kiritib boradi. Ikkinchi holatda talaba tomonidan taklif qilingan axborot o'qituvchi tomonidan tahrir qilinadi va bilimlar bankiga kiritiladi.

Professional ta'limda ijodiy-amaliy faoliyat samaradorligi tobora ko'proq darajada axborotlar bilan ishlash tezligi va unumdorligiga bog'liq bo'lib borayotganligini hisobga olib, bilimlar bankini ishlab chiqishda quyidagi mezonlarga amal qilinadi:

1. Axborotlarni jamlash. Katta hajmdagi axborotlar ichidan samarali texnika va texnologiyalarni ishlab chiqishning istiqbolli yo'nalishlari haqida xulosa chiqarish uchun eng yangi axborotlardan to'laroq foydalanish.

2. Axborotlarni saralash va eng ahamiyatlilarini ajratib olish. Saralangan axborotlar bilan ishlash ijodiy yechimni ishlab chiqish uchun sarflanadigan vaqtni tejaydi va uning yuqori ijodiy-amaliy saviyada bo'lishiga xizmat qiladi.

3. Ahamiyatli axborotlarni tasniflash – har bir ma'lum holat uchun tahlil qilinishi lozim bo'lgan axborotlar hajmini kamaytirish va qiyosiy tahlilni amalga oshirishda zarur axborotlarni topish tezligini oshirish uchun xizmat qiladi.

4. Axborotlarni tabaqalash. Axborotlarni samarali texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish nuqtai nazaridan tabaqalash, ularning tahlilini tadqiqotning har bosqichida eng qimmatli ma'lumotlardan boshlash imkonini beradi.

5. Tasniflangan axborotlarni tizimlash. Tarqoq holdagi aralash dalillarni tahlil qilishdan ko'ra muammoning umumlashgan ko'rinishi bilan ishlash texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish hamda foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

6. Tizimlangan axborotlarning ko'rgazmaliligini oshirish, ya'ni matn holdagi axborotlardan turli ko'rinishdagi grafik tasvirlarga o'tish. Bunda yangi, samarali texnika va texnologiyalar ishlab chiqish bilan shug'ullanayotgan barcha talabalar uchun axborotlar majmuasidan foydalanish imkoniyati ortadi.

7. Axborotlardan kompyuterlar yordamida foydalanish. Ixtirochilik faoliyatida tahlil qilinishi lozim bo'lgan axborotlar hajmi ortib borayotganligi – tadqiqotchilar aqliy mehnatini engillashtirishda zamonaviy axborot texnikalaridan foydalanishni taqozo etmoqda.

Talabalar ijodiy-amaliy faoliyatini shakllantirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining qo'llanilishi to'g'risidagi fikrlarimizni quyidagicha xulosalaymiz:

kompyuter talabani ixtiro g'oyasi va yechimi yuzasidan qaror qabul qilishida axborotlar bilan ta'minlaydi va hisoblash ishlarini bajaradi, murakkab holatlarda aqliy-irodaviy sifatlarni maqsadga muvofiq yo'naltirishga xizmat qiladi;

kompyuterlar oddiy holatlarda zarur qarorlarni dastur asosida qabul qiladi va ularni amalga oshiradi;

kompyuterlar bajarilayotgan amallarni nazorat qiladi va xatoga yo'l qo'yilgan holatlarda talabani ogohlantiradi;

yangi yechim ishlab chiqishda murakkab hisob ishlarini tez va aniq bajaradi.

Kishilarning tafakkuri yangi iqtisodiy munosabatlarni tiklashga, moddiy ne'matlar ishlab chiqarishga astoydil kirishib doimo yonib yashash hissi bilan sug'orilgan bo'lishi lozim. Mana shunday ijobiy xislatlarga boy insonni tarbiyalash pedagogik soha mutaxassisleri, professional ta'lim muassasalarida oila va jamiyatning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev ta'limdagi eng asosiy vazifa talabalar bilimni baholash, o'quv dasturlari hamda mavjud ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishdan iborat ekanini ta'kidlab: "Iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda professional ta'lim tizimi taraqqiyotning lokomotivi bo'lish o'rniga, zamon bilan hamqadam bo'lmayotgani achinarlidir. Mehnat bozoridagi tarkibiy o'zgarishlarga javob beradigan, yoshlarimizga kasb-hunar o'rgatadigan, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantiradigan tizim yo'q desak, bu ham achchiq haqiqat," – deb aytganlari bejiz emas. Shuningdek, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda mazkur "yo'l xarita"larida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Har bir filial, fakultet va qo'shma dasturlar bo'yicha tegishli huquqiy hujjatlarni sifatli ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliy ijrosini ta'minlash zarurligi ta'kidlandi.

Yoshlarimiz ongida yuksak ma'naviy komillik, yurt ozodligi, obodligi va xalqimiz farovonlik yo'lida fidokorona mehnat qilish, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan bo'lish, o'zida irodaviy sifatlarni tarbiyalay olish, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodiy-amaliy faoliyat hamda mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo'lish kabi xislatlarni uyg'otish hozirgi davrning muhim vazifalaridan biri bo'lmoqda. Zamon talabiga mos kadr bo'lib etishi uchun faqat nazariy bilim va amaliy ko'nikmaga ega bo'lishning o'zi etarli emas, balki mustaqil va ijodiy fikrlash zarurati ham muhimdir.

Professional ta'limning asosiy maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, professional ta'lim mutaxassisi talablariga o'zi tanlagan yo'nalishi yuzasidan talabga javob bera oladigan respublikaning ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir.

Demak, yuqoridagi uzluksiz ta'lim tamoyillaridan kelib chiqib, o'qituvchilar tomonidan alohida qobiliyatlarga ega bo'lgan iqtidorli va iste'dodli yoshlarni tanlash, ularni aniq fan yoki soha bo'yicha maqsadli tayyorlash va o'quv-usuliy jihatdan yo'naltirish zamonaviy ta'limning muhim shartlaridan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. To'raqulova M.Q. "Iqtidorli talabalar bilan ishlashda ta'lim turlari va vositalarini tanlash". Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 5-son, Buxoro 2019-yil. 104-108 b
2. Туракулова, Б. Б. (2022). Повышение квалификации персонала на основе интеграции технических подразделений и производственных предприятий. *Universum: психология и образование*, (10 (100)), 8-11.
3. Тухтаева, З. Ш., & Искандарова, Г. Б. (2014). Обеспечение межпредметной преемственности при обучении специальным предметам. *Молодой ученый*, (8), 882-884.
4. Zebo, T. X., & E'zoza, E. (2023). OLIY TA'LIMDA TALABALAR BILAN OLIB BORILADIGAN O'QUV-METODIK VA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(17), 489-496.
5. Туракулова, Б. Б. (2022). ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF HIGHER EDUCATION. In *Дизайн, технологии и инновации в текстильной и легкой промышленности (ИННОВАЦИИ-2022): сборник материалов Международной научно-технической конференции. Часть 1.*—М.: ФГБОУ ВО «РГУ им. (p. 154).

TALABALARDA LOYIHALASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH ORQALI KASBIY MAHORATNI RIVOJLANTIRISH

Asrorova Saodat Abdullo qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

asrorovasaodat19@gmail.com

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining loyihalash ko'nikmasining shakllanganlik holati, zamonaviy texnik –texnologik vositalar orqali loyihalashning afzalliklari, loyihalash ko'nikmasini va shaxsiy qobiliyatni rivojlantirishning ahamiyati, jumladan o'quv jarayoni va amaliy jarayonlarda birgalikda takomillashtirish, bu borada o'qituvchilardan talab qilinadigan malaka hamda salohiyat to'g'risida ham yoritib berilgan.*

***Tayanch iboralar:** ta'lim, shaxsiy qobiliyat, innovatsion texnologiya, loyihalash, amaliyot, loyihalash jarayoni, oliy ta'lim, imkoniyatlar.*

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL SKILLS THROUGH FORMATION OF DESIGN SKILLS IN STUDENTS

Asrorova Saodat Abdullo qizi

Basic doctoral student of Bukhara State Pedagogical Institute

asrorovasaodat19@gmail.com

***Abstract.** In this article, the state of formation of design skills of students of higher education institutions, the advantages of designing through modern technical and technological tools, the importance of developing design skills and personal abilities, including joint improvement in the educational process and practical processes, from teachers in this regard the required qualification and capacity are also explained.*

***Key words:** education, personal skills, innovative technology, design, practice, design process, higher education, opportunities.*

Jahon ta'lim tizimida rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan “Ta'lim-2030 Inhxon deklaratsiyasi”da “Hozirgi davrda bilim kuch manbai, ta'lim esa uni imkoniyatlarini oshiradi. Bu ikki jihat rivojlanish formulasining ajralmas qismidir” deb e'tirof etilgan [1]. Bundan tashqari oliy ta'limni standartlashtirish kabi umumiy

tandensiyalarga e'tibor berilmoqda. Shu bilan birga, hozirda yangi avlod ta'lim resurslariga, birinchi navbatda, axborot resurslariga aloxida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim haqidagi zamonaviy tushuncha "didaktik vositalar" tushunchasidan ko'ra "ta'lim resurslari" tushunchasi ommalashib bormoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida ilg'or texnologiya va dasturiy "ta'lim resurslari" dan keng foydalanishga katta e'tibor qaratilayotganligini hisobga olsak, o'qitishning zamonaviy usullarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integratsiyalashni taqozo etadi. Bu borada talabalarning shaxsiy qobiliyatlari, kasbiy kompetentligi, jumladan, axborot-texnologik kompetensiyasini rivojlantirishning samarali modellarini ishlab chiqish, interaktiv ta'lim muhitini tashkil etish va amalga oshirishning didaktik ta'minotini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy sharoitida ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini, jumladan, oliy ta'limni isloh qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu o'zgarishlarning asosiy maqsadi, ijodiy faoliyatga qodir bo'lgan shaxsni shakllantirishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish ta'limni insonparvarlashtirish g'oyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, oliy ta'limning maqsadli tamoyillaridan biri sifatida talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish muammosini dolzarblashtirishni o'z ichiga oladi. "Ijodkor shaxs", "ijodiy yondashuv", "ijodiy yutuqlar", "ijodiy o'ylov", "ijodkorlikning namoyon bo'lishi" ushbu tushunchalar jamiyatda yuqori malakali kadrlar tayyorlashda, zamonaviy kasbiy mahorat ko'rsatkichlarini aniqlashning asosiy mezonlaridan biri bo'lib, eng yaxshilar orasida eng yaxshisi hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda talabalarni shaxsiy ijodkorlik qobiliyatlarini loyihalash jarayonlari orqali shakllantirish va rivojlantirish bugungi kundagi texnika yo'nalishidagi o'qituvchilarining asosiy vazifalari sanaladi.

Shunday qilib, loyihalash atamasining asl mazmun mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, loyihalash bu mo'ljallangan obyektlar (apparat va asboblari, bino va inshootlar, yo'l va ko'priklar, mashina va jihozlar, samolyot va kosmik kemalar, radiopriyomnik va televizorlar, telefon va kompyuterlar, kiyim-bosh va poyabzallar, mebellar hamda boshqa turli-tuman mahsulotlarning yangi xillari va namunalari)ni qurish va yaratish uchun ularning loyihalarini tuzish va chizish jarayoni. Fan va texnikaning barcha sohalarida qo'llaniladi. U ilmiy tadqiqot ishlari, iqtisodiy va texnikaviy hisob-kitob, smeta tuzish, chizmachilik va chizmalarni ko'paytirish amallarini o'z ichiga oladi, chizmalar asosida ko'pincha obyekt (bino, mashina va boshqalar)ning maketi tayyorlanadi. Biror bir obyektни individual (yakka tartibda) va tipaviy (ommaviy tartibda) loyihalash mumkin. Loyihalashni maxsus tashkilotlar, firmalar yoki guruhlar amalga oshiradi. Bular sohalar bo'yicha yoki ixtisoslashtirilgan tarzda ish yuritadi. Biror obyektни loyihalashda standartlashtirilgan detallar, agregatlar, uzellar va me'yoriy hujjatlardan keng foydalaniladi.

Qobiliyat esa insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi. Qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat ko'nikma, malakadan farq qiladi. Qobiliyat insonga berilgan in'om sifatida qaraladi. Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobiliyat aynanlashtiriladi.

Qobiliyat inson tomonidan ko'nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo'lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Shuning uchun qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim. Barcha qobiliyat uchun tayanch xususiyat - kuzatuvchanlikda, ya'ni insonni fahmlash, obyektidan u yoki bu alomatlarni ko'ra bilish, ajrata olish ko'nikmasidir. Qobiliyatning yetakchi xususiyatlaridan biri - narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir. Loyihalash jarayonida esa bu eng asosiy omil sifatida xizmat qiladi va qobiliyatning yanada rivojlanishida imkon yaratadi. Chunki har bir loyihalaydigan mutaxassis shaxsiy qobiliyatlarini ishga solidi va bajarayotgan loyihasini shu orqali takomillashtiradi.

Loyihalash ushbu bosqichlarda amalga oshiriladi: loyiha topshirig'i, loyiha yechimi va loyiha sinovi. Loyiha topshirig'ida bo'lajak obyektning qurishning shartsharoitlari va maqsadga muvofiqligi asoslanadi va uning tafsilotlari belgilanadi. Loyiha yechimida bo'lajak obyektning re'jasidan tortib toki tayyor holigacha bo'lgan ishlar belgilab olinadi. Loyiha sinovida tayyor loyiha maxsus tuzilgan dastur asosida tekshiriladi.

Shuni hisobga olgan holda, bugungi kunda texnika yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun loyihalash qobiliyati, loyihalash ko'nikmasi va loyihalash malakasi juda muhim xususiyat hisoblanadi. Sababi loyihalash jarayonini avtomatlashtirishga ayniqsa keng e'tibor berilmoqda. Bunda tashkiliy-texnikaviy vositalar, elektron-hisoblash mashinalari, kompyuterlar, avtomatika vositalaridan foydalaniladi. Bu vositalar majmui "inson va mashina" tizimini, ya'ni avtomatlashtirilgan loyihalash tizimini tashkil qiladi. Bu tizim insonni murakkab va sermehnat hisoblash, qiyin jadvallarni tuzish ishlaridan ozod qiladi, loyihalash jarayonini ancha tezlashtiradi. Shu sababli ham talabalarni ushbu yo'nalishga puxta tayyorlash va qobiliyat, malakalarini shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Bunda oliy ta'lim muassasasining moddiy texnik bazasi yetarlicha zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgani va jahon ta'lablariga javob beradigan, izlanuvchan zamonaviy bilimlarga ega, IT texnologiyalaridan foydalana va o'rgata oladigan va albatta ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlikda ish olib boradigan

o'qituvchilarning mavjudligi muhim omil sanaladi. Negaki bugungi kunda innovatsion texnologiyalar, soniya sayin rivojlanib ketayapti, va har qadamda uchrayapti. Istalgan sohada buni guvohi bo'lishimiz mumkin. Ayniqsa, texnika sohasi bu sohalarning eng oldi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, loyihaga asoslangan o'qitishda loyihani bajarishga kirishish, aniq muammoni belgilash, yo'naltirishni tushunishga doir butun jarayon (o'quv maqsadi, rejasi, mazmuni, shakllari, vositalari, dars jadvali, konsultativ faoliyat, monitoring, baholash) qamrab olinishini taqozo etishi uni "texnologiya" sarhadlaridan chiqish hamda "ta'lim amaliyoti turi" nuqtai nazaridan qarash mumkinligini bildiradi, va buni takomillashtirish uchun imkon yaratadi. Shuni hisobga olgan holda, talabalarning loyihlash ko'nikmasini oshirish bugungi kunda texnologik ta'lim yo'nalishidagi asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Клековкин Г.А. Преемственность в обучении. в поисках теоретических оснований // – Самара, 2000. – С. 328.
2. Olimov, K. T., & Sh, T. Z. (2019). Integration of Special Subjects, Opportunities and Solutions. Eastern European Scientific Journal, (2), 67-70.
3. Тухтаева, З. Ш. (2011). Межпредметные связи и преемственность в профессиональном образовании. Профессиональное образование. Столица, (9), 43-44.
4. Sh, T. Z., & Kh, S. K. (2020). Innovative forms of education in Uzbekistan. International journal of innovations in engineering research and technology. IJIERT, 7(4), 258-261.
5. Sharifovna, T. Z., & Bakhriniso, T. (2020). Modernization of higher education by solving integration problems. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(12 Part II), 44-49.
6. Тухтаева, З. Ш. (2012). Методика межпредметной преемственности в профессиональном образовании.
7. Тухтаева, З. Ш. (2016). Касб-хунар таълимида фанлараро узвийликни таъминлаш методикаси.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANI TANLASH VA AMALGA OSHIRISH

Siddiqova Sadoqat G'afforovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
sadoqats@mail.ru

Saidjonova Parvina Shuxratovna

"Sity Sport Bukhara" MChJ menejeri, erkin tadqiqotchi

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada pedagogik texnologiyalar muammolari, pedagogik texnologiyaning asosiy negizi, pedagogik jarayonni amalga oshirish mexanizmi va kafolati, o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni tanlash hamda qo'llash, interfaol metodlar, ta'limning maqsadi kabi masalalar yoritib berilgan.*

***Tayanch iboralar:** pedagog faoliyati, pedagogik texnologiya, pedagogik jarayon, ta'limning maqsadi, zamonaviy talablar, metod tanlash.*

***Abstract.** This article describes issues such as the problems of pedagogical technologies, the main basis of pedagogical technology, the mechanism and guarantee of the pedagogical process, the selection and application of innovative technologies in the educational process, interactive methods, and the purpose of education.*


***Key words:** pedagogic activity, pedagogical technology, pedagogical process, purpose of education, modern requirements, method selection.*

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasidagi muayyan nazariy bilimlarni talabalarga etkazilib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, talabalar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash ta'lim beruvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Pedagogik texnologiyalar muammolarini o'rganayotgan ta'lim beruvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, innovatsion texnologiya – bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda ta'lim berish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan masofaviy ta'lim yoki turli xil texnikalardan foydalanish bilan belgilanadi.

Boshqa olimlarning fikricha esa, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – bu ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog‘liq deb hisoblanadi, ya’ni ta’lim berish jarayonida maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasi ta’lim beruvchi va talaba o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o‘zlari xulosa qila olsalar, o‘zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, ta’lim beruvchi bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu, ta’lim berish jarayonining asosi hisoblanadi.

Har bir mashg‘ulot, mavzu, o‘quv predmetining o‘ziga xos texnologiyasi mavjud, ya’ni o‘quv jarayonidagi innovatsion texnologiya – talabanning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.



Yuqoridagi 1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham ta’lim beruvchi, ham talabanning hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo‘ygan maqsad, tanlagan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya’ni texnologiyaga bog‘liq.

Ta’lim beruvchi va talabanning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda talabalarniig bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film, tarqatma material, chizma va

plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular ta'lim beruvchi va talabaga bog'liq.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda talabalarning o'quv va ijodiy faolligini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Metod – (grekcha «*metodos*» so'zidan olingan bo'lib, izlanish yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot ma'nosini anglatadi) aniq vazifani yechishga bo'ysundirilgan, borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish jarayonlarining yoki yo'llarining yig'indisi.

O'qitish metodi – ta'lim oluvchining ehtiyojiga asoslangan holda muayyan maqsadga erishishga qaratilgan faoliyatni tashkil etishning tartibga solingan yo'llar yig'indisi.

Interfaol metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish metodlari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va ta'lim oluvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday oliy ta'lim tizimidagi metodlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- talabani mashg'ulot davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;
- talabani bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;
- ta'lim beruvchi va talabani hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirishi.

Har qanday ta'limning maqsadi – bilimni hamda uni amalda qo'llay bilish ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish, shunga zarur shaxs sifatlari va ko'rsatmalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

O'quv faoliyati harakatida maqsadning barcha komponentlari amalga oshar ekan, turli metodlarni birgalikda qo'llash zarur. Shuning uchun ta'lim metodini tanlashda eng asosiy omil bo'lib, aniq o'quv mashg'ulotining didaktik vazifasi xizmat qiladi.

Metod tanlash nafaqat o'quv maqsadidan, balki o'quv material mazmuniga va bu fanning murakkabligiga bog'liq. Bundan tashqari metodlarni tanlashda tinglovchilarning soni, ularning o'quv imkoniyatlari, ta'limning davomiyligi, o'quv-moddiy sharoitlar va ta'lim beruvchining mahoratiga bog'liq.

Demak, bugungi kunda ta'lim sohasida fan va texnikaning so'nggi yutuqlari asosida ishlab chiqilgan audio, video, telekommunikatsiya va informatsion texnika va texnologiyalarning qo'llanilishi katta ahamiyat kasb etib, ularning didaktik imkoniyatlari bilan tanishib chiqish va mashg'ulotlarda ularni qo'llashni o'rganish pedagoglar uchun ularning faoliyatida katta yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Daminov, L. O., & Tukhtaeva, J. P. T. Z. S. (2020). Nigora Zakiraliyeva Sayfullaeva, Khurshid Nozimovich Khakimov The Importance of Game Technologies in the Training of Future Vocational Teachers on the Basis of Competent Approach. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, (4), 6669-6674.

2. [O 'QUV MASHG 'ULOTLARINI TASHKIL ETISHGA QO 'YILADIGAN TALABLAR](#). T Zebo, S Muhayo - *Innovations in Technology and Science Education*, 2023

3. Тўхтаева, З. Ш., Каноатова, Д. С., & Жамолов, Ж. Т. (2019). Интеграционные процессы в развитии системы высшего образования в Узбекистане. *Вестник магистратуры*, (4-3 (91)), 62.

4. Sharifovna, T. Z. (2019). ORGANIZATIONAL-METHODOLOGICAL INTER-OBJECTIVE INTEGRATIONS IN TEACHING SPECIAL DISCIPLINES. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).

5. Bakhtiorovna, T. B. (2020). Technical innovative-educational environment. *Novateur publications international journal of innovations in engineering research and technology*, 7(4), 246.

6. SHARIFOVNA, T. Z., & FAKHRITDINOVNA, M. S. (2020). The Theoretical Basis for Ensuring the Continuity of the System" *Preschool-Primary-Higher Education*. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(4), 1-4.

7. Тухтаева, З. Ш. (2012). Методика межпредметной преемственности в профессиональном образовании.

OLIV TA'LIM MUASSASALARI O'QUV JARAYONIDA INTEGRATSIYA MUAMMOLARI

Siddiqova Sadoqat G'afforovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
sadoqats@mail.ru

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonida integratsiya muammolari, ta'lim jarayonining integrativ va funksional xususiyatlari hamda ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonalarini integratsiyasini va ta'lim sifatini ta'minlash masalalari va imkoniyatlari yoritib berilgan.*

***Tayanch iboralar:** oliy ta'lim, ta'lim jarayoni, integratsiya, ta'lim sifati, ta'lim muassasasi, funksional xususiyatlar, qo'llash imkoniyatlari.*

***Abstract.** This article describes the problems of integration in the educational process of higher educational institutions, the integrative and functional features of the educational process, as well as the issues and possibilities of ensuring the integration of educational institutions and production enterprises and the quality of education.*

***Keywords:** higher education, educational process, integration, quality of education, educational institution, functional characteristics, application possibilities.*

Kirish.

Oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, ta'limda innovatsion faoliyat, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni jalb etishga oid ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratilmoqda.

Xalqaro tajribalarga ko'ra, oliy ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalash hamda nazariy va amaliy kasbiy ta'limni uyg'unlashtirish, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishni taqozo etadi. Muayyan vaziyatlarni to'g'ri baholay oluvchi iqtisodiyotning turli tarmoqlarida mehnat faoliyatini amalga oshira oladigan shaxs sifatida tarbiyalash uchun ularda zarur va yetarli darajadagi kasbiy tayyorgarlikni nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar

integratsiyasini ta'minlash vositasida shakllantirish zarurligini taqozo etmoqda. Qayd etilgan muammolar va vazifalar tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Texnik oliy ta'lim oldida, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni modernizatsiyalashning muhim vazifalaridan biri sifatida ta'limni zimini isloh qilish, modernizatsiyalash va bo'lajak muhandislarni innovatsion va texnik-texnologik yondashuv vositasida tarbiyalash, xorijiy tajribalarni va sohaning so'nggi yutuqlarini o'rganish, qo'llash va takomillashtirishga hissa qo'shish kabi dolzarb va keng qamrovli muammolar yechimi turibdi.

Materiallar va metodlar.

Innovatsion ta'lim tizimining eng muhim jihatlaridan biri uning ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonalarini integratsiyasini ta'minlashdan iboratdir. Binobarin, bu hol tarbiya, ta'lim, siyosiy va kasbiy tayyorgarlik masalalarini hal etishga yaxlit yondashuvni taqozo etadi [1].

Integratsiya – juda keng ma'nodagi tushuncha. Integratsiya nima? “Integratsiya” – lotincha “integration” so'zidan olingan bo'lib, “integr” to'liq yaxlit, bir butun degan ma'nolar anglatadi. Integratsiya – o'zaro bog'langan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq deganidir. Integratsiya turli xil qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish jarayonidir [6].

Integratsiya jarayonlari tashkillashtirilgan tizimlarda bo'lishi mumkin – bu holda ular tizim butunlik darajasini va tashkillashtirilgan darajasini ko'taradi. Integratsiya jarayonlari oldin bog'lanmagan elementlarni biriktirish asosini hamda shakllangan tizimlarda ham yuz berib, natijada tizimni bir butunligi va tashkillanish darajasi oshishiga, element va tarkibiy qismlar o'rtasida aloqadorlik murakkablashuviga olib keladi. Bir butunlikka birikkan tarkibiy qismlar turli xil darajada avtonomlikka ega bo'ladi [5].

Bevosita shu omillarga bog'lab olib borilayotgan pedagogik tadqiqotlarda “izchillik”, “integratsiya” kabi tushunchalar ishlatilib, ular turlicha talqin qilinmoqda. Manbalarda “integratsiya” tushunchasiga turlicha ta'rif berilgan. Qomus.info online ensiklopediyasida integratsiyaga quyidagicha ta'riflar berilgan:

integratsiya – tizim yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha;

fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni, ya'ni differentsiatsiya bilan birga kechadi.

Izohli lug'atda esa, integratsiya – (lotincha “integer” – butun) mustaqil xo'jalik faoliyatining milliy, mintaqa va xalqaro miqyosda o'zaro qo'shib yaxlit xo'jalik tizimini tashkil etishi deb izohlanadi.

Integratsiyaning shakllari va mexanizmlari keng qamrovli. Jahon tajribasi ko'rsatadiki, integratsiya jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishi nisbatan uzoq davrni qamrab oladi. Bu jarayonlarning amal qilish mexanizmi esa mantiqiy ketma-ketlikda, bosqichma-bosqich shakllanadi. Keng miqyosli integratsiya va globallashtirish jarayonlari jahon taraqqiyotining hozirgi paytdagi muhim xususiyatlaridan biri ekanligini etirof etgan holda, ularning kuchli mafkuraviy tasir o'tkazish vositasi ekanini ham unutmazlik darkor [2].

Natijalar.

Mintaqaviy integratsiya jarayonlarida mamlakatlar ishtiroki, davlatlararo savdoning rivojiga, erkin raqobatning to'g'ri shakllanishiga, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuviga, jahon bozoriga kirib borish imkoniyatining ortishiga zamin yaratib beradi [8].

Iqtisodiyotda qo'llaniladigan bir qator atamalar kabi "integratsiya" (integratio) atamasi ham lotin tilidan kirib kelgan bo'lib, "qismlarni butunlik tarkibida birlashtirish" ma'nosini ifodalaydi. Jahon iqtisodiyotida integratsion jarayonlar to'g'risida mutaxassislar orasida yagona qarashlar konsepsiyasi mavjud emas.

Ta'limda integratsiya muammosining paydo bo'lishi tarixiga nisbatan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu muammo pedagogikada insoniyatning oldingi avlodida to'plangan ijtimoiy tajribani udumlar, an'analar, xulqning etik me'yorlari, yashash qoidalari va hokazolar orqali uzatish ehtiyoji bilan bog'liq ravishda paydo bo'ldi.

Bunday ta'lim integratsiyasi turli darajada namoyon bo'ladi: fanlar ichidagi (mazmuniy) integratsiya; fanlar orasidagi integratsiya; ta'lim turlari fanlari orasidagi integratsiya.

Turli darajadagi integratsiyani ta'lim jarayoniga joriy etish ta'lim mazmuniga, o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari, ta'lim metodlari va vositalariga, ta'lim shakliga ta'sir ko'rsatadi. Integratsiyalashgan ta'lim jarayoni odatdagi dars jarayonlaridan tubdan farq qiladi, unda fan mazmuni chuqur tahlil qilinadi, mavzular aloqadorligi o'rganiladi.

Falsafiy va ilmiy pedagogik adabiyotlarning tahlili shundan dalolat beradiki, "integratsiya" ko'p qirrali tushuncha bo'lib, unda falsafiy, pedagogik, psixologik jihatlarni ajratish mumkin [3]. "Integratsiya" tushunchasini yaxlitlikda tadqiq qilishning markaziy falsafiy va uslubiy asosi bo'lib, tabiat, jamiyat va ong rivojlanishining umumiy qonunlari haqidagi fan sifatida dialektika xizmat qiladi.

Demak, integratsiya falsafiy, pedagogik va psixologik jihatlarga ega.

Falsafiy jihatdan integratsiya kategoriyasi "rivojlanish" kategoriyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning mohiyati "harakat" kategoriyasi bilan solishtirishda ayon bo'ladi. Integratsiya rivojlanayotgan barcha hodisa, jarayonlarga taalluqli bo'lgan

umumiy va muhim aloqalarni aks ettiradi hamda yangidan rivojlanishni aniqlaydi. “Integratsiya” tushunchasi ko‘p darajali bo‘lib, xorijiy olimlar va pedagoglar integratsiya tushunchasiga turlicha ta’riflar berishgan [8].

Buyuk faylasuflar ham evolyusiya muammosini o‘ziga xos tarzda hal etdi, evolyusiyaga xos quyidagi muhim belgilarni ko‘rsatdi:

oddiydan murakkabga o‘tish (integratsiya);

bir xillikdan ko‘p xillikka o‘tish (differentsiatsiya);

beqarorlikdan barqarorlikka o‘tish [7, 9].

Muhokama.

Ilmiy bilimning informativligi muammosiga nisbatan qiziqish fanning hozirgi davrdagi rivojlanish qonuniyatlari, avvalo uning samaradorligini oshirishga ko‘maklashuvchi bilishdagi integratsiya jarayonlari bilan belgilanadi. Fan integratsiyalashuvining muhim unsurlaridan biri bo‘lgan ilmiy axborot integratsiyasi ilmiy axborotning bir-biriga, fanning bir tarmog‘idan boshqa tarmog‘iga o‘tishida namoyon bo‘ladi.

Integratsiya – obyektiv hayotiy jarayon. Globallashayotgan hozirgi hayotning integratsiyalashuv jarayonida mustaqillikni saqlab qolish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu esa xalqaro hamkorlikda quyidagi prinsiplarga qat’iy amal qilishni taqozo etmoqda:

integratsiyalashgan birlashmalarga faqat tomonlarning tengligi asosida qo‘shilish lozim (hatto siyosiy-iqtisodiy potensial turli-tuman bo‘lgan taqdirda ham);

milliy manfaatlar deklaratsiyasiga asoslanish, ularning mintaqaviy va boshqa manfaatlar oldida ustuvorligi;

ishtirok etishning ixtiyoriyligi va u yoki bu ittifoqni tanqid qilish imkoniyati mavjudligi.

Misol sifatida jamiyatda integratsiyalashuv, sivilizatsion integratsiyalashuv, fanda integratsiyalashuv va h.k. tushunchalar mavjud bo‘lib, jamiyat yoki ayrim davlatlarning integratsiyasi majburiy o‘zaro manfaat yoki maqsad, intilish, qadriyat kabilar asosida joriy etiladi. Hozirgi davrda davlatlararo integratsiyalashuvlar jarayonlari ham jadal rivojlanmoqda. Bu esa xorijiy tajribalarni o‘rganish va ta’limning ma’lum jabhalarida keng qo‘llash imkonini beradi.

Integrativ ta’lim atrof-muhit ta’sirida o‘z-o‘zini anglash ehtiyojini yuzaga chiqaradi. Ta’lim tizimida integratsiyani joriy etish bugungi kunda ta’lim muassasasi va jamiyat oldidagi qator vazifalarni hal qilish imkonini beradi. Bugungi kunda olimlar integrativ-pedagogik konsepsiyalar haqida, ya’ni u yoki bu sohadagi integrativ-pedagogik faoliyat mazmuni va yo‘nalishini belgilab beruvchi tizimlashtirilgan qarashlar, qoidalar va g‘oyalarning birligi to‘g‘risida so‘z yuritmoqdalar [3, 9].

Ta'limning "integratsiyalashuvi" jarayonini bir necha xil ko'rinishda ko'rib chiqish mumkin: ta'lim turlariaro, bosqichlararo, fanlararo, mavzulararo integratsiya sifatida.

Bunda integratsiyaning oxirgi ko'rinishlarida fanlarni o'qitish uslubi, ya'ni ularning mazmunini bayon etilish metodiga tayangan holda turdosh fanlar mazmunidan foydalana bilish, mustaqil ishlashga harakat qilish, shuningdek, uslubiyat va mazmunan kuzatiladigan o'xshashlikni qo'llashda kuzatiladi.

Xulosa.

Respublikamiz pedagog olimlarining integratsiya masalalariga ilmiy qarashlarini ko'rib chiqaylik. Bugungi uzluksiz ta'lim talablaridan kelib chiqib, mazkur muammo yuzasidan yig'ilgan fikr-mulohazalarga ilmiy-amaliy asoslangan aniqliklar kiritish hamda kasbiy-pedagogik ta'lim tizimi uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashni amalga oshirish fursati etib keldi.

Hozirgi vaqtda integratsiya – raqobatbardosh kadrlar ichki va tashqi bozorida ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat kurashining muhim vositalaridan hisoblanadi va bunday kadrlarni tayyorlash maxsus ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni, ularni ta'lim jarayonida amalga qo'llashni talab etadi. Har qanday mamlakatning jahon bozorida raqobatbardoshligi nafaqat tabiiy resurslarning mavjudligi, balki birinchi navbatda, zamonaviy muntazam yangilanib turgan texnologiyalarni o'zlashtirishga qodir, yuksak bilim va intizomli mutaxassisni tayyorlashi bilan ham belgilanadi.

Shu nuqtai nazardan oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonida integratsiya muammolari hozirgi kunda ham hal etilishi kutilayotgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2018 йил 05 iyundagi PQ-3775-sonli "Олий таълим муассасаларида таълим sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori

2. Boboёв X. "Avesto" – SHarq xalqlarining bebaho yodgorligi "Avesta" – Bessennoe bogatstvo narodov Bostoka // Toshkent moliya instituti. – Toshkent, 2004. – 56 b.

3. Kybasov O.P. Integratsiya v obrazovanii: sushnostnaya xarakteristika // Kazanskiy pedagogicheskiy jurnal. – Kazan, 2006. – S. 70-84.

4. Maklakov A.G. Obshchaya psixologiya // Seriya «Uchebnik novogo veka». – SPb.: Piter, 2001. – 592 s. ISBN 5-272-00062-5.

5. Machylis B.B. Rol новых информационных технологий в обеспечении преемственности естественнонаучного образования в средней и высшей школе // diss.rsl.ru. – М.: RGB, 2003. –152 с.
6. Spenser G. Politicheskie sochineniya: в 5 томах. 3-е изд. // – Челябинск: Sotsiym, 2020. – Т.3. Istoriya politicheskix institutov. – 426 с.
7. Тухтаева, З. Ш., & Iskandarova, G. B. (2014). Пути осуществления межпредметной связи и преемственности. Молодой ученый, (8), 884-887.
8. Olimov, K. T., & Sh, T. Z. (2019). Integration of Special Subjects, Opportunities and Solutions. Eastern European Scientific Journal, (2), 67-70..
9. Sharifovna, T. Z., & Bakhriniso, T. (2020). Modernization of higher education by solving integration problems. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(12 Part II), 44-49.
10. Sh, T. Z., & Kh, S. K. (2020). Innovative forms of education in Uzbekistan. International journal of innovations in engineering research and technology. IJIERT, 7(4), 258-261.
11. To‘xtayeva, Z., Usmonova, N., & Umedova, M. M. (2023). BO ‘LAJAK MUHANDISLARNING LOYIHALASH KO ‘NIKMALARIGA QO ‘YILADIGAN KASBIY TALABLAR. Talqin va tadqiqotlar, 1(27).
12. Sh, T. Z. (2020). Integration of special subjects in higher education. International Engineering Journal For Research & Development, 5(3), 125-131.

O‘ZBEK TILIDA EGANING QO‘LLANISHI HAQIDA

Ummataliyev Ayyubxon Orifjon o‘g‘li

Andijon pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
3-bosqich talabasi

Arabboyeva Mahfuza Akramjonova

Andijon davlat pedagogika
Instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mavjud bo‘lgan ega mavzusiga oid ma‘lumotlar batafsil bayon etilgan bo‘lib, unda eganing gapdagi o‘rni qay darajada ekanligi ko‘rsatilgan va ushbu mavzu yuzasidan eng kerakli ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Substantiv egalar, sintagmatik munosabat, egali gaplar, egasiz gaplar, atov gaplar, so‘z gaplar.

Abstract: In this article, the information on the possessive topic is described in detail, it shows the role of the possessor in the sentence, and the most necessary information on this topic is presented.

Key words: Substantive possessors, syntagmatic relation, possessive clauses, non-possessive clauses, noun clauses, verbal clauses.

Gapdagi hukm qaratilgan, fikr o‘zi haqida borayotgan, belgisi kesim tomonidan aniqlanadigan bosh kelishik formasidagi bo‘lak ega deyiladi. Kesim ifodalagan belgi (keng ma‘noda) egaga tegishli bo‘ladi. Ega ikki tarkibli gapning hokim holatidagi bo‘lagidir. Ega o‘ziga tobe bo‘laklar bilan ega tarkibini hosil qiladi. U o‘z sostavi va kesim sostaviga nisbatan hokim bo‘ladi. Ega kesim orqali ifodalangan harakat, holat, yoki biror belgini tashuvchi shaxs yoki predmetni ko‘rsatib, kim?, nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.¹

Ega gapni tashkil etuvchi markazlardan biri bo‘lib, u absalyut hokim holatdagi bo‘lakdir. Ega funksiyasidagi so‘z doim predmetni anglatishi shart emas, u ba‘zan harakatning nomini angaltishi mumkin (masalan: Intilish foydali, chekish zararli), lekin bu ham keng ma‘noda predmet sifatida o‘ylanadi. Ega qanday so‘z turkumi bilan

¹ G‘.Abdurahmonov, A.Sulaymonov, X.Xoliyorov, J.Omonturdiyev “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”

ifodalanmasin va qanday mazmuni anglatmasin, u bosh kelishikda bo'ladi. Bu forma uning abslyut hokimlik holatini ko'rsatuvchi grammatik belgilardan biridir. Eganing sintaktik holati tartibdan ham bilinib turadi.

Ega vazifasida keluvchi tipik so'zlar otlar va substantiv harakterdagi – ot kabi qo'llanadigan olmoshlardir. Shuningdek, grammatik xususiyatlari jihatidan ot tusida bo'lgan fe'llar – infinitiv, ish otlari va shu ma'nodagi sifatdoshlar ham ega bo'lib kela oladi. Bularidan boshqa so'zlar ega bo'lish uchun substantivlashgan bo'lishi – ot ma'nosida qo'llangan bo'lishi – otlashishi shart. Egalar qanday so'z bilan ifodalanishiga ko'ra ikki yirik guruhga bo'linadi: substantiv egalar va substantivlashgan egalar (Otlar, shu xarakterdagi so'zlar bilan ifodalanadigan egalar va substantivlashgan so'zlar bilan ifodalangan egalar).¹

Ega quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1. Ot bilan: Ko'kda **quyosh** porlaydi.
2. Olmosh bilan: U o'zining otasi dyakon Kalistratov edi (Ch.Aytmatov).
3. Son bilan : **Besh**-o'ning yarmi
4. Sifatdosh bilan: O'qimagandan **o'qigan** yaxshi (maqol).
5. Harakat nomi bilan: **Yashash** – yaxshi , yaxshi **yashash** undan ham yaxshi (kinodan).
6. Otlashgan sifat bilan : **Yo'g'on** cho'zilguncha **ingichka** uziladi (maqol)
7. Undov so'z bilan : Endi rus **urrasi** eshitilganda, rabbimsan deb, holang bir qochib ko'rsin. (asardan)
8. Taqlid so'z bilan : **Guldur-shaldir, tarq-turuq** o'zgarishsiz davom etadi (A.Qodiriy).
9. Frazologik birliklar bilan: ...qishloqdagi bir-ikkita **og'zi kattalar** aslo bo'lmaydi deyishdi (R.Fayziy).
10. Sintaktik birliklar bilan: **Xotinsiz o'tish-xato, bolasiz o'tish** – jafo.(maqol)

Ega gap qurilishida boshqa birliklar bilan sintagmatik munosabatda bo'ladi. Ega shakl va mazmun birligidan iborat bo'lgan butunlik ekan, uning sintagmatik munosabati ham ikki tomonlama bo'ladi:

1. Shakliy sintagmatik munosabat.
2. Mazmuniy sintagmatik munosabat.

Eganing kesim sintaktik shakli bilan bo'lgan munosabati shakliy sintagmatik munosabat hisoblanadi. Bu eganing birinchi darajali munosbatidir. Shu bilan birga, ega o'z ichida boshqa sintaktik shakllar bilan munosabatga kirishib, kesim sintaktik shakli bilan munosabatiga nisbatan bir butunlikni hosil qilishi mumkin. Masalan: Uyga oq halat kiygan kishilar kirib keldi(O'.Hoshomov).

¹ A.G'ulomov, M.Asqarov "Hozirgi o'zbek adabiy tili"

Demak, eganing sintagmatik munosabatini ikki darajaga bo'lish mumkin:

- a) Eganing kesim bilan munosabati.
- b) Eganing ichki munosabati (aniqlovchi -aniqlanmish).¹

Eganing gapdagi ishtirokiga ko'ra quyidagicha tasnif qilinadi;

1. Egali gaplar

2. Egasiz gaplar

Egasi mavjud gaplar egali gaplardir: **Biz** bugun Samarqandga boramiz.

Egasi mavjud bo'lmagan gaplar egasiz gaplardir: Bugun Samarqandga boramiz.

Egasiz gaplarning quyidagi turlari mavjud:

1. Shaxsi (egasi) ma'lum gaplar. Bunday gaplarda ega kesimning shaxs-son shakllaridan ma'lum bo'lib turadi: *Qachongacha qorning o'ylab o'tadirsan? Qachongacha ko'kdan chalpak kutadirsan?*

2. Shaxsi (egasi) umumlashgan gaplar. Bunday gaplarda gapning umumiy mazmuni barcha shaxslarga aloqador bo'ladi: *Boshinga qilich kelsa ham rost gapir.*

Maqol va matallar, hikmatli so'zlar, odat tusiga kirib qolgan rasm-rusumlarni bayon etuvchi gaplarda ega, asosan, umumlashgan bo'ladi: *O'zbekchilikda mehmonni juda qadrlaydilar. Bugungi ishni ertaga qo'yima.*

3. Shaxsi (egasi) noma'lum gaplar. Bunday gaplarda: a) Kesim fe'l bilan ifodalanadi va ish-harakatni bajarishga imkoniyat, zaruriyat, shart, tilak, istak kabi ma'nolarni ifodalab keladi.

b) Bu gaplar kesimining eng muhim belgisi – uning tarkibida egalik qo'shimchalarining yo'qligidir.

Bu gaplar shaxssiz emas, harakatni mantiqan kimdir bajaradi, lekin uni gapda ifodalab bo'lmaydi: *Bu mavzuni o'qish shart emas. Oyni etak bilan yopib bo'lmas. Endi qattiq o'qishga to'g'ri keladi.*

Egasiz gaplarning yana quyidagi turlari ham shaxsi (egasi) noma'lum gaplar deb talqin qilinadi.

1. Atov gaplar

2. So'z gaplar.

Atov gaplar – so'zlovchi ko'z o'ngida biror voqea-hodisani, narsa-buyum yoki davrni gavdalantirishga, xotira yiki hayolida ular bilan aloqador voqea-hodisani tiklashga xizmat qiluvchi vosita.

¹ N.Mahmudov, A.Nurmonov "O'zbek tilining nazariy grammatikasi(sintaksis)"

Atov gap bitta soʻzdan iborat boʻlishi ham, aniqlovchi bilan ham kengayib kelishi ham mumkin. 1. Bahor. 2. Erta bahor. 3. Eh yoshlik, yoshlik! Suvday oʻtib ketdi-ya.

Soʻz gaplar - bir soʻz qotib qolgan birikma shaklida boʻlib, boshqa soʻz bilan kengayish imkoniyatiga ega boʻlmaydi. Soʻz-gaplar tasdiq, inkor, soʻroq, taajjub, his-hayajon kabi maʼnolarni ifoda etib, ular matn bilan boʻgʻliq boʻladi. Soʻz-gaplar asosan modal va his-hayajon munosabatlarini ifoda etgani uchun ham koʻproq dialogik va baʼzan monologik nutqqa xosdir.

- *Qabulga kirasizmi? – Yoʻq.*
- *Ovqatingizni pishirib qoʻydim. – Rahmat.*
- *Oʻqishga boramizmi – Albatta.*

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati

1. Gʻ.Abdurahmonov, A.Sulaymonov, X.Xoliyorov, I.Omonturdiyev “Hozirgi oʻzbek adabiy tili”
2. A.Gʻulomov, M.Asqarov “Hozirgi oʻzbek adabiy tili”
3. N.Mahmudov, A.Nurmonov “ Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi”
4. J. Yokubov, & D. Sotvoldiev (2023). POETICS OF OJIZ’S GHAZALS. Science and innovation, 2 (C11), 35-40. doi: 10.5281/zenodo.10161044
5. Urayimova , M., & Sotvoldiyev, D. (2023). QOʻRQOQ VA JOHILLARGA KOʻZGU BOʻLGAN HIKOYA. Ilm-Fan Va taʼlim, 1(12).
6. Saydullayeva, Z., & Sotvoldiyev, D. (2023). “RAMAZON” – OYLARNING VA ODAMLARNING SULTONI (ERKIN AʼZAMNING “ANOYINING JAYDARI OLMASI” HIKOYASI HAQIDA) . Interpretation and Researches, 1(21).
7. Toʻlanova , M., & Sotvoldiyev , D. (2023). “BOBURNOMA”DA OʻSIMLIK VA HAYVONOT OLAMI TASVIRI. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(31).
8. Мухаммадюсуф, И. (2023). “БОБУРНОМА” ДА АМИР ТЕМУР ОБРАЗИ. Ilm-fan va taʼlim, 1(1).
9. Ikromov, M. (2023). “Boburnoma” da Alisher Navoiy badiiy portreti va psixologik holati. Ilm-fan va taʼlim, 1(1).
10. Sherboyeva, G., & Ikromov, M. (2023). OʻZBEK TILI FRAZEMALARINING LINGVOKULTROLOGIK XUSUSIYATLARI. Talqin va tadqiqotlar, 1(30).

THE MAIN PROBLEMS OF LIGUADIDACTICS IN ENGLISH AND UZBEK GRAMMAR SYSTEM

Ikromjonova Shokhsanam Akmaljon kizi

ikromjonovashohsanam1@gmail.com

Annotation: *The science of linguodidactics develops the general laws of the theory of language teaching, that is, it deals with the methodological basis of language teaching / learning. These include issues such as the goals, content, methods (principles), tools, methods of scientific research, and the relationship of language teaching with other disciplines.*

Keywords: *grammatical, didactics, linguistics, orthography, applied linguistics.*

The grammatical structure of a language is a generally important aspect of its system. Affixes, grammatical suffixes and word formation, syntactic models, word order, auxiliary words and similar grammatical structural elements of languages serve to indicate not only the grammatical or formal meaning, but the exact form of lexical meanings as well. It is important to express these meanings in the translation process. The grammatical forms of different languages rarely match their meaning and function. Interpreters must be able to choose the most appropriate equivalent for each situation. The structure of the translation must match the structure of the original text and the order of the text segments must not change during the translation process. Because it is desirable that each part of the translated text is structurally parallel to the corresponding part of the text in the original language. Generally, it is not possible to find a literal equivalent of one text to another. Translators try to understand the meaning of the original speech as deeply as possible, and then translate the comprehended meaning into the same language as the original. In doing so, he makes effective use of several abovementioned ways, trying to reveal the true meaning of speaker's speech. Nevertheless, it is vastly significant to regard the problems as a concept, and to consider other aspects while analyzing grammatical problems of interpreter training. This will be the subject of the author's further research. Language didactics deals with the teaching and learning of foreign languages in an institutional setting. On the one hand, this concerns the development of foreign language skills (listening, comprehending audio-visual texts, reading, writing and speaking as well as the ability of language mediation); on the other hand, language didactics is about ways of learning and teaching grammar (morphology, syntax) and knowledge of vocabulary (orthography, pronunciation, register, meaning/connotations). Courses in language didactics focus on linguistic phenomena, mechanisms of language learning, character traits of speakers, desired linguistic competences and the conditions and methods of language classes. The focus of language didactics is influenced by developments in the domain of

language research: linguistics, applied linguistics, second language acquisition research, language teaching research and language psychology. It is also informed by current didactic approaches within the branch of foreign language teaching (e.g. competence-orientation, action-orientation, learner-orientation) Language didactics is mostly concerned with issues of institutional foreign language acquisition – a topic in which the other branches of the didactics of foreign languages (literature and culture didactics) also take an interest. This overlap occurs for two reasons: on the one hand, language acquisition cannot take place without the consideration of cultural aspects and on the other hand, literary texts in the foreign language are used in the foreign language classroom to enable learners to get in touch with authentic language. Local theorists and practitioners complain that there are not certain assumptions of methodology of teaching two or more foreign languages at the same time. Although, according to the local curriculum, at linguistic and non-linguistic higher educational establishments in Uzbekistan, students usually learn two foreign languages. All approaches to teaching English and all EFL/ESL teachers, deal one way or another with a teaching of English grammar. As it is defined by the linguists -the words of English and their combinations. The important thing for you to remember is that grammar in an EFL/ESL context is quite different from the grammar you knew and loved (or didn't love) in school. In order to understand a language and express oneself correctly one must assimilate the grammar mechanism of the language studied. Indeed one may know all the words in sentence and yet fail to understand it, if one does not see the relationship between the words in the given sentence. And 'verse' 'versa', a sentence may contain one, two and more unknown words but if one has a good knowledge on the structure of the language one can easily guess the meaning of these words at least find them in a dictionary. However, the word order in these phrases is different: in English phrases, the predicate comes after the subject, whereas in Uzbek phrases, the predicate comes after the subject and object. There are extremely few examples of English and Uzbek speech formulations that are structurally identical. Typically, such expressions have two or three parts: an international telegram – xalqaro telegramma travelers' check – sayohatchilar cheki. Partially discordant categories include tense, voice, and case. There are two cases in English, and six in Uzbek. I heard much about your country – Sizning mamlakatingiz to'g'risida ko'p eshitganman. Two English words —your country are rendered by one Uzbek word —mamlakatingiz. Moreover, they vary from the viewpoint of category of cases. Another example: We are from Tashkent – Biz Toshkentdanmiz. As we see, three English lexemes —are from Tashkent are combined in one Uzbek lexeme —Toshkentdanmiz. We came here on the invitation of the government of – Biz hukumati taklifiga binoan keldik. In this example the structure of the English expression —on the invitation of government is different by word order in the Uzbek equivalent —hukumati taklifiga (word order is vice versa). As we see in the examples above, set expressions with partial accordance are similar in meaning but differ in structure: one letter – bitta kitob five letters – beshta kitob. As we see, English phrases consist of numeral and noun (singular and plural), but Uzbek phrases consist

of numeral and noun in singular. Even in cases of total semantic accordance there may be revealed cases of partial structural discordance: a list of items – molar ro‘yhati (word order differs + Uzbek suffix —i in the word —ro‘yhati) customs restrictions – bojhona cheklovlari (same word order but Uzbek suffix —i in the word —cheklovlarill import license – import uchun ruhsatnoma (same word order + Uzbek postposition —uchun). Total structural discordance is first of all vivid in the category of possession which is expressed by possessive suffixes in Uzbek and by possessive pronouns in English: possessive pronouns in English: May I introduce you to my family? – Sizni oilamga tanishtirishga ruhsat bering. This is your invitation, please. – Marhamat, sizning taklifnomangiz. So, on these common examples we can confirm that a communicant of English-Uzbek conversation should master all possessive pronouns of English and possessive suffixes (endings) of Uzbek.

BIBLIOGRAPHY

1. Shakvat Mirziyoyev. “ It’s time to create a new system of teaching foreign languages – a solid foundation for the future.” 2021
2. Abdulla Avloniy. Òrkiy guliston yoxud axloq. Ò., „O‘qituvchi“, 1992
3. J. Jalolov, Chet til o‘qitish metodikasi „O‘qituvchi“ Toshkent-2013.
4. Jalolov J. Jahon lingvodidaktikasining zamonaviy konseptual yangilanish bosqich xususida // Horijiy filologiya. №1 (30). – Samarqand, 2009. pp91-95.
5. Джусупов М. Лингводидактика и методика в полинаучной системе языкового образования. // Русский язык за рубежом, 2009, № 2, pp26-32
6. Ким В.Н., Ким Т.С. Социальнополитическая терминология–Т., . 2009. С.
7. Lingvodidaktika kak teoritecheskaya osnova obucheniya yazika. Elektronniy resurs: <http://works.doklad.ru/view/NRkF6riOIeo.html>. Data obrasheniya: 03.04.2019.
8. L. Konoplyanik, Interactive methods of teaching foreign languages in higher Education in: Materials of II International Scientific Conference "Modern trends in teaching a second language at schools and institutions of higher education ", Gorlovka, HDPIIM, 2011. - p.p. 84-85.
9. H. Stern, Fundamental Concepts of Language Teaching, Oxford, Oxford University Press, 1983.

QO‘SHMA GAP, UNING TURLARI. BOG‘LANGAN QO‘SHMA GAPLAR, ULARNING TURLARI

Mahfuza Arabboyeva Akramjonovna

Andijon davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

O‘rinboyeva Mubinabonu Iqboljon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada qo‘shma gap va uning turlaridan biri hisoblangan, bog‘langan qo‘shma gaplar va uning turlari atroflicha yoritilgan. Ularning sintaktik matndagi amaliy ahamiyati.

Kalit so‘zlar. Sintaksis, qo‘shma gap, bog‘langan qo‘shma gap, bog‘lovchilar, yuklamalar, yordamchilar.

Qo‘shma gaplar, qismlarining o‘zaro birikish usuli va semantik munosabatiga kora, uch xil boladi: 1) boglangan qoshma gap; 2) ergashgan qoshma gap; 3) bog‘lovchisiz qo‘shma gap. Qiyoslang: Iste‘dod hamisha har xil bo‘ladi, iste‘dodsizlar esa hamma joyda bir xildir. (E.Vohidov) Shuni aytmochimizki, odam hamma vaqt bilimga tashna bolishi shart. (F.Julio Kyuri). Keltirilgan misollarning birinchisi bog‘langan qo‘shma gap bolib, uning qismlari esa yordamchisi vositasida o‘zaro teng bog‘langan; ikkinchisi ergashgan qo‘shma gap bolib, uning qismlari –ki aniqlov bog‘lovchisi orqali ikkinchi qismni birinchi qismga tobelik yoli bilan boglagan; uchinchi gap bog‘lovchisiz qo‘shma gap bo‘lib, uning qismlari o‘zaro hech qanday bog‘lovchi vositasiz - faqat ohang orqali birikkan.¹

Bog‘langan qo‘shma gap

Qismlarining o‘zaro teng aloqaga kirishuvidan tuziladigan gap bo‘g‘langan qo‘shma gap deyiladi. Bog‘langan qo‘shma gap qismlari o‘zaro biriktiruv bog‘lovchilari (va, hamda, ham), zidlov bog‘lovchilari (ammo, lekin, biroq, balki), ayiruv bog‘lovchilari (yo, yoki, yohud, dam... dam, goh... goh, ba‘zan... ba‘zan, hali...

¹ Abdurahmonov G‘. O‘zbek tili sintaksisida murakkab gaplar masalasiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti masalalari. – 1962. № 3

hali, bir... bir), teng bog'lovchi vazifasidagi –da, -u (-yu), na... na yuklamalari, shuningdek, bo'lsa, esa yordamchilari vositasida bog'lanadi.¹

Shunga ko'ra bog'langan qo'shma gaplarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Biriktiruv bog'lovchilari yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.
2. Zidlov bog'lovchilari yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.
3. Ayiruv bog'lovchilari yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.
4. Teng bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar yordamida tuzilgan boglangan qo'shma gap.
5. Bo'lsa, esa yordamchi sozlari vositasida tuzilgan boglangan qo'shma gap.

Biriktiruv bog'lovchilari (va, hamda; ba'zan shu vazifadagi ham yuklamasi) yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap tarkibidagi qismlardan bir paytda yoki ketma-ket ro'y beradigan voqea-hodisalar anglashilib turadi. Masalan: Haqiqat va togrilikni sevadigan odam doim vijdoni farmoniga itoat qiladi va uning vijdoniga hech kim hokim bola olmaydi. (Oz-oz organib dono bolur.) Keng bogdagi har bir nihol qonib-qonib suv ichdi va uning yaproqlari nurga intilib osa boshladi. (O.Hoshimov.)

Zidlov bog'lovchilari (lekin, ammo, biroq, balki) yordamida tuzilgan boglangan qo'shma gap qismlari mazmunan bir-biriga zid boladi. Masalan: Har qanday narsada isrofgarchilik bor, ammo yaxshilikda isrof bolmaydi. («Ajoyib nasihatlar»)² Burni, qoshi, yana allaqaeri otasiga oxshardi, lekin Akbarov ham bir vaqtlar oqliday ajinsiz, quyuq qora sochli bolganini tasavvur etish qiyin edi. (P.Qodirov).

Ayiruv boglovchilari (yo, yoki, yohud, goh..., goh, dam..., dam, ba'zan..., ba'zan...) yordamida tuzilgan boglangan qo'shma gapda birini tanlash lozim bolgan yoki galma-gal ro'y beradigan voqea-hodisalar ifodalanadigan qismlar birikadi. a) yo (yo..., yo), yo..., yo bolmasa; yoki (yoki..., yoki); yo..., yoki; xoh..., xoh boglovchilari birini tanlash lozim bolgan voqea-hodisalarni ifodalovchi qismlarni birlashtiradi. Masalan: Yo kok unga oz sirlarini ochishni tilamas, yo uning aql kozgusi xiralashib qolgan. (O.Yoqubov.) b) goh..., goh; dam..., dam; ba'zan..., ba'zan boglovchilari galma-gal roy beradigan voqea-hodisalarni ifodalovchi qismlarni boglaydi. Masalan, Ba'zan oy zarrin kokillarini yer yuziga yoyib yuboradi, ba'zan bulut oy yuzini qoplab oladi. (Oybek.)

Teng boglovchilar vazifasidagi yuklamalar yordamida tuzilgan boglangan qo'shma gaplar qismlaridan bir paytda yoki ketma-ket roy beradigan voqea-hodisalar yoxud mazmunan zid bolgan voqea-hodisalar anglashilib turadi. Bunda –u, (-yu), -da, na..., na yuklamalari biriktiruv boglovchilarining vazifasini, -u (-yu) yuklamasi zidlov

¹ Ahmedova N. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi. Fil. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 25

² .Boltaboyeva H. O'zbek tilida murakkablashgan sodda gaplar. – Toshkent: Fan, 1969.

boglovchilari vazifasini bajaradi.¹ Masalan: Oykol ilgari alohida xojalik edi-yu, kattagina idorasi bor edi. (P.Qodirov.) Ikki tomondagi kitoblarga tolib turadigan qubbali javonlarda na bir kitob bor, na bir qolyozma bor. (O.Yoqubov.) Bo'lsa, esa sozlari vositasida tuzilgan boglangan qo'shma gap qismlaridan bir vaqtda yoki ketma-ket ro'y beradigan voqea-hodisalar qiyoslanishi anglashiladi. Masalan: Oliy himmatli kishi, mard odam bir lahzada dost orttiradi, pastkash esa necha yillik oshnaligini bir lahzada barbod qiladi. («Oz-oz organib dono bolur».)

Bog'langan qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi

1. Bog'langan qo'shma gap qismlari o'zaro biriktiruv bog'lovchilari yordamida biriksa, shuningdek yakka qollanuvchi yo, yoki, yoxud ayiruv boglovchilari yordamida biriksa, ular orasiga vergul qoyilmaydi. Masalan: Shamol tagin shu tomonga burildi va ingichka, qongiroqday ovoz jaranglab eshitildi. (O.Hoshimov.)

2. Bog'langan qo'shma gap qismlari zidlov boglovchilari yordamida biriksa, bunday boglovchidan oldin vergul qoyiladi. Masalan: Qorong'ida buloq suvining ozi korinmas edi, ammo shildirashi aniq eshitar edi. (P.Qodirov.)

3. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi qismlar bolsa, esa sozlari vositasida biriksa ham, ular orasiga vergul qoyiladi. Masalan: Harakatchan kishilar odatda omadli boladilar; aksincha qiladigan ishlarini hadeb oylayveradigan va sustkashlik qiladiganlarga esa omad kamdan-kam nasib etadi. (Gerodot.)

4. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi qismlar takrorlanuvchi ayiruv boglovchilari yoki inkor yuklamasi yordamida biriksa, takrorlanib kelgan yordamchidan oldin vergul qoyiladi. Masalan: Goh supa chetiga ekilgan rayhon hidi dimogiga urilardi, goh tom orqasidagi yong'ichqazorda hasharotlarning bir qiyomda chirillashi e'tiborini tortardi... (P.Qodirov.)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Abdurahmonov G'. O'zbek tili sintaksisida murakkab gaplar masalasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti masalalari. – 1962. № 3
2. Ahmedova N. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi. Fil. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 25
3. Boltaboyeva H. O'zbek tilida murakkablashgan sodda gaplar. – Toshkent: Fan, 1969.
4. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi.

¹Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi.

FINANCE AND ITS ROLE IN THE COUNTRY'S ECONOMY

D.J.Norboeva

Senior teacher of the department "Uzbek language and literature" of the Samarkand
Institute of Economics and Service

M.A.Malikov

Student of Samarkand Institute of Economics and Service
Student of group IK-423

***Abstract:** This article analyzes finance, the importance of finance for the state, and what its tasks are. Also, information on state budget revenues and state budget expenditures was provided.*

***Key words:** Finance, financial system, financial relations, functions of finance, state budget.*

We know that the stable and smooth development of the economy of any country depends on the effective organization of the flow of funds between the state, different regions and territories of the state, as well as between different layers of the population. Finance reflects the growth of the national economy and the well-being of the population, stimulates the reduction of production costs of enterprises and the increase of their competitiveness in the world market, shapes the production structure, inter-sectoral and regional ratios. As for what finance is, finance refers to the economic relations that arise from the creation, accumulation, distribution and redistribution or use of centralized and decentralized monetary funds. Finance means generating income and spending it. It is also said that finance as an economic category is a system of relations related to the use of funds and control over its movement. The material basis of finance is inextricably linked with money and it is the relationship related to money. The clear purpose of entering into financial relations with subjects is to ensure efficient and stable functioning of the economy and high growth rates. State finance - financial relations in the field of organization, distribution and spending of funds at the disposal of the state. Funds of state finance are spent for national interests and serve to fulfill the functions of the state. Currently, the role of state finance in the implementation of the economic and financial policy of the state is significant. It is a leader in ensuring reproduction processes, improving the material and spiritual well-being of the people, providing funds to state bodies, growing the country's economy, financing the national economy, the social sector, investing in the economy, social protection of the

population, ensuring national security, managing the state, and others. is a tool. The finances of all existing enterprises and sectors of the national economy are the main source of state finances and reserves of the financial system.

The concept of "financial system" is the result of the development of the concept of "finance" in a broad sense. The financial system consists of capital flows between individuals, governments, and businesses. The financial system has four main components: financial markets, financial assets, financial institutions and financial services. The financial system is an important element of the economic system.

Financial relations are a set of economic relations between the state, regions, networks, enterprises and organizations, and individual citizens in connection with the movement of funds. If we distinguish between financial relations, it differs by its objects and subjects. Only funds of funds that are formed and operate at different levels of the economy are the objects of these financial relations. However, the subject of financial relations includes all organizations, enterprises, legal entities and individuals, as well as citizens. Therefore, it is complex in composition.

Finance performs the following several tasks within the economy:

- Provision task;
- Distribution task;
- Promotion task;
- Control function.

Economic activity at the level of society requires the implementation of various processes and activities, in particular, the management of the country, the provision of defense capabilities, health care, and others. For this, first of all, it is necessary to provide them with financial resources. Provision of economic processes, projects and activities with monetary resources and providing services to it is provision.

The distribution of the gross national product created in the spheres of material production and the part of its national income between the state and the enterprises based on different district forms of ownership, among the regions of the country in the spheres of material production - this is the task of the distribution of finance.

First of all, implementation of the value of the created product through the process of distribution, and then through the mechanism of organization and spending of money funds - this is considered to be the stimulating task of finance.

Implementation of financial control through the system of financial responsibility of enterprises for compliance with financial discipline, collection of various taxes and provision of funds is the control function of finance.

The state budget is an annual plan of state revenues and expenditures, as well as the sources of their financial coverage. Each state has its own bipartite state budget. On

the first side, if we take the revenues coming to the budget, on the second side, the composition and amount of the main expenses are understood. The main budget indicators include: state budget revenues, direct taxes, indirect taxes, resource taxes and other revenues. The state budget expenditure indicator includes: Social sector and population social support costs, includes economic costs, financing of centralized investments and other costs.

Conclusion, we can understand finance as earning, increasing and spending it. Above we mentioned finance, what it is, the place of finance in the country and its tasks.

REFERENCES

1. A. V. Vakhobov, S. A. Tashmatov, N. Kh. Khaidarov. Fundamentals of financial literacy: study guide/-Tashkent 2013.
2. T.S. Malikov, N.Kh. Khaidarov. Gosudarstvennyy budget. Uchebnoe posobie "ECONOMY-FINANCE, 2008
3. Sh.Shodmonov, Economic theory: Textbook – T: <<LESSON PRESS>> publisher, 2021. Page 574.
4. Q.A. Isayev. International economy. Textbook - T.: << INNOVATION DEVELOPMENT PUBLISHING - PRINTING HOUSE>> - 2021,
5. Khaidarov N.Kh. Finance: public finance. T.: Economy and Finance, 2009
6. T. Malikov, N. Khaidarov. State budget. T.: "ECONOMY-FINANCE, 2007

FIZIKANI NAMOYISH TAJRIBALAR YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK ASOSLARI

To‘raxonov Fozil Bobonazarovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute
“Umumiy fizika va qurilish muhandisligi” kafedrası PhD. Dotsenti

Omonqulova Umida Husanovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Umumiy fizika va qurilish muhandisligi”
kafedrası stajyor-o‘qituvchisi

Maqolada fizikani namoyish tajribalar yordamida takomillashtirish metodikasi va fizika o‘qitishda pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish usullari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *pedagogik texnologiya, axborot texnologiyasi, virtual konstruktor, simulyator, kompyuter modellari, grafik tasvirlash.*

В статье рассматриваются методы компьютерного моделирования физических процессов и использование педагогических программ в обучении физике.

Ключевые слова: *педагогические технологии, информационные технологии, виртуальный конструктор, тренажер, компьютерные модели, графическое изображение.*

The article discusses the methods of computer modeling of physical processes and the use of pedagogical software in teaching physics.

Keywords: *pedagogical technology, information technology, virtual constructor, simulator, computer models, graphic representation.*

Hozirgi vaqtda fizika ta'limiga innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini tadbiq etish, virtual laboratoriya ishlarini bajarishga oid o'quv resurslarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish o'quv-metodik takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlar olib borish dolzarbligi vujudga keldi. Fizika ta'limiga innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini jadal tatbiq etish, pedagogik uslubiy g'oyaga aylangan. Axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga kirib kelishi, ayniqsa, fizika fanini o'qitishda yangi turdagi mashg'ulot turlarining (kompyuterda fizik model bilan tanishuv, virtual tajriba o'tkazish, kompyuterda eksperimental masalalarni yechish, simulyatorlar yordamida tadqiqot olib borish, masofaviy ta'limda topshiriqlar) vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Jahon mamlakatlarida fizika o'qitishda, o'quvchilarni dunyoqarashini shakllantirish, tafakkurini rivojlantirish, o'quv jarayonini takomillashtirishda, pedagogik dasturiy vositalardan samarali foydalanish asosiy masalalardan biri sifatida qaralib, ular ustida ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Fizika ta'limda virtual konstruktorlardan foydalanib, laboratoriya ishlarini modelni yaratish, o'quvchilarda konstruktorlik qobiliyatini shakllantirib mustaqil izlanishlik va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu jumladan, mamlakatimizda davlat ta'lim standartlari asosida, umumiy o'rta ta'lim tizimida fizika faniga ixtisoslashgan maktablar tashkil qilinib, o'quvchilarda xorij tajribalari asosida o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda.

2021 yil 19 martdagi PQ-5032-son "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash va amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Ma'lumki, Respublikamizning barcha tumanlarida fizikaga ixtisoslashgan maktablar tashkil qilindi, zamonaviy o'quv vositalari va jihozlar bilan ta'minlanayotgan bir paytda ular ta'lim jarayonini ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslanib olib borish alohida ahamiyatga ega.

An'anaviy fizika darslarida o'qituvchi yangi mavzuni tushuntirishda mavjud fizik modellardan foydalanadi. Xususan, elastik va noelastik to'qnashuv modeli, broun harakati modeli, nazariy bilimlar berishda turli xildagi modellar kiritiladi, ya'ni moddiy nuqta modeli, qattiq jism modeli, ideal gaz va xokazo. Bunda o'quvchi o'qituvchi tomonidan keltirilgan modellarni xayoliy tassavuriga keltiradi va shu modellarni keyinchalik masala yechishda, laboratoriya ishlarini bajarish jarayonida foydalanadi. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan "yaratib" berilgan modellar bilan ishlaydi. Bunday hollarda fizika fanidan mavzuni tushuntirishda kompyuterdan foydalanish qator ustunliklarga ega. Fizik jarayonlarni modellashtirish imkoniyatini beruvchi dasturlardan – simulyatorlardan foydalangan holda o'quvchilar fizik jarayonni o'zida aks ettirgan modellarni mustaqil yoki o'qituvchi yordamida yaratishlari, o'zlari mustaqil "shaxsiy" modellarini yaratishi, ularni harakatga keltirishlari, taklif qilinayotgan taxminiy farazlarni, ya'ni xayoliy abstrakt o'ylangan modellarni tekshirishlari mumkin bo'ladi.

O'quv jarayonini kompyuterlashtirishni asosan ikki yo'nalishda olib borish mumkin: kompyuter - o'rganish ob'ekti va o'qitish vositasi sifatida. Birinchi holatda bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida kompyuterning imkoniyatlarini anglash turli qiyinchiliklarni yengishga, kompyuter savodxonligini oshirishga olib

kelsa, ikkinchi holatda kompyuter o'qitishning samaradorligini oshiradigan va jadallashtiradigan kuchli pedagogik vosita bo'lib hisoblanadi.

Kompyuterning ta'lim olish jarayonida qo'llanilishi u yoki bu ko'rinishidagi modellarni o'quvchi xayolidagi abstrakt fizik modellarni vizallashtirish imkoniyatining mavjudligi fizika ta'limini sifatli amalga oshirishga asos bo'la oladi. Fizik jarayonlarni modellashtirish imkoniyatini beruvchi simulyator orqali, ma'lum sabablarga ko'ra ayrim fizikaviy tajribalarni o'tkazish imkoniyati bo'lmagan fizik tajribalarni (laboratoriya ishlarini) endilikda xech qanday muammosiz amalga oshirish imkoniyatini tug'diradi. Masalan, turli sabablarga ko'ra haqiqiy sharoitda kuzatilishi qiyin bo'lgan: kichik yoki katta masshtabda ro'y beradigan fizik hodisalar, ularning doimiy yoki «oniy» qiymati, shuningdek ma'lim bir sabablarga ko'ra, texnik xavfsizlik bilan bog'langan yoki eksperiment o'tkazilishining texnik qiyinligi sababli amalga oshirish murakkab bo'lgan fizikaviy tajribalarni simulyatorlar orqali amalga oshirish mumkin bo'ladi. Fizika fanini o'qitish jarayonida mikro olamdan makro olamgacha bo'ladigan hodisalarni tajribada kuzatish imkoniyati tug'iladi, yani virtual model yaratishda slayderlardan foydalanib turli gravitasion muhit hosil qilish, vaqt o'lchamlarini kichraytirib yoki kattalashtirib olish, jismni massasini ixtiyoriy qiymatlar berish ahamiyatlidir.

Hozirgi vaqtda fizik jarayonlarni modellashtirish imkoniyatini beradigan dasturlar yaratilgan bo'lib, ularning tashqi interfeysi yangi foydalanuvchi uchun hech qanday qiyinchiliklarni hosil qilmaydi. Shuningdek, maxsus dasturlash tillarini bilishni ham talab qilmaydi. Modellashtirish imkoniyatini beruvchi bunday dasturiy ta'minotlar kompyuter savodxonligi bo'lmagan foydalanuvchilar ham xech qanday qiyinchiliksiz foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Fizik kattaliklar orasidagi funksional bog'lanishlar faqat analitik usulda emas, balki grafik usulda ham ifodalanishi mumkin. Grafik tasvirning afzalligi uning ko'rgazmaligidadir. Ayniqsa, grafiklardan mexanik harakatlarni o'rganishda foydalanish qulay. Bu grafiklarning oddiyligi va aniq ko'rinishi harakat xarakterini baholashga va ba'zi masalalarni matematik hisoblashlarga murojaat etmasdan yechishga imkon beradi [1].

Fizik jarayonlarni grafik ko'rinishda tasvirlash kechayotgan fizik jarayonni yaxshi va ko'rgazmali tushunishga sabab bo'ladi. Natijalarni grafik ko'rinishda namoyish etilishi qulay ekanligi hammaga ma'lum va mashhurdir. Grafiklar va diagrammalardan axborotlarni o'qiy olishda tegishli xulosalar chiqara olish axborot madaniyatining bir qismi hisoblanadi. O'rganish ob'ekti fizikaviy kattaliklarning bog'lanish grafiklaridan iborat bo'lgan masalalar grafik masalalar deyiladi [2].

O'quvchiga har xil metodlardan foydalangan holda grafiklarni chizish malakasini matematika darslarida hosil qilinadi. Fizika, kimyo, biologiya, iqtisod


fanlarida grafik ma'lum bir natijalarni aks ettirishda, berilgan masalaning javobini topishda va qaralayotgan holatni tahlil va tadqiq qilishda foydalaniladi.

Fizik kattaliklar orasidagi funksional bog'lanishlarni qisqa vaqt ichida hosil qilish va hosil bo'lgan grafikni tahlil qilish fizika fani darslarida muhim pedagogik jarayon hisoblanadi. Ana'anviy dars jarayonida grafiklarni chizish vaqtida qo'yidagi muammolar vujudga keladi:

- Grafikni chizish jarayoni juda sekin davom etishi;
- chizmada noaniqliklarning mavjudligi;
- yangi olingan ma'lumotlarni hosil qilish uchun grafikni o'zgartirish imkoniyatini yo'qligi;
- o'quvchilarning matematik tayyorgarliklari yetarli darajada bo'lmagani.

Fizikaning mexanika bo'limi fizikaning boshqa bo'limlariga nisbatan masalalarni grafik ko'rinishda tadqim etilishi qaralayotgan fizik jarayonni yaxshi tushunishga yordam beradi. Mexanikaning ko'pgina masalalari jism harakatiga oid masalalarni tashkil qilib, ularni grafik ko'rinishda osongina yechish mumkin. O'quvchilarning grafik ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish jarayoni didaktik muammaolardan biri hisoblanadi. Bunday holatlarda kompyuterdan foydalanagan holda grafik masalalarni yechish eng optimal yo'llardan biri hisoblanadi.


Quyida Interactive Physics dastur muhitida yaratilgan modellar tavsifini keltiramiz. Keltirilgan modellar orqali kechayotgan fizikaviy jarayonni o'quvchi kuzatishi va grafik jarayonda qatnashayotgan fizik kattaliklar orasidagi funksional bog'lanishlarni tahlil qilishi mumkin bo'ladi. Masalan, fazodagi nuqtaning proeksiyasini aniqlashda quyidagi modeldan foydalaniladi.



1-rasm. Fazodagi nuqtaning proeksiyasini aniqlash

Bu keltirilgan kompyuter modelidan maqsad, o'quvchilarda jismlarining o'rnini aniqlash uchun to'g'ri burchakli koordinatalar sistemasidan foydalana bilish malakasini hosil qilish va ikki o'lchamli koordinatalar tizimida nuqta koordinatasini aniqlashdan iboratdir. Bunda o'quvchi nuqta harakati tezligini va uning boshlang'ich o'rnini (holatini, vaziyatini, koordinatasini) o'zgartirib model harakatini kuzatadi. O'qituvchi topshirig'iga ko'ra turli vaqt onlarida nuqta koordinatalarini aniqlaydi.

Harakat turini klassifikatsiyalash (tasniflash)da esa quyidagi modeldan foydalanish mumkin.



2-rasm. Harakat turini tasniflash modeli

Bu keltirilgan kompyuter modelidan maqsad, harakat turlarini ajarata olish, teng vaqt oralig'ida jismlar qoldirgan "iz"larini taqqoslagan holda to'g'ri chiziqli tekis harakat turini aniqlay olish. Keltirilgan grafiklardan harakat turlarini aniqlay olishlik malakasini shakllantirishdan iboratdir. Bunda o'quvchi ko'rsatilgan jarayondan harakat turlarini klassifikatsiyalashi ya'ni to'g'ri chiziqli harakat, to'g'ri chiziqli tezlanuvchan harakat va tezligi kamayib boruvchi harakat, shuningdek, tanlagan javobini asoslab berishi kerak bo'ladi. Keltirilgan grafiklardan qaysi biri qanday turdagi harakat turiga bog'liqligini ko'rsatadi. O'qituvchi esa o'z navbatida model bilan ishlashni o'quvchilarga tushuntiradi.


Ishni bajarishga oid yo'riqnoma quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin.

1. Sizing qarshingizdagi kompyuter monitorida 3 ta jism harakatlanmoqda. Harakatlanayotgan jismlardan bittasi to'g'ri chiziqli tekis

harakatlanayotganligini ko'rsating. Haraktalanayotgan jismlarning ko'chishining vaqtga bog'liqlik grafigidan, har bir jismning qanday turdagi harakatda qatnashayotganligini aniqlang va tegishli xulosalar chiqarib hisobot daftaringizga yozing.

2. Harakatlanayotgan jismlar tezligining vaqtga bog'liqlik grafigidan kelib chiqqan holda, har bir jismning qanday turdagi harakatda qatnashayotganligini aniqlang va tegishli xulosalar chiqarib hisobot daftaringizga yozing.

Berilgan grafikdan harakat turini aniqlash modeli quyida keltirilgan.



3-rasm. Harakat turini aniqlash modeli

Bu keltirilgan kompyuter modelidan maqsad, tezlik va ko'chish grafiklarini "o'qish" malakasini hosil qilish. Bunda o'quvchi modelda berilgan topshiriqni bajaradi va ro'y berayotgan fizik jarayonni tahlil qiladi (laboratoriya ishini bajaradi).

Shunday qilib, fizika darslarida kompyuter modelidan foydalanish talabalarning nazariy va amaliy bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga, fizika o'qitish samaradorligini oshirishga olib keladi.

Xalqaro tadqiqotlardagi natijalarni yaxshilash uchun o'qituvchilarni maqsadli tayyorlash va ta'lim jarayonida o'qitish metodikasi va ustuvor tamoyillarni o'zgartirish zarur. Buning uchun o'qituvchilarni tayyorlashimiz, rivojlantiruvchi ta'limning yanada faol tizimini tatbiq etishimiz va o'qituvchilarni ta'lim jarayonida yanada muvaffaqiyatli foydalana oladigan materiallar va pedagogik dasturiy vositalar bilan ta'minlashimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kurbanov M. Turakhonov F. (2021). Analysis of software with the opportunity to model physical processes in specialized schools / American journal of social and humanitarian research. AJSR, ISSN: 2690-9626. Vol.2, No.10. Pp. 313-321.
2. Turakhonov F. (2021). Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirishning metodik asoslari / Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnal. – Buxoro. 6-son. –B. 105-109.
3. Kurbanov M. (2008). Fizikadan namoyish eksperimentlarining uslubiy funktsiyalarini kengaytirishning nazariy asoslari. Monografiya. Fan.
4. Кириков, М. В. (2009). Лаборатория учебного демонстрационного эксперимента по физике: учебное пособие М. В. Кириков, А. М. Шитова; Ярослав. гос. ун-т им. П. Г. Демидова. – Ярославль. –108 с.
5. То‘рахонов F.B. (2022). Fizika o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning didaktik asoslari / O‘zbekiston Milliy Universiteti xabarлари. – Toshkent.1-son.
6. Тўрахонов Ф.Б. (2022). Ихтисослашган мактабларда физикавий жараёнларни моделлаштириш имкониятини берувчи дастурий таъминотлар таҳлили / Таълим ва инновацион тадқиқотлар журналі. №2. -Б. 174-178.
7. Турахонов Ф.Б. Методика разработки виртуальных лабораторных работ по физике с помощью симуляторов. Журнал. «Технологии и методики в образовании» Воронеж.-2011. №3. Стр.-34-38.
8. Тўрахонов. Ф.Б. Курбонов М. Хамидов В.С. Мактабда физикани ўқитишда симуляторлардан фойдаланиш. Журнал. “Физика, математика, информатика”, Тошкент. 2010. №5.
9. С.М. Дунин. ПРОГРАММА "ЖИВАЯ ФИЗИКА", ВОЗМОЖНОСТИ НОВОЙ ВЕРСИИ. Международный конгресс конференций "Информационные технологии в образовании" (ИТО-2003): <http://www.ict.edu.ru>, 2003.
10. Курбонов М., Тўрахонов. Ф.Б. Физикадан амалий машғулотларни педагогик дастурий воситалар ёрдамида ташкил этишю Журнал. “Педагогик таълим”, Тошкент. 2012. №4. 61-65-бетлар.
11. Кошчанов Э.О. Физикадан лаборатория ишларини имитацион компьютер модели ёрдамида бажариш. “Узлуксиз таълим”. Илмий услубий журнал. –Т. 2003. -№4. 61-65 б.
This article describes the role of the Russian language in the current education system, as well as what methods should be used in teaching the subject. In addition, easy ways to increase students' interest in the Russian language and learn the language have been mentioned.

Zamonaviy ta'limning bugungi kunga e'tibor qaratilayotgan eng asosiy jihati darslarni interfaol usullardan foydalangan holda noan'anaviy tashkil qilishdir. Boshlang'ich maktab davri yosh qalblar uchun bilim poydevori qo'yiladigan davr hisoblanganligi tufayli, o'quvchilarga, mamlakatimizning bo'lajak ustozlari bo'lmish o'quvchilarning mavzularini ular yodda saqlab qoladigan tarzda bolalarga yetkazish

kerak. Bu davrda o'zlashtirilishi zarur bo'lgan fanlardan biri rus tilidir. Ma'lumki, bolalarda o'rganishga qiziqish va ta'lim darajalari turli darajalarda namoyon bo'lishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchining vazifasi o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, o'quv faoliyatini faollashtirish uchun sharoit yaratish, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirish, o'quvchilarning to'g'ri motivatsiyasi, mustaqilligi va ish faoliyatini takomillashtirishdir.

“Rus tili dunyodagi eng rivojlangan, mukammal va keng tarqalgan tillardan biridir. O'zbekistonda rus tili o'zining tarixiy ildizlariga ega bo'lib, hozirgacha yangi texnologiyalar, ilmiy va madaniy ma'lumotlar manbai hisoblanadi. Hozirgi vaqtda milliy maktablarning rus tili o'qituvchilari darslarni o'tkazish va o'qitishning yangi zamonaviy usullarini o'zlashtirishda noan'anaviy yondashuvlarni faol ravishda izlamoqda. Rus tili metodologiyasi ilmiy va lingvistik asoslarga asoslanadi. Bu shuni anglatadiki, rus tili metodologiyasi lug'at, fonetika, so'z shakllanishi va grammatika sohasidagi lingvistik tadqiqotlar natijalaridan foydalanadi. Ushbu tadqiqotlar ta'lim mazmunini, ya'ni boshlang'ich sinflarda o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan til faoliyatining minimal miqdorini aniqlashga yordam beradi.”¹

Rus tili darslarida interfaol usullardan foydalanish natijasida o'quvchilar hozir bo'lishni o'rganadilar, ularning so'z boyligi ko'payadi, ilmiy-nazariy bilimlari yanada mustahkamlanadi. Har bir rus tili darsida o'quvchilar nutqini rivojlantirish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan muloqot holatini yaratish uchun u yoki bu shaklda o'yin uslublaridan foydalanish tavsiya qilinadi. Rus tilida gapirish uch qismdan iborat nutqiy faoliyatdir. Dastavval gapirishga moyillik bo'ladi. So'ngra til vositasida fikrni bayon etish ehtiyoji tug'iladi. Nutqiy harakatni bajarishga mayl paydo bo'lsa, biror axborot yetkazish, savolga javob qaytarish yoki nutqqa bog'liq bo'lmagan harakat (masalan, iltimos, buyruq va hokazo)ni bajarishga kirishiladi. Gapirishning ushbu qismida aytish niyati hosil bo'ladi. Gapirishni o'rganishda sintagmatik aloqalarning ahamiyati katta bo'lib, bunda so'zning turli birikmalarda qo'llanilishi ko'zda tutiladi. Gapiruvchi xotirada tayyor turgan so'zni yoki grammatik birlikni tanlaydi, odatda ona tili hodisalari xotirada tayyor turadi. Gapirishning uchinchi qismi ijro etish, fikrni bayon etish, talaffuz etish: ya'ni, tashqi nutqda uni ifodalashdan iborat.

Uchala qismga amal qilish nutq faoliyati turlarida gapirishni yuzaga keltiradi. Fikrni og'zaki bayon etishga o'rgatish, muayyan fikrni yozma bayoni o'zgalar nutqini idrok etib fahmlash (tinglab va o'qib tushunish) kabi nutq faoliyati turlari bilan uzviy bog'langan holda tashkil etiladi. Fikrni og'zaki ikki shaklda, ya'ni bog'lanma (monolog) nutq va suhbat tarzidagi (dilog) nutqda ifodalash mumkin. Rus tilida

¹ Mirzayeva F. Kasbiy fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish(uslubiy qo'llanma). Toshkent - 2013

monolog va dialogni o'rganish o'quv dasturining asosiy talablaridandir. Monolog uchun to'liq jumlar va ularning nisbatan uzluksiz tizimlarini qo'llash ahamiyatli bo'lsa, dialogda tayyor jumlar ellips (qisqargan) gaplar ko'proq ishlatiladi. Rus tilida nutq faoliyati turlarining sifat va miqdor ko'rsatkichlari metodika asosida aniqlab beriladi. Gapirishda sifat ko'rsatkichlari talaba nutqining mavzuga muvofiqligi va uni bayon etish mukammalligi, gapirganda ijodiy yondashish; til materialini to'g'ri qo'llay bilishi asosiy omil hisoblanadi. O'quvchi nutqini o'stirish uchun uni ko'p gapirtirish kerak. Buning uchun esa mav-zuli va mavzusiz suhbatlardan keng foydalanish samaralidir.

“O'qituvchi o'quvchi nutqini rag'batlantirib, yo'l qo'ygan xatolarini gaplar orasida talaffuz qilganda to'g'irlashi mumkin. O'qituvchi til o'rgatishda o'quvchining psixologiyasini bilishi va uni o'rganishi zarur. Chunki bir xil vaziyatda o'quvchilar tomonidan turli reaksiya bo'lishi mumkin kimdir xatosini to'g'rilanishini oddiy narsa deb qabul qiladi, uni to'g'iraydi va muloqotga tezda kirishib ketadi; boshqasi esa, aksincha to'xtab qoladi. Ayrim o'quvchilarda verbal informatsiyani idrok qilish sustroq bo'ladi. Ular bir marta eshitganini, ona tilida aytilgan bo'lsa ham, tushunishga qiynaladi, yoki o'ziga ishonchining kamligi tufayli, eshitganinformatsiyaning rostligiga shubha qiladi. Bunday o'quvchilarni faol suhbatga jalb etish qiyin kechadi. Ular bilan soddaroq turdagi mashqlarni yakka tartibda yoki guruhda bajarish, bilim darajasi o'zi bilan teng yoki pastroq guruxda shug'ullanishi yuqoridagi kabi “ruhiy noto'liqlik” hissiyotini tark etib, muloqotlarda tortinmay, qo'rqmay ishtirok etishlariga erishiladi.”¹

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi do'stona hamkorlik o'quv jarayonining samaradorligini oshirishi tabiiy holdir, shuning uchun akademik guruhlarda ijodiy muhitni yaratish foydali. Ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy shartlardan yana biri bolalarning rus tiliga ijobiy munosabatini rag'batlantirish va turli ta'lim vositalaridan foydalanish hisoblanadi. Bu vositalar ichida pedagogik texnologiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblangan didaktik o'yinlar asosiy o'rin tutadi. Xususan, dars samaradorligini ta'minlashdata'lim vositalaridan foydalanish, darslarda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishga xizmat qiluvchi va texnologik xarakterdagi didaktik o'yinlarning imkoniyatlari beqiyosdir. Rus tili darslarida o'rganilayotgan mavzu mazmuniga moslab tashkil etiladigan didaktik o'yinlar bolalarni mustaqil fikrlashga undaydi, til o'rganishga qiziqishini uyg'otadi. O'qishga qiziqish esa bilimlarni puxta o'zlashtirish garovidir.

“Rus tilini o'rgatish mazmuni umumta'lim muassasalarida juda qisqa va oson so'zlardan, jumladan boshlanadi. Mazmuni tushunishni o'rgatish sodda, qulay va

¹ Abramova S.V. Maktab o'quvchilarining rus tili bo'yicha dizayn va pedagogik ishlar. -2011.

zarur ko'rgazmalilik asosida olib boriladi. Mana shu yo'l bilan bolalarning so'z boyligi kengayib, chuqurlashib va o'sib borishi ta'minlanadi. Ayrim mutaxassislar rus tilini ham xuddi ona tilidek, ya'ni og'zaki nutq o'qish va yozishdan oldin o'rgatilishi kerak degan fikriga qo'shib, bu masalani bir muncha boshqacharoq talqin qiladi. U bola gapira boshlashdan avval kattalar nutqini eshita borib passiv ravishda material to'plashini nazarda tutib rus tilni o'qitishda reproduktiv ish formasidan oldin retseptiv ish formalari amalga oshirilishi, ya'ni gapirishdanoldin tinglash, yozishdan oldin esa o'qish kerak, degan xulosa chiqaradi. U o'z nuqtayi nazarini qiyinchiliklarni hisobga olish va og'zaki nutq yozma nutqdan farq qilganidek, bir ko'nikmani boshqasidan sinchiklab ajratish prinsiplari bilan mustahkamlaydi.”¹

“Bolalarda rus tiliga kuchli qiziqish uyg'otish maqsadida, turli ko'ngilochar o'yinlar, qiziqarli topishmoqlar, she'rlar, qo'shiqlar, dialogli suhbatlar ishlatilishi zarur. Bunda bolalar soni 5-8 tadan 10-12 tagacha bo'lishi talab etiladi. Muallifning dasturi doirasida 4-5 daqiqa davomida tanaffus e'lon qilinib, qo'shiq kuylash, raqsga tushish majburiy hisoblanadi. Natijada, zavq bilan kuylagan qo'shiqlar va aytilgan she'rlar bolalar xotirasiga singib, rus tilida so'zlashish ko'nikmasi shakllantirilib, leksik va fonetik jihatdan mustahkamlanadi.”²

Xulosa qilib aytganda til o'rganish o'quvchilar uchun murakkab jarayon sanaladi. O'quvchilar xorijiy tillarni o'zlashtirishda doimo qiyinchiliklarga duch keladilar. Biz yuqorida sanagan interfaol metodlar esa ana shu qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi va o'quvchilarni xorijiy tillar, xususan rus tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini orttirishga xizmat qiladi. Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda (darsda) amaliy egallash murnkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi. Oxirgi paytlarda rus tili darslarida kognitiv faoliyat vositalaridan foydalanish va ularning ahamiyati ancha sezilarli darajada faollashdi. Sababi o'qituvchilar mustaqil ta'lim olishda rus tilining ahamiyatini yildan-yilga ko'proq anglab yetmoqda. Rus tilini o'rganish hamma fanlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Boshqa tomondan esa, so'zlarga intilish, so'zlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish va o'quvchilar soni ortib bormoqda, shuningdek, axborot va muloqot kabi muhimko'nikmalar takomillashmoqda. Rus tili va adabiyoti darslarida umumiy madaniy, axborot va muloqot kabi muhim kompetensiyalar rivojlantiriladi. Bundan kelib chiqadiki, rus tili va adabiyotini o'qitishda tizimli-faol yondashuvni joriy qilish masalasi dolzarbdir.

¹ Deikina A.D., Yanchenko V.D. Rus tilini o'qitish metodikasi tendentsiyalari-2011

² Drozdetskaya G.V. Rus tili va nutq madaniyatini o'qitishda masofaviy ta'lim masalalari // Ta'lim falsafasi. -2011.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirzayeva F. Kasbiy fanlarni o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish(uslubiy qo‘llanma). Toshkent - 2013
2. Abramova S.V. Maktab o‘quvchilarining rus tili bo‘yicha dizayn va pedagogik ishlar. -2011.
3. Deikina A.D., Yanchenko V.D. Rus tilini o‘qitish metodikasi tendentsiyalari-2011
4. Drozdetskaya G.V. Rus tili va nutq madaniyatini o‘qitishda masofaviy ta’lim masalalari // Ta’lim falsafasi. -2011.

ONA TILI VA ADABIYOT FANINI O'RGANISHDA GRAMMATIK TAHLILDAN SAMARALI FOYDALANISH METODIKASI

Aslonova Madina

Qiziltepa tuman 2-son kasb hunar maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Sotibova Go'zal

Qiziltepa tuman 2-son kasb hunar maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Til o'qitishda til va nutq hodisalarining farqiga yetmaslik ko'pgina chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. Til va nutq tushunchalarini bir-biridan ilmiy asosda farqlash uni o'qitish metodikasi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan ham ushbu maqolada muloqat jarayonida ishlatayotgan so'zlarimizni, gaplarimizni grammatik jihatdan tahlil qilish usullari yoritilgan. Bundan maqsad ham o'quvchilarda tilga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda gaplarni to'g'ri tahlil qila olish ko'nikmasi shakllanishi nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: Grammatik tahlil, morfologik tahlil, sintaktik tahlil, orfografiya, orfoepiya, punktuatsiya, og'zaki va yozma nutqni o'stirish, stilistika.

АННОТАЦИЯ

Отсутствие разграничения языка и речевых явлений в преподавании языка вызывает множество недоразумений. Отличие понятий языка и речи друг от друга на научной основе имеет большое значение для методики его преподавания. По этой причине в данной статье описаны методы грамматического анализа слов и предложений, которые мы используем в процессе общения. Целью этого является повышение интереса учащихся к языку и развитие умения правильно анализировать предложения.

ABSTRACT

Lack of distinction between language and speech phenomena in language teaching causes many confusions. Distinguishing the concepts of language and speech from each other on a scientific basis is of great importance for the methodology of its teaching. For this reason, this article describes the methods of grammatical analysis of the words and sentences we use in the process of communication. The purpose of this is to increase students' interest in the language and to develop the ability to analyze sentences correctly.

Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki boyliklarni, bilimlarni o'rganish, o'zlashtirish va rivojlantirish vazifasi turadi. Hayot taraqqiyoti va jamiyat rivojini shusiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu vazifani amalga oshirishning birdan-bir yo'li ta'lim tizimini tinmay takomillashtirib borish orqali yosh avlodni ilm-fan asoslari bilan chuqur qurollantirishdir. O'quvchi va talabalarni ona tili darslarida mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ular ongida ma'naviy-ma'rifiy inqilob hosil qilishga intilish lozim. Shuning uchun yangi dastur va darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg'ulotlarni o'quvchi va talabalarning nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi. ona tili o'qitishning samarali bo'lishi ko'p jihatdan uni adabiyot bilan bog'lab olib borishga bog'liq bo'ladi.

“Aslida, ona tili, adabiyot darslarida ham o'rganiladi. Masalan, badiiy asarning tilini tahlil etish davomida ba'zi grammatik shakllarning uslubiy ahamiyati, sinonimlarning nutqda tutgan o'rni izohlanadi va hokazo; o'quvchi va talabalar tilning turli ifoda vositalari bilan tanishib boradilar. Badiiy asar tili bo'yicha muayyan bir izchillikda olib boriladigan ishlar o'quvchi va talabalarning so'z boyligini oshiradi va nutqini o'stiradi. Adabiy asarning tasviriy vositalari bo'yicha sinfda va undan tashqari bajarilgan ishlar natijasida o'quvchi va talabalar so'z haqida, uning turli nutq uslubidagi o'rni haqida kengroq tushunchaga ega bo'la boradilar.”¹

“Xilma-xil ifoda jilolari tilning estetik ta'siri va ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Ona tili o'rta maktab, akademik litseylar va kasbhunar kollejarida o'rganiladigan barcha fanlarni puxta o'zlashtirish uchun muhim «kalit» sanaladi. Til vositasida o'quvchi va talaba boshqa fanlarni o'rganadi. Barcha fanlar yuzasidan fikrni yozma va og'zaki ravishda bayon qilish orqali u o'z ona tilini ham mukammal o'rganib boradi. Grammatik tahlil maktabda o'tilganlarni takrorlash darslarida o'tkaziladi. Bunday mashqlarning o'tkazilish usullari, mazmuni har xil shaklda bo'ladi. Grammatikani o'rganish orqali o'quvchi so'z va gapning grammatik xarakteristikasini bilib oladi. Bunda so'zning tuzilishi, so'z yasalishi, so'z birikmalari, gap qurilishi, sodda gap, qo'shma gap, gap bo'laklari kabi grammatik hodisalar o'rganib chiqiladi.”²

Grammatikani o'rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega: u o'quvchilarni til qonuniyatlari bilan tanishtiradi, ularning til qurilishini egallashlariga va uning imkoniyatlaridan ongli ravishda foydalanishlariga yordam beradi. Grammatika adabiy tilning yozma va og'zaki shakllarini ongli ravishda to'liq egallashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Grammatik tahlil o'rta maktabda

¹ G'ulomov Yo. va b. O'zbek tili o'qitish metodikasi. T.: «O'qituvchi», 1975.

² Qodirov M., Dolimov U., A'lomova M. O'zbek tili va adabiyoti, T.: «O'qituvchi», 1993.

grammatika o'qitishda muhim metodik vositalaridan biridir, u «Ona tili» fanining barcha vazifalari (orfografiya, orfoepiya, punktuatsiya, og'zaki va yozma nutqni o'stirish, stilistika va boshqalar) bilan bog'lanadi.

Berilgan gapni tahlil qilishda ona tilidan olingan barcha nazariy va amaliy bilimlar ishga solinadi. Chunki har qanday gapni grammatik tahlil qildirish orqali o'quvchining morfologiya va sintaksisdan (umuman, «Ona tili»ning barcha bo'limlaridan) shu kungacha olgan bilimlarining darajasini sinab ko'rish mumkin. Ba'zan o'quvchining u yoki bu masalada nazariy ma'lumoti bo'lsa-da, uni amalda berilgan gapni grammatik tahlil qilib berishga tatbiq eta olmaydi. Ba'zan o'quvchi grammatik qoidani xuddi darslik kitobida yozilgan shaklda aynan yod aytib bersa ham, lekin qoidaga misol keltira olmaydi yoki shu qoidaga mos tushuvchi tayyor misolni tahlil qila olmaydi. Bu esa uning o'sha grammatik hodisaning mazmuniga to'la tushinib etmaganidan darak beradi.

O'quvchi grammatik qoidani darslikda yozib ko'rsatilgandek qilib aytib bermasdan, balki o'sha qoidaning mazmunini o'z so'zlari bilan bayon qilib bersa va jonli muloqot joriy qila olsa, bu uning mavzuni ongli tushunganligini ko'rsatadi. Grammatik tahlilning butun tizimi onglilik prinsipiga asoslanadi. Bu prinsip o'quvchilarning (talabalarining) mustaqil fikrlash, mustaqil ishlash qobiliyatini kuchaytiradi, bir-biridan ko'chirib olish xavfini yo'qotadi, grammatikaning nazariy tomonlarini amaliyotga tatbiq qilishga yordamlashadi.

“Grammatik tahlil vaqtida o'quvchi har bir grammatik shaklning nega shunday ekanligi haqida mustaqil fikr yuritishi, uni isbotlashga harakat qilishi kerak. Tushunmay yodlashga odatlangan o'quvchi grammatik tahlil vaqtida doim qoqiladi, chunki grammatik tahlilning xarakteri mashqlarni mustaqil bajarishni talab etadi. Grammatik tahlildan ko'zda tutilgan asosiy maqsad o'quvchi va talabaning morfologiya (so'z tarkibi, so'z yasalishi, so'z o'zgarishi, so'z turkumlari) va sintaksis (so'z birikmasi, gap qurilishi) bo'yicha olgan bilimlarini amalda sinab ko'rishdir. Ammo til sistemadir, uni tashkil qiluvchi qismlar bir-biri bilan o'zaro bog'langan holda bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil qiladi: nutq tovushi va so'z, so'z va gap tilning butun strukturasi o'zaro aloqadordir.”¹

Demak, fonetika, leksika, morfologiya va sintaksis o'zaro organik bog'liq bo'lib, bir butunlikni tashkil qiladi. Bu butunlikning morfologiya va sintaksis qismlari birlikda grammatika nomi bilan yuritiladi. Grammatikaning bu teng huquqli qismlari grammatik tahlil o'gkazish vaqtida bular o'z aksini topadi.

Morfologiya va sintaksis bir grammatik hodisaning ikki tomonidir. Grammatik tahlilning muhim prinsiplaridan biri morfologik tahlil bilan sintaktik tahlilning teng

¹ G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, «Universitet», 2001, 221

huquqli ekanligini, ularning bir-biri bilan zich bog‘lanishini ko‘rsatishdir. Masalan, morfologiyadagi mustaqil so‘z sanaladigan ot, sifat, son kabi turkumlar gapda ma‘lum sintaktik vazifani–gap bo‘lagi vazifasini o‘taydi, morfologiyadagi yordamchi so‘z turkumlari mustaqil ma‘noga ega emasligidan mustaqil holda sintaktik vazifa bajara olmaydi (gap bo‘lagi bo‘lmaydi). O‘quvchi va talaba sintaksisni o‘rgangandan so‘ng morfologik hodisalarning mohiyatini yanada to‘la tushunib etadi. Grammatik tahlil jarayonida shunday faktlarga duch kelinadiki, ularni fonetika, orfografiya, orfoepiya, leksika, uslubiyat va punktuatsiya bo‘yicha olingan bilimlarni ishga solish asosida hal qilinadi (masalan, *bilagi* so‘zida o‘zak *bilag* emasalan, *bilak*; egalik qo‘shimchasi olganda o‘zak oxiridagi *k* tovushi *g* ga o‘tadi; *shahrim* so‘zining o‘zagi *shahr* emas, *shahar*; egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda oxirgi bo‘g‘indagi *a* tovushi tushadi va boshqalar). Demak, grammatik tahlilda leksik, fonetik, uslubiy tahlil elementlari ham ishtirok etadi.

“Grammatik tahlil mazmuniga ko‘ra ikki tarkibiy qismga bo‘linadi:

1. Morfologik tahlil.

2. Sintaktik tahlil. Berilgan gapni avval morfologik, so‘ng sintaktik tahlil qilish kerak. Chunki morfologik tahlilda gapni tashkil etgan so‘zlarning xususiyatlari, sintaktik tahlilda o‘sha so‘zlar vositasida qurilgan so‘z birikmalari va gapning xususiyatlari aniqlanadi.”¹

Xulosa o‘rinda shuni aytish mumkinki o‘zbek tili gap qurilishida so‘z turkumlariaro vazifa almashinuv anchagina keng tarqalgan. Morfologik tahlilda tilimizdagi mana shu xususiyatga alohida diqqat bilan qarash va gapdagi so‘zlarning asl turkumi va qaysi turkum vazifasida qo‘llanganini to‘liq izohlab berish talab qilinadi. Bu narsa, o‘z o‘rnida, sintaktik tahlilni to‘g‘ri amalga oshirishga zamin hozirlaydi. Umuman olganda grammatik tahlilda biz bu ikki tahlil usulidan birdek foydalanamiz. Xuddi qush bir qanotda ucholmaganidak grammatik tahlil ham bu ikkala tahlilsiz bus-butunga aylana olmaydi.

¹ Qodirov M. Kirish imtihonlarida grammatik razbor. T., ToshDU nashri, 1985, 1989.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'ulomov Yo. va b. O'zbek tili o'qitish metodikasi. T.:«O'qituvchi», 1975.
2. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi.Toshkent, «Universitet», 2001, 221.
3. Qodirov M., Dolimov U., A'lomova M. O'zbek tili va adabiyoti, T.: «O'qituvchi», 1993.
4. Qodirov M. Kirish imtihonlarida grammatik razbor. T.,ToshDU nashri, 1985, 1989.
5. Qudratov T., Nafasov T. Lingvistik tahlil. T.: «O'qituvchi»,1981.

ELEKTRONIKANING RIVOJLANISHI VA MIKROELEKTRONIKANING HAYOTIMIZDA TUTGAN O'RNI

G'iyosova Gulchiroy Abdumalikovna
Qiziltepa tumani 2-son kasb-hunar maktabi
Elektronika va mikroelektronika fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada elektronika nima ekanligi uning rivojlanishi, unda duch kelingan qiyinchiliklar, shuningdek mikroelektronika va uning hayotimizdagi elektronika haqida yoritilgan. Elektronikaning rivojlanish istiqboli nanoelektronika haqida ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Elektronika, mikroelektronika, elektromagnit, texnologiya, axborot, radioelektronika, radiotexnika.

АННОТАЦИЯ

В этой статье рассказывается, что такое электроника, ее развитие, проблемы, с которыми она сталкивается, а также микроэлектроника и ее роль в электронике в нашей жизни. Обсуждается также перспектива развития электроники в области нанoeлектроники.

ABSTRACT

This article covers what electronics is, its development, the challenges faced in it, as well as microelectronics and its role in electronics in our lives. The perspective of the development of electronics is also discussed about nanoelectronics.

Elektronika fizika va texnologiya kabi ilmiy sohalar chorrahasida tug'ilgan. Agar uni tor ma'noda ko'rib chiqsak, u elektronlar va elektromagnit maydonning o'zaro ta'sirini o'rganish, shuningdek, ushbu bilimlarga asoslangan qurilmalarni yaratish bilan shug'ullanadi, deyishimiz mumkin. Bu qurilmalar nima va bugungi kunda elektronika fani qanday rivojlanmoqda. Bugun axborot texnologiyalari asri. Biz tashqaridan oladigan barcha ma'lumotlar oqimi qayta ishlanishi, saqlanishi va uzatilishi kerak. Bu jarayonlarning barchasi har xil turdagi elektron qurilmalar yordamida sodir bo'ladi. Inson elektronlarning nozik dunyosiga qanchalik chuqur kirib borsa, uning kashfiyotlari va shunga mos ravishda yaratilgan elektron qurilmalar shunchalik buyuk bo'ladi.

“Fan sifatida u 20-asrda shakllana boshladi. Radiotexnika va radioelektronikaning elementar bazasining rivojlanishining boshlanishi davri bo‘ldi. O‘tgan asrning ikkinchi yarmi kibernetika va kompyuterlar (elektron kompyuterlar) rivojlanishi bilan ajralib turdi. Bularning barchasi ushbu sohaga qiziqish uyg‘otdi. Agar o‘z rivojlanishining boshida bitta kompyuter katta hajmdagi butun xonani egallagan bo‘lsa, bugungi kunda bizda atrofimizdagi dunyo haqidagi barcha g‘oyalarimizni o‘zgartira oladigan mikrotexnologiyalar mavjud. Ajablanarlisi shundaki, lekin, ehtimol, yaqin kelajakda tarixiy asosiy bilimlar kontekstida elektronika nima ekanligi haqida gapirish mumkin bo‘ladi. Texnologiya har kuni minimallashtirilmoqda. Ularning xizmat muddati oshadi. Bularning barchasi bizni kamroq hayratda qoldiradi. Bunday tabiiy jarayonlar fizik qonun bilan bog‘liq va kremniy yordamida amalga oshiriladi.”¹

Bugungi kunda odamlar elektronikaga alternativa - spintronika haqida gapirishmoqda. Nanoelektronika sohasidagi ishlanmalarni hamma biladi. Elektronika fizika va texnologiya chorrahasida yaratilgan sanoatdir. U zaryadlangan zarrachalarning hosil bo‘lish jarayonlarini va qattiq jismlar, vakuum, plazma, gaz kabi turli xil muhitlarda va ularning chegaralarida erkin elektronlarning harakatini nazorat qilishni o‘rganadi. Bu fan inson hayotining turli sohalari uchun elektron qurilmalar yaratish usullarini ham ishlab chiqadi. Ilm-fanning rivojlanishi bilan bog‘liq muammolar bo‘yicha tadqiqotlar oxirgi o‘rinni egallamaydi: tez eskirish, axloqiy muammolar, tadqiqotlar va tajribalar, xarajatlar va boshqalar.

“Elektronikaning hayoti tom ma’nodan elektron qurilmalar bilan to‘lib-toshgan: soatlar, kir yuvish mashinalari va boshqa maishiy texnika, avtomobillar va boshqa transport vositalariga o‘rnatilgan jihozlar, audio va video uskunalar, televizorlar, telefonlar, robotlar, tibbiy asboblari va uskunalar va boshqalar. Bu ro‘yxat juda uzoq davom etishi mumkin. An’anaviy ravishda elektronika ikki yo‘nalishga bo‘linadi: elementlar bazasini ishlab chiqish va elektron sxemalarni loyihalash. Element bazasi turli xil xususiyatlarga ega elektron qurilmalardir. U vakuum qurilmalari va qattiq jisimli elektronika sinfiga bo‘linadi. Elektr zanjirlarida element bazasi elektr signallarini ishlatish, qayd etish va qayta ishlash uchun qurilmalardan iborat. Qayta ishlangan signal qulay shaklda (monitor ekrani, televizor, ovoz va boshqalar) takrorlanadi. Signalni saqlash muhitiga yozib olish va istalgan vaqtda ijro etish, avtomatik tizimlar, servolar va boshqa qurilmalarni boshqarish mumkin.”²

¹ И.С. Андреев, Х.К. Арипов, Ж.Т. Махсудов, Ш.Б. Рахматов. Полупроводниковые приборы многослойной структуры. Транзисторы и тиристоры. Часть 1: Учебное пособие. — Т.: ТЭИС, 1994.

² N. Yunusov, I.S. Andreyev, A.M. Abdullayev, X.K. Aripov, Y.O. Inog‘omova. Elektronika bo'yicha asosiy tushuncha va atamalarning o'zbekcha-ruscha-inglizcha izohli lug'ati. — Т.: TEA1, 1998.

“Raqamli sxemalar kvant tabiatidagi signal bilan ishlash uchun mo‘ljallangan. Bular kompyuterlar, kontrollerlar va boshqa ko‘plab qurilmalar. elektronika va nanoelektronika kabi fanlar mikroelektronika bilan bog‘langan bo‘lib, o‘z tarixini 1958 yildan boshlab, ikkita rezistor va to‘rtta tranzistorni o‘z ichiga olgan mikrosxemalar yaratilganidan beri olib boradi. Keyingi rivojlanish tranzistorlar kabi komponentlar sonini kamaytirish va bir vaqtning o‘zida ko‘paytirish yo‘lidan bordi. Nanoelektronika topologik normasi 100 nm dan kam bo‘lgan integral mikrosxemalarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.”

Mikroelektronika - elektron uzellar, bloklar va qurilmalarni juda mitti integral qurilmalar tarzida yaratish bilan shug‘ullanadigan elektronika sohasi. 20-asr 60-yillarida vujudga keldi. Qattiq jism fizikasi Mikroelektronikaning asosi hisoblanadi. Ayrim qurilmalarda alohida tayyorlangan bir necha ming elektron lampa, tranzistor, kondensator, rezistor, transformator va boshqalarni qo‘llab, ularni kavsharlab yoki payvandlab yig‘ilishi natijasida apparatlar kupol bo‘lgan. Bosma montaj, mikromodul, integral sxemaning yaratilishi bilan bu kamchiliklar deyarli bartaraf qilindi.

“Mikroelektronika bir-birini to‘ldiruvchi bir necha yo‘nalishlar: integral elektronika, vakuum mikroelektronika, optik elektronika va funksional elektronika kabi yo‘nalishlarga ajratish mumkin. Integral elektronika eng keng rivojlangan. Bu sohaning vujudga kelishi radioelektron apparatlarni mikrominiatyuralashga (mittilashga) imkon berdi. Integral sxema (mikrosxema) hisoblash texnikasi va kosmik sistemalarda ham, xo‘jalikda ishlatiladigan apparatlarda ham qo‘llaniladi. Yarimo‘tkazgichli integral sxemalar 1959-61 yillarda yaratildi. Bunday integral sxemalarning integrallash darajasi yuqori (bitta yarimo‘tkazgich kristallida 10000 gacha va undan ko‘pelement). Guruhlab tayyorlash usuliga o‘tish yo‘li bilan yarimo‘tkazgichli material plastinkalaridagi aktiv (diodli, tranzistorli) elementlar tayyorlash texnologiyasining takomillashtirish bosma montaj texnikasining va passiv mikrominiatyur komponentlarni yaratish texnologiyasining rivojlanishiga, bu esa, o‘z navbatida, plyonkali integral sxemalarni ishlab chiqishga olib keldi.”¹

Xulosa o‘rinda shuni aytish mumkinki, elektronika va mikroelektronika bu biz kundalik faoliyatimizda foydalanayotgan texnikalarimiz ularning tuzilishi rivojlanishi va ularning tutgan o‘rni nechog‘lik muhim ekanligini aytib o‘tish joizdir.

¹ X.K. Aripov, A.M. Abdullayev, H.B. Alimova. Elektronika: O‘quv qo‘llanma. - T.: TATU, 2009

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. И.С. Андреев, Х.К. Арипов, Ж.Т. Махсудов, Ш.Б. Рахматов. Полупроводниковые приборы многослойной структуры. Транзисторы и тиристоры. Част 1: Учебное пособие. — Т.: ТЭИС, 1994.
2. N. Yunusov, I.S. Andreyev, A.M. Abdullayev, X.K. Aripov, Y.O. Inog‘omova. Elektronika bo‘yicha asosiy tushuncha va atamalarning o‘zbekcha-ruscha-inglizcha izohli lug‘ati. — Т.: TEA1, 1998.
3. X.K. Aripov, A.M. Abdullayev, H.B. Alimova. Elektronika: O‘quv qo‘llanma. - Т.: TATU, 2009

SHAXSIY KOMPYUTERLARNING DASTURIY TA'MINOT TIZIMI TURLARI VA SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Safarov Avaz Jahonovich

Qiziltepa tumani 2-son kasb-hunar maktabi Shaxsiy kompyuterlarning apparat va dasturiy ta'minotiga xizmat ko'rsatish

ANNOTATSIYA

Axborot texnologiyalarning rivojlanishi va axborot oqimlarining tobora ortib borishi, ma'lumotlarning tez o'zgarishi kabi holatlar insoniyatni bu ma'lumotlarni o'z vaqtida qayta ishlash choralarining yangi usullarini qidirib topishga undamoqda. Ma'lumotlarni saqlash, uzatish va qayta ishlash uchun ma'lumotlar bazasini yaratish, so'ngra undan keng foydalanish bugungi kunda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar: *Elektron ta'lim, shaxsiy kompyuterlar, dasturiy ta'minot, interfeys, apparat dasturiy interfeys, drayver dasturlar, diagnostik dasturlar, antivirus dasturlar.*

АННОТАЦИЯ

Развитие информационных технологий и постоянно растущий поток информации, быстрая смена информации побуждают человечество к поиску новых способов своевременной обработки этой информации. Создание базы данных для хранения, передачи и обработки данных, а затем ее широкое использование остается актуальным и сегодня.

ABSTRACT

The development of information technologies and the ever-increasing flow of information, the rapid change of information, prompt humanity to search for new ways of processing this information in a timely manner. Creating a database for data storage, transmission and processing, and then its widespread use, remains relevant today.

“Ta'lim tizimida o'quv jarayonini tashkil qilishning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha jahon andozalari darajasiga ko'tarish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini yurtimizda keng joriy etish metodikasini yaratish dolzarb uslubiy masalalardan hisoblanadi. Ushbu masalalarning dolzarbligi xususida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012 yil 21 martdagi —Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari

to‘g‘risidagi PQ-1730 sonli qarori, hamda, O‘zbekiston Respublikasida ¹Elektron ta‘lim milliy tarmog‘ ini yaratish investitsion loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘ risidagi PQ-1740 sonli qarori va me‘yoriy hujjatlarda alohida ta‘kidlab o‘tilgan.”

Hozirgi davrda axborotlarning haddan tashqari ko‘pligi bu axborotlarni saqlashda, qayta ishlashda, hamda xar xil turdagi masalalarni yechishda hisoblash texnikasidan keng foydalanishni va axborot sistemalari yaratishni talab qiladi. Axborot sistemasi axborotni to‘plash, saqlash va qayta ishlash uchun, keng imkoniyatli maqsadlarda samarali foydalanish uchun xizmat qiladi. Axborotlar sistemasini avtomatlashtirish xisoblash texnikasi yordamida amalga oshiriladi. Zamonaviy axborotlar sistemasi, ma‘lumotlar integrasiyasi konsepsiyasiga asoslangan katta xajmdagi ma‘lumotlarni saqlash bilan tavsiflanadi va ko‘p sonli foydalanuvchilarning turli xildagi talablariga javob berishi kerak bo‘ladi. Axborot sistemasi va axborot texnologiyasining avtomatlashtirilgan elementlarini qo‘llash va avtomatlashtirish asosida yangi axborot texnologiyasini yaratish avtomatlashtirish sistemalarini loyihalashtiruvchilarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ma‘lumki, komp‘yuter texnologiyalari faqat chegaralangan amallarnigina bajarishga mo‘ljallangan boshqa elektron qurilmalar (telefon, magnitofon, televizor va h.k.) dan farq qilib, kiritilgan ma‘lumotlar ustida xilma-xil amallarni bajarishi mumkin. Buning uchun shu texnologiyalarning asosi bo‘lmish komp‘yuter tushinadigan tilda kerakli ko‘rsatmalar (dasturlar) tuzib, uning xotirasiga kiritish kerak. SHunday dasturlarning majmui *komp‘yuter texnologiyalarining dasturiy ta‘minotini* tashkil qiladi va ularning imkoniyatlarini, quvvatlarini aks ettiruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

“Kompyuterning apparat va dasturiy ta‘minoti orasida bog‘lanish qanday amalga oshiriladi? Avvalo ular orasidagi bog‘lanish *interfeys* deb atalishini bilib olishimiz lozim. Kompyuterning turli texnik qismlari orasidagi o‘zaro bog‘lanish — bu, *apparat interfeysi*, dasturlar orasidagi o‘zaro bog‘lanish esa — *dasturiy interfeys*, apparat qismlari va dasturlar orasidagi o‘zaro bog‘lanish — *apparat — dasturiy interfeys* deyiladi.

Shaxsiy kompyuterlar xakida gap ketganda kompyuter tizimi bilan ishlashda uchinchi ishtirokchini, ya‘ni insonni (foydalanuvchini) ham nazarda tutish lozim. Inson kompyuterning ham apparat, ham dasturiy vositalari bilan mulokotda buladi. Insonning dastur bilan va dasturni inson bilan o‘zaro mulokoti — *foydalanuvchi interfeysi* deyiladi”².

¹ Normativ-huquqiy hujjatlar

² Аткинсон, Леон. А92 MySQL. Библиотека профессионала.: Пер. с англ. — М.: Издательский дом "Вильямс", 2002.

| Dasturiy ta'minot turlari | | |
|---------------------------|---|--------------------------|
| Tizimli dasturiy taminot | Uskunaviy dasturiy ta'minot | Amaliy dasturiy ta'minot |
| Operatsion tizimlar | Dasturlash tillari | Matn protsessorlari |
| Drayver dasturlar | Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari | Elektron jadvallar |
| Diagnostik dasturlar | | Ma'lumotlar bazasi |
| Antivirus dasturlar | | O'quv tizimlari |
| Faylli qobiqlar | | Grafik muxarrirlar |

“Istalgan shaxsiy kompyuter, hattoki so‘ngi rusumdagi zamonaviy kompyuter bo‘lsada, u dasturiy taminotsiz shunchaki uskunadan boshqa narsa emas. Bunday holatda u eng elementar masalani ham hal eta olmaydi. Buning uchun dasturiy ta'minot muhim ahamiyatga ega. (DT yoki software). Dasturiy ta'minot dasturlar to‘plami bo‘lib, u kompyuter muhitida tizimga bo‘g‘lanib, masalalarni va muammolarni hal etish kabi vazifalarni bajaradi. Hisoblash tizimidagi dasturlarni ishlatishda, tizim osti dasturlari ishlatiladi(OT). DTni loyihalashda va ishlab chiqishda barcha dasturiy ta'minot sohalari ishtirok etadi: texnologik loyihalashtirilgan boshlang‘ich loyihalash, ob‘ektga mo‘ljallangan loyihalash va h.,k); dasturlarni testlashtirish usullari; dasturlar to‘g‘riligini isbotlovchi usullar; dasturlar ishlarining sifati analizi; dasturiy muhit ishlatilishini va ishlab chiqilishini, dasturiy ta'minot loyihalash jarayonini yengillashtirish va hokozolar.”¹

Zamonaviy kompyuterlar o‘z tarkiblariga millionlab dasturlarni qabul qila oladi. Ular ko‘ngil ochar o‘yinlardan tortib to murakkab darajadagi ilmiy ishlargacha bo‘lishi mumkin. Tizimli dasturlar, turli yordamchi masalan: kompyuter resurslarini boshqarishda; foydalanilayotgan axborotlardan nusxa yaratishda; kompyuter qurilmalarining ish usullarini tekshirish; kompyuter haqida axborot berish va qayta ishlashdan iborat.

¹ T. Konolli, K. Begg "Базы данных: проектирование, реализация и сопровождение", Dialektika 2000.

“Dasturiy ta’minotning klassifikatsiyalarini ishlab chiqishda hisoblash texnikasi uchun yaratilgan barcha dasturiy ta’minotlarda vaqt o‘tishi bilan eskirish yuz berishini ta’kidlash kerak. Avvalgi dasturiy ta’minotlar operatsion tizim, translyatorlar, amaliy dasturlar paketlari hozirgi kunga kelib ma’lum miqdorda o‘zgardi. DT avlodlari, operatsion tizim yangilanib borilmoqda, hatto mayda dasturlarning ham bir qancha turlari yaratildi. Ular ko‘payib borishi bilan dasturning imkoniyatlari, hajmi, qulayliklari oshirilib borildi.”¹

Xulosa qilib aytganda dasturlarga bo‘lgan talablar tez va jadal oshib bormoqda. Kecha o‘rnatilgan dastur ertasiga bir oz qulaylik bilan yangi ko‘rinish olmoqda. Hattoki operatsion tizimlar ham yildan-yilga o‘z ichiga chuqurroq manoga ega bo‘lgan funksiyalarni olgan holda ishlab chiqarilmoqda. Bu borada texnika inson aql-zakovati va ftkrlash darajasiga yaqinlashib bormoqda. Hozirgi kunda "aynan manashu yaratilgan dastur bizga mangu xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Normativ-huquqiy hujjatlar
2. Т. Конолли, К. Вегг "Базы данных: проектирование, реализация и сопровождение", Dialektika 2000.
3. М.М.Алиев, Е.Т.Тохиров ТИЗИМЛИ ДАСТУРИЙ ТА’МИНОТ Toshkent - 2012
4. Аткинсон, Леон. А92 MySQL. Библиотека профессионала.: Пер. с англ.- М.: Издательский дом "Вильяме", 2002.

¹ М.М.Алиев, Е.Т.Тохиров ТИЗИМЛИ ДАСТУРИЙ ТА’МИНОТ Toshkent - 2012

TA'LIM TIZIMIDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Mardonov Sur'at Salohiddinovich

Qiziltepa tumani 2-son kasb-hunar maktabi Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Jismoniy tarbiya ta'limining sifati ta'limiy tamoyillari bilan o'zaro uzviy bo'lib, undan yuzaga keladigan samaradorlik (natija, oqibat) jismoniy madaniyat ta'limi jarayonining mashg'ulotlari sifatini takomillashtirishga ijobiy ta'sir qilishi maqolamizning asosiy mazmunini tashkil etdi. Maqola soha mutaxassislari bo'lmish aynan bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: "Sog'lom avlod uchun", dars, jismoniy tarbiya darsi, umumiy o'rta ta'lim maktabi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, dars jadvali, jismoniy tarbiya, o'quv tarbiya jarayoni, sinflar va o'quv guruhlar, jismoniy mashqlar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье качество физического воспитания взаимосвязано с воспитательными принципами, а вытекающая из него эффективность (результат, следствие) положительно влияет на повышение качества подготовки в процессе физического воспитания. Статья предназначена.

ABSTRACT

In this article, the quality of physical education is interconnected with educational principles, and the effectiveness (result, consequence) arising from it has a positive effect on the improvement of the quality of training in the process of physical education. The article is intended for future physical education teachers who are specialists in the field.

“O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi sharofati bilan barcha sohalarda har tomonlama yuksalish yuz berayotgani, tub ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy o‘zgarishlar, umuminsoniy qadriyatlar tizimida yangilanish, insonning barcha shaxsiy ehtiyojlari, talablari va manfaatlari birinchi o‘ringa ko‘tarilayotgani, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy-axloqiy va jismoniy imkoniyatlari yanada oshayotgani bugungi kunda sir emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov “Sog‘lom avlod uchun” ordenini topshirish marosimida so‘zlagan nutqida: “Biz naslimizning kelajagi-sog‘lom avlod uchun kurash boshladik. Shu nom bilan orden ta’sis etdik va

maxsus xalqaro jamg'armani tuzdik. Bu bejiz emas, albatta. Sog'lom avlod degan da, biz faqat jismoniy baquvvat farzandlarimizni emas, balki ma'naviy boy avlodga ega bo'lgan xalqni tushunishimiz kerak. Bunday xalqni hech qachon hech kim yenga olmaydi. Buni hammamiz yaxshi anglab olmog'imiz shart"¹, – deb alohida ta'kidlagan edilar.

Bilamizki, mamlakatimiz o'quv tarbiya muassasalarining jismoniy tarbiya darsi o'quvchi yoshlarning jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlarini asosiy shaklidir, ularning namunaviy o'quv rejalalaridagi umumiy ta'lim fanlaridan biri hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktabi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini nazariy bilimlari va amaliy malakalarini shakllantirish, takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish va jismoniy tarbiyaning ta'limiy prinsiplaridan foydalanish muammolarini takomillashtirish dolzarbligi oshmoqda. Aynan muammo o'quv tarbiya jarayonida o'zini doimiy takomillashtirilishi talabini qo'yadi. Umumiy ta'lim maktabining o'quv rejasida jismoniy tarbiya darsi sifatida, o'quv haftasining ikki kuni - darslar oralig'i teng kunlarda, ya'ni haftaning birinchi va ikkinchi kunlari emas, balki haftalik dars oralig'i kunlari teng qilib, masalan: dushanba payshanba yoki seshanba, juma va x.k. lar tarzida dars jadvaliga qo'yish (dars samaradorligining omillaridan biri) bilan o'qitiladigan bazaviy fan sifatida maktab yoshidagilarning barcha yoshdagilari uchun tashkillanadi.

“Jismoniy tarbiya darsining samaradorligini oshirish muammosi dolzarb va uni takomillashtirish shu kunning zarauriyatidir. Shu o'rinda dars tushunchasini ta'riflanishiga to'xtalib o'tamiz. Bundan kelib chiqadigan vazifalar quyidagicha:

- a) samaradorlik tushunchasi va uni jismoniy tarbiya darsida yuzaga keltirilishi.
- b) jismoniy tarbiya darsi samaradorligida jismoniy tarbiya nazariyasining nazariy va uslubiy tamoyillarini qo'llashning hozirgi holatini o'rganish.
- v) jismoniy tarbiya darsi va boshqa jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlarida samaradorlik omillari tizimini yaratish.”²

“Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlarining darsdan tashqari shakllari darsga taqqoslanganda ular o'zining davriyligi, tizimli emasligi, faqat bir marotabaliligi yoki individualligi bilan akademik darslardan tubdan farqlanadi. Bunday sxemalarning ko'plab variantlari takomillashtirildi va hozirgi kunga kelib darsning to'rtta asosiy komponentlarining umumlashmasidan – dars konspekti matniga kiritilgan jismoniy mashqlar, darsda ularni bajarish orqali o'quvchi organizmida sodir bo'ladigan o'zgarishlar(fiziologik, biologik, biomexanik, psixiologik va boshqalar), dars davomida o'qituvchining hamda o'quvchilarning faoliyati jismoniy tarbiya

¹ I. Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: “Sharq”. 1997-yil.

² T. Usmonxo'jayev, O. Tursunov. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. –T.: “O'qituvchi”. 2004-yil.

darsining mazmunini ifodalaydigan dars tushunchasining ta'rifi yuzaga keldi. Ular: qayd qilingan jihatlar o'zaro bir biri bilan o'zaro uzviy bog'langan va ular jismoniy tarbiya darsining xarakterli komponentlari(jihatlar) deb atalmoqda.”¹

Xulosa shundan iboratki dars samaradorligining yetakchi, asosiy tamoyillar omillaridan biri o'qituvchining faoliyati dars mazmunining navbatdagi komponenti bo'lib, uni dars davomidagi barcha kasbiy faoliyati: uyga vazifa berish va uni tushuntirish, darsning aniq vazifasini bayon qila bilish va uni hal qilishni tashkillash, shug'ullanuvchilarni doimiy nazoratda ushlab, ularni faoliyatini tahlil qilish, shuningdek, shug'ullanuvchilarning faoliyatini lozim bo'lgan yo'lga burish, ular orasidagi munosabatlarni o'zining diqqat markazida ushlab va o'quvchilarning faoliyatlarini dars vazifalarini samarali hal qilish uchun yo'naltirish, boshqarish, nazorat qilish, o'zlashtirishni baholashdek ta'lim – tarbiya jarayoning nazariy, amaliy tomonlarini va asosiy holatlarni o'z ichiga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: “Sharq”. 1997-yil.
2. T. Usmonxo'jayev, O. Tursunov. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. – T.: “O'qituvchi”. 2004-yil.
3. Abdullayev A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik. 3-to'ldirilgan nashri. Farg'ona, 2021.
4. Xankeldiyev SH.X, Abdullayev A. va boshqalar. Sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati. O'quv qo'llanma. Farg'ona, 2010.

¹ . Abdullayev A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik. 3-to'ldirilgan nashri. Farg'ona, 2021.

QISHLOQ XO‘JALIGI TEXNOLOGIYASINING RIVOJLANISHI NATIJASIDA AHOLIGA YARATILGAN KENG IMKONIYATLAR

Ideyev Ne‘mat Muhammadjonovich

Qiziltepa tuman 2-son kasb-hunar maktabi Traktor mashinist qishloq xo‘jalik
agregatlarni ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish o‘qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda Respublikamizda barcha turdagi qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish, parvarishlash va mahsulot etishtirish texnologik kartalar asosida amalga oshiriladi. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish tizimi Respublikamiz Prezidenti tomonidan yanada takomillashtirilib borilmoqda. Buning mazmuni shundaki, qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish bozor infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida qayta ko‘rilmoqda, bozorbob, dorivor va iqtisodiy samara beradigan ekin turlari maydonlarini kengaytirish, intensiv, ilg‘or va sanoat texnologiyalarni qo‘llashga e‘tibor berilayotganini ushbu maqolada aytib o‘tilgan

Kalit so‘zlar: *Qishloq xo‘jaligi texnologiyasi, qishloq xo‘jaligi muhandislari, Sanoat inqilobi, oziq ovqat, Traktorlar, Kombaynlar, Jon Deir, divegitellar.*

АННОТАЦИЯ

В настоящее время посев, содержание и производство всех видов сельскохозяйственных культур в нашей Республике осуществляется на основе технологических карт. Система размещения сельскохозяйственных культур далее совершенствуется Президентом нашей Республики. Смысл этого заключается в том, что в данной статье пересматривается размещение сельскохозяйственных культур в целях развития рыночной инфраструктуры, расширения товарных, лекарственных и хозяйственных культур, а также использования интенсивных, передовых и промышленных технологий».

ABSTRACT

Currently, planting, maintenance and production of all types of agricultural crops in our Republic is carried out on the basis of technological cards. The system of placement of agricultural crops is being further improved by the President of our Republic. The meaning of this is that the placement of agricultural crops is being reviewed in order to develop the market infrastructure, the expansion of marketable, medicinal and economic crops, and the use of intensive, advanced and industrial technologies are emphasized in this article.

Qishloq xo'jaligi texnologiyasi dehqonchilikda yordam berish uchun fermada ishlatiladigan mashinalarni ishlab chiqarish texnologiyasini bildiradi. Qishloq xo'jaligi mashinalari qishloq xo'jaligining deyarli har bir bosqichiga mo'ljallangan. Ularga tuproqni ishlov berish, urug' ekish, yerni sug'orish, ekinlarni etishtirish, zararkunandalar va begona o'tlardan himoya qilish, o'rim -yig'im, don yig'ish, chorva mollarini boqish, mahsulotlarni saralash va qadoqlash mashinalari kiradi. Qishloq xo'jaligi texnikasi, asbob -uskunalar va konstruksiyalarini loyihalashtirishga o'rgatilgan odamlar nomi bilan tanilgan qishloq xo'jaligi muhandislari hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi texnologiyasi zamonaviy texnologiyaning eng inqilobiy va ta'sirchan sohalaridan biri bo'lib, oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoj va doimiy ravishda o'sib borayotgan aholini oziqlantirishga bog'liq. Bu ilgari odamlar va hayvonlar (ho'kizlar va otlar) bajaradigan ishni kuchli mexanizmlar bajaradigan davrni ochdi. Bu mashinalar fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirdi va butun dunyo bo'ylab odamlarni ish bilan ta'minlash va oziq -ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni tubdan o'zgartirdi. Qishloq xo'jaligi texnikasining mashhur namunasi bu traktor. Hozirgi vaqtda mexanizatsiyalashgan qishloq xo'jaligi samolyot va vertolyotlardan foydalanishni ham o'z ichiga oladi.

“Sanoat inqilobi kelishi va murakkab mashinalarning rivojlanishi bilan dehqonchilik usullari katta sakrashga olib keldi. G'ildirakli mashinalar donni qo'li bilan o'tkir pichoq bilan yig'ish o'rniga, uzluksiz pichoqni kesib tashladilar. Donni tayoq bilan urish o'rniga, boshqoq va poyadan urug' ajratishdi. Bu mashinalarga katta kuch kerak edi, ularni dastlab otlar yoki boshqa uy hayvonlari etkazib bergan. Bug' quvvati ixtiro qilingandan so'ng, bug' bilan ishlaydigan traktor paydo bo'ldi, bu ko'p maqsadli, harakatlanuvchi energiya manbai bo'lib, u bug' lokomotivining yerga sudraluvchi qarindoshi edi. Qishloq xo'jaligi bug' dvigatellari otlarning og'ir tortish ishlarini o'z zimmlariga oldi. Ular, shuningdek, uzun kamar yordamida statsionar mashinalarga quvvat beradigan kasnoq bilan jihozlangan. Bug' bilan ishlaydigan begemotlar juda katta quvvatni ta'minlay olardi.”¹

“Keyingi avlod traktorlari benzinli dizel dvigatellari bilan ta'minlangan. Bu dvigatellar, shuningdek, o'ziyurar, kombaynli kombayn va xirmon yoki kombaynning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shdi. Bu kombaynlar don poyalarini kesib, ularni statsionar xirmonga tashishning o'rniga, dalada uzluksiz harakatlanayotganda, donni kesishi, maydalashi va ajratishi mumkin edi. Kombaynlar yig'im -terim ishini traktorlardan olib qo'ygan bo'lishi mumkin, lekin traktorlar hali ham zamonaviy fermada ko'p ishlarni bajaradilar. Ular yerga ishlov beradigan asboblarni tortish, urug

¹ Garri L. va Jon Soli. 2007 yil *Qishloq xo'jaligi muhandisligi texnologiyasiga kirish: muammoni hal qilish usuli*. Nyu -York, Nyu -York: Springer. ISBN 0387369139.

‘ekish yoki boshqa vazifalarni bajarish uchun ishlatiladi. Tuproqqa ishlov beradigan asboblardan tuproqni yumshatish va begona o‘tlarni yoki raqobatbardosh o‘simliklarni o‘ldirish orqali tuproqni ekishga tayyorlaydi. Eng mashhuri shudgor, 1838 yilda Jon Deir ismli odam tomonidan takomillashtirilgan qadimiy asbob. Hozirgi kunda Qo‘shma Shtatlarda shudgorlar kamroq ishlatiladi, buning o‘rniga ofset disklar tuproqni ag‘darish uchun ishlatiladi va namlikni ushlab turish uchun kerakli chuqurlikka ega bo‘laklarni ishlatish. Ekishdan so‘ng, begona o‘tlarni qator orasidan olib tashlash yoki o‘g‘it va pestitsidlarni tarqatish uchun boshqa asboblardan foydalanish mumkin. Pichan yig‘uvchilar yordamida o‘t yoki bedani qish oylarida saqlanadigan shaklga mahkam bog‘lab qo‘yish mumkin.”¹

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni.
2. Umirova, G. Iqtisodiyotimizni rivojlantirishda innovatsiyalarning tutgan o‘rni va ro‘li //Qo‘qon universiteti xabarnomasi. – 2022. – T. 5. – C. 64-66.
3. Umirova, G. (2023). Tadbirkorlikni rivojlantirishda motivatsiya omillaridan foydalanishning zaruriyati. *Qo‘qon universiteti xabarnomasi*, 8, 74-77.
4. Umirova, G.Sh. (2023). Yosh olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy forumi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimini isloh qilishning yo‘llari, 37-38. TATUFF-EPAI.
5. Abdullaev, A., Abdullaeva, G., & Umirova, G. (2022). Содержание стресс-тестирования экономической безопасности банковской системы. InterConf.
6. qizi Umirova, G. S. (2024). Tadbirkorlikni rivojlantirishda innovatsiyalarning hozirgi kundagi ahamiyati. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(3), 452-454.
7. Axmedova, Y. S. (2024). Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning mazmuni va mohiyati. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(2), 521-524.
8. Axmedova, Y. S., & qizi Mamadiyorova, F. S. (2024). Xodimlarni motivatsiyalashning psixologik asoslari. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(1), 611-614.
9. Ахмедова, Ю. С. (2023). Инвестициялар - Иқтисодиётни Модернизациялашнинг Бош Омили. *Barqarorlik Va Yetakchi Tadqiqotlar Onlayn Ilmiy Jurnal*, 3(1), 226-229.

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ТЕРМИНА «ЦЕНТРАЛЬНАЯ АЗИЯ».

Ахмедов Жалол Турсунмуратович

Джизакский политехнический институт

Турсунмуратов Жавохир Жалол угли-студент 2-курса Университета
Общественной безопасности Республики Узбекистан.

АННОТАЦИЯ: В данной статье некоторые аспекты географической области, которая сегодня называется «Средняя Азия», рассматриваются с научной точки зрения. С древних времен Центральная Азия считалась одним из потенциальных регионов мира с крупнейшим историческим и духовно-культурным наследием. По этой причине изучение его славной истории всегда находится в центре внимания исследователей.

Ключевые слова: Средняя Азия, термин, политико-географический регион, история, «Турон», «Туркестан», «Мовароуннахр», «Средняя Азия», Великий Шелковый путь, Сибирь, Урал, Волга.

ABSTRACT: In this article, some aspects of the geographical area that is today called “Central Asia” are examined from a scientific point of view. Since ancient times, Central Asia has been considered one of the potential regions of the world with the largest historical, spiritual and cultural heritage. For this reason, the study of its glorious history is always the focus of researchers.

Key words: Central Asia, term, political-geographical region, history, “Turon”, “Turkestan”, “Movarounnahr”, “Central Asia”, the Great Silk Road, Siberia, the Urals, Volga.

Как показывает история, термин «Центральная Азия» широко используется во всей научно-популярной литературе и других географических и политических справочниках. На данный момент этот термин является политико-географическим понятием, и сегодня в регион входят Республики Казахстан, Узбекистан, Таджикистан, Туркменистан и Кыргызстан.

Этот исторический и в настоящее время вполне потенциальный регион в разное время назывался «Турон», «Туркестан», «Моваруннахр», «Средняя Азия» и, наконец, «Средняя Азия». Естественно, эти регионы несколько различались территориально. Именно поэтому изучение того, как в прошлом назывался «Туронзаминский регион» и его история, никогда не теряло своей важности.

С древних времен Центральная Азия считалась одним из потенциальных регионов мира с крупнейшим историческим и духовно-культурным наследием.

Уважаемый Президент Шавкат Мирзиёев отметил: *«Известно, что Центральная Азия, расположенная на Великом Шелковом пути и Великих Индийских торговых путях, на протяжении тысячелетий находилась в центре важных мировых процессов, благодаря своему геостратегическому положению. Наш регион служил своеобразным мостом, соединяющим Европу, Ближний Восток, Южную и Восточную Азию.*

На этой земле жили и творили великие ученые-гуманисты, мыслители и поэты, внесшие несравненный вклад в развитие мировой цивилизации. Здесь огромные природные запасы, большой человеческий потенциал. Даже сегодня Центральная Азия находится в центре мирового внимания, и интересы конкурирующих могущественных стран в этом регионе пересекаются».

Центральная Азия — природный регион во внутренней части Азиатского континента, площадью 6 млн. человек. кв. это км. Северный и западный край граничит с Монголией, Китайской Народной Республикой и Российской Федерацией, восток окружен Большим Хингоном, а юг окружен рекой Цангпо (Брахмапутра) в Тибете и верхней частью Реки Инда. Центральная Азия расположена значительно выше уровня моря. Рельеф состоит из широких горных хребтов (Монголия, Алтай, Хангой, Хентэй, Тянь-Шань, Наньшань, Куньлунь) и широких и глубоких впадин (Джунгария, долина великих озер в Западной Монголии, Торим, Кайдам).

Территория Центрально-Азиатского региона сегодня включает Кавказ и Кавказский регион, Среднюю Азию (Узбекистан, Таджикистан, Туркменистан, Кыргызстан) и Казахстан, а также северный Афганистан, северо-восточный Иран, северную часть Таджикистана (северо-западную провинцию и Азад-Кашмирский регион, подчиняющийся центру), географически охватывает широты Северной Индии (штат Джалека-Кашмир), Западного Китая (Синьцзян-Уйгурский автономный район) и Центрально-Западной Монголии.

В период Российской империи «Средняя Азия» определялась как территория от прямой линии, проведенной от северной точки Аральского моря до северной точки озера Балхаш до границ Ирана, Афганистана, Китая и Каспийского моря. Море.

По данным российских энциклопедий, в состав России в Средней Азии входят Уральская Торгайская, Окмуллинская, Семипалатинская, Жетисувская, Закаспийская, Сырдарьинская, Самаркандская, Ферганская (вместе с Памиром) области площадью 3 318 413 кв.км. население — 415,2 тыс. человек (1907 г.), к нему присоединены Хивинское ханство и Бухарский эмират[4]. Как указано в

том же словаре, Центральная, Средняя Азия является внутренней частью Азиатского континента и включает в себя Иранское нагорье и Туркестанский бассейн.

Термин «Центрально азиатский регион» использовался западными учёными для обозначения земель, охватывающих обширные географические территории (ныне Пакистан, Афганистан, Туркестан, Узбекистан, Казахстан, Киргизия, Таджикистан, Восточный Туркестан, включающий северную часть Китая, Монголию).

В советское время эти понятия несколько изменились, поскольку в результате национально-территориального размежевания в 1924 году значительная часть бывшей Средней Азии вошла в состав Казахстана. Границы Казахстана простираются до Центральной Сибири на востоке-севере, до Уральских гор и предгорий Волги на западе и частично до Европейского континента. Поэтому включение Казахстана в концепцию «Центральная Азия» вызвало споры. В таких условиях под Центральной Азией стали понимать Таджикистан, Туркменистан, Кыргызстан, Узбекистан (в который входит Каракалпакстан).

Понятие «Средняя Азия и Казахстан» также широко используется в официальных документах и в повседневной жизни. Территория Средней Азии в средние века называлась «Моваруннахр», во второй половине XIX — начале XX века (до 1924 г.) — «Туркестан». Позже этот термин использовался, чтобы отличить его от Центральной Азии. В зарубежной литературе понятия «Центральная Азия» и «Центральная Азия» используются как синонимы.

После распада Союза Шуры Узбекистан, Казахстан, Таджикистан, Киргизия и Туркменистан стали независимыми государствами, появились новые и перспективные факторы, связывающие эти страны, близкие по территории, истории, культуре и языку во многих отношениях. Понятие «Центральная Азия и Казахстан» было заменено понятием «Центральная Азия». На встрече лидеров этих пяти стран в начале января 1993 года в городе Ташкенте по инициативе Первого Президента Республики Узбекистан И.А.Каримова было создано Центрально азиатское Содружество. В мировом политическом словаре появился новый термин «Центральная Азия».

Термин «Центральная Азия» первоначально был введен немецким географом А. использован фон Гумбольдтом в его трехтомнике «Средняя Азия, обследование горных хребтов и сравнение климата», опубликованном в Париже в 1843 году. В ней исследователь изучил ирригационную систему и горные хребты этого региона и описал Центральную Азию как независимый и уникальный регион. Согласно энциклопедиям эпохи Шуры, Средняя Азия – это

естественная страна Китая и Монголии, площадь которой составляет 6 млн. кв. равен км.

Как отмечалось выше, термин «Центральная Азия» сегодня широко используется во всей научной и популярной литературе и среди общественности. Видно, что обширные территории между Сырдарьей и Амударьей, считающиеся колыбелью человеческой цивилизации, в политических, исторических и географических трудах разных периодов назывались Туроном, Туркестаном, Моваруннахром, Средней Азией, Средней Азией.

Словом, в нынешний период независимости интерес к изучению многовековой истории Центральной Азии все больше растет.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Мирзиёев Ш.М. Новая стратегия Узбекистана.–Т.: «Узбекистан», 2021. Б.38.
2. Алимов Р. М. Центральная Азия: концептуальный анализ. - «Общественные науки в Узбекистане», 2004. - №4. - С.3
3. Национальная энциклопедия Узбекистана. - Т., 2003. Том 5. - Б. 405
4. Брокгауз Ф.А. Эврон И.А. Иллюстрированный энциклопедический словарь. Современная версия. - М., 2007. - С.591.
5. Мавланов У. Древние дороги Средней Азии. – Т., 2018. – Б.3.
6. Центральная Азия в зеркале истории: от прошлого к будущему. - Т., 2002; Центральная Азия находится на пути цивилизованного развития. - Т., 2003; Социальная жизнь пародов Центральной Азии ве первой четверти 20 века: традиции и инновации. - Т., 2008. и др.
7. Axmedov, J. T., & Tajibayev, M. A. (2021). Young people from different information attacks care is a requirement of the time. *Scientific progress*, 2(5), 549-553.
8. Tajibaev, M. A., & Akhmedov, J. T. (2021). The young spiritual-moral of the global network effects on education. *Scientific progress*, 1(5), 708-711.
9. Axmedova, Y. S. (2024). Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning mazmuni va mohiyati. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(2), 521-524.
10. Axmedova, Y. S., & qizi Mamadiyoro,va, F. S. (2024). Xodimlarni motivatsiyalashning psixologik asoslari. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(1), 611-614.

O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Baytanov O‘ralboy Miraqul o‘g‘li

Jizzax politexnika instituti,
Iqtisodiyot va menejment kafedrası assistenti

N. Shashina

Sankt-Peterburg davlat elektrotexnika universiteti professori

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda hududlarda qulay ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Shu sababli oilalarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g‘oyalari va loyihalari ro‘yobga chiqishiga hamda shu asosda aholining bandligi ta‘minlanishiga zamin yaratilmoqda.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, kichik biznes, ishbilarmonlik muhiti.

ABSTRACT

Today, great attention is being paid to improving the favorable business environment in the regions, developing small business and entrepreneurship. Therefore, the round is being created for the widespread involvement of families in entrepreneurial activities, the realization of promising ideas and projects of young entrepreneurs, and on this basis, the provision of employment for the population.

Key words: entrepreneurship, small business, business environment.

Ishbilarmonlik muhiti mamlakatning ijtimoiy rivojlanishining asosini tashkil etadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki mamlakat iqtisodiyotini izchil va barqaror rivojlantirish, aholining hayot darajasini yuksaltirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni beqiyosdir. Tadbirkorlar uchun qanchalik qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilsa, xalq moddiy va ma‘naviy jihatdan shunchalik boy bo‘ladi. Shu o‘rinda ishbilarmonlik muhitiga bevosita va bilvosita ta‘sir qiladigan omillarni ko‘rib chiqsak.

Ishbilarmonlik muhiti tadbirkorlarning o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan tashqi muhit va bevosita tadbirkorlarning o‘zlari tomonidan shakllantiriladigan ichki muhitga bo‘linadi.

Tadbirkorlikning tashqi muhiti – bu tabiiy, demografik, iqtisodiy, ekologik, ilmiy-texnikaviy, qonunchilik, milliy va boshqalar kabi elementlarning keng doirasini o‘z ichiga oladi. Jumladan:

1. Huquqiy omil - bu jamiyat tomondan tadbirkorlar uchun o‘rnatilgan biznes sohasidagi o‘yin qoidalari.
2. Iqtisodiy omillar - iste‘mol bozori, to‘lov qobiliyati, talab shartlari va ushbu bozorning sig‘imini tashkil qiladi.
3. Ijtimoiy omillar - ijtimoiy-axloqiy ehtiyojlar nuqtai nazaridan ta‘sir qiladigan omillar.
4. Ekologik omillar jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi.

Tadbirkorlikning ichki muhiti butunlay tadbirkorga bog‘liq bo‘lib, uning faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlarining yig‘indisini ifodalovchi elementlarning doirasini keng qamrab oladi. Tadbirkorlikning ichki muhitini shakllanishida odatda uning ikkita tarkibiy qismi vaziyat omillari va ichki muhit elementlari ta‘sir qiladi.


Ichki muhit elementlari - bu maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan korxonalar tarkibiy qismlari: marketing, tadqiqot va ishlanmalar, personallar, moliya, ishlab chiqarish va b. Ishlab chiqarish, o‘z navbatida, yetkazib berish, ishlab chiqarish va sotishni o‘z ichiga oladi. Ishlab chiqarish quyidagi o‘zaro bog‘liq elementlardan iborat: mehnat ob‘ektlari, mehnat vositalari, mehnat, funktsiyalar va tuzilma.

Ishbilarmonlik muhiti Xalqaro reyting ko‘rsatkichlarini yaxshilash, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yuzasidan olib borilayotgan ishlar. Ishbilarmonlik muhiti - Jahon Banki va Xalqaro Moliya korporatsiyasining “Doing business” hisobotida 190 ta davlatdagi vaziyat tahlili asosida biznesning 10 ta yo‘nalishi bo‘yicha o‘rganiladi va qonunchilikdagi o‘zgarishlar baholanib, reyting ko‘rsatkichi shakllantiriladi.

Ishbilarmonlik muhiti reytingi quyidagilar - Korxonani ro‘yxatdan o‘tkazish; Qurilishga ruxsat olish; Elektr ta‘minoti tizimiga ulanish; Mulknini ro‘yxatdan o‘tkazish; Kredit olish; Minoritar investorlarni himoya qilish; Soliqqa tortish; Xalqaro savdo; Shartnomalar ijrosi va To‘lovga layoqatsizlikni hal qilish bo‘yicha ko‘rsatkichlar tahlili asosida shakllantiriladi.

Jahon banki ekspertlarining fikricha, O‘zbekistonda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasidagi asosiy islohotlar quyidagilardan iborat:

- Aktsiyadorlarning huquqlari va rolini kengaytirish hamda asosiy korporativ qarorlar qabul qilish, mulkchilik va nazorat tuzilmasini aniqlashtirish;
- Soliqlarni unifikatsiya qilish orqali soliqqa tortishni soddalashtirish;
- Tavakkalga asoslangan bojxona tekshiruvini mexanizmini joriy etish orqali xalqaro savdoni osonlashtirish, shuningdek, import hujjatlarini yengillashtirish.



1-rasm. “Doing business” hisobotida O‘zbekistonda ishbilarmonlik muhiti ko‘rsatkichi

“Doing business” hisobotiga ko‘ra 2018-2022-yillarda Ishbilarmonlik muhitini xalqaro reytingi 5 yillik dinamikasiga ko‘ra O‘zbekistonning ijobiy o‘zgarishini ko‘rishimiz mumkin. Bu ko‘rsatkichni 10 yillik keyingi 2012-2022-yillar mobaynida o‘zgarish dinamikasini o‘rganadigan bo‘lsak bu ko‘rsatkichda 2012-yilda 190 mamlakat ichida 150-o‘rinda turgan bo‘lsak 2022-yilda 69-o‘ringa o‘zgargan. O‘zbekiston xalqaro reytingida deyarli ikki barobar yuqoriga ko‘tarildi. Bu tadbirkorlikni rivolantirish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qartilgan siyosatni to‘g‘ri olib borilayotganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida qayd qilingan ishbilarmonlik muhiti begilovchi indikator ko‘rsatkichlarini yuqori darajaga ko‘tarilishini quyi tizimda ta‘minlasak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari faoliyati gullab yashnaydi. Yangi tadbirkorlik sub’ektlari soni oshadi, mavjudlarini ishi kengayib boradi va chekka hududlardagi tengsizlik barham topadi hamda tadbikorlarda yangi eksport bozorlariga kirib borishga imkon yaratiladi. Bu pirovard natijada yangi ish o‘rinlari paydo bo‘ladi va aholi daromadlari oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.
2. Anvar Qobilov, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi sektor mudiri "Iqtisodiy sharh" №8/2022
3. Baytanov, O. R. (2017). Ўзбекистонда солиқ тизимини такомиллаштириш орқали оилавий тadbirkorликни янада ривожлантириш. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 6, 62-68.
4. Mirzaqul o‘g, B. O. R. (2023). Hududlarda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishni rag‘batlantirish usullari.
5. Umirova, G. (2023). Tadbirkorlikni rivojlantirishda motivatsiya omillaridan foydalanishning zaruriyati. *Qo‘qon universiteti xabarnomasi*, 8, 74-77.
6. Umirova, G.Sh. (2023). Yosh olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy forumi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimini isloh qilishning yo‘llari, 37-38. TATUFF-EPAL.
7. qizi Umirova, G. S. (2024). Tadbirkorlikni rivojlantirishda innovatsiyalarning hozirgi kundagi ahamiyati. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(3), 452-454.

BIBLEISTIKADA DINIY MANBALARNI O'RGANISHDA ILMIY-TANQIDIY METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Egamberganov Boburbek Atabek o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

“Dinshunoslik” yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Email: boburbek.dinshunoslikfaoliyati@gmail.com

Rahimov Yosinbek O'tkir o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

“Dinshunoslik” yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy bibleistika (yoki isagogika)ning yo‘nalishidan biri bo‘lgan – Bibliya matnlari tanqidining nazariy va metodologik asoslari ko‘rib chiqilgan. Jumladan uning, tekstologik, tarixiy, adabiy, manbaviy, an‘anaviy va tahririy tanqid yondashuvlari keltirib o‘tilgan. Bunday yondashuv va nazariy asoslar bilan diniy manbaning yaratilish va tarqalish vaqtlarini identifikatsiya qilishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Bibliyaning tanqidi, Bibliya, diniy manba, bibleistika, tekstologiya, tahrir.

ЗНАЧИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАУЧНО-КРИТИЧЕСКИХ МЕТОДОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ РЕЛИГИОЗНЫХ ИСТОЧНИКОВ В БИБЛЕИСТИКЕ

Эгамберганов Бобурбек Атабек угли

Студент 4-курса направления «Религиоведение»

Международной исламской академии Узбекистана

Рахимов Ёсинбек Уткир угли

Студент 4-курса направления «Религиоведение»

Международной исламской академии Узбекистана

Аннотация: В статье рассматриваются теоретико-методологические основы критики библейских текстов, которая является одним из направлений современной bibleистики (или isaгогики). В частности, упоминаются его

текстологический, историко-литературный, источниковедческий, традиционный и редакционный подходы. Такой подход и теоретические основы помогают выявить времена создания и распространения религиозных источников.

Ключевые слова: Критика Библии, Библия, религиозные источники, библеистика, текстология, редактирование.

THE IMPORTANCE OF USING SCIENTIFIC-CRITICAL METHODS IN THE STUDY OF RELIGIOUS SOURCES IN BIBLIOGRAPHY

Egamberganov Boburbek Atabek ugli

4th-level student of the International Islamic Academy of Uzbekistan, majoring in "Religion".

Rahimov Yosinbek Otkir ugli

4th-level student of the International Islamic Academy of Uzbekistan, majoring in "Religion".

Abstract: *The article examines the theoretical and methodological foundations of criticism of biblical texts, which is one of the directions of modern biblical studies (or isagogy). In particular, his textological, historical, literary, source, traditional and editorial criticism approaches are mentioned. With such an approach and theoretical foundations, it helps to identify the times of creation and spread of religious sources.*

Key words: *Criticism of the Bible, Bible, religious source, biblical studies, textology, editing.*

Kirish.

Hozirgi kunda diniy manbalarni o'rganish doirasida dinshunoslik yo'nalishining ichiga kiruvchi bir qancha ilmiy tarmoqlar mavjud bo'lib, mavzuga kirishmasdan oldin shular haqida to'xtalib o'tish o'rinli bo'ladi.

Bibleistika – xristianlikdagi muqaddas matnlar (xususan, Bibliya va uning tarkibiga kiruvchi kitoblar)ni va ularning turli talqinlarini o'rganuvchi fan tarmog'i hisoblanib, XVIII asrdagi ilk bibleist Iogan Bengel tomonidan (Yangi Ahd tekstologiyasi tarmog'i bilan birga) asos solingan. XIX asrda makzur soha Yevropa mamlakatlarida keng tarqalib A.A.Olesnitskiy, G.P.Pavskiy, V.P.Ribinskiy, I.G.Troitskiy, N.N.Glubokovski, M.S.Palmov, F.G.Eleonskiy, A.P.Lopuxin, P.I.Kazanskiy kabi mashhur bibleist olimlar yetishib chiqqan [1].

Isagogika – XVI asrning yarmida yuzaga kelgan bibleistikaning ichida rivojlangan ilmiy tarmoqlardan biri bo‘lib, Bibliya matnlarining tarixiy va xronologik ildizlari, xususan, uning tarqalishi, rivojlanishi va nusxalari keng o‘rganiladi. Aynan shu isagogika sohasining ichiga Bibliyaning tanqidi kabi alohida yo‘nalish ham kiradi [2].

Bibliyaning tanqidi – Bibliyaning yozilish vaqti va muallif (yoki muharrir)ini aniqlash, uning asl matnlarini keyin qo‘shilganlaridan ajratib olish va falsifikatsiya (ya‘ni, tarkibi keyinchalik o‘zgartirilgan joylari)ni aniqlashga qaratilgan ratsional metodlar yig‘indisidan iborat bo‘lgan fan tarmog‘i hisoblanadi [3][4]. Uning ichida adabiy, tekstologik, tarixiy, teologik va manbaviy tanqid metodlari mavjud [5].

Bibleistik tekstologiya – bu fan tarmog‘i asosan matnning ko‘rinishi, uning talqinlari, turli xil yondashuvlari, unga berilgan izohlar va matnning asliy holatini o‘rganish vazifalarini o‘z ichiga olgan bo‘ladi [6:3].

Muqaddas diniy manbalardan hisoblanadigan – Bibliyaning ichidagi kitoblarning hozirgi kunimizgacha asl nusxasi yetib kelmagani barchaga ma‘lum. Ammo, shunday bo‘lsada cherkov vakillari va xristian olimlari tomonidan yuqoridagi manbalarning ba‘zi ko‘rinishlari (papyrus yoki pergamentga yozilgan parchalari, arxeologik qazishma ishlaridan topib olingan artefaktlardagi yozuvlari) saqlanib qolgan, xolos. Xristianlik dinining rivojlanishi va cherkovlarning targ‘ibot ishlari davomida dunyoda Bibliya matnlarining bir qancha tarjima va tahririy ko‘rinishlari yoyilib borgan. Ulardan hozirgi kunimizgacha bemaol foydalaniladi. Xususan, g‘arb mamlakatlari o‘zining maxsus tarjima ko‘rinishlaridan, sharq mamlakatlari ham o‘zi tanlagan tarjima ko‘rinishidan foydalanadi. Ya‘ni, bular faqat tarjima va tahrir ostidagi ko‘rinishlar bo‘lib aslidan yiroqlashgan hisoblanadi. Chunki, bilamizki, manba qachonki o‘zining tili va tekstologik holati buzilmagandagina aslligi tan olinadi. Tarjima va tahrir esa, buning boshqacha ko‘rinishi bo‘lib, unda boshqa tilga o‘girilgan, sharh yoki izohlar qo‘shilgan, ba‘zi joylari lingvistik yoki diniy tahrirga uchragan bo‘ladi.

XV-XVI asrdagi renessansda ilk bosma ishlari vujudga kelib, turli kitoblar va manbalar bosmadan chiqarila boshlaydi. Shunda Bibliyaning bosma ishlarida unda judayam ko‘plab falsifikatsiya, tekstologik tahrir va talqinlar uchragani uchun bir qancha muammolarga duch kelinadi. Keyinchalik, xristian cherkovi vakili ierey (*xristianlik cherkovidagi katta rutbadagi*) A.Andreevning fikriga ko‘ra «ilmiy bibleistikaning kuchli va manfaatli tarmoqlaridan bo‘lmish tekstologiya tarmog‘i vujudga keladi» [1:75:212-223][7-34:36]. Albatta, bu ham o‘sha Bibliya matnlaridagi so‘z va birikmalarni aniqlash, noaniq so‘z shakllariga esa munosib istilohlarni qo‘llash (yoki yana qo‘shimchalar kiritish) uchun fanga kirib keladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Ushbu fan tarmog‘i yuqorida keltirilganidek XV-XVII asrlar oralig‘ida vujudga keladi. Reformatsiyalar davrida xristianlikning bir qancha oqimlari (sektalar) va yo‘nalishlari ham rivojlanib boradi. Ayni damda xristianlik diniy manbalarini o‘rganishda ham ob‘ektivlikni saqlagan holda o‘rganish metodlari amaliyotga tatbiq etila boshlaydi. Avvalda e‘tiqod vakillari Bibliyani «ilohiy»lashtirib, unga teologik nuqtai-nazardan qaragan bo‘lsalar, keyinchalik gumanitar fan olimlari va faylasuflarning Bibliyaning yozilishiga oid olib chiqqan tanqidiy nazariyalaridan so‘ng kishilarda manbaga nisbatan ob‘ektiv qarash kuchayib ketadi. Albatta, undan oldin ham Bibliyaga nisbatan tanqidiy nazariyalar mavjud bo‘lgan (xususan, XVI asrda yashab o‘tgan nemis ilohiyotchisi A.Karlshtad, Eski Ahddagi Musoning besh kitobi (Tavrot)ning Muso payg‘ambar tomonidan yozilmaganini ta‘kidlagan). Ammo, oradan vaqtlar o‘tib bu kabi tanqidiy ruhdagi yondashuvlar kuchayib boradi.

Bibliyani ob‘ektiv yondashuv asosida o‘rgangan fan olimlari unda ko‘plab tekstologik va tarixiy xatolar mavjudligini e‘tirof etganlar. Ammo, bu doimo xristian cherkovi ruhoniylari va ilohiyotchilari tomonidan rad etilib kelingan (buning sababi ularning teologik nuqtai-nazardan yondashib, e‘tiqodga ko‘proq yon bosganliklari sababidan bo‘lishi ham mumkin).

Ilk bor Bibliyani ratsional va ob‘ektiv yondashuv asosida o‘rganishni yoqlab chiqqan XVII asrlik ingliz faylasufi *Tomas Gobbs* (1588-1679) bo‘lib, u 1951-yilda «Leviafan» kitobini nashr ettiradi. Mazkur kitobda muallif, alohida bir bobni «Xristian davlati haqida» mavzusiga ajratib, unda «Muqaddas kitoblar (xususan, Bibliya)ning aniq kim tomonidan yozilgani noma‘lum» ekanini keltirib o‘tganini ko‘rishimiz mumkin.

Bundan tashqari olim T.Gobbs o‘zining kitoblarida, Eski Ahd tarkibidagi Musoning besh kitobi sifatida keltiriladigan Tavrotning muallifligi qanchalik ko‘p Muso payg‘ambarga nisbat berilmasin buning noto‘g‘ri ekanini ta‘kidlaydi. Bunga dalil sifatida u Tavrotning beshinchi kitobidagi quyidagi matnlarni keltiradi: «*Muso vafot etganda 120 yoshda edi. Lekin ko‘zlarining nuri hali so‘nmagan edi, g‘ayrati yo‘qolmagan edi. Isroil xalqi Mo‘ab tekisligida Muso uchun o‘ttiz kun aza tutdi. Muso uchun aza kunlari tamom bo‘ldi*» (Qonunlar 34:7-8) [7:271]. Ya‘ni, agar kitobni Musoning o‘zi yozgan bo‘lganda, uni III shaxs nomi bilan yozmasdi, deb sharhlaydi. Yuqoridagi matnda esa aynan voqeani chetdan kuzatib turgan yoki kimlardandir eshitgan, bilgan III shaxs tomonidan yozilganini ko‘rishimiz mumkin. Shuning uchun ham ko‘plab xristian ruhoniylari Tavrotning ushbu besh kitobi («Ibtido», «Chiqish», «Levilar», «Sahroda» va «Qonunlar»)ni Muso payg‘ambarga nisbat bersalarda, T.Gobbs bu kitoblarni aslida u yozmaganini ta‘kidlaydi.

T.Gobbs nafaqat ushbu Musoning besh kitobi, balki undan tashqari Eski Ahd tarkibiga kiruvchi «Yo‘shua», «Hakamlar», «Rut», to‘rtta «Shohlar» kitoblari, «Ezra», «Nahimiyo», «Ester», «Ayyub payg‘ambar», «Zabur», «Sulaymon payg‘ambarning hikmatlari», «Voiz» va «Sulaymon payg‘ambarning go‘zal qo‘shig‘i» kabi kitoblarning ham muallifi aslida noaniqligini keltiradi. Jumladan, «Shohlar» kitoblari yahudiylar Bobil surgunidan qaytganlaridan so‘ng yozilib-jamlangan.

«Ayyub payg‘ambar»ning kitobiga keladigan bo‘lsak, aslida Ayyub – tarixiy shaxs bo‘lib, kitobda esa uning tarixiyligi emas, balki shunchaki oddiy rivoyat tarzida keltirilgan (ya‘ni tarixiylikdan yiroq bo‘lgan nazariy va ilohiy ma‘lumotlar bilan cheklanilgan, xolos).

Umumiy olib qaraganda olim T.Gobbs Eski Ahd tarkibiga kiruvchi barcha kitoblarning muallifi mavhum ekanligini ta‘kidlab, ularni aniqlashning ilojisi yo‘qligini aytadi. Xususan, hozirgi kunimizdagi Eski Ahd tarkibidagi kitoblarning barchasi yahudiylar Bobil surgunidan qaytganlaridan so‘ng ruhoniy *Ezra* tomonidan jamlangan. Shuning uchun ham, mazkur kitoblarni ilk bor kanonlashtirgan kishilar ham cherkov sifatida ruhoniy *Ezra* va *Nahimiyo* bo‘lgan. Olim shuning uchun ham bunga nisbatan «*Muqaddas kitoblarni ularning mualliflari emas, balki, cherkovning o‘zi kanonlashtiradi*», deb keltiradi [8:172-173].

Bibliya kitoblariga tanqidiy ruhda yondashgan yana bir materialist olim gollandiyalik *Benedikt Spinoza* (1632-1677) bo‘lib, E.V.Misetskiyning so‘ziga ko‘ra B.Spinozaning «Богословско-политический трактат» («Ilohiy-siyosiy risola»)si hozirgi kundagi Bibliyaning tanqidi va germenevtikasi tarmoqlarining asosi bo‘lib hizmat qilgan [9:63]. B.Spinoza manbalarni asosan tarixiy nuqtai-nazardan tanqid qilgan bo‘lib, ushbu matnlarning qachon va qanday jamlangan, o‘sha davrdagi diniy muhitning aslida qanday bo‘lganini bilish ishtiyoqi bilan qaragan. Shuningdek, olim Bibliyaga ilohiylik sifatini bermay, balki, ilmiy metodologik tahlil usullari bilan yondashish kerakligini yoqlagan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, u Bibliyaga nisbatan, «ilohiy» shaxslar tomonidan bitilgan kitob emas, balki oddiy tarixiy manba sifatida qaragan. U o‘zining «Богословско-политический трактат» («Ilohiy-siyosiy risola»)sini yahudiylar aslida o‘zlariga berilgan diniy manbalarni saqlab qola olmay, o‘zlaridan keyingilarga yetkaza olmaganlarini tanqid ostiga olishdan boshlaydi. Shuning uchun undagi tarixiy xronologik tartiblar ham buzilgan bo‘lib aksariyati tushirib qoldirilgan yoki umuman yetib kelmagan, deb keltiriladi. Shu bilan birga olim quyidagilarni ham ta‘kidlaydi:

- *Muqaddas kitobda hech qanday oliy g‘oya va ilohiylik yo‘q bo‘lib, unda shunchaki yahudiylarning rivojlanish tarixi keltirilgan;*

- *Muso payg‘ambar – tarixiy shaxs, ammo, Tavrotning beshta kitobining muallifi Muso payg‘ambar hisoblanmaydi;*

- *Tavrotning beshta kitobining ham jamlovchisi aslida Ezra hisoblanadi;*
- *Muso payg‘ambar faqatgina Xudodan berilgan amr va ahdlarni yozgan bo‘lib, u keyinchalik Eski Ahd kitoblari tarkibining turli joylariga yozilgan, ammo, aynan qaysi birida uning muallifligi saqlanib qolingani noma‘lum;*
- *«Yo‘shua» kitobining asl muallifi ham aslida Yo‘shua ben Nun emas, balki Ezra hisoblanadi;*
- *Muqaddas kitobda ko‘plab noaniqliklar va bir masalaga turlicha yondashuvlar keltirilgan [10:22-30].*

Bibliyaga tanqidiy ruhda yondashgan yana bir bibleist XVII asrdagi fransuz ma‘rifatparvari, yozuvchi va publitsist *Pyer Beyl* (1647-1709) bo‘lgan. Uning fikricha, ilm va din hech qachon bir taraflama bo‘lolmaydi. Uning tanqidiy yondashuvlari asosan skeptik ko‘rinishda bo‘lib, R.Dekart va M.Montenning falsafasiga qaratilgandi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, uning ilmiy merosi va asarlari orqali XVIII asrda Fransiya yerlariga materializm va ateizm g‘oyalari kirib boradi.

Shu bilan birga XVIII asrda yashagan nemis protestant ilohiyotchisi va tarixchi *Iogan Solomon Zemler* (1725-1791) ham o‘zining Bibliya haqidagi tanqidiy ilmiy izlanishlari bilan mazkur sohaning keng yoyilishiga olib kelgan. Olim Bibliyaning germenetik va tekstologik tahlil-metodlarini ishlab chiqadi va fanga kiritadi. U o‘zining «Либеральная интерпретация Нового Завета» («Yangi Ahdning liberal talqini») asarida, Bibliyadagi allegoriya (aforizmik ko‘rinishlar, masal, bo‘rttirish va h.k.)larni qat‘iy rad etgan va uni o‘rganishda tarixiy, topologik va anagogik yondashuvlar kuchsiz ekanligini keltirib o‘tgan.

I.S.Zemler tomonidan yozilgan «Трактат о свободном исследовании канона» («Qonunlarni erkin tadqiq etish haqida risola»)sida Bibliya matnlarini ilohiylashtirmay, uni faqatgina tarixiy yondashuv asosida o‘rganish g‘oyasini yoqlaganini ham ko‘rishimiz mumkin [11].

I.S.Zemlarning qarashiga ko‘ra:

- *Eski Ahd tarkibidagi ko‘plab kitoblar, xususan, «Sulaymon payg‘ambarning go‘zal qo‘shig‘i», «Rut», «Ezra», «Nahimiyo», «Ester» kitoblari ilohiy emas;*
- *«Zabur» kitobida Iso Masihning dunyoga kelishiga doir bashorat keltirilmagan (ba‘zi xristian vakillari unda bashorat kelganini iddao qilishgan);*
- *Yangi Ahd tarkibidagi «Ibroniylarga maktub», «Butrusning birinchi maktubi», «Yuhannoga ayon qilingan vahiy» kitoblarning muallifi mutlaqo noma‘lum ekanligini keltirgan.*

1774-yilda olim G.E.Lessing *G.S.Reymarus* (1694-1768)ning «Volfenbyuttel parchalari»ni bosma nashrlarda eʼlon qiladi. Mazkur parchalarda G.S.Reymarusning ilohiyot fanlari doirasidagi izlanishlari va falsafiy gʻoyalari, jumladan, xristianlik taʼlimotiga oid bir qancha tanqidiy yondashuvlari keltirilgandi. Masalan:

- *Iso Masih taʼlimotining asliy (avvalda kelgan holicha) koʻrinishi yetib kelmagan;*

- *Yangi Ahd tarkibidagi Injillarda koʻplab ziddiyatlar mavjudligi va h.k.*

Bibliyaning tanqidi tarmogʻi boʻyicha XVIII-XIX asrda faoliyat olib borgan olimlar qatorida *D.V.Vilgelm, F.K.Baur, D.F.Shtraus, V.P.Ribinskiy, Yu.Velgauzen, K.Laxman, B.Jout, B.Uestkott, D.Laytfut* va *E.Xarte* kabi mashxur bibleistlarning ilmiy merosi katta oʻrin tutadi.

Bibliyaning tekstologik tadqiqotlariga keladigan boʻlsak, u milodiy II asrlarda ilohiyotchi Iskandariyalik Origen (Ориген Александрийский) tomonidan ilk bor Eski Ahdni sharxlash maqsadida yozilgan «Geksapl» yozmalari asosida vujudga kelgan.

Muhokama.

Bibliyaga ilmiy-tanqidiy yondashuvda «*Yuhanno qoʻshimchasi*» ham alohida tilga olinuvchi mavzulardan biri hisoblanadi.

Yuhanno qoʻshimchasi (lotin tilida «*comma Johanneum*») – diniy manbalarni tadqiq etish, dinshunoslik, isagogika va bibleistika sohalarida doimiy koʻtarilib kelinadigan dolzarb masalalardan biri boʻlib, Bibliya tarkibidagi Yangi Ahdning «Yuhanning birinchi maktubi» kitobi 5-bob 7-8 matnlarga qaratilgan. Unga koʻra, keltirilgan «*Osmonda bunga uchta guvoh bor: Ota, Kalom va Muqaddas Ruh. Bu uchovi bir. Yerda ham bunga uchta guvoh bor: Ruh, suv va qon*» (1 Yuhanno 5:7-8) matni asl manbada uchramaydi va keyinchalik interpolatsiya («oʻzgartirish kiritish») sifatida qoʻshilgan deyiladi.

Matnning asl yunon tilidagisi quyidagicha keltirilgan:

«*ἐν τῷ οὐρανῷ, ὁ Πατήρ, ὁ Λόγος καὶ τὸ ἅγιον Πνεῦμα, καὶ οὗτοι οἱ τρεῖς ἓν εἰσιν. καὶ τρεῖς εἰσιν οἱ μαρτυροῦντες ἐν τῇ γῆ, τὸ πνεῦμα καὶ τὸ ὕδωρ καὶ τὸ αἷμα καὶ οἱ τρεῖς εἰς τὸ ἓν εἰσιν*»

Eng qiziq tarafi, aynan mazkur matn sababli xristianlik taʼlimotida «*Muqaddas uchlik*» yoki «*Troitsa*» (*ota Xudo, oʻgʻil Xudo va Muqaddas Ruh*) eʼtiqodi shakllangan. Ammo, «*Troitsa*» haqida Yangi Ahdning boshqa hech bir joyida matn keltirilmagan. Shuning uchun yuqorida keltirilgan jumla «*Troitsa*»ni asoslovchi yagona dalil boʻlib,

u ham aslida keyinchalik qo‘shilgani ya’ni o‘zgartirilgani aniqlangan. Shuning uchun ushbu «qo‘shilgan» matnga nisbatan «Yuhanno qo‘shimchasi» atamasi qo‘llanadi (1-rasmda IV asrga oid «Sinay kodeksi»ning (1 Yuhanno 5:7-8) matni bo‘lib, qizil rangdagi o‘rinlarda «Yuhanno qo‘shimchasi» mavjud emasligini ko‘rsatmoqda).

Bibliyani tarjima qilish instituti tomonidan 2016-2018 yillardagi yangi tahrirlangan nusxasida endilikda mazkur matn quyidagicha («Yuhanno qo‘shimchasi» olinib tashlangan holda «Sinay kodeksi» muvofiq) keltirilmoqda: «*Shunday qilib, bunga uchta guvoh bor: Ruh, suv va qon. Ular bir xil guvohlik berishyapti*». Ya’ni, Troitsa haqida keltirilgan soxta matn mazkur nusxada olib tashlangan.



Bibliyaning shakllanishi va jamlanishi haqida O‘zbekistonlik olimlar ham bir qancha ilmiy izlanishlar olib borishgan va o‘zlarining kitoblarida keltirib o‘tganlar. Jumladan, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dinshunos olim O.Ernazarov esa bu masalada o‘zining «Diniy manbalarni qiyosiy o‘rganish» qo‘llanmasida «*Bibliyaning bugungi kungi holati shakllanishida ko‘plab mualliflar ishtirok etganlar, ya’ni yillar davomida uning tarkibiga kitoblar qo‘shish, uning bo‘limlarini raqamlash, undagi ba’zi oyatlarni she’riy qolipga solish bilan turli mualliflar shug‘ullanganlar*», deya keltirib o‘tgan. Shu bilan birga, Bibliyaning jamlanish tarixi bo‘yicha esa «*Yangi Ahdni tashkil etgan barcha kitoblar Iso Masih vafotidan keyingi dastlabki yuzyillik ichida yozilgan bo‘lib, ulardan qaysi biri Yangi Ahd tarkibiga kirishi yoki olib tashlanishi to‘g‘risidagi yakuniy qarorga milodiy IV asrdagina kelingan*»ligini, hamda «*Iso payg‘ambar haqidagi hikoyalarni o‘z ichiga olgan to‘rt Injil har doim xristian matnlarining eng asosiysi hisoblangan. Xristianshunos mutaxassislar fikricha, Iso payg‘ambar osmonga ko‘tarilgach bir necha o‘n yillar davomida uning bevosita izdoshlarining xotiralari og‘zaki ravishda avloddan-avlodga yetkazilgan. Ilk yozma rivoyatlar, katta ehtimol bilan milodiy 50-yillarda, hech qanday hikoyasiz faqat so‘zlar ro‘yxatidan iborat shaklda yaratilgan. Bularning hech biri asl holda saqlanib qolmagan*» deya keltiradi.

Bibliyaning aslidan tashqari tarjimalari ko‘p bo‘lgani uchun ham turli xil nusxalari ko‘payib, tarjimada mualliflar tomonidan o‘zlari lozim tutgan so‘zlar va iboralar bilan boyitilib borilgan. Masalan, Bibliyaning turli xil nusxalari qatorida *Targum nusxasi* (er. avv., 600-yillar), *Septuaginta* (er. avv., 250-yillar), *Peshitta* (200-

yillar), *Sinay kodeksi* (350-yillar), *Vulgata Iyeronima* (405-yillar), *J.Viklif Bibliyasi* (1380-yil), *Gutenberg Bibliyasi* (1455-yil), *Valensiya Bibliyasi* (1478-yil), *Martin Lyuter Bibliyasi* (1522-yil), *Jeneva Bibliyasi* (1560-yil), qirol *Iakov Bibliyasi* (1611-yil), *Yelizaveta Bibliyasi* (1751-yil) va boshqa nusxalari shular jumlasidandir.

«Bibliya tarjimalaridagi farqlar quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

1. Dinamik ekvivalentli tarjima;
2. Rasmiy tarjima (ya'ni so'zma-so'z tarjima);
3. Idioma yoki turli frazalar orqali tarjima.

Dinamik ekvivalent tarjimalarida oldingi qilingan tarjimalardan bevosita foydalangan holda tarjima qilinadi. So'zma-so'z qilingan tarjimalarda esa tarjimon asosan so'zning mazmuniga urg'u beradi. Frazalar orqali qilingan tarjima o'z nomidan ko'rinib turganidek matnlarda kelgan tarjima qilish qiyin bo'lgan iboralarni iste'molda bo'lgan parallel iboralarga almashtirish orqali amalga oshiriladi. Ibroniya va yunon tillari Bibliyaning ilk tili bo'lib, barcha tillarda bo'lgani kabi, bir qancha idiomalar hamda tarjima qilish oson bo'lmagan so'zlar, jumlar mavjud. Bularni faqatgina parallel ibora va so'zlar orqali boshqa tillarga tarjima qilish mumkin. Misol uchun, katolik cherkovining ingliz tili tarjimasi bo'lmish Yangi amerikancha Bibliyada Protestant tarjimalari kabi parallel idiomalari ishlatilgan. Zamonaviy Bibliya tarjimalarida so'zma-so'z tarjimalar kuzatiladi. Ularga Yangi Amerika Standart Bibliyasi, Yangi Xalqaro Bibliya hamda Darbiy Bibliyasi (*Darby Bible*)ni misol qilib olishimiz mumkin.

Rasmiy ekvivalent va dinamik (yoki "funktional") ekvivalentlik tarjima uslublari o'rtasidagi munozara barcha qoidalarni qamrab olgan ingliz tili versiyasining foydalanishi bilan ko'paydi. Turli atamalar bu rivojlanish uslubiga qarshi turdi ba'zan uni himoya qildi. Ba'zi oldingi tarjimalarning yangi nashrlari bu o'zgarishlarni qabul qilish bilan yangilandi. Ularga Yangi *Quddus Bibliyasi* (1985-yil), Yangi tahrirdagi *Standart Versiya* (1989-yil), qayta ko'rib chiqilgan Ingliz tilidagi Bibliya (1989-yil) kiradi» [12:241-242].

Natijalar.

Bilamizki, paleografiya, tekstologiya va manbashunoslikda interpolatsiya va ekstrapolatsiya terminlari keng qo'llaniladi.

Interpolatsiya deganda, manbaning asl nusxasida bo'lmay keyinchalik unga kiritilgan qo'shimcha, o'zgartirish yoki tekstologik buzilishga aytiladi. Ya'ni, asl manbada bo'lmay turib, uni «huddi shunday» deb keltirib o'tiladi va manbaga turlicha o'zgartirishlar kiritiladi.

Interpolatsiya masalasini yanada chuqurroq anglash uchun misol keltiradigan bo'lsak, Yangi Ahdning Matto Injiliga qaraymiz, unda: «*Iso javob berib dedi: — Yetarli imoningiz yo'qligi uchun shunday bo'ldi. Sizlarga chinini aytayin: agar*

zig'irday imoningiz bo'lib, shu toqqa: "Bu yerdan u yerga ko'ch", — deb aytsangiz, tog' ko'chadi. Sizlar uchun imkonsiz narsa bo'lmaydi» (Matto 17:20-21) deb keltirilgan qismi, boshqa nusxalarda quyidagicha keltirilgan: «Iso ularga: - E'tiqodsizligingiz uchun! – dedi. – Chindan, sizlarga aytamanki: agar bir xantal doniday ishonchingiz bo'lsa-yu, bu toqqa: Bu yerdan u yerga ko'ch, - deb aytsangizlar, u ko'chadi. Sizga hech bir narsa imkonsiz bo'lmaydi. Biroq bu toifa jinlar ibodat va ro'zadan boshqa narsa bilan chiqmas».

Bibliya tarkibidagi kitoblarda ham juda ko'plab interpolatsiya holatlari uchraydi. Masalan, Matto Injili misolida ko'radigan bo'lsak quyidagilarni belgilasak to'g'ri bo'ladi:

- «Yo'shiyo Yohayihinni va boshqa o'g'il farzandlarni ko'rdi» (Matto 1:11) matni ba'zi yunon qo'lyozmalarida quyidagicha keltirilgan: «Yo'shiyodan Yohayiqim tug'ildi. Isroil xalqi Bobilga surgun qilingan davrda Yohayiqim Yohayihinni va boshqa o'g'il farzandlarni ko'rdi».

Bibliyaning 1992-yildagi Stokgolm tarjimasida esa mazkur matn quyidagicha keltirilgan: «Yo'shiyodan Yo'akim tug'ildi. Yo'akimdan Bobilga surgun bo'lish davrida Yakuniyo bilan aka-ukalari tug'ildilar» [13:1156,1757].

- «Ammo Maryam O'g'ilni tug'maguncha Yusuf Maryamga yaqinlashmagan» (Matto 1:25)dagi matnning boshqa yunon qo'lyozmalarida «to'ng'ich o'g'li» so'zlari bilan keltirilgan [13:1157, 1758].

- «O'z yaqinidan hatto g'azablangan odam ham hukm qilinadi» (Matto 5:22)ning ba'zi qo'lyozmalarida «hatto behuda g'azablangan odam», «behuda g'azablansa» so'zlari ham qo'shilgan. [13:1160, 1759].

- «Dushmanlaringizni yaxshi ko'ringlar. Sizlarni quvg'in qilganlar uchun ibodat qilinglar» (Matto 5:44) matnining boshqa qo'lyozmalari quyidagicha tarzda keltirilgan: «Sizni la'natlaganlarni duo qilinglar. Sizdan nafratlanganlarga yaxshilik qilinglar. Sizning nomingizga isnod keltirganlar uchun, sizlarni quvg'in qilganlar uchun ibodat qilinglar». [13:1161, 1760].

- «Yashirincha qilgan bu ishimgizni ko'rgan Otangiz sizni taqdirlaydi» (Matto 6:4)ning boshqa qo'lyozmalarida «...sizni aniq taqdirlaydi» deyiladi. [13:1162, 1760].

- «Bizni vasvasaga duchor qilmagin, Yovuz shaytondan xalos qilgin» (Matto 6:13) matni boshqa manbalarda «...Saltanat, kuch-qudrat va shon-shuhrat to' abad Senikidir. Omin!» degan jumlar ham qo'shilgan.

- «Olomon bu voqeani ko'rib, qo'rqib ketdi» (Matto 9:8) boshqa qo'lyozmalarda «...hayratga tushdi» so'zlari bilan keltirilgan. [13:1165, 1761].

- «...Donolik to'g'ri ekanligi o'z natijasidan ayon» (Matto 11:19) ba'zi yunon qo'lyozmalarida «...Xudoning donoligini tan olganlar Uning donoligi to'g'ri ekanligini ko'rsatib turibdilar» shaklida keladi.

Bibliyaning 1992-yildagi Stokgolm tarjimasida mazkur joyi «...*Va lekin ilohiy hikmat unga rioya qiluvchilar orqali tasdiqlanadi*» sifatida keltirilgan [13:1169, 1762].

- «*Bu xalq Meni tilidagina izzat qiladi*» (Matto 15:8) boshqa yunon qo'lyozmalarida «*Bu xalq Menga yaqinlashar faqat og'izda, Meni tilidagina izzat qiladi*» shaklida keltiriladi. Yana boshqa tarjimalarda esa bu joyi «*Bu xalq Menga yaqinlashar faqat og'izda. Va Meni hurmatlar faqat tilida. Lekin dili esa Mendan uzoqdur*» sifatida keltirilgan. [13:1175, 1763].

Xulosa.

Demak, yuqoridagi matnlardan, uning turli xil tekstologik va interpolativ uchrash holatlarini ko'rdik. Bu, aynan manbaning ko'p joylari tekstologik va lingvistik turdagi o'zgartirishlarga uchraganining yaqqol dalili bo'ladi.

Misol tariqasida keltirgan yuqoridagi matnga qarasa, Matto Injilining aslidan tashqari tarjima va ko'plab nusxalarida turli talqinlar, tekstologik va terminologik qo'shimchalar kiritilgani aniqlashadi. O'z o'rnida savol tug'iladi, demak, manba turli o'zgarishlarga uchragan bo'lsa, manbaning ichidagi g'oyalar, qarashlar va tushunchalar ham o'zgarganmi? Masalan, yuqorida ko'rib chiqqan «Yuhanno qo'shimchasi»da keltirilgan «Troitsa» e'tiqodi haqida aniq dalil faqat shu joyida uchraydi xolos. Boshqa Injillarda uchramaydi. Ya'ni, birgina matn va undagi g'oya «...*uchta guvoh bor: Ruh, suv va qon*»ning «*uchta guvoh bor: Ota, Kalom va Muqaddas Ruh*»ga o'zgartirilishi bilan katta e'tiqodiy burilish yasagan. Agar unda ushbu «*uchta guvoh bor: Ota, Kalom va Muqaddas Ruh*» qo'shimchasi kiritilmaganda xristianlik ta'limotida uchlik haqidagi (ota Xudo, o'g'il Xudo va Muqaddas Ruh) e'tiqod shakllanmagan bo'lardi.

Bibliyaning Yangi Ahd takibidagi kitoblarida Iso Masih va uning yerdagi hayoti haqida bayon qilinadi. Xristianlik tarixida havoriy (apostol)larning Iso Masihga bergan ta'riflari asosida keyinchalik uning ilohligi to'g'risidagi e'tiqodlar shakllanib, to hozirgi kunimizgacha u «*o'g'il Xudo*» sifatida xristian e'tiqodchilarining sig'inish ob'ekti sanalib kelinadi.

Agar birgina «Yuhanno qo'shimchasi» sababli katta e'tiqodiy ta'limot shakllangan bo'lsa, unda Iso Masihning osmonga ko'tarilgandan so'ng jamlangan «Injil»larda kiritilgan qo'shimchalar, unga berilgan ilohiylik vasflari asosida – xristianlik kabi jahon dining yuzaga kelishi tabiiy hol bo'lgan. Chunki, kishi vafot etishi bilan unga qanday vasf va xarakter berilsa ham, aslida barcha u kishiga emas, balki unga atalgan so'zlar va xarakterlarga e'tibor beradilar.

Ilmiy nuqtai-nazardan olib qaraydigan bo'lsak, «Injil»lar milodiy 50-150-yillarda yozilib IV asrlarda tizimlashtirilganini inobatga olsak, yana bir savol tug'iladi, nega mazkur «Injil»lar Iso Masihning hayotlik davrida yozilmadi? Nega oradan 2-3 ta avlod vakillaridan so'ng yozildi? Bu 2-3 ta avlod vakillarining tilidan-tiliga o'tgan Iso

Masih haqidagi rivoyatlar soʻzma-soʻz bir xil boʻlganmidi? Agar soʻzma-soʻz u haqidagi rivoyatlar va taʼlimotning asosi bir xil boʻlsa, nega bitta emas balki «Matto Injili», «Mark Injili», «Luqo Injili» va «Yuhanno Injil»lari sifatida birdaniga toʻrttasi shakllandi?

Shuning uchun ham xristian olimlari, tadqiqotchilar, tarixchilar va manbashunoslarning qoʻlida muayyan bir aniq «mana shu ilohiy kitob, u Iso Masihning davrida yoki u tomonidan yozilgan» deb aytishga asosli dalil yoʻq.

Islom dinida, xususan, Qurʼon va hadis kitoblarida Iso Masih (islom dinida – Iso alayhissalom) toʻgʻrisida nisbatan mantiqqa toʻgʻri keladigan eʼtiqodiy dalillar mavjud boʻlib, ularda xristianlikning aksi oʻlaroq Iso Masih insoniy sifatlar bilan qamrab olinib paygʻambar (“nabiy”) boʻlganligi keltirilgan. Shu bilan birgalikda, Iso alayhissalomga Alloh taolo tomonidan Injil nozil qilingani ham taʼkidlanib (Oli Imron surasi 48-oyat, Moida surasi 46-oyat), keyinchalik uning odamlar tomonidan oʻzgartirilgani aytiladi (“*tahrif*”). Shuning uchun ham Islom dinida Matto, Mark, Luqo va Yuhanno tomonidan yozilgan «Injil»lar qatʼiyan rad etiladi. Chunki, Islom nuqtai-nazariga koʻra Alloh taolo tomonidan nozil qilingan Injilda hech bir kishining qoʻli boʻlmagan va u bevosita Iso alayhissalomga hayotlik davrida tushirilgan. Xristianlik taʼlimotida esa, havoriylar Iso Masihning osmonga koʻtarilganidan soʻng oradan vaqtlar oʻtib oʻzlari «Injil»larni yozib kitob holiga keltirishgan.

Bibleistikaning tanqidiy yondashuvida u yoki bu dinga koʻra yon bosilmaydi, balki, Bibliya haqidagi asosli dalillarga koʻra uning oʻzgartirilgan yoki olib tashlangan joylari, tekstologik xususiyatlari oʻrganiladi. Bu orqali esa, mazkur kitoblarning «ilohiy» yoki boʻlmasa tarixiy hujjat ekanligi xulosa qilinadi.

Adabiyotlar/ Литература/References:

1. А.Н.Херзогерский. Исагогика, или введение в книги Священного Писания Нового Завета. СПб., 1860.
2. Патзия Артур Г., Петротта Антони Дж. Изучение Библии: Карманный словарь. — Александрия: Ездра, 2006. — ст. «Библейский критицизм».
3. Стенли Дж. Гренц, Дэвид Гурецки, Черит Фи Нордлинг. Теологические термины: Карманный словарь. — Александрия: Ездра, 2006. — ст. «Библейская критика».
4. Исагогика // Мень А.В. Библиологический словарь: в 3 т. — М.: Фонд имени Александра Меня, 2002. — Т. 1: А—И.
5. А.А.Вождаев. Состав и методология библейской критики. Труды Нижегородской духовной семинарии.

6. В.К.Спирин, Основные направления развития библейской критики в XVII–XX вв. Труды Нижегородской духовной семинарии.
7. Бейль П.Ева // Исторический и критический словарь в двух томах. М.: Изд-во Социально-экономической литературы мысль, 1968.
8. Мисецкий Е.В. Библейская критика // Проблемы библейской историографии. М.: Изд-во «Белые пятна» российской и мировой истории, 2014.
9. Гарнак А.Ф. Миссионерская проповедь и распространение христианства в первые три века. М.: Изд-во Олега Абышко, 2007.
10. Ворохобов А.В. Основы библейской науки в Православной церкви // Дамаскин. Журнал Нижегородской духовной семинарии. Нижний Новгород, 2013.
11. А.А.Вождаев. Основные направления развития библейской критики в XVII–XX вв. Труды Нижегородской духовной семинарии, 87-127б.
12. Ernazarov O. «Diniy manbalarni qiyosiy o‘rganish». – Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2022.
13. Muqaddas kitob. Muqaddas kitobni tarjima qilish instituti, Stokgolm, Shvetsiya – 2016.

TA'LIM TIZIMIDA XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINI TA'MINLASH MASALALARI

Kasimova Zumrad Rahmatovna

JDPU, Falsafa, tarbiya va huquq ta'limi
kafedrası o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Maqolada ta'lim va ilm-fan sohalarida xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilingan. Shuningdek, davlat tomonidan ayollarga ta'lim olish uchun yaratilgan shart-sharoitlar, soxadagi huquqlarini tartibga solib turuvchi qonunchilikni takomillashtirish tahlil qilingan va ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** xotin-qizlar, ta'lim, ilm-fan, bilim va ko'nikmalar, sifatli ta'lim, intellektual salohiyat, liderlik, tadbirkorlik, gender tenglik, Milliy dastur, taraqqiyot strategiyasi.*

***Аннотация.** В статье анализируются реформы, реализуемые в нашей стране по обеспечению прав и свобод женщин в сфере образования и науки. Также были проанализированы условия, создаваемые государством для образования женщин, совершенствование законодательства, регулирующего их права в этой области, а также разработаны научные предложения и практические рекомендации.*

***Ключевые слова:** женщины, образование, наука, знания и навыки, качественное образование, интеллектуальный потенциал, лидерство, предпринимательство, гендерное равенство, Национальная программа, стратегия развития.*

***Abstract.** The article analyzes the reforms being implemented in our country to ensure the rights and freedoms of women in the field of education and science. The conditions created by the state for the education of women, the improvement of legislation regulating their rights in this area were also analyzed, and scientific proposals and practical recommendations were developed.*

***Keywords:** women, education, science, knowledge and skills, quality education, intellectual potential, leadership, entrepreneurship, gender equality, National program, development strategy.*

Mamlakatimizda jamiyat va davlat hayotida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish hamda erkaklar bilan teng huquq va imkoniyatlar yaratishga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirokini ta'minlash, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, liderlik, tadbirkorlik qobiliyatini qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lamli ishlar va islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Respublikamiz Konstitutsiyasining 58-moddasida "Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlaydi", deb belgilangan.

Mazkur konstitutsiyaviy norma, yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, har bir ayolni oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi sifatida ko'rishimizga imkoniyat beradi.

Shuning uchun, "Yurtimizda xotin-qizlarning sifatli ta'lim va tarbiya olishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mutafakkir jadid bobomiz Abdurauf Fitrat ta'biri bilan aytganda, "Onalar — butun bashariyatning tarbiyachilaridir". Darhaqiqat, oilada bir nafar qiz o'qib, oliy ma'lumotga, zamonaviy kasb-hunarga ega bo'lsa, xonadondagi muhit butunlay o'zgaradi. Biz shu maqsadda xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim dasturni qabul qildik», — deydi Shavkat Mirziyoyev[1].

Butun dunyoda xotin-qizlarning fan, texnika va innovatsion yutuqlardan to'laqonli va teng foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lishlari, hamda gender tenglikni ta'minlash maqsadida, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2015 yil 22 dekabrda "Taraqqiyot maqsadlaridagi fan, texnika va innovatsiyalar" to'g'risidagi A/RES/70/212 – sonli rezolyutsiyasi qabul qilindi. Mazkur rezolyutsiya, ayollarning ilm-fandagi ishtirokiga alohida e'tibor qaratish va qo'llab-quvvatlash maqsadida, 2016 yildan boshlab har yili 11 fevral "Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni" sifatida nishonlab kelinmoqda.

Mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish maqsadida, "2022 — 2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur" qabul qilingani yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta'minlash, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash bo'yicha ishlar yangi bosqichga ko'tarilganligidan dalolat beradi.

Milliy dasturda oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, shu jumladan sirtqi va kechki ta'lim shaklida o'qiyotgan xotin-qizlarning ta'lim kontraktlarini to'lash uchun 7 yil muddatga foizsiz ta'lim kreditlarini moliyalashtirish maqsadida tijorat banklariga Davlat budjetidan har yili 1,8 trillion so'm resurs mablag'lari yo'naltirish belgilangan bo'lib, 2022 yilda 65 mingdan ko'proq talaba xotin-qizlarga 727 mlrd so'mga yaqin foizsiz ta'lim krediti ajratilgan bo'lsa [2], 2023 yil avgust oyiga qadar 36 mingdan ziyod talaba xotin-qizga 335,5 mlrd so'm foizsiz ta'lim krediti ajratildi[6].

Shuningdek, dastur asosida, davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz qoplash maqsadida, Davlat budjetidan har yili kamida 200 milliard so'm moliyalashtirish belgilangan bo'lib, 2022 yilda magistraturada o'qiyotgan 10 mingdan ortiq talaba qizlar uchun 68 mlrd so'mdan ziyod [2], 2023 yil avgust oyiga qadar 14,1 ming nafar xotin-qizning to'lov-shartnomasi uchun 85,1 mlrd so'm kontrakt pullari davlat tomonidan to'lab berilgan bodi [6].

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 69-maqsadida xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirishga alohida e'tibor qaratilganligi ham, e'tiborga molikdir.

Shuningdek, davlatimiz raxbarining "Yangi O'zbekiston Strategiyasi" nomli asarida "Bugun O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi ayollarimizga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatishni yangi, yuksak bosqichga olib chiqish, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va maqomini mustahkamlash ularning huquq va manfaatlarini ta'minlashdir. Bu o'z navbatida, "Ayollarga ilm berish – jamiyatni ilmi, ma'rifatli va salohiyatli qilish" degan aqidani hayotga izchil tatbiq etish" kerakligi alohida ta'kidlab o'tilgan[3].

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish sohasidagi islohotlar o'z natijalarini bermoqda Dunyo miqyosida Parlamentlararo 190 ta davlat parlamentlarini birlashtirgan Ittifoq ma'lumotiga ko'ra, O'zbekiston parlamentida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar ko'rsatkichi bo'yicha 128-o'rindan 45-o'ringa ko'tarilib, shu o'rinda AQSH, Kanada va Avstraliyadan yuqori o'ringa ko'tarilganligidan ta'kidlashimiz mumkin.

Shu bilan birga, islohotlar natijasida Oliy Majlis Senati raisi ayol kishi ekanligi, parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'payganligi, tumanlarda ayol hokimlar faoliyat yuritayotgani nafaqat mintaqamizda, balki xalqaro miqyosda ham e'tiborga molikdir.

Mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, davlat va jamoat

tashkilotlari tizimida 1 ming 400 ga yaqin opa-singillarimiz rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda[4]. Xususan, hozirgi vaqtda yurtimizda fidokorona mehnat qilayotgan hurmatli ayollarimizning ulushi tibbiyotda – 77 foizni, ta’lim sohasida – 74 foizni, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida esa 46 foizni tashkil etmoqda, [1] boshqaruv lavozimida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar ulushi 27 foiz, siyosiy partiyalarda – 47 foiz, oliy ta’limda– 49 foiz, tadbirkorlik soxasida – 37 foizga yetdi.

Bugun jamiyatimizda olima ayollar tomonidan ilm-fan sohasidagi izlanishlar ishlab chiqarish, ijtimoiy-madaniy sohalarning rivojiga salmoqli hissa bo‘lmoqda. Mamlakatimiz ilm-fani va ma’naviyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan, milliy tarixda o‘zining noyob iqtidori bilan nom qoldirgan, yuksak intellektual salohiyat va keng dunyoqarashga ega yuzlab ayollar nomini keltirish mumkin.

Shunga qaramasdan, ushbu sohadagi xotin-qizlarni xar tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ular bilan maqsadli ishlarni tashkil etish jarayonlari islohotlar shiddatidan ortda qolayotgani ham sezilmoqda.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning ta’lim soxasidagi faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlash, ularni kasbiy salohiyatlarini yanada rivojlantirish, xotin-qizlarning ilmiy faoliyatdagi nufuzini yanada oshirish yuzasidan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni keltirishimiz mumkin:

- xotin-qizlarni ilm olish yuzasidan qo‘llab-quvvatlovchi normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish;
- xotin-qizlarning ta’lim olishlari uchun qo‘shimcha shart-sharoitlarni yaratish hamda ularni ilm-fan sohasiga keng jalb etish;
- olima ayollarga ijtimoiy muammolarni hal etishga ko‘maklashish;
- xotin-qizlarning o‘z ixtirolari, amalga oshirayotgan loyihalarining natijalari, joriy qilinayotgan texnologiyalar va tadbirkor ayollarning ishlab chiqarayotgan mahsulotlarining ko‘rgazmalarini tashkil qilish hamda ko‘rgazmada eng yaxshi deb topilgan ixtiro va ishlanmalarning mualliflarini taqdirlash;
- olima ayollar uchun ilmiy nufuzli mukofotlar ta’sis etish, tadqiqot grantlari, xorijiy stajirovka dasturlarini kengaytirish;
- ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash loyihalarini yo‘lga qo‘yish kabilardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро хотин-қизлар байрамига бағишланган учрашувдаги нутқи. 2023 йил 7 март // <https://president.uz/uz/lists/view/6013>
2. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ–60- сон Фармони. <https://lex.uz/uz/docs/5841063>
3. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. 250, 464 бет.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро хотин-қизлар байрамига бағишланган учрашувдаги нутқи. 2018 йил 18 март // <https://agroolam.uz/prezident-tabrigi>
5. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son. <https://lex.uz/docs/-5013007>
6. https://t.me/Rasmiy_xabarlar_Official/37522

РАЗРАБОТКА ДВУХ ДИАПАЗОННОЙ АНТЕННЫ БЕВЕРЕЖДА

Аллаяров Муминжон Ринатович

ассистент кафедры

«Телекоммуникационный инженеринг» ТУИТ УФ

allayarovmumin@gmail.com

Матякубов Давлатбек Давронбекович

преподаватель-стажер кафедры

«Телекоммуникационный инженеринг» ТУИТ УФ

matyakubov.davlat@ubtuit.uz

***Аннотация:** В этом тексте дана информация о проекте двух диапазонной антенне бегущей волны (АБВ) или антенна Beverage для мониторинга спасательных частот «Си-Би»диапазона для гражданской радиосвязи на коротких волнах в диапазоне 27 МГц и радиолобительского диапазона 6 метров (50000 – 52000 кГц) в направлениях пустыни «Кизилкумского» региона.*

***Ключевое слово:** Антенна Бевериджа, Бегущей волны, Однопроводная антенна, Электрического поля, АБВ радиостанции.*

ВВЕДЕНИЕ

Антенна Beverage интересна любителям радио в основном на низкочастотных любительских диапазонах, т.к. у этой антенны направленность аналогичная антенне Yagi. Кроме того, проста в изготовлении, но и требует довольно много места для размещения. первая публикация об антенне, названной по имени ее автора Harold Beverage, появилась в 1921 году. Речь шла об антенне, выполненной из длинных проводов, располагаемых на небольшой высоте над землей которую использовали для установления трансатлантических связей в то время на 1,2 МГц. За границей принято название нагруженный LW (англ. *long wire* — длинный провод). В странах СНГ принято употреблять термин **антенна бегущей волны (АБВ)** Также в русской транскрипции встречается название **антенна Бевериджа**. Основным элементом приёма/излучения электромагнитных колебаний является провод, натянутый параллельно поверхности земли на высоте от 1 до 5 метров и на длину в несколько раз превышающую длину принимаемой/излучаемой волны. Дальний

от радиостанции конец провода соединяется с землёй через резистор с сопротивлением, равным волновому сопротивлению линии, которое образуется проводниками «антенна — земля» [2-6]. В настоящее время существует две основных разновидности Beverage: **однопроводная** с нагрузочным без индуктивным сопротивлением на конце и **двухпроводный** вариант




Рис 1. Классическая однопроводная антенна Бевериджа

1.1 Как устроена антенна Бевериджа

Антенна Бевериджа – это антенное полотно достаточной длины ($>1\lambda$) с низкой высотой подвеса (0,5- 5 м), к которому с одной стороны подключена нагрузка (резистор 330-560 Ом) а с другой стороны – трансформатор импеданса , фидер, приемник. (см. рис. 2.)[9-11]




Рис 2. Антенна Бевериджа




Рис 3. Диаграмма направленности Антенны Бевериджа

Такая схема антенны Бевериджа позволяет иметь диаграмму направленности в соответствии с рис 3. Ширина основного лепестка диаграммы направленности меняется в зависимости от длины антенны.

1.2 Использование в качестве «земли» четвертьволновых противовесов

"Лучевая" (АБВ) антенна, используемая для работы на радиостанциях типа P105, изображена на рис.4. Она представляет собой провод длиной 1, составляющей около десяти длин волны, к которому через резистор 400 Ом подключено несколько противовесов длиной в четверть волны. Несколько таких же противовесов подключено и к корпусу радиостанции.[22-24]




Рис 4. Антенна АБВ радиостанции р-105 работающий мало зависящий от земли

Ток в такой антенне протекает за счет токов смещения в пространстве между противовесами. Ток в почве в этом случае не играет большой роли. Для увеличения КПД нужно стремиться к уменьшению сопротивления системы противовесов. При волновом сопротивлении антенны 400... 600 Ом желательно использовать не менее 2 резонансных противовесов на стороне нагрузки и стороне питания. При использовании АБВ в разных диапазонах необходимо для каждого диапазона использовать не менее 2 резонансных противовесов длиной в четверть волны для каждого из диапазонов. Антенна с четвертьволновыми противовесами отличается от классической АБВ тем, что не имеет непрерывного перекрытия по частоте.




Рис 5. Распределения электрического поля антенны АБВ

Антенна Бевереджа с четвертьволновыми противовесами уже не является классической антенной Бевереджа, но параметры такой антенны совпадают с параметрами антенны Бевереджа.

1.3 Результат проекта

Произведем расчет для приемлемой длины полотна антенны в катаром ровно располагаются полуволн для двух диапазонов. Длины полуволн для диапазона 11 метров (27 МГц) и для диапазона 6-метров (50000 – 52000 кГц)

Таблица №1

Расчет приемлемой длины полотна антенны для 11-метрового и 6-метрового диапазонов

| Полуволна 11метрового диапазона (метр) | Полуволна 6 метрового диапазона (метр) | количество полуволн | длина полотна антенны 6-метрового диапазона(метр) | длина полотна антенны 11-метрового диапазона(метр) |
|--|--|---------------------|---|--|
| 5.5 | 3 | 4 | 12 | 22 |
| 5.5 | 3 | 5 | 15 | 27.5 |
| 5.5 | 3 | 6 | 18 | 33 |
| 5.5 | 3 | 7 | 21 | 38.5 |
| 5.5 | 3 | 8 | 24 | 44 |
| 5.5 | 3 | 9 | 27 | 49.5 |
| 5.5 | 3 | 10 | 30 | 55 |
| 5.5 | 3 | 11 | 33 | 60.5 |
| 5.5 | 3 | 12 | 36 | 66 |
| 5.5 | 3 | 13 | 39 | 71.5 |
| 5.5 | 3 | 14 | 42 | 77 |
| 5.5 | 3 | 15 | 45 | 82.5 |
| 5.5 | 3 | 16 | 48 | 88 |
| 5.5 | 3 | 17 | 51 | 93.5 |
| 5.5 | 3 | 18 | 54 | 99 |
| 5.5 | 3 | 19 | 57 | 104.5 |
| 5.5 | 3 | 20 | 60 | 110 |
| 5.5 | 3 | 21 | 63 | 115.5 |
| 5.5 | 3 | 22 | 66 | |

Длина четверть волновых противовесов для 11 метрового диапазона составляет 2,5 метров а для 6 метрового диапазона 1,5 метров. Противовесы должны по выше сказанном минимальное количество их две штук на каждый диапазон. Приемлемая длина полотна антенны у нас получилось длиной 66 метров.

Использованная литература:

1. Радиостанции Р-105м Р-108м Р-109м Техническое описание и инструкция эксплуатации
2. <https://marrad.narod.ru/wwdx160cw2011/ant.htm> Немного об антенне Беверидж
3. <https://www.rlocman.ru/shem/schematics.html?di=4908> Антенна Бевереджа

O‘SIMLIKLARNI BARGIDAN OZIQLANTIRISH VA O‘GITLARNI ME‘YORIDA QO‘LLASH

Islomova Gulsevar Qaxramon qizi

Qarshi davlat universiteti agrokimyo va ekologiya kafedrası 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

O‘simliklarni bargidan oziqlantirish va bu orqali hosildorlikni oshirish shuningdek, qurg‘oqchilikka chidamliligini oshirish, zararkunanda hasharotlarga qarshi kurashish va sho‘rlanishni oldini olish. Shuningdek, turli xildagi makro va mikro elementlardan foylanib yuqori va sifatli mahsulotlar olish to‘g‘risida.

***Kalit so‘zlar:** qurg‘oqchilikka chidamlilik, sho‘rlanish, makro va mikro elementlar, zararkunanda hasharotlar va yuqori hosildorlik.*

ВНЕКОРНЕВАЯ ПОДКОРМКА И УМЕРЕННОЕ ВНЕСЕНИЕ УДОБРЕНИЙ

АННОТАЦИЯ

Внекорневая подкормка растений и тем самым повышение урожайности а также повышение засухоустойчивосеи борьба с насекомыми-вредителями и предотвращение засоления. А также получение высококачественной продукции с использованием различных макро-и микроэлементов.

***Ключевые слова:** засухоустойчивость, засоленность, макро-и микроэлементы, вредители насекомые и высокая продуктивность.*

FOLIAR FEEDING AND MODERATE APPLICATION OF FERTILIZERS

ABSTRACT

Foliar feeding of plants and thereby increasing yield, as well as increasing drought tolerance, pest control and salinity prevention. It is about obtaining high and quality products using various macro and micro elements and benefiting agriculture.

***Key words:** drought tolerance, salinity, macro and micro elements, pest insects and high harvestivity.*

Kirish. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda yo'lga qo'yimas ekanmiz, sohada rivojlanish bo'lmaydi". Shu sababdan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ...qishloq xo'jaligini ilmiy asosda rivojlantirish ko'zda tutilmoqda. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida yildan-yilga talab ortib bormoqda, shu sababdan ko'plab fermer xo'jaliklari shuningdek qishloq xo'jaligi yo'nalishida salmoqli o'rin egallab kelayotgan kadrlar hamda professor olimlar agrar yo'nalishida katta-katta yutuqlarga erishmoqdalar. Respublikamizda ham qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida yirik ishlar amalga oshirilmogda. Shuni yodda tutish kerakki, qishloq xo'jaligini ilmiy asosda jadal rivojlantirish orqali dehqon va fermer daromadini oshirish va qishloq xo'jaligida sarflanayotgan mablag'larni kamaytirish kabi masalar ilgari suriladi. Bundan tashqari, yetishtirilayotgan mahsulotlarimiz dunyo yuzini ko'rishi hamda agrar eksportni yo'lga qo'yish orqali mamlakatimizda qishloq xo'jaligi o'rni yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin [1].

O'zbekiston hududidagi deyarli barcha ekinlar ildizi orqali oziqlantiriladi, shunday bo'lishiga qaramay hozirgi kunda o'simliklarni bargidan oziqlantirish orqali yuqori hosil olinmogda. O'simliklar ildizi hamma mikro va makro elementlarni yerdan tanaga yetkazib berolmaydi. Buning sabablari ko'p, masalan, yerni ishqorlilik darajasi, sho'rliigi, kislotaliligi va yana ba'zi elementlar o'simlikning o'zlashtirishiga qarshilik qiladi. Misol uchun azot yoki kaliy ko'payib ketsa, yerda bu $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ ni siqib chiqaradi, Ca o'simlik tomonidan o'zlashtirilmaydi. Mana shunday holatlarda o'simlik ildizi orqali hamma o'ziga kerakli bo'lgan makro va mikro elementlarni ololmaydi. Shunday holatlarni oldini olish uchun biz bargidan o'simlikni oziqlantirishimiz kerak. O'simlik barglarini hech bo'lmaganda har 10-14 kunda oziqlantirib turishimiz kerak va yana bir sabab o'simlikka biror element yetishmay qolsa bargdan oziqlantirishimiz mumkin. Bargdan oziq tanaga, ildizga va mevaga tez yetib boradi. Biz asosan, o'simlikka ildizdan o'g'it berayotganimizda fosfor, kaliy va azotdan foydalanamiz. Bargdan oziqlantirishimizda ham shu elementlardan foydalanamiz. Azot yoki kaliyni alohida berish yaxshi samara bermaydi, ya'ni biz azot, fosfor va kaliy elementlarini birgalikda qo'llashimiz kerak. Aksincha alohida foydalanish barg plastinkalaridan shu elementlar yaxshi o'tmaydi va uning ta'siri bilinmaydi [2].

Biz o'simliklarni bargdan oziqlantirishimizda har 10-15 kunda mayda suv zarrachalari shaklida berishimiz kerak va barg oldi, orqa va tana qismiga tegishi kerak. Boshqa usullarda qo'llash esa barglarga ko'p sepilishi natijasida kuyishga olib keladi. Bargdan oziqlantirishda berilayotgan mikro va makro elementlarning dozasi ildizdan beriladiganlarga nisbatan kamroq bo'lishi kerak. Ko'p berilsa o'simlikka zararli ta'sir ko'rsatadi. Barglardan o'g'itlash asosan hosildorlikning oshishi, kasallik va zararkunandalarga nisbatan yaxshi chidamliligi, qurg'oqchilikka chidamliligini


oshiyadi. Barglarga o'g'it purkash uchun eng yaxshi vaqt erta tong va kechki payt, namlik yuqori bo'lgan va to'liq turgor holatida, hujayralari suv bilan to'la bo'ladi. Aksincha, kunning issiq vaqtida purkash esa o'simliklarga salbiy ta'sir ko'rsatgan holda uni kuydirishiga olib keladi. O'simliklarni bargdan oziqlantirishimizda vaqt muhim hisoblanadi [3].

Yana shuni qo'shimcha qilishimiz kerakki, o'simliklarni bargdan oziqlantirishning bir qancha afzalliklari bor. Misol uchun biz ildizdan o'g'it berganimizda berilayotgan o'g'it tuproqqa ortiqcha solinsa uning sho'rlanish ehtimoli yuqori bo'ladi va bu tuproqning sho'rlanishiga olib keladi. Buning oldini olish maqsadida bargdan oziqlantirish yo'lga qo'yilmoqda va yaxshi samara bermoqda. Chunki hozirgi kunda dunyo bo'yicha sho'rlanish darajasi yuqori ko'rsatkichlarni qayd etmoqda, biz barglar orqali o'g'it qo'llasak sho'rlanishni ham birmuncha oldini olgan bo'lamiz. O'simliklarni bargdan oziqlantirishni ko'plab o'simliklarimizda sinab ko'rishimiz mumkin. Masalan, pomidor, bodring va boshqa o'simliklar. Pomidor os'imgini o'zimiz uy sharoitida barglaridan oziqlantirishimiz mumkin. Ya'ni 10 litr suv uchun bor-1-1,5g, yod-60 tomchi, karbamid(mochevina) -7-10 g, margansovka- 1 g, sut-200-250 g foydali hisoblanadi. O'simlikning chidamliliga va hosilning sifati va tez yetilishiga yordam beradi. Har bir qishloq xo'jaligi xodimi yoki dehqon bargdan o'simliklarni oziqlantirsa u faqatgina oilasiga emas butun mamlakatimiz qishloq xo'jaligi hosildorligiga o'z hissasini qo'shadi. Bizning mamlakatimizda asosan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari iqlimi nisbatan issiq va cho'l hududlari ko'pligi sababli, bundan tashqari sho'rlangan yerlar ham ko'payib borayotganligini oldini olish maqsadida bargdan oziqlantirish yo'lga qo'yilishi kerak. Erta bahordan pomidor ko'chatlari uy sharoitida ekila boshlaydi va uning hosilini yuqori qilish va daromad olish maqsadida o'simliklarni bargdan oziqlantirish kerak. Nafaqat ochiq maydonlardagi ekinlarga balki issiqxonalariga ekilgan o'simliklarga ham bargdan oziq berilsa tuproq muhiti yomonlashishini oldini olgan bo'lamiz [4].

Natija: Bargdan oziqlantirishda o'g'it miqdori alohida muhim ahamiyatga ega. Ya'ni yuqorida aytib o'tilganidek har bir o'g'itni(mineral va organik) ekin turiga va undagi o'zida bor makro va mikro elementlarni aniqlab so'ngra purkash orqali oziqlantirish ishlarini olib borsak bo'ladi. Pomidor o'simgini bargdan oziqlantirishimiz uchun avvalo ertagi pomidor ko'chatlari 10-12- aprelda ekiladi va qator oralari 70-90 sm, tup oralari 25-30 sm qilib har gektariga 50-74 mingtagacha ekish mumkin. Pomidor tuproq unumdorligiga va o'gitlarga talabchan ekin. Shuni hisobga olgan holda, ko'chatni bargdan oziqlantirishimiz uchun alohida e'tibor talab etadi. 2023-yil 15-aprelda tomorqa hududining 10 sotix maydoniga 500 ta pomidor ko'chati ekildi va ular bargdan oziqlantirildi. O'simlikni bargdan oziqlantirish uchun swiss growning sprayfet 239 nomli o'git qo'llanildi. Bu asosan o'simlik unib

chiqqandan keyin ya'ni o'simlik tanasi taxminan 20-25 sm bo'lib ko'zga ko'rinib qolgandan so'ng erta tongda barglarning turgorlik ya'ni hujayrasida suv ko'p vaqtda har 10-15 kunda qo'llaniladi, bundan ko'zlangan asosiy maqsad, tuproq sho'rlanishini oldini olish, barglar va o'simlik tanasini yaxshi rivojlanishi va o'simlik kasallikka kam chalinuvchan bo'lishidir.

1-rasm. Sprayfet 239 foizlarda ifodalanishi.



XULOSA

Bugungi kunda o'simliklarni bargidan oziqlantirish yo'lga qo'yilmoqda. Buning asosiy sababi tuproqning ekologik holati yomonlashuvini oldini olish va sho'rlanishga qarshi kurashishdir. Negaki, sho'rlanish nafaqat O'zbekiston hududida balki butun dunyo bo'yicha dolzarb muammoga aylanmoqda. Bundan tashqari, bargidan oziqlantirilgan o'simlik turli xildagi zararkunanda hasharotlarga hamda makro va mikro elementlar o'simlikning deyarli hamma qismiga yaxshi yetib boradi. Qo'shimcha qilib aytganda, o'simliklarni bargidan oziqlantirish hosilni yuqori bo'lishi va inson ehtiyojlarini qondirish hamda iqtisodiy tomondan daromad olishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-sonli <<2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida>> gi farmoni.
2. “Agrokimyo” fanidan amaliy mashg‘ulotlar: O‘quv qo‘llanma Buxoro - 2022
3. O‘SIMLIKSHUNOSLIK. k.x.f.n., N.Jumaev. 2006-yil

Internet manbasi.

1. Agroblog Abdullaev maslahatlari. [Супер универсал озука . Баргдан озиклантириш \(youtube.com\)](#) 2022-yil.

HUDUDLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Umarova Zevi Odilovna

Jizzax politexnika instituti

“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası katta o‘qituvchisi

zeboumarova1967@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimiz turizmning rivojlanishi unga ta'sir qiluvchi omillar, mamlakatimizda turizm borasida yaratilayotgan imkoniyatlar, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar turi va sifatini oshirish, shuningdek sohani rivojlantirish istiqbollari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, ichki turizm, ziyorat turizm, ziyorat odobi, turizm xizmatlarining eksporti, turizm bozori, turizm infratuzilmasi, turizm zonalari, turizm klasterlari, turoperatorlar, joylashtirish xizmatlari, turagentlar, oilaviy sayohat ta'tili.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА РЕГИОНОВ

Умарова Зеви Одилевна

Старший преподаватель кафедры «Экономика и менеджмент»

Джизакского политехнического института

zeboumarova1967@gmail.com

Аннотация: В нашей стране освещены факторы, влияющие на развитие туризма в нашей стране, возможности, созданные в сфере туризма в нашей стране, вид и качество услуг, предоставляемых населению, а также перспективы развития отрасли. статья.

Ключевые слова: Туризм, внутренний туризм, паломнический туризм, паломнический этикет, экспорт туристических услуг, туристический рынок, туристическая инфраструктура, туристические зоны, туристические кластеры, тuroператоры, услуги размещения, турагенты, семейный туристический отдых.

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF TOURISM OF THE REGIONS

Umarova Zevi Odilovna

Senior lecturer of the "Economics and Management" department of Jizzakh

Polytechnic Institute

zeboumarova1967@gmail.com

Abstract: *The factors affecting the development of tourism in our country, the opportunities created in the field of tourism in our country, the type and quality of services provided to the population, as well as the prospects for the development of the industry are highlighted in the article.*

Key words: *Tourism, domestic tourism, pilgrimage tourism, pilgrimage etiquette, export of tourism services, tourism market, tourism infrastructure, tourism zones, tourism clusters, tour operators, accommodation services, travel agents, family travel vacation.*

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal taraqqiyoti, xalqimiz turmush darajasining o‘zib borishi aholining zamonaviy xizmatlarga ehtiyojini oshirmoqda. O‘z navbatida, yalpi ichki mahsulot tarkibida ham mazkur tarmoqning ulushi yil sayin ortib bormoqda, Bunday sharoitda shahar va qishloqlarimizga aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar turi va sifatini oshirish, tizimda yangi ish o‘rinlari yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu hudud iqtisodiyotini rivojlantirish va aholi turmush farovonligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Turizm iqtisodiyotning strategik tarmog‘i sifatida mamlakat taraqqiyotini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Harakatlar strategiyasida mamlakatimizda turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirishga olib keladigan o‘rta muddatli istiqbolda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasiga asosan, shuningdek, 2017-2021 yillarda Konsepsiyani amalga oshirishga doir aniq chora-tadbirlar Dasturi ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022 yilning 19 sentyabr kuni mamlakatimizning ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida o‘tkazgan videoselekt yig‘ilishida Jizzax viloyat rahbariyatiga hududda xorijiy va mahalliy sayyohlar oqimini ko‘paytirish, xizmatlar doirasini kengaytirish, yangi turistik yo‘nalishlar joriy etish yuzasidan alohida topshiriq bergan edi. Shundan kelib chiqib, viloyatda turistik manzillarga xorijiy va mahalliy tashrif buyuruvchilarni olib borish bo‘yicha 5 kunlik marshrut (“Turistik halqa”) ishlab chiqilgan.

Natijada viloyatga 2022 yilda 13 ming nafar, "E-mehmon" va "Over" dasturlari ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda 144,2 ming nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurdi. Shuningdek, 2023 yilda viloyatga 1 mln. 176 ming nafar mahalliy sayyoh tashrifi qayd etildi. Jizzax viloyatida xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish borasida o'lgan imkoniyatlar ham mavjudki, bugun ulardan samarali foydalanish davr talabidir. O'tgan yil davomida viloyatimiz hududida 11 ta turkompaniya o'z faoliyatini boshlab, 20 ta yangi turmarshrutlar ishlab chiqilib, bularning soni 28 taga etdi. Shuningdek, sayyohlarga viloyatdagi 28 ta turoperator, 12 ta gid-tarjimon sinfga mansub avtobus va mikroavtobus xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Viloyatimizda turizm istiqbolini belgilash, 2024 yilda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan rejalar belgilanib, joriy yilda 35 ta yangi joylashtirish vositalari (3 ta mehmonxona, 10 ta xostel va 22 ta oilaviy mehmon uylari) tashkil etiladi va ularning umumiy soni 300 taga, o'rinlar soni 8 mingtaga, turoperatorlar sonini 35 taga etkazish, 5 ta gid-ekskursavodlarni sertifikatlash orqali ularning sonini 25 taga etkazish maqsadi qo'yilgan. Bundan tashqari Zomin tumanidagi "Suffa platosi 2400" halqaro umum mavsumiy kurortida 120 o'rinli 3 ta mehmonxona, 600 o'rinli restoran, uzunligi 200 metr bo'lgan osma ko'pri va 50 o'rinli zamonaviy avtoturargoh qurib foydalanishga topshirilishi hisobiga yiliga qo'shimcha 100 ming sayyoh jalb qilinadi. Zomin, Forish, Baxmal, Sharof Rashidov va G'allaorol tumanlarida ekoturizmni rivojlantirish va tashrif buyuruvchilar uchun 5 ta xostel va 10 ta oilaviy mehmon uylari tashkil etiladi.

Forish tumanidagi O'xum qishlog'i, Baxmal tumanidagi O'rmonchi va Jumasoy qishloqlarida etno qishloq tashkil qilindi va tashrif buyuruvchi turistlar soni 3-4 barobadga oshiriladi, ularning qolish kunlari 3-5 kungacha uzaytiriladi.

O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, turizm sohasi vakillari, turizm agenti, yo'riqchi-yo'l boshlovchi va gid (gid-tarjimon)lar tomonidan ziyorat odobiga rioya qilgan holda faoliyat olib borishi, tarixiy ma'lumotlarni to'g'ri talqin qilishi, turistlarni keng jalb qilib borish maqsadida xalqaro va ichki bozorni mutassil tahlil qilish, faol targ'ibot va reklama ishlarini olib borish, turizm sohasida kadrlar etishmasligi va ularning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida, turizm sohasida kadrlar tayyorlaydigan davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining sonini oshirish, ta'limning xalqaro standartlarini tadbiq etish va xalqaro mutaxassislarni jalb qilish, amaliy va nazariy darslarning nisbatini ko'rib chiqish, amaliyot bilan integratsiyani keng yo'lga qo'yish talab qilinadi. Umuman olganda yuqoridagi ishlarning amalga oshirilishi O'zbekistonda turizmni nafaqat ichki va ziyorat turlarini balki boshqa turlarini rivojlantirish, jahon turizm bozorida o'z mavqeini tiklashga olib keladi.

Hulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, sayyohlik dunyo iqtisodining jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa ko'plab mamlakatlar uchun katta daromad manbaiga aylanib bormoqda. Biz turizm bozorida mustahkam o'z o'rnimizga ega bo'lishimiz uchun kecha qilingan ishlarimiz haqida emas, bugun yaratadigan yangiliklar haqida kshproq bosh qotirishimiz zarur. Zero, turist ham investor u sarflagan mablag'lar yurtimiz taraqqiyoti uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 apreldagi "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-232-son Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 09 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son Farmoni.

4. Umarova, Z.O. (2020). BUSINESS OPPORTUNITY FOR TOURISM DEVELOPMENT. *Экономика и социум*, (10), 275-278.

5. Обидова, Ф.Я. (2023). УПРАВЛЕНИЕ СИСТЕМОЙ КАЧЕСТВА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ. *Экономика и социум*, (11 (114)-1), 929-932.

6. Odilovna, U. Z., & Alexandrovich, A. A. (2024). ECONOMIC AND LEGISLATIVE CORNERSTONES OF INVESTMENT POLICY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 87-90.

7. Umarova, Z. O., & qizi Nurboyeva, Z. Y. (2024). IQTISODIY RIVOJLANISH SHAROITIDA INNOVATSION LOYIHALARNI BOSHQARISH. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(1), 108-113.

8. Umarova, Z. O., & Obidova, F. Y. (2023). GLOBALLASHUV SHAROITIDA INNOVATSION LOYIHALARNI BOSHQARISH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(3), 203-207.

9. Obidova, F. Y., & Umarova, Z. O. (2023). BOSHQARUV FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDA KADRLARNING GENDER TENGLIGI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(3), 208-215.

ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIDAGI O'RNI

Obidova Feruza Yaxyoevna

Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasida dotsenti

obidova.feruza@bk.ru

***Annotatsiya:** Maqolada investitsiya faoliyati bo'yicha qabul qilingan me'yoriy hujjatlarning qonunchilik bazasini mustahkamlashga ta'siri, investitsiya dasturi, iqtisodiyotga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyagarni jalb etish amaliyoti tahlili keltirilgan. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishdagi roli yoritilgan, shuningdek investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar faol jalb qilishga qaratilgan taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.*

***Tayanch so'zlar:** Erkin iqtisodiy hududlar, xorijiy investitsiyalari, asosiy kapital, investitsiya muhiti, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, imtiyozlar, yalpi ichki mahsulot, eksport, import, chet el investitsiya ishtirokidagi korxonalar.*

РОЛЬ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В ЭКОНОМИКЕ НАШЕЙ СТРАНЫ

Обидова Феруза Яхеевна

Доцент кафедры «Экономика и менеджмент»

Джизакского политехнического института

obidova.feruza@bk.ru

***Аннотация:** В статье представлен анализ влияния принятых нормативных документов на укрепление законодательной базы, инвестиционной программы и практики привлечения прямых инвесторов, участвующих в экономике. Была подчеркнута его роль в развитии экономики Узбекистана, а также сформулированы предложения и рекомендации, направленные на повышение привлекательности инвестиционной среды и активное привлечение прямых иностранных инвестиций.*

***Ключевые слова:** Свободные экономические зоны, иностранные инвестиции, основной капитал, инвестиционный климат, прямые иностранные инвестиции, льготы, валовой внутренний продукт, экспорт, импорт, предприятия с иностранными инвестициями.*

THE ROLE OF FREE ECONOMIC ZONES IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY

Obidova Feruza Yakhyoevna

Associate Professor of the "Economics and Management"

Department of Jizzakh Polytechnic Institute

obidova.feruza@bk.ru

Abstract: *The article presents an analysis of the impact of the adopted regulatory documents on the strengthening of the legal framework, the investment program, and the practice of attracting direct investors involved in the economy. Its role in the development of the economy of Uzbekistan was highlighted, as well as suggestions and recommendations aimed at increasing the attractiveness of the investment environment and actively attracting foreign direct investments were formulated.*

Key words: *Free economic zones, foreign investments, fixed capital, investment climate, foreign direct investments, benefits, gross domestic product, export, import, enterprises with foreign investment.*

Bugungi kunning ustuvor vazifalardan biri keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish borasidagi istiqbolli maqsadlarimizni amalga oshirishda hududlarning mutanosib rivojlanishini ta’minlash, ularning ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Erkin iqtisodiy hududlar (EIH) dunyoning ko‘plab mamlakatlarida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va sanoat rivojlanishini rag‘batlantirishning mashhur vositasi bo‘lib kelgan. O‘zbekiston EIHlar salohiyatini e’tirof etib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida mamlakat bo‘ylab bir nechta shunday hududlar tashkil etdi. Mamlakatimiz hududlarining ishlab chiqarish, resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta’minlash, transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarning alohida o‘rni bor.

Davlatimiz rahbarining “Maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori erkin iqtisodiy zonalar hududida investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida ishga tushirishga to‘sqinlik qilayotgan muammolarning yechimiga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

2023 yilda jami 25 gektar er maydonida yangi tashkil etilishi rejalashtirilgan kichik sanoat zonalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan

ta'minlash tadbirlarining manzilli dasturi ishlab chiqilib bunda, tasdiqlanayotgan dastur bo'yicha bosh reja loyihalarini ishlab chiqish Jizzax viloyati mahalliy byudjeti va Jizzax viloyati hokimligi huzuridagi Tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Unga muvofiq, joriy yilda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini infratuzilmasini yaxshilash uchun 1 trillion 600 milliard so'm mablag' ajratilishi belgilandi. Endilikda 17 ta erkin iqtisodiy zonada qo'shimcha elektr energiyasi, gaz, ichimlik suvi va oqova suv tarmoqlari hamda avtomobil yo'llarini barpo etish uchun 584 milliard so'm, 145 ta kichik sanoat zonasi uchun 395 milliard so'm yo'naltirilgan bo'lib, yirik investitsiya loyihalarini infratuzilma bilan ta'minlash maqsadida 232 milliard so'm ko'zda tutilgani, rivojlanishdan ortda qolgan 33 ta tumanda sanoat va biznesni jadal rivojlantirish uchun 264 milliard so'm ajratilishi ayni muddao bo'ldi. Erkin iqtisodiy zonalarda umumiy qiymati 1,1 milliard dollar bo'lgan 332 ta loyiha, kichik sanoat zonalarida umumiy qiymati 9,5 trillion so'm bo'lgan 1 ming 800 ta loyiha ishga tushirilishi rejalashtirilgani yurtimizda sanoatni yanada rivojlantirish, import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishda muhim omildir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga murojatnomasida, mamlakatimizda mavjud resurslardan nooqilona foydalanish Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi va rentabelligi yuzaki o'rganilgani, moliyaviy manbalarning noaniqligi, loyihalar tanlashda shaffoflikning yo'qligi, moliyaviy mablag'larni samarasiz sarflash holatlari bilan bog'liq qator kamchiliklar yurtimiz iqtisodiyoti rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan edi. Ushbu holatlar investitsiya dasturlarini shakllantirish tartibi, uni moliyalashtirish mexanizmlarini tubdan qayta ko'rib chiqish, bunday noxush amaliyotga barham berish hamda investitsiyalarni iqtisodiyotning real sektoriga jalb qilish, loyihalarni shakllantirishning butunlay yangi mexanizmlarni joriy etish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi tashkil qilingani, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, hukumatimiz huzurida Investitsiyalar, innovatsion rivojlantirish, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini faoliyatini muvofiqlashtirish, turizm masalalari kompleksi tuzilgani dastlabki qadam sifatida diqqatga molikdir. Rivojlanish davlat dasturlarini amalga oshirish respublikamiz iqtisodiy o'sishi, xalq farovonligi, investitsiyaviy jozibadorligini oshirish bilan birga, real yangi ish o'rinlarini tashkil qilish hamda yalpi ichki mahsulot o'sishini ta'minlashda asosiy manba hisoblanadi. Chunki ushbu loyihalar har tomonlama puxta o'rganilgan, samarali, moliyalashtirish manbalari aniq bo'lgan va maxsus davlat komissiyasi tomonidan nazoratga olib boriladigan davlat dasturlari sanaladi.

Investitsiya faoliyati har qanday tizimda ham mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanayotganlik darajasini ifoda etadi. Iqtisodiyotni investitsiyalashga jalb etilayotgan mablag'lar, xususan, chet el investitsiyalarining salmog'iga qarab ham mamlakatning iqtisodiy qudratiga baho berish mumkin. Mamlakatimizda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lmish sanoat tarmog'ni barqaror rivojlanishini ta'minlash, ulardagi iqtisodiyotning boshqa sohalari bilan bog'liq muammolarni kompleks hal etish, sanoat korxonalarining ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish va yanada yuksaltirish maqsadida hukumatimiz tomonidan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra "Jizzax" erkin iqtisodiy zonasida 27 ta loyiha amalga oshirilib, 5 ming 300 ga ya'qin ish y'ni yaratilgan. Oxirgi yillarda uning faoliyati takomillashtirilib, biznesga qulaylik kengaytirilgan. 2022 yil oktyabr oyida ishga tushgan "Iruskon" qandolat korxonasi o'z faoliyatini boshlab, Rossiya, Turkiya, Germaniya va Italiya tajribasi asosida "Deya" brendi bilan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Yillik quvvati 12 ming tonna bo'lib, 100 ga yaqin kishi ish bilan ta'minlangan. Kelgusida ikkinchi bosqich uchun Germaniya va Turkiyadan yana 5 million dollarlik uskunalar olib kelish rejalashtirilgan. Buning natijasida yana 550 nafar yangi ish o'rni yaratiladi.

Shuningdek, davlat byudjeti va byudjedtan tashqari jamg'armalar, tiklanish va taraqqiyot jamqarmasi mablag'lari, hukumat kafolatlagan kreditlar hisobidan tovarlarni davlat uchun xarid qilish bo'yicha tender hujjatlari va import shartnomalarini ekspertiza qilishda ham to'lanmaydi. Dastlabki va yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarni kompleks ekspertiza qilish uchun to'lanadigan to'lov miqdori to'rt barobargacha qisqartirildi.

Bundan tashqari, halqaro moliya institutlarining kreditlari hisobiga amalga oshiriladigan yoki bir bosqichli loyihalar bo'yicha moliyaviy-iqtisodiy hisobot ishlab chiqish talabi bekor qilindi.

2023-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 4 388 tani tashkil etdi. Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 3 841 ta, oilaviy korxonalar 274 ta, xususiy korxonalar 69 tani tashkil etgan.

Davlat investitsiya dasturi orqali moliyalashtirilayotgan loyihalarning samaradorligini oshirish maqsadida davlat investitsiya dasturini ishlab chiqishda bevosita xorijiy investitsiyalar hamda hukumat kafolatisiz kirib kelayotgan halqaro moliyaviy institutlar resurslari bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha risklarni minimallashtirish masalalarini har tomonlama o'rganish zarur va bu jarayonlarga ham chuqur marketing tadqiqotlarini tadbiiq etish lozim.

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, milliy iqtisodiyotda har bir soha va tarmoqning har tomonlama mukammal ravishda rivojlanishi, uning huquqiy va iqtisodiy-ijtimoiy hamda tashkiliy jihatlarining ta'minlanishi bevosita olib borilayotgan islohotlarning jadallashuvi va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabrda "Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-son Qonuni, 3-modda.

3. Умарова З. О., Обидова Ф. Я. ЗНАЧЕНИЕ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2019. – №. 2-6. – С. 53-57.

4. Обидова Ф. Я., Умарова З. О. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬ-КАК ЛИДЕР //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2019. – №. 2-6. – С. 50-52.

5. Yahyoeyevna, O. F., & Tatulovna, Z. M. (2024). ISSUES OF PROVIDING ECONOMIC STABILITY UNDER THE INFLUENCE OF FACTORS OF SAVING. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 374-379.

6. Обидова, Ф. Я. (2023). УПРАВЛЕНИЕ СИСТЕМОЙ КАЧЕСТВА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ. *Экономика и социум*, (11 (114)-1), 929-932.

7. Umarova, Z. O., & Obidova, F. Y. (2019). SIGNIFICANCE OF FREE ECONOMIC ZONES IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY. *Actual scientific research in the modern world*, (2-6), 53.

TEACHING FINE ARTS IN THE CONDITIONS OF EDUCATION MODERNIZATION

Scientific adviser: **Daminov A.T**

Assistant of the Department of Endocrinology, Samarkand State Medical University

¹ **Uktamova Marjona Umidbekovna**, ² **Kosimova Nafisa Muhitdinovna**

¹ student of 201-group, Uzbek - Finnish Pedagogical Institute

² student of S01-23-group, Samarkand Institute of Agro-innovations and studies

Annotation. *The modernization of art and pedagogical education introduced first-generation standards, pre-profile and specialized training, changed the teaching paradigm, approaches, content and methods of teaching fine arts at school [5]. To implement the planned reforms in education, it is necessary to raise the training of future art teachers to a qualitatively new level. Traditionally, art and pedagogical universities in the country are engaged in the education and training of future art teachers. But practice has shown that they pay little attention to the study of graphics, design, fonts, modern printing, advertising, animation, photography, synthesis of arts in architecture, theater and cinema, which are in the new 2020 school standard for fine arts [7]. The state educational standard for higher professional education in the specialty “Fine Arts” does not coincide with the 2018 school standard for fine arts for grades 1-9 [7. pp. 20-24]. As a result, the continuity of artistic education at different levels is disrupted, and therefore university graduates find themselves unprepared for the implementation of the school standard. The situation is aggravated by the lack of school textbooks, educational and methodological kits, theoretical and visual material on fine arts for grades 5-9 (not yet published in 2020). A way out of this situation is offered by the system of advanced training for education workers. Traditionally, it is designed to fulfill the social order of the state, fill the gaps in basic education and familiarize teachers with changes in standards.*

Target: The goal of the advanced training system is “the training and retraining of a qualified worker of the appropriate level and profile, competitive in the labor market, competent, responsible, fluent in his profession and capable of effective work in his specialty at the level of world standards” [2. P. 19]. In the context of modernization of education, the modern system of advanced training has become more mobile, technologically advanced, and quickly responds to changing socio-economic and information technology conditions. She is open, variable in the choice of content

and forms of training, and active in testing and implementing innovations in practice. There are no standards in the postgraduate education system, therefore the Samarkand Institute for Educational Development (IED) independently develops original programs for advanced training courses for fine arts teachers, ensuring the introduction of modern pedagogical technologies and the State Standard. Difficulties in teaching fine arts in the city of Samarkand and the region are associated with the lack of qualified teaching staff. Only 25% are specialist teachers, and 75% are non-specialists who do not know how to draw, do not know the methods of teaching art, do not know how to independently prepare for a lesson, communicate with children and analyze works of art. Many of them teach at school, in addition to fine arts, up to 10 academic subjects per year (results of a survey of students of IRO courses and certification of Samarkand schools) [1]. About 27% are retired teachers who have outdated knowledge, low motivation and learning ability, which extremely hinders innovations in education. The active development of art in a modern school today is faced with outdated theoretical knowledge and the lack of development of relevant professional skills among art teachers. The basic curriculum (BUP) of 1998 provides for the study of fine arts in grades 1-8, and the BUP 2018 - in grades 1-9. But in Samarkand and the region, until 2020, fine art classes were held only in grades 1-7, and in grades 8-9 they were replaced by the study of world artistic culture, drawing or other academic subjects, and various school events. Therefore, in the Samarkand region there has been a tendency to turn the academic subject "Fine Arts" into elective classes, where anyone can become a teacher. With this approach, there is a serious danger of losing the unified artistic and cultural space of ancient Samarkand, when the majority of students may find themselves outside of its artistic traditions and great cultural and historical heritage. To solve the problems that arose in teaching fine arts in the Samarkand region, we studied the experience of training, retraining and advanced training of fine arts teachers at the Moscow Academy for Advanced Training and Professional Retraining of Education Workers (APKiPRO), the Tashkent Regional Institute for Advanced Training of Teachers (SOIUU), Samarkand Regional Institute for Advanced Training of Education Workers (KOIPKRO). The Tashkent APKiPRO conducted advanced training courses jointly for art and music teachers according to the author's program of A.M. Turakulov. "Theory and methods of teaching art subjects: music, fine arts. 2010" volume 192 hours. This author's program consists of the following sections: 1) "Methodology of art education"; 2) "Scientific and methodological foundations of art education for schoolchildren"; 3) "Diagnostics and certification of schoolchildren" [8]. In 2006, the Moscow APKiPRO conducted advanced training courses for fine arts teachers, IPK and IRO methodologists according to the original program of A.M. Turakulov. "Pre-profile preparation and specialized training of schoolchildren in the

